

67
Mahbuba XAMIDOVA

O'ZBEKISTON DAVLATI
VA HUQUQI TARIXI

O'quv qo'llanma

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI**

Mahbuba XAMIDOVA

**O‘ZBEKISTON DAVLATI
VA HUQUQI TARIXI**

O‘quv qo‘llanma

3110



M.Xamidova. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi/ Mas'ul muharrir: H.B.Boboyev. –T.: TDYI nashriyoti. 2005. – 183 bet.

Mas'ul muharrir: H.B.Boboyev

yuridik fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: M.M.Fayziyev

yuridik fanlari doktori, professor

F.A.Muxitdinova

yuridik fanlari nomzodi

Ushbu qo'llanmada O'zbekiston Respublikasida davlatchilik va huquqning paydo bo'lishi tarixi, ya'ni qadimgi Turon hududida davlat va huquqning paydo bo'lishi, eng qadimgi huquqiy manbalar "Avesto", "Sug'd" hujjatlari haqida, O'rta asrlarda Movarounnahr davlati va huquqi tarixi, musulmon huquqining asosiy xususiyatlari, ahamiyati va manbalari, Temur va temuriylar imperiyasi davlati va huquqi tarixi, Shayboniylar dinastiyasi hukmronligi davrida Movarounnahr va Xuroson hududida davlat va huquq haqida, yangi davrda Turkiston o'lkasi davlati va huquqining rivojlanishi, Qo'qon muxtoriyati, Turkiston, Xorazm va Buxoro respublikalari, ularning ijtimoiy-siyosiy tuzumi shuningdek, XX asrning 20-80-yillaridagi O'zbekiston davlati va huquqi tadrijiy ketma-ketlikda bayon qilingan.

Qo'llanma yurisprudensiya yo'nalishi bakalavr bosqichi talabalari, davlat va huquq tarixi bilan shug'ullanuvchilar uchun mo'ljallangan.

Muqaddima

XX asrning eng muhim tarixiy-jahonshumul voqealaridan biri, bu mustaqil O‘zbekiston davlatining tashkil topishidir. Bu yangi mustaqil O‘zbekiston davlati fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishdek oliy maqsad sari intilmoqda. Bu borada “O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi” fani qadimgi Turon zaminida davlatchilik va huquqning paydo bo‘lishi boy tarixini o‘rganish, tahlil qilish va davlatchilik-huquqiy merosini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo‘ldiki, biz bosib o‘tgan yo‘limizni tanqidiy baholab, davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk ma’naviyatimiz tomirlariga, qadimiy merosiga qaytib, o‘tmishimizdagi boy an’analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog‘imiz kerak¹” – deb ta’kidlaydi yurtboshimiz I.A.Karimov.

Qo‘llanmaning asosiy vazifasi, O‘zbekiston Respublikasida davlatchilik va huquqning paydo bo‘lishi boy tarixini, ya’ni qadimgi Turon hududida davlat va huquqning paydo bo‘lishi, o‘rta asrlarda Movarounnahr davlati va huquqi tarixi, yangi davrda davlat va huquqning rivojlanish tarixni ilmiy bilish, milliy davlatchiligimiz ildizlari, xalqimizning qadimgi an’ana hamda urf-odatlariga, mentalitetiga tayangan holda chuqur o‘rganish, ilmiy – nazariy va amaliy umumlashtirish, erkin millat hamda obod mamlakat istiqboli yo‘lida xizmat qilishdan iborat.

Zero, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, "Insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish, adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishda milliy tarixiy davlatchilik tajribasiga, xalqimizning azaliy boy ma’naviy-axloqiy, ruhiy an’analariga, siyosiy-huquqiy g‘oyalari tayanishimiz lozim²".

Qo‘llanmada qadimgi Turon davlati va huquqining paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi, eng qadimgi huquq manbalari "Avesto", "So‘g‘d", o‘rta asrlarda Movarounnahr davlati va huquqi (XIII asrgacha), musulmon huquqining asosiy xususiyatlari, ahamiyati va manbalari, Temur va temuriylar imperiyasida davlat va huquq (XIV-XV asrlar), Shayboniylar dinastiyasi hukmronligi davrida Movoraunnahr va Xuroson hududida davlat va huquq, xonliklarning tashkil topishi (XV-XIX asrning 1-yarmi), Chor Rossiyasi hukmronligi davrida davlat va huquq, Turkiston o‘lkasida bolsheviklar hokimiyatining o‘rnatilishi, O‘zbekistonning 1920-1980-

¹ Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.: "O‘zbekiston". 1995. 9-b.

² Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: "O‘zbekiston". 1998. – 31-b.

yillardagi davlati va huquqi, Mustaqil O'zbekiston davlati va huquqi tarixi tadrijiy tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan dastur asosida yoritilgan.

Qo'llanmani yozishda respublikamiz huquqshunos, tarixchi olimlari tomonidan tayyorlangan darslik, o'quv qo'llanma va boshqa adabiyotlardan keng foydalanildi.

O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi–tarixiy-huquqiy fan

Reja:

- 1. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi fanining predmeti, vazifasi va ahamiyati.**
- 2. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi fanining ijtimoiy-huquqiy fanlar tizimida tutgan o‘rni.**
- 3. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi fanining uslublari.**
- 4. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi fanining davriyligi muammolari va manbalari.**

Har bir millat, har bir davlatning o‘z tarixi bor, jumladan, O‘zbekiston ham o‘zining ko‘hna va boy tarixiga ega bo‘lgan mustaqil davlatdir.

Yurtboshimiz ta’kidlab o‘tganidek, “O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi... tarix saboqlari insonni hushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Inson uchun tarixdan judo bo‘lish, hayotdan judo bo‘lish demakdir”.

Shunday ekan, O‘zbekiston davlati va huquqi tarixini bilish, avvalo, hozirgi mustaqil davlatchiligimiz va huquqimiz rivojlanishi uchun asosiy vosita, kuch hisoblanadi.

Mustaqil O‘zbekiston davlati va huquqining paydo bo‘lishi va rivojlanishida O‘zbekiston davlati huquqi tarixini, ularning qanday kelib chiqqanligi, o‘z rivojlanishida qanday bosqichlarni bosib o‘tganligi, ularning paydo bo‘lishiga, tashkil topishiga va rivojlanishiga qanday sabablar ta’sir ko‘rsatganligini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu fanning asosiy vazifasi O‘zbekiston hududidagi qadimgi davlatlardan to hozirgi kungacha mavjud bo‘lgan davlat va ularning huquqlari rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini alohida davlatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini olishdan iborat.

Tarixshunos olim A.Ibrohimovning fikricha, “O‘zbek xalqi jahon xalqlari orasida birinchilardan bo‘lib, turkiy xalqlar o‘rtasida birinchi bo‘lib, o‘troqlashgan, madaniy turmush kechiruvchi jahon sivilizatsiyasiga hissa qo‘shgan millat”...

Haqiqatdan ham turkiy xalqlar, ularning o‘zagini tashkil qilgan o‘zbek xalqi o‘zining boy madaniy-ma’naviy merosiga ega. Bu xalq orasidan yetishib chiqqan alloma, mutafakkirlarning boy ilmiy merosida milliy davlatchiligimiz tarixiy asoslari, g‘oyalari yozilgan.

Ushbu fan Vatanimiz hududida tashkil topgan barcha davlatlarning davlati va huquqi tarixi, shuningdek alohida o'ziga xos bo'lgan davlatlarning davlati va huquqini o'rgatadi.

Mazkur fan umumiy tarix fanidan farqli o'laroq, jamiyatni to'la butunligicha o'rganmaydi, balki davlat va yuridik muassasalari murakkab tizimining tarixiy rivojlanish jarayonini hamda huquqi, ularning alohida sohalari va institutlarining kelib chiqishi, taraqqiy etish jarayonini o'rganadi.

O'zbekiston davlati va huquqi tarixi fani O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan davlat va huquq masalalarini, ularning ma'lum rivojlanish bosqichidagi ko'rinishlari, shakllarini o'rganar ekan, ko'plab dalillarga, davlatlar, tabaqalar va boshqa vositalarga tayanadi, ularga ilmiy-tarixiy, nazariy jihatdan asoslanadi. Shu bilan birga davlat va huquqning tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashni asosiy vazifa qilib qo'yadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston davlati va huquqi tarixi fani barcha tarixiy jarayonlarni o'zida mujassam etgan fan bo'lib, jamiyat tarixi bilan uzviy bog'liq. Jamiyatdan tashqari davlat va huquq bo'lmaganidek, davlat va huquqning undan ajratilgan, holda alohida, tarixning bo'lishi mumkin emas, chunki davlat va huquq jamiyatning mahsuli o'zi kashf etgan siyosiy tashkiloti hamda unga xizmat qiluvchi qoidalar to'plamidir.

O'zbekiston davlati va huquqi tarixi fani jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy ravishda mamlakatimiz hududida qadimdan to shu kungacha bo'lgan turli davlatlarning huquqiy tizimlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganadi.

O'zbekiston davlati va huquqi tarixi fanining vazifasi hozirgi O'zbekiston ko'hna Turon doirasida tashkil topgan qadim davlatlarning ijtimoiy-siyosiy tuzumi hamda huquqiy masalalari haqida bilim berish, (Xorazm, qadimgi Baqtriya, So'g'd) qadimgi davlatlar (mil.avv. IV asr milodiy IV asr) Xorazm, Qang', Farg'ona (Dovon); ilk (V-VIII asr) va rivojlangan (VIII-XIII asr boshlari) O'rta asrlarda o'zbek davlatchiligi, Temur va temuriylar davri (XIV asr o'rtalari XV asr) davlati va huquqi; XVI-XIX asr boshlaridagi davlatchilik; Chor Rossiyasi davrdagi davlatchiligimiz tarixi va huquqi haqida bilimlar berish; o'zbek davlatchiligi va qonunchiligi tarixiga oid manbalar :“Avesto”, “Qur'oni karim”, “Zafarnoma”, Gerodot, Ktesiy, Rim, Xitoy, Yunon tarixchilarining ma'lumotlari asosida nazariy bilimlar berishdan iborat.

Shuningdek, ushbu fan bugungi kunda O'zbekiston davlati va uning amalda bo'lgan huquq tizimlarining o'ziga xos xususiyatlarini yangi huquq

institutlari faoliyatini anglash, ular haqidagi nazariy bilimlar berish bilan birga bo'lajak huquqshunoslarda davlat va huquq tarixini yangicha tahlil qilishga, ularning eng qadimgi davrdan to shu kungacha bo'lgan taraqqiyoti tarixiy yaxlit uzviylikda tushuntira bera olish malakasini shakllantirishni asosiy vazifa qilib oladi.

O'zbekiston davlati va huquqi tarixi fani ijtimoiy fan bo'lib, davlatchilik tarixini va huquqini o'rganadi, shuning uchun ham bu fan yuridik fanlar qatori tarixiy-huquqiy fan hisoblanadi. Bu fan davlat va huquq tarixini keng, tarixiy va daliliy manbalarga asoslanib, tahlil qilib, davlat va huquqning vujudga kelishini; birin-ketin rivojlanishini, ularning sabablarini, mohiyatini, mazmun va shakllarini turli rivojlanish bosqichida davlat va huquq sohalarining mohiyatini ochib beradi. Mazkur fan yuridik va ijtimoiy fanlar bilan o'zaro bog'liq va aloqador. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi fani xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi fani bilan chambarchas bog'liq. Bularning har ikkisi ham tarixiy-huquqiy fan oldida turgan vazifalarni hal qilishda o'zaro qiyoslash, taqqoslash bilan birga hal qiladi, lekin o'rganadigan masalalari doirasida bir-biridan farq qiladi.

Shuningdek O'zbekiston davlati va huquqi tarixi fani davlat va huquq nazariyasi fani bilan ham uzviy bog'liq. Davlat va huquq nazariyasi fani davlat va huquqni rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Davlat va huquq tushunchalari toifalarini tizimini ishlab chiqadi, bu tushunchalar esa mazkur fanda keng o'rganiladi.

O'zbekiston davlati va huquqi tarixi fani siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi fani bilan ham o'zaro aloqador. Zero, siyosiy-huquqiy ta'limotlar tarixi qadim zamonlardan to hozirgi kunga qadar mavjud bo'lgan davlat va huquq haqidagi g'oyalar taraqqiyotini o'rganar ekan, bunda davlat va huquqiy ta'limotlarning kelib chiqishi va rivojlanishi, ijtimoiy samaradorligini tarixiy va xronologik tarzda o'rganadi.

O'zbekiston davlati va huquqi tarixi fani boshqa ijtimoiy fanlar umumiy tarix, falsafa, iqtisod nazariyasi, mantiq kabi fanlar bilan uzviy bog'langan.

O'zbekiston davlati va huquqi tarixi fanini ham o'ziga xos o'rganish usullariga ega. Ushbu usullar orqali muayyan-tarixiy davlatning huquqiy hodisalarini, keng ma'noda tarixiy-huquqiy fanning poydevori hisoblangan tarixiy faktlarni bilish vositalari, usullari qo'llab chiqiladi.

Fanlar uchun umumiy ilmiy bo'lgan analiz va sintez, induksiya va deduksiya, analogiya, mantiqiylik va tarixiylik, mavhumlikdan aniqlikka borish va boshqa umumiy usullar ushbu fan uchun taalluqlidir.

Yuqoridagi usullar bevosita dialektik usul bilan bog'langan. Dialektik usul real olamni ilmiy bilishning eng umumiy usuli bo'lib, barcha fanlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Davlat va huquq rivojlanadi, o'zgaradi bir shakldan ikkinchi shaklga o'tadi bu dialektik usuldir.

Dialektika hodisalarni rivojlanishida, boshqa hodisalar bilan aloqadorlikda, bir-biri bilan bog'liq holda, harakatda miqdoriy va sifat o'zgarishida olib qaraydi. U real mavjud, muayyan vaziyatda, muayyan vaqtda va hududda vujudga kelgan. Ularni tushunish uchun ularni vujudga keltirgan sharoitni, mavjud bo'lgan va yashayotgan davrni o'rganish lozim.

O'rganishni analiz (tahlil qilish) usulida davlat va huquq tarixida yuz bergan voqea, hodisa, jarayonlarni tarkibiy qismlarga fikran ajratish, bu tarkibiy qismlarning mazkur hodisadagi voqeadagi, jarayondagi o'rnini belgilash, hal qiluvchi darajalarga ajratish o'rganiladi. Tarkibiy qismlarni sintez qilish (umumlashtirish) uchun analiz qilinadi. Turli davrda davlat va huquqni kelib chiqishi va rivojlanishi xilma-xil xususiyatlarga ega. Murakkab bo'lgan davlat va huquq tarixi hodisalarini o'rganish va bilish, ular to'g'risidagi tushunchalarni chuqurlashtirish uchun davlat va huquqning tarixini alohida-alohida tarkibiy qismlarga ajratib analiz qilish zarur bo'ladi.

Alohida bir davlat va huquqning kelib chiqishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq o'rganish uchun sintez usulidan foydalaniladi.

Sintez- davlat va huquq tarixida yuz berayotgan voqea-hodisalarni jarayonlarning qismlarini, tomonlarini fikran birlashtirish asosida yangi bilimlarga, ya'ni yangilikka xos umumiy xususiyatlarni va alohida davlatlardagi o'ziga xos xususiyatini o'rganadi.

Analiz jarayoni bilishning tayyorgarlik ko'rish bosqichi hisoblansa, sintez uni yakunlaydi. Analiz va sintez natijasida davlat va huquq tarixi bo'yicha umumiy tushuncha, muhokamalar tarkib topib, ular yordamida davlat va huquq rivojlanishining o'ziga xos va umumiy sifatleri va qonuniyatlari aniqlanadi, shakllanadi.

Analogiya usulida davlat va huquq rivojlanishining turli davlatlardagi biror xususiyatlarning o'xshashligi o'rganiladi. Analogiyada ikki yoki bir necha davlatning ayrim olingan davrda, turli rivojlanish bosqichlaridagi davlati va huquqi rivojlanishining o'xshash xususiyatlari o'rganiladi.

Tarixiylik metodi – davlat va huquqning kelib chiqishi va uning rivojlanib borishi aniq vaqtini, davrini bilish usulidir. Har bir davlat huquqiy hodisani tarixiy nuqtai nazardan aniq tajribaga asoslanib o‘rganadi. Tarixiylik usulining o‘ziga xos xususiyati tarixiy harakatni uning butun boyligi bilan payqab olishga intilishidir. Umuman olganda tarixiy metod - davlat va huquqning tarixiy rivojlanishidagi turli bosqichlarni xronologik izchilikda o‘rganishni taqozo etadi.

Mantiqiylik usuli predmetning nazariy shaklda tadqiq qilish usuli hisoblanadi. U tadqiqot obyektining eng muhim aloqalarini bilib olishga imkon beradi.

Mantiqiy bilish usuli davlat va huquqning tarixan obyektiv real mavjudligini, ularning o‘zaro aloqalarining turli tumanligini aks ettirish vazifasini bajaradi.

Mantiqiy metod - davlat va huquq obyektining mohiyatini, asosiy mazmunini nazariy shaklda, abstraksiyalar, mantiq qonuniyatlari asosida o‘rganadi.

O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi kursi xronologik izchilikda davrlarga bo‘lingan. Insoniyat jamiyati taraqqiyoti qadimgi, o‘rta asrlar, yangi davr va eng yangi davrlarga bo‘lib o‘rganilgan. Ushbu davrlarning har biri davlat va huquqning rivojlanishidagi alohida tarixiy bosqich hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi fanini quyidagi davrlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Qadimgi Turon davlati va huquqning paydo bo‘lishidan to o‘rta asrlargacha ya‘ni (VI-XIII asrlar)
2. O‘rta asarlarda Movarounnahrda davlat va huquq (XIII asrgacha)
3. Markazlashgan davlatning tashkil topishi, ya‘ni Temur va temuriylar davlati va huquqi (XIV asr o‘rtalari XV asr)
4. Movarounnahr va Xuroson davlati va huquqi. Xonliklarning tashkil topishi (XV-XIX asrning I yarmi)
5. Chor Rossiyasi davrida Turkiston davlati va huquqi, mustaqillik yillarida O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi.

O‘quv kursi davlat va huquq tarixi masalalariga quyidagi tizim asosida yondoshiladi: a) o‘rnatilayotgan davlatning tashkil topishi, ijtimoiy tuzumi, davlat tuzumi, davlatning tipi, boshqarish shakli, armiyasi, politsiyasi, sud tuzilishi va mahalliy hokimiyati, boshqaruv organlari, huquqning asosiy manbalari, sohalari va institutlari.

Ayrim adabiyotlarda, ayrim olimlarning fikriga ko‘ra, O‘zbekiston davlat va huquqi tarixini davrlarga bo‘lish ko‘p yoki kamligi uchrab turadi.

Ammo bu davrlarning yirikroq yoki maydalashishi fanning asosiy mazmuniga ta'sir qilmaydi.

Mazkur fanning asosiy manbalari: “Avesto”, “So‘g‘d” hujjatlari, klassik tarixchi olimlar asarlari, “Qur‘oni Karim”, “Hadislar” to‘plami, “Zafarnoma”lar, sud-notarial , vaqf, savdo, yer va boshqa huquqiy hujjatlar, “Temur tuzuklari”, turli davrlarda qabul qilingan turli “Nizom”lar, TASSR, XXSR, BXSSR Konstitutsiyalari, 1927, 1937, 1978-yillardagi konstitutsiyalar, shuningdek, Mustaqillik asoslari to‘g‘risidagi qonun, 1992-yildagi Konstitutsiya hamda shu yillarda qabul qilingan huquq institutlarining amaldagi qator qonunlari va ayniqsa, yurtboshimizning nufuzli anjumanlarda o‘zbek davlatchiligi va tarixiga oid qator ma‘ruzalari, hamda asarlari kiradi.

Nazorat uchun savollar

1. «O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi» fanining predmeti nimani o‘rganadi?
2. «O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi» fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. «O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi» fanining o‘rganish usullari haqida nimalar bilasiz?
4. «O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi» fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini qanday tushunasiz?
5. «O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi» fanining manbalari haqida nimalarni bilasiz?
6. Sizningcha, fanning muammolari nimalardan iborat?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.T., Sharq, 1998.
2. Sagdullayev A. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. T., O‘qituvchi, 1996.
3. Ibrohimov A. Biz kim o‘zbeklar.? T., O‘zbekiston, 1999.
4. Muhamedov X. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi.1-qism.T., Adolat, 1999.
5. Saidov A., Toshqulov J.U. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. IIV Akademiyasi, T., 1996.
6. Muqimov Z. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. Samarqand, Zarafshon, 1992.
7. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. T.2000.
8. H.B.Boboyev. O‘zbek davlatchiligi. T.2005.
9. M.Hamidova. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. O‘quv qo‘llanma. T. TDYUI. 2004.

Qadimgi Turon davlati va huquqining paydo bo'lishi, rivojlanishi

Reja:

- 1. Urug', qabila, qabilalar ittifoqining tashkil topishi.**
- 2. Urf-odatlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita.**
- 3. Qadimgi Turon hududida davlat va huquqning paydo bo'lishi.**
- 4. «So'g'd» hujjatlari - qadimgi huquqiy manba.**

“Ajdodlarimiz bundan yarim million yil muqaddam ana shu joyda, ikki azim daryo O'kuz (Amu) va Inju Ukuz” (Sir) oralig'ida hamda ularning tevarak atrofida yashab kelganlar”, - deb ta'kidlaydi tarixchi olim B.Axmedov.

Miloddan avvalgi IV minginchi yillarda yashagan xalqlarning nomlari bizgacha yetib kelmagan. Ba'zi bir fikrlarga ko'ra, bu davrda yashagan xalqlar massagetlar va alanlardan iborat bo'lgan.

Shuningdek, eramizdan avvalgi III-II minginchi yillarda ham ibtidoiy jamoa tuzumi mavjud bo'lib, ona urug'i matriarxat hukmronlik qilgan. Eramizdan avvalgi II minginchi yillarning boshlarida esa jezdan yasalgan qurollar bilan ovchilik va dehqonchilik keng rivojlangan. Shu davrning oxirlarida vohalarda baqtriyaliklar, So'g'diyonaliklar, xorazmliklar, parfiyaliklar, chochliklar, ularning atrofidagi dasht, cho'l, sahrolarda, tog' oldi tumanlarida sak va massaget kabi qabilalar yashagan. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning boshlaridayoq, Markaziy Osiyo hududida 20 ga yaqin qabilalar bo'lib, ular bir necha qabilalar ittifoqiga birlashgan edilar.

Bular orasida bir necha sak qabilalarini birlashtiruvchi massagetlar ittifoqi alohida mavqei bilan ajralib turgan.

Tarixchi olim Bichirunning fikriga ko'ra: “Eng qadimgi turkiy xalqlarning avlodlari eramizdan XXV asr ilgari Hanxidan Qashg'argacha undan butun Turkistonning osmono'par tog'lar orasidagi vohalar, Pomir tog'larining G'arbiy tekisliklari, Amu va Sir havzalari, Ural va Oltoy tog'larining bo'ylarida yashaganlar”.

Shuningdek, Gerodot «Tarix» asarida «...massagetlar deganda faqat turkiylarni nazarda tutmoq kerak» deb yozadi.

Qabilalarga birlashgan urug'lar a'zolari umumiy mehnat bilan shug'ullanganligi, mulkdan teng foydalanganligi, erkaklar bilan xotin-qizlarning teng huquqli bo'lib, urushlarda erkaklar bilan bir qatorda xotin-qizlar ham ishtirok etganligi, har qabilaning o'z boshliqlari bo'lganligi, ayrim qabilalarning boshliqlari ayollar bo'lganligi, qabilaning umumiy

manfaati bilan bog'liq bo'lgan masalalar qabila a'zolari yig'ilishida muhokama qilinib, hal etilganligi, har bir qabila, urug'ning o'z urf-odatlari, qoidalari mavjudligi haqidagi ayrim ma'lumotlar bizga yetib kelgan.

Qadimgi turkiy xalqlarning ham asosiy dini tabiatga, quyoshga sig'inishdan iborat bo'lgan. Ular ertalab chiqib kelayotgan quyoshga ta'zim qilganlar.

Qadimgi Turonda turkiy xalqlarda yozma qonunchilikka qadar odat huquqi amal qilib kelgan.

Odat ma'lum bir xalqning urf-odat huquqi normalarining yig'indisidir.

Odat – deb ma'lum bir joyning yozilmagan, avloddan avlodga o'tib kelayotgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan rasm-rusumlar va tartiblardan kelib chiqadigan qoidalar yig'indisiga aytiladi.

Turkiylarning qadimgi ajdodlariga taalluqli odat huquqlaridan deyarli barcha davrlarda amal etilgan. Jumladan, jangda vafot etgan akaning xotiniga ukasining uylanish odati mavjud bo'lgan. Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad naslni, oilani saqlab qolishga va davom ettirishga qaratilgan.

Xunlar davlatidagi qabilalardan birida nikohga kirishdan 3 oy oldin bo'lajak kuyov kelin bilan tanishishga harakat qilib, unga otlar, katta va kichik qoramollardan iborat to'y sovg'asini yuborgan. Shundan keyin kuyov bilan kelin birga mol-mulklari bilan kuyovning ota-onasinikiga jo'natib yuborilgan. Ana shu kelinga otlar, qoramollarni nikoh sovg'asi sifatida yuborish odati keyinchalik qalin to'lash odati sifatida shakllangan.

Ma'lumotlarga qaraganda, o'tkir qurolini qo'ldan chiqarganlik uchun, temirdan yasalgan og'ir qurol (fut) bilan o'qtalغانlik uchun, odam o'ldirganlik va boshqa og'ir jinoyatlar uchun o'lim jazosi berilgan. Nizoli ishlarni va keltirilgan shikoyatlarni hal etish, hukmlarni ijro etish og'zaki bo'lib, maxsus ish yuritilmagan. Sudya etib dovyurak, kuchli, murakkab ishlarni hal etishga qodir kishilar tayinlangan. Sud jarayonlari uch kundan ortiq bo'lmagan. Ayrim qabilalarning o'ziga xos qonunlari mavjud bo'lib, oqsoqollarning buyrug'iga bo'ysunmaslik uchun o'lim jazosi belgilangan yoki odam o'ldirish va og'irlik kabi jinoyatlarni sodir etganda zararni qoplash orqali hal etishga ruxsat etilgan. Odam o'ldirishda ayblangan kishi ot yoki qo'ylar bilan to'lash evaziga javobgarlikdan qutulib ketgan. Oqsoqol tomonidan ta'qib qilinayotgan, qochoq yoki xoinlikda ayblanayotgan shaxslarni hech kim o'toviga qo'yishi mumkin bo'lmagan, ular qum sahrolarga quvib yuborilgan.

Qadimgi xanaslar (qirg'izlar)da qonunlar juda qattiq bo'lganligini ko'ramiz. Jumladan, elchilik topshirig'ini bajarmaganlik uchun, xonga noto'g'ri maslahat berganlik uchun o'lim jazosi tayinlanishi, yoki o'g'ringing otasidan, o'g'lini tanasidan judo qilib, boshini bo'yniga osib yuborish kabi odatlar mavjud bo'lgan.

Eng qadimgi davlatlardan biri bu Alp Er To'nga (Afrosiyob) davlati edi. Eramizdan avvalgi VII asrlarda tashkil topgan bu davlat Nosimxon Raxmonning fikriga ko'ra, Sak-Iskif turk davlati edi.

Navbatdagi qadimgi davlatlardan biri eramizdan avvalgi VII asrlarda Shanyuy Mode asos solgan oq xunlar davlati edi. Ushbu davlat O'g'uzxon davrida o'zining eng yuqori darajasiga yetgan, turklarning 24 ta qabilasini birlashtirgan. Butun Xitoy imperiyasi Tangutlar podsholigi Mo'g'ulistonidan Hindistongacha hamda Kaspiy dengizigacha bo'lgan yerlarni o'z tarkibiga kiritgan.

Bizlarga xunlar davlati huquqi haqida ayrim ma'lumotlar yetib kelgan. Xunlar davlatida huquqning asosiy manbai sifatida odat huquqi xizmat qilgan. Xunlar odatiga ko'ra, qurol yalang'ochlamoq og'ir jinoyat hisoblanib, bunday jinoyatni sodir qilgan kishi o'lim jazosiga mahkum qilingan. O'g'rilik qilgan kishining faqat o'ziga tegishli mulklarigina emas, balki butun oilaga tegishli mulklari musodara qilingan.

Unchalik og'ir bo'lmagan jinoyatlarni sodir etgan kishilarning yuzi tilingan. Xunlar davlatida Mode hukmronlik qilgan davrda umummajburiy harbiy xizmat, harbiy qismlarda qat'iy tartib-intizom joriy qilish haqida qonunlar qabul qilingan. Bu qonunlarga binoan harbiy xizmatdan bosh tortganlik, harbiy intizomni buzganlik uchun o'lim jazosi belgilangan.

Xunlar davlatida mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish bilan bog'liq munosabatlar odat huquqi qoidalari bilan tartibga solingan. Boshqa ko'chmanchi qabilalardagi kabi xunlar ham yaylovlardan birgalikda foydalanganlar, yaylovlar butun urug'ning mulki hisoblangan.

Xunlar davlatida tepasida Shanyuy (ulug' azim) turgan. Shanyuy lavozimini xunlar qabilasiga kiruvchi 24 urug' boshliqlaridan eng ulug'i egallagan. Dastlabki davrlarda shanyuy urug' boshliqlari tomonidan saylangan, keyinchalik esa saylov o'rnini taxtga o'tkazish marosimi egallagan. Xunlar davlatining so'nggi davriga kelib davlat boshlig'ining hokimiyati vasiyat asosida meros tariqasida otadan o'g'ilga o'tadigan bo'lgan.

Davlat boshlig'i Shanyuy harbiy, diplomatik va diniy sohalariga boshchilik qilgan. Qonunchilik hokimiyati ham uning qo'lida bo'lgan.

Xuyan, Lan, Syuybu urug'leri xunlar qabilasidagi aslzoda urug'lardan bo'lib, davlat idoralarining yuqori mansablariga ularning vakillari tayinlangan. Masalan, sudya lavozimiga Syuybu urug'i vakillari tayinlangan. Boshqa urug'lar aslzoda urug'lar foydalangan imtiyozlardan mahrum etilgan bo'lsalar-da, o'zlarining ichki ishlarida mustaqil bo'lganlar. Ularning o'z hukmdorlari bo'lib, ularning hokimiyati meros tariqasida o'g'illariga o'tgan.

Eramizdan avvalgi I ming yillikning o'rtalariga kelib O'rta Osiyoni Kir II asos solgan Ahmoniylar davlati bosib oladi. Behustun qoyasidagi yozuvlarda Bobil va Misr bilan birga Parfiya, Xorazm, Baqtriya va So'g'diyonani bosib olganligi toshga o'yib yozilgan. Sak va massagetlar bir necha marotaba qo'zg'olon ko'tarishgan. Ana shunday qo'zg'olonlardan birida Kir II o'ldiriladi. Doro I hukmronlik qilgan davrlarda ham bu kurashlar to'xtamaydi. Ahmoniylar davlati yagona ma'muriy tizimga, kuchli armiyaga, yagona pul birligiga ega bo'lgan, qudratli markazlashgan davlat bo'lib, ma'muriy jihatdan 20 ta satrapiyaga bo'lingan bo'lib, undan 4 tasi Markaziy Osiyoda (qo'shin va soliq to'lash) bo'lgan.

Satrapliklarning soni turli davrlarda turlicha bo'lgan.

Ahmoniylar davlatida butun hokimiyat podshoh qo'lida bo'lib, u davlatni markaziy davlat mahkamasiga tayangan holda boshqargan. Davlat Mahkamasida podshohdan keyin ikkinchi o'rinda xazorapat (ming boshliq) turgan. U barcha davlat idoralari, mansabdor shaxslar faoliyatini nazorat qilgan, podshohning shaxsiy qo'riqchilariga, markaziy devonga boshchilik qilgan. Podshohga kelgan shikoyat va arizalar haqida ma'lumotlar bergan. Markaziy devonga kotiblar, taftishchilar, podshohga ma'lumot yig'ib keluvchilar va boshqalar bo'ysunganlar.

Satrapliklarda butun hokimiyat podshoh tomonidan tayinlangan va vazifasidan bo'shatiladigan satraplar qo'lida bo'lgan. Satrap ma'muriy boshqaruv va sud hokimiyatiga boshchilik qilar, xo'jalik ishlarini amalga oshirish, soliq va yig'implarni o'z vaqtida undirilishi, mansabdor shaxslar faoliyati, o'z satrapligi hududi xavfsizlikni ta'minlash ustidan nazoratni amalga oshirgan. Satraplar kumush va mis tangalar chiqarish huquqiga ega bo'lganlar. Satrap qoshida boshqaruv idorasi tashkil etilgan bo'lib, unda idora boshlig'i, xazinachi, soliq yig'uvchilar, jarchilar, sud tergovchilari, kotiblar xizmat qilgan.

Ahmoniylar davlatida asosiy mansablarga eronlik aslzodalar tayinlanganlar. Bizgacha yetib kelgan manbalarning guvohlik berishicha, Ahmoniylar davlatining dastlabki davrlarida yagona huquq tizimi

bo‘lmagan. Mamlakatning turli mintaqalarida har xil huquq manbalari, sohalari va talablari harakatda bo‘lgan.

Masalan, Bobil, Misr va Yahudiyada mahalliy huquq, mahalliy og‘irlik va uzunlik o‘lchovlari, ibodatxona va kohinlarni soliqlardan ozod qilish va boshqa imtiyozlarni belgilovchi qoidalar saqlanib qolingan.

Doro I hukmronlik qilgan davrda (milloddan avvalgi IV asrlar) pul, harbiy, aloqa sohalarida islohotlar o‘tkazgan. Bu islohotlar podshohning alohida farmonlari asosida amalga oshirilgan. Ahmoniyalar davlatida podshohning har bir chiqargan farmoni qonun kuchiga ega bo‘lib, uning so‘zsiz bajarilishi shart edi. Bundan tashqari, podshoh alohida masalalar bo‘yicha farmoyishlar chiqargan, uning alohida amaldorlarga bergan ko‘rsatmalari, buyruqlari maxsus noma shaklida rasmiylashtirilgan. Uning barcha farmonlari, farmoyishlari va maxsus nomalari alohida qaydnoma va kundalik daftarlarida oromiy yozuvida yozib borilgan.

Doro I yagona huquq tizimini tashkil qilish maqsadida qonunlar qabul qilganligi haqida ma‘lumotlar bizgacha yetib kelgan. Jumladan, Doro I bunday yozgan: “Axuramazda (yaxshilik ilohi)ning irodasiga ko‘ra, bu viloyatlar mening qonunlarimga itoat qila boshladi, men nimaniki buyursam, shularning (hammasini) bajarmoqdalar”. Lekin bu qonunlar bizgacha yetib kelmagan.

Bizgacha yetib kelgan ma‘lumotlarga ko‘ra, Ahmoniyalar davlatida podshohning bergan ko‘rsatmasi, muayyan bir masala bo‘yicha chiqargan xulosasi, qarori qat‘iy bo‘lib, uni bekor qilishga hech kimning haqqi bo‘lmagan. Lekin davlat boshlig‘i mamlakatni boshqarishda, qonunchilik faoliyatini amalga oshirishda eronliklarning urf-odatlariga, an‘analariga rioya qilish va yetti aslzoda urug‘larning boshliqlari bilan maslahatlashishi lozim bo‘lgan.

Ahmoniyalar davlatida podshoh va uning oila a‘zolari hayotiga, sog‘ligiga va shaxsiga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar eng og‘ir jinoyatlar hisoblanib, bunday jinoyatlar podshoh tomonidan ko‘rilib hukm chiqarilgan. Mazkur jinoyatlarni sodir qilgan kishilar o‘lim jazosiga hukm etilgan. Aksariyat hollarda jinoyat sodir qilgan kishining oila a‘zolari ham o‘limga hukm qilingan.

Kushon davlati

Miloddan avvalgi I asrda yuechji qabilalari uyushmasi orasida Guyshuan (Kushon) hokimligi ancha kuchaydi. Olimlar fikriga ko‘ra, dastlab guyshuan qabilasi Surxon vohasida joylashgan. Uning poytaxti Dalvarzin shahri bo‘lgan. Podsho Kujula Kadfiz davrida Kushon hokimligi

hududi ancha kengayib, davlat tarkibiga Janubiy Tojikiston, Afg'oniston va Kashmir yerlari qo'shib olingan.

Podsho Kanishka hukmronlik qilgan davrlarda Kushon davlati ulkan saltanatga aylandi. Uning hududi Surxon vohasi, Janubiy Tojikiston, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston hududlarini o'z ichiga olib, poytaxt Peshovarga ko'chirilgan. Mamlakat mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan, harbiy tayanch nuqta sifatida davlat chegaralari barpo etilgan.

Kushonlarning ilk tangalarining bir tomonida Yunon-Baqtriyaning so'nggi podshosi Gernay tasviri ikkinchi tomonida esa «Kushonlar» yog'busi Kujula Kadfiz degan so'zlar borligi aniqlangan. Kushon davlatining hududi kengayishi va uning siyosiy-harbiy ahamiyati o'sib borishi bilan birga tanga pullarda "shoh", "shohlar shohi" atamasi ishlatila boshlaydi.

Podsho Kanishka I o'zidan oldingi davlatni boshqaruv an'alarini saqlab qoldi va davom ettirdi. Viloyat va shaharlar noiblar tomonidan boshqarildi. Bunday noiblar podsho tomonidan tayinlanib, uning eng yaqin va ishonchli vakillari hisoblangan. Kushonlar davrida mahalliy hukmdorlar davlat xazinasiga o'lponlar to'lab turganlar.

Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan Kushon davlati gullab yashnadi. Yangi shaharlar bunyod etilgan, ko'plab sug'orish inshootlari qurilib, yangi yerlar o'zlashtirilgan.

Shahar qurilishida aniq binokorlik qoidalari amalga oshirilgan. Shaharlar to'g'ri burchakli bo'lib, qalin devorlar bilan o'ralgan. Shahar tuzilishiga ko'ra, bir necha qismlarga bo'lingan: hokim saroyi (qal'a), hunarmandchilik ustaxonasi, guzarlar, alohida ibodatxonalar joylashgan qismi, savdo maydonlari. Kushon podsholigi iqtisodiyotining asosini sug'orma dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik tashkil qilgan.

Hindiston, Xitoy va Rim bilan savdo va elchilik munosabatlari o'rnatilgan. Xitoydan ipak, turli gazlama va chinnilar olib kelinib, ularga esa temirdan va fil suyagidan yasalgan buyumlar, jun, gazlama, qimmatbaho toshlar olib borilgan.

O'zbekistonda qadimgi mahalliy davlatchilik tarixi, Qang', Dovon davlatlari rivoji bilan uzviy bog'lanadi.

Xitoy manbalariga ko'ra, eramizdan avvalgi III asrning boshlarida So'g'diyona, Xorazm, Sirdaryoning quyi va o'rta oqimlari hozirgi O'zbekiston, Qoraqalpog'iston, janubiy Qozog'iston yerlarini o'z ichiga olgan qudratli Qang' (Xitoy manbalarida Kangyuy) davlati bo'lgan.

Milloddan avvalgi II va millodiy I asrda Qang' davlatining hududi ancha kengayib, Toshkent vohasi, O'rta Sirdaryo yerlari, Talas vodiysi va Chu daryosining quyi oqimidagi yerlarni o'z ichiga olgan. Uning ikkita poytaxti bo'lgan Qang'diz (Oqqo'rg'on tumani) va O'tror Qang' hukmdorlari ularning birida yozni, ikkinchisida esa qishni o'tkazgan.

Ma'lumotlar Qang' davlatining dastlab 90-120 minggaacha kamonchi askari bo'lganligidan dalolat beradi. Eramizning I va II asrlariga kelib Qang' davlati tarkibiga Samarqand, Maymurg', Ishtixon kirgan. Xorazm Qang' davlatlari uyushmasida bo'lgan davrda qal'alar, mudofaa istehkomlari qurilishi nihoyatda rivojlangan harbiy sohada og'ir qurollangan otliq askarlar asosiy qismni tashkil qilgan.

Qang' davlatiga noiblar tomonidan boshqariladigan beshta mulk bo'ysundirilgan. Ular Susey, Fuliz, Yunis, Gis, Yuyeyan kabilaridir.

Davlat boshida Qang' hoqonlari turib, uning huzurida maslahat beruvchi oqsoqollar kengashi mavjud bo'lgan. Qang'lar davlati viloyatlarga bo'linib, ularni jabg'ular boshqargan. Bu davlatda ko'chmanchi chorvador, zadogonlarning mavqei katta bo'lgan.

Taxminan eramizdan avvalgi III asrda paydo bo'lgan davlat Dovon davlatidir. Tarixiy Xitoy manbalarida ko'rsatilishicha, Ta Yuan (Da Van) "Da" -katta "Van" – podsho degan ma'noni anglatadi.

Bu davlat tarkibiga 70 ta katta-kichik shaharlar kirganligi, aholisining soni bir necha yuz mingga yetganligi va 300 ming aholisi bo'lganligi ma'lum. Davlatning poytaxti Ershi shahri bo'lib, davlatni Van va uning ikki o'rinbosari boshqargan. Podsho davlatni ana shu shaxslarga tayanib idora etgan. Uning huzurida oqsoqollar kengashi mavjud bo'lib, urush va tinchlik masalalarini, hatto podsholarning taqdirini hal qilish huquqiga ega bo'lgan. Bu esa demokratiya ancha muhim ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi. Dovon shaharlari hokimlar tomonidan boshqarilgan.

Dovon davlatining aholisi dehqonchilik bilan shug'ullangan.

Qadimgi Farg'ona qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va binokorlik yuksak darajada rivojlangan o'lka bo'lgan. Dovon dehqonlari arpa, sholi, bug'doy va beda yetishtirish, bog'dorchilik va uzum yetishtirishda katta yutuqlarga erishgan.

Farg'ona o'zining «samoviy» otlar zoti bilan mashhur bo'lgan. Ularga hatto Xitoy imperatorlari ham qiziqqan.

Dovon davlati Xitoy, Hindiston va boshqa Sharq mamlakatlari bilan bo'lgan xalqaro savdoda muhim o'rin tutgan.



Eftalitlar (Oq xunlar, ya'ni abdallar deb ataluvchi qabilalar) davlati IV asrning oxiri va V asrning boshlarida Orol bo'yida yashovchi masagetlar o'zlarining Eftalitlar nomi bilan ataluvchi davlatga asos solishdi. V asr o'rtalarida O'rta Osiyoda Eftalitlar hukmronligi o'rnatilgan. Keyinchalik, ular O'rta Osiyoni, Sharqiy Eronni, Hindistonning shimoliy qismini va Sharqiy Turkistonni birlashtiruvchi yirik davlat tashkil qilishga muvaffaq bo'lishgan.

Eftalitlar davlatining hududidagi shaharlar jumlasiga, asosan So'g'diyona shaharlari kirgan bo'lib, bu vaqtda ular ahamiyati oshganligini ko'rish mumkin. Kushoniya (Kattaqo'rg'on yaqinida) Ravdad, Poykand, Tallikon, Termiz, Gurgon, Varaxsha kabi shaharlar eftalitlar hukmronligi davrida rivoj topdi. V asrdan e'tiboran, Samarqand shahri ham taraqqiy etgan. Eftalitlarning siyosiy markazi Poykand shahri, davlat boshliqlarining qarorgohi esa Varaxshadagi saroy bo'lganligi taxmin qilinadi.

Eron sosoniylar davlatining sharqqa yurishlari eftalitlar tufayli to'xtagan. Ular Eron podsholarining ichki siyosatiga ham aralashib turdilar, hatto shohlardan qaysi birini saylash va tayinlash masalasini hal qilish ularning qo'lida edi. Eron davlati har yili eftalitlarga o'lpon to'lab turgan. Bu davrda hokimiyat katta yer egalari qo'lida bo'lib, Eftalitlar o'z hokimlarini "Ixshid" deb atashgan. Ijtimoiy tuzumiga qarasak, aslzoda dehqonlar, ularning shaxsiy qo'riqchilari chokarlar dehqonlarga qaram bo'lib qolgan, ular: xizmat qiluvchi kadivarlar va jamoatchi dehqonlar, hamda qullarga bo'lingan. Aholisi shahar qishloqlarning o'troq aholisidan va ko'chmanchi chorvadorlardan iborat bo'lgan. Yirik shaharlar hokimlar tomonidan boshqarilgan. Hokimlar o'z harbiy kuchiga ega bo'lgan. Eftalitlar davlatida mulkiy jinoyatlar qattiq jazolangan. O'g'irlik uchun bo'yini qirqib qatl etish haqida yoki o'g'irlab ketgan mulkini o'n barobaridan undirish bilan jazolanganligi haqida Xitoy manbalaridan "Beysu"da keltirilgan.

Turk hoqonligining ijtimoiy, siyosiy tuzumi va huquqi (551-744).

Oltoyda turk xoqonligining paydo bo'lishi "Ashin" urug'ining kuchayib, turli qabila va xalqlarni o'z atrofida birlashtirishi natijasidir. Eramizning 551-yilida turklar dastlab jujan qabila birlashmasini yengib, Bumin xoqon yordamida Mo'g'uliston va Oltoyda kuchli davlat tuzdilar. Bu davlat VI-VIII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda bir qancha xalqlarni birlashtirdi.

603-yilda Xoqonlik ichki ziddiyatlar natijasida Sharqiy va G'arbiy xoqonlikka bo'lingan. Bizning hudud G'arbiy xoqonlik tarkibida edi. Turk xoqonlari dastlab o'zlariga bo'ysundirgan joylardan faqat belgilangan miqdorda o'lpon olib turish bilan qanoatlanishgan.

Turk xoqonligi hokimiyat tepasiga urug', qabila boshliqlari qurultoyda saylanadigan xoqon turgan. Uning huzurida qabila urug' boshliqlaridan iborat Kengash bo'lib, unda davlat ahamiyatiga tegishli muhim masalalar qo'rilgan va hal etilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, Turk xalqlarining davlatchiligi xoqonlik (imperatorlik) beklik, otabeklik (knyazlik) shakliga mos keladi. Taxt vorisi Tegin, ya'ni (shahzoda) deb yuritilgan. Shahzodalarga qondosh bo'lgan biror beklik yoki hokimlik qilgan kishiga shad unvoni berilgan. Turk xoqonlari maxsus chaqirtirilgan qurultoylarda saylangan.

Turk xoqonligining ijtimoiy tuzumi: boy zodagonlar, savdogarlar, hunarmandlar, xizmat qiluvchi tabaqa amaldorlar, harbiylar, dehqon va qullardan iborat bo'lgan. Harbiylar turkcha «chariq» deb atalgan. So'g'd hujjatlariga ko'ra hukmdorlar saroyda quyidagicha mansabni egallashgan: harbiy ma'muriyat boshlig'i - Farg'onada - "Tutug", So'g'dda "Chapish" ya'ni lashkarboshi, viloyat hokimlari "Xvabe" deyilgan. Podsho devonxonasi boshlig'i "diperant" deb atalgan. Gupat-daromadlar noziri, ya'ni moliya ishlari bilan shug'ullanuvchi, Oxvirpat - podsho otxonasining noziri, boshlig'i. Parvanak - hujjatlar tuzuvchi mansabdor, paxvanak (patvane) jazoni ijro etuvchi jallod lavozimidagi shaxslar bo'lgan.

Armiyasi otliq qo'shin, alohida o'lkalarning hokimligidagi otliq qo'shini, piyodalardan iborat shaxsiy qo'riqchilardan tashkil topgan. O'lkalar xoqonga o'lpon to'lab turishgan.

Bu davrda xalqlar bir necha dinga: zardushtiylilik, xristianlik, moniylik va buddizmga e'tiqod qilishgan. Diniy mansablari: Magupat - bosh koxin, vag'npat - ibodatxonalari boshlig'i va boshqalar. Turk xoqonligida qonunchilik Xoqon buyrug'i, farmonlari, zardushtiylilik dinining muqaddas kitobi ("Avesto"), Sug'd hujjatlari va maxsus qonuniy aktlarini sodir etadigan joy sud notarial organi mavjud bo'lgan.

Turk xoqonligida xotin-qizlar to'la vorislik huquqiga ega bo'lgan, ayolning nomusiga tekkan erkak o'limga mahkum etilgan. Nomusga tegish eng og'ir jinoyat hisoblangan. Bundan tashqari og'ir jinoyatlarga qo'zg'olon uyushtirish, xoinlik, odam o'ldirish, o'g'irlash kabilar kirgan. Yetkazilgan zarar uchun esa masalan bezorilik, orqasidan biror kishiga zarar yetkazilsa, jabrlanuvchiga qizini erga berishi, qizi bo'lmasa, qiynalib to'laydigan mulkini berishi lozim edi. A'zolarining birortasini ishdan

chiqargan bo'lsa, bu jinoyati uchun ot bilan jarima to'lashi kerak bo'lgan, o'g'irlagan narsasi uchun esa o'sha narsaning o'n barobariga teng narsa to'lagan. Ana shu davrga xos bo'lgan Samarqandda "Turk qonunnomasi" mavjud bo'lib, u ibodatxonada saqlangan. Jazo berish vaqtida ana shu qonunnoma asosida ya'ni uni qo'lga olib turib jazo tayinlangan. Og'ir jinoyat uchun jinoyatchining o'zi qatl etilgan. O'g'rilik uchun oyog'i qirqib tashlangan.

O'zbekiston hududidagi arablar hukmronligi o'rnatilganga qadar amalda bo'lgan huquq haqida ma'lumot beruvchi muhim manba – bu Panjikent yaqinida Mug' tog'i tepasidagi qadimgi qasr xarobasidan 1932-1933-yillarda topilgan "So'g'd" hujjatlaridir. Ular So'g'd podsholigiga bo'ysungan Panj hokimligi saroyi, turli viloyat hokimlari va mansabdor shaxslarga aloqador hujjatlar: yozishmalar, diplomatik mazmundagi xabarnomalar, alohida masalalar bo'yicha tuzilgan shartnomalardir. Albatta, bu normativ huquqiy hujjatlar huquqning, manbai sifatida qaralishi mumkin emas. Ular individual mazmundagi hujjatlardir. Lekin shu hujjatlarning mazmunidan kelib chiqib, tuzilgan davrning huquq manbalari, huquqiy madaniyat haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lish va fikr yuritish mumkin.

"So'g'd" hujjatlarining huquq nuqtai nazaridan eng ahamiyatlisi yerni xarid qilish, tegirmonni ijaraga berish, nikohni qayd qilish, kuyovning kelin tomon oldidagi majburiyatlari haqidagi shartnomalardir. Yerni xarid qilish haqidagi shartnomada uning tuzilgan vaqti, yerni sotib oluvchi va sotuvchining nasl-nasabi, nomi, yerning joylashgan joyi, chegaralari, miqdori, shartnomada ishtirok etuvchilarning huquq va burchlari, ularga rioya qilmaslikdan kelib chiqadigan oqibatlar, shartnomani tuzishda ishtirok etgan guvohlar va uni rasmiylashtirgan kishining nasl-nasabi va nomi ko'rsatilgan. Tegirmon ijarasi haqidagi hujjatda uning tuzilgan vaqti, ijaraga beruvchi va oluvchining nomlari, tegirmonning joylashgan joyi, quvvat manbalari, jihozlari, ijara muddati va haqi, ijara shartlariga rioya qilmaslik oqibatlari, ijara olingan mulkdan foydalanish, ijara haqini to'lashning qonunga muvofiq bo'lishi, qonunsizlik – xiyonat va adolatsizlik qanday oqibatlarni keltirib chiqarishi, hujjatni rasmiylashtiruvchi va bu jarayonda ishtirok etgan guvohlar nomlari ko'rsatilgan. Hujjat muhr bilan tasdiqlangan.

Nikohni qayd qilish haqidagi hujjat laqabi Nidon bo'lgan Uttakin Navekat hukmdori Cher Vaxzanak o'g'lining homiyligidagi Viyusning qizi nomi Dug'duncha laqabi Chatani xotinlikka olishi haqida tuzilgan. Unda Uttakin Chatani sevikli xotin sifatida hurmat va ehtirom bilan oziq-

ovqat, kiyim-kechak, bezak taqinchoqlar bilan ta'minlashi, e'zozlab, muhabbat bilan o'z uyida podshohoyim sifatida saqlashi Chata esa Uttakinni sevikli er sifatida hurmat va ehtirom bilan asrashi, u erining baxt-saodati haqida qayg'urishi, uning buyrug'ini o'ziga qonun deb hisoblashi lozimligi qayd qilingan. Hujjatda yozilishicha, agar kelajakda Uttakin Chatani xotin qilmayman degan qarorga kelsa, bu holda uni qo'yib yuborishi, birgalikda yashagan vaqtida olgan shaxsiy narsalari va tovon pulini berib, hech qanday shartlarsiz jo'natib yuborishi, agar Chata Uttakinga bundan buyon xotin bo'lmaslik qaroriga kelsa, unda xotinlikdan chiqib ketishi, bu holda u Uttakinga kiyishga yaroqli kiyimlar qoldirishi, Uttakindan olgan bezak taqinchoqlarni va boshqa narsalarni tashlab ketishi, lekin Chata o'ziga tegishli va birgalikdagi hayoti davomida orttirgan mulkini olib ketishi kerak bo'ladi. Shuningdek, Chata, hujjatda qayd qilinishicha, boshqa hech narsa bo'yicha tovondor bo'lmaydi, u o'zi xohlagan kishiga turmushga chiqishi mumkin. Ajrimdan so'ng, Uttakin va Chata bir-birlarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari uchun javob bermaydi. Nikohni qayd qilish haqidagi hujjat qonunlar uyida, uning boshlig'i huzurida uchta erkak guvohligida kotib tomonidan tuzilgan.

Kuyovning kelin tomon oldidagi majburiyatlari haqidagi hujjatda kuyov-Uttakinning kelin Chataning urug'-aymoqlari oldidagi burchlari o'z aksini topgan. Hujjatda ko'rsatilishicha, u tuzilgan kundan Chata toabad Uttakinga xotin bo'lib qolajak va kuyov kelin tomon oldidagi Chatani sotmaslik, qarz evaziga qullikka ham bermaslik, biror kimsaning homiyligidagi o'z mulkiga aylanishiga ham yo'l qo'ymaslik, agar kimdir Chatani Uttakindan bevosita yoki sirdan tortib olsa, uni tahqirlasa, uni shu zahotiy oq, hech qanday ziyon-zahmatsiz ozod qilish: agar Chata Uttakin bilan qolishni xohlamasa yoki Uttakin uni qo'yib yuborsa, kelinni urug'-aymoqlariga ziyon-zahmatsiz qaytarishi shart bo'lgan, agar ushbu shartga ko'ra, kuyov kelinni ziyon-zahmatsiz yetkazib bermasa, u holda 100 dinoriy dirham kumush muomalada amal qilish tasdiqlangan, yaxshi saqlangan, toza sifatli pul qarz bo'lishi, qarzni to'lash sharti belgilangan, mabodo, pulni to'lay olmasa (vaqtida) 10 dirhamiga 2 dirhamdan ustama to'lash evaziga qarz bo'lish majburiyatlarini oladi. Bu hujjat ham «qonunlar uyida» nikohni qayd qilish bitimi kabi tuzilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Qadimgi turkiy qabilalar ittifoqlari paydo bo'lishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Qadimgi davlatlarning iqtisodiy tuzumi qanday bo'lgan? Siyosiy tuzumichi?
3. Qadimgi davrda Turon hududida huquq manbai nimalardan iborat bo'lgan?
4. Doro I qanday islohotlar o'tkazgan?
5. Eftalitlar davlatida jinoyat va jazo qanday bo'lgan?
6. So'g'd hujjatlarining asosini nimalar tashkil qiladi?
7. Sizningcha, so'g'd hujjatlari huquq manbai bo'la oladimi?
8. Turk xoqonligida jinoyat va jazo masalalari haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar:

1. I.Jabborov. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasini. T., 1999-y.
2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T. 2000.
3. A.X.Saidov, J.U.Toshqulov. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. IIV Akademiyasi. T. 1999-y.
4. Z. Muqimov. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. Samarqand. Zarafshon. 1998-yil.
5. A.Sagdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti.
6. N.Rahmon. Turk xoqonligi. T., Meros. 1993-y.
7. H.B.Boboyev. O'zbek davlatchiligi. T.2005.
8. M.Hamidova. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. O'quv qo'llanmasi. T. TDYUI. 2004.

Reja:

1. «Avesto»- ma'naviyatimiz sarchashmasi.
2. «Avesto»da eng qadimiy davlatlarning qaror topishi haqidagi ma'lumotlar.
3. «Avesto»da oila va nikoh munosabatlari.
4. «Avesto» bo'yicha jinoyat va jazolar kvalifikatsiyasi.

«Sharq o'g'lonlari orasidan G'arb birinchi bo'lib Zardushtni o'g'il qilib oldi. Uning ta'limoti Xristos ta'limotidan IV asr avval Yunonistonni boyitdi.

Zardushtni Platon bilgan Budda va Kunfunsiyalarning ovozi Ovrupaga yetib kelguncha juda ko'p vaqt kerak bo'ldi, shuning uchun asrlar davomida G'arb qadimiy Sharq donishmandligi bilan faqat Zardusht orqali tanish bo'lgan.

Belgiyalik olim Jak Dyushen Giyyoman.

Biz elinliklar, varvarlardan olgan hamma narsasini o'zimizniki qilib olamiz va uni kamolot cho'qqisiga ko'taramiz.

Platon

G'arbning barcha buyuk allomalari, buyuk shaxslari Sharq ma'naviyati va madaniyati xazinasidan ziyo oldilar. G'arb o'z gulxanini Sharq quyoshidan yondirib oldi.

Fozila Sulaymonova

Ma'lumki, g'arb tarixida buyuk islohotchilar va ma'rifatchilar davri eng zo'r va ajoyib Uyg'onish davri deb nom olgan Rim va Yunoniston madaniyatini ravnaqiga qiyos qilinib ta'riflanadi. Aslida esa insonparvarlik g'oyalari isloh qilish harakati O'rta Osiyo buyuk farzandi Zardushtdan boshlangan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Chunki uning ta'limoti insonparvarlik g'oyalarini birinchi bo'lib ilohiylashtirgan, dunyoviy hayotni muqaddaslashtirgan, uning asosiy aqidalari keyingi jahon dinlari xristianlik va islomning aqidaviy va ibodat qoidalariga ham zamin bo'lgan.

«Avesto»ning o'rganishda payg'ambar Zaratushtra faoliyati va zardushtiylik dinining vujudga kelishi muammosiga e'tibor beriladi.

Zaratushtra (yunoncha – Zoroastr, fors tilida – Zardusht)ning nomi qadimgi Eron Zarushtra so'zidan kelib chiqqan, «Zar» – bu «oltin», «ushtra»tuya yoki uch xil ma'noda – «Oltintuyali», «Oltin tuya egasi»,

«Tuyalar yetaklagan odam» deb tarjima qilinadi. Gap shundaki, «Avesto»ning yaratilishi davlat arbobi va qonunshunos din, ilohiyotchisi sifatida Zaotar va otarbon unvonlari sohibi, oʻz davrida «paygʻambar» (ezgulik haqida darak beruvchi) sifatida shuxrat qozongan Spitamen nomi bilan bogʻliq boʻlib, Spitamen Zardusht taxminan miloddan avvalgi 630-553 yoki 618-341-yillarda yashagan davrda Markaziy Osiyoda koʻchmanchilar inqiroziga uchrab, Turonu Eronda el boʻlib, oʻtroq yashay boshlagan turkiylar, forsiylar, derbiklar, osiylar, toxarlar, daxlar, massagetlar, saklar, xorazmliklar, chochliklar, baqtriyaliklar oʻtroq hayotga moslashib, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilikka oʻta boshlagan va qadimgi shahar viloyatlarga asos boʻlishgan edi.

Patriarxal urugʻ jamoasi munosabatlari oʻrnini markazlashgan davlat tizimi egallashi bilan xarakterlanadi.

«Avesto»da inson ijtimoiy mehnati tufayli barcha yomonlikdan yovuzlikdan qutulishi mumkinligi gʻoyasi yotadi. Dehqonchilikdagi mehnat yaxshilikning yuzaga chiqishida va insonni qayta tarbiyalashda asosiy omil, Axura Mazda qonuniga boʻysunish hisoblanadi. «Kim gʻalla eksa olijanobdir. Gʻalla ekkan kishi ezgulik urugʻini sochadi». Demak, mehnat va tabiiy ehtiyoj tufayli insonlar birga yashashni ilgari suradi.

«Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi boʻlib, bizgacha yetib kelgan qismlari milodning III-VII asrlarida tahrir qilingan. «Avesto» boblari fors alifbosi asosida 48 ta belgili yozuvdan iborat. «Avesto» fors tilidan «Apastak» yoki «Asos» deb tarjima qilinadi.

Tarixiy manbalar «Avesto»ni Oksus yaʼni Amudaryo sohillarida, Eron Vij oʻlkasini esa Xorazm oʻlkasidir deb taʼkidlanadi. «Avesto»1000 fasldan iborat boʻlib, 21 kitobni oʻz ichiga olgan, ilk yozmasi 8300000 soʻzdan iborat boʻlgan.

«Avesto» birinchi boʻlib, XVIII asrda (1755–1761-yillarda) fransuz olimi Anketil Dyuperron tomonidan tarjima qilingan.

A.Dyuperron Hindistonning Gujarat viloyatida Eron zardushtiylarining avlodlari – parsnlarning urf-odatlarini va diniy marosimlari bilan tanishib chiqqan. Dyuperonning xizmati shundaki, u parsnlarning diniy yozuvlarini oʻqiy olgan, eng qadimgi 1288-yilda koʻchirilgan qoʻlyozma nusxasini tarjima qilgan.

Dastlabki «Avesto» 21 ta kitobdan iborat boʻlgan. Ayrim qismlari saqlanib qolgan: Yasna – «qurbonlik keltirish», Vispard – «hamma hukmronlar», Yasht – «qadrlash», «ulugʻlash». Videvdat – «devlarga qarshi qonun» boʻlib, sosoniylar davrida tahlil qilingan.

I. Yasna 72 bobdan iborat hamdu sanolar, qurbonlik qilish va boshqa zardushtiylik marosimlarini bajarish paytida yoddan o'qiladigan duolarni qiroat bilan o'qish, otashparastlik bayramlari rasm-rusumlari o'z ifodasini topgan.

II. Yasht – alohida xudolarni madh etuvchi va yovuz kuchlarga qarshi kurashda ezgu ma'budalariga madadkor bo'lgan kuchlarni ulug'lovchi 22 ta qo'shin oyatlarlardan iborat.

III. Visparad 24 bobdan iborat poklik, to'g'rilik yo'lini tutgan zotlar Oliy Tangri Axura Mazda barcha yaxshi xislat va fazilatlariga bag'ishlangan.

IV. Videvdat 22 bobdan iborat, ularda Axura Mazda yaratgan 16 ta mamlakat va Anxra Manuning ularga yetkazgan zarari haqida so'z yuritiladi. 20-bobida dunyodagi 1-tabib Srita haqida ma'lumot beriladi.

Videvdatning keyingi boblarida qadimgi zardushtiyalar chiqargan qonunlar kishilarning induvidual va ijtimoiy huquqlari, shuningdek, odamlarning jamiyatdagi bir-biriga nisbatan tutgan o'rinlari, axloq va odob, jinoyat va jazo badanni va ruhni chiniqtirish, kishi o'zini har xil nopokliklardan asrashi, tabiblik va tabib haqi, o'likni yerga ko'mib yerni karom qilgan yoki yolg'on va'da bergan odamni jazolash, o'liklarni qo'yadigan daxmalar qurish, ko'mish marosimi va o'likdan yomon jinlarni quvish uchun yoniga it olib borish, it boqish va uni ehtiyot qilish, ayollarga munosabatda bo'lish, soch va tirnoqlarni qachon olish va ularni toza saqlash, odamlarni g'aflatdan uyg'otuvchi xo'roz haqida, suvning shifobaxshligi, chaqaloqni parvarishlash va hokazolar.

Bu bobda quyosh xudosi Mitra yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi kurashning intiqosida hakamlik vazifasini bajargan.

Quyoshga sig'inish bilan ular quyosh tiriklik, poklik va yaratuvchilik manbai ekanligi uchun, sajda qilib poklanishgan. Bu bobda chorvani ko'paytirish va uni asrab-avaylash uchun xonaki it asrash va uni hayvonlarga ozor bermaslikka o'rgatish qonun qoidalari mavjud.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» hozirgi O'zbekiston hududida miloddan oldingi II ming yillik o'rtalarida yashagan qabilalarning diniy va dunyoviy mafkurasi, ilk davlatchilik ijtimoiy-siyosiy tuzumi, huquqi haqida asosiy manba sifatida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Buyuk mutafakkirlar, shoir va faylasuf davlat arbobi va qonunshunos, din ilohiyotchisi Zaotor yoki Otorbon unvonlari sohibi, o'z davri payg'amblari payg'ambar Sipitamon Zardushtiy 630–550-yoki 618–541-y. paytda Markaziy Osiyoda ko'chmanchilikka asoslangan turmush-tarzi inqirozga uchray boshlagan Turon zaminida azaldan el

bo'lib yashab kelayotgan turkiylar, forslar, saklar, osiyoliklar, toxarlar, daxllar, massagetlar, baktriyaliklar, parkanaliklar, xorazmliklar, chochlik va boshqa xalqlarning aksariyati ko'chmanchilikdan o'troq hayotga, dehqonlik, chorvachilik va hunarmandchilikka o'ta boshlagan edi. Bu esa qadimgi Xorazm, So'g'd, Marv, Balx Nisoya, Hirot, Parfiya va boshqa o'lkalarda markazlashgan davlat tizimi asoslarining yaratilishiga sharoit tug'dirgan edi.

«Avesto»ning Videvdat kitobida Oliy Tangri yaratgan 16 ta davlat (o'lka)ga oid ma'lumotlar uchraydi.

«Men har bir sarzaminni, garchi ular rahotboxsh bo'lmasa-da, xalqlari nazadida xush qilib yaratdim.

Men Axura Mazda yaratgan ilk sarzamin va birlamchi yurt bu Domitiy daryosi sohilidagi Iyron Vij edi.

2-go'zal yurt Sug'd (Tavo) 3-go'zal yurt, qudratli va pok Marv, 4-zebo va orasi Balx, (Baxl, Baqtriya), 5-Baxl va Marv orasidagi Nisoya 6-Xirot va uning daryochasidir, 7-badsoyali Vaixa Girta, 8-Keng yaylovli Avravadir (Tus viloyati), 9-Go'rg'ondagi Xnintadir, 10-dilkash Xaravayata (Xirot), 11-Serhosil Xiyrmad, 12-uch baxodir hukmron bo'lgan Raydir, 13-qudratli va pok Chapradir, 14-Ajdaxoni mag'lub etgan Faridun dunyoga kelgan 4 go'shali Varinadir, 15-Xafrud, 16-Rangha daryosi atrofidagi xalqlar yashovchi makon”.

«Avesto»da bayon etilishiga, bu qadimgi 16 mamlakatning hududiy-ma'muriy va siyosiy-huquqiy boshqaruv tizimi quyidagicha tashkil etilgan. Davlatni- podshoh «kavi» boshqargan, kavi muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy masalalarni o'zida mujassamlashtirgan. Tarixchilarning fikriga ko'ra, «kavi»ning hukmdorlik huquqi belgilanishida «farr» (Avestoda Xvarno) asos sifatida qabul qilingan, ya'ni oliy dunyoviy hokimiyat sulolaning (vakilidan ikkinchisiga o'tishida muayyan ilohiy belgi sodir bo'lar, ya'ni muayyan bir jonivor yoki yog'du shu'lasini hukmronlikka tanlangan kishilarni ko'rsatadi. Oilalarning birlashmasi, «nmana», uy, oila jamoasi “dmana”, katta oila jamoasi oqsoqoli “nmanapati”, urug' jamoasi boshlig'i “vis”, katta qishloq oqsoqoli «vispati» qabila boshlig'i «zantupati», viloyat hokimi “daxiyupati” (bir necha viloyatlarning boshlig'i va harbiy boshliq “daxiyu sastar”). Qonun chiqaruvchi organ oqsoqollar kengashi «varzanapati» deb, xalq Majlisi esa «vyaxa» deb atalgan. Oqsoqollar Kengashining uyushmasi kohin Oliy sudya vazifasini bajargan, uni “Zaraushtroema” deb atashgan, uning hukmi qat'iy bo'lgan, unga hech kimning e'tiroz bildirishga haqqi bo'lmagan. Oqsoqollar kengashi-varzanapati qo'lida diniy mafkura va hokimiyat

birlashgan. Ular jamoa faoliyatidagi ijtimoiy-huquqiy va xo‘jalik masalalarini hal etganlar. Katta oila jamoasi oqsoqoli “nmanapati” oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshliq hisoblangan. «Vis» muhim ijtimoiy siyosiy va huquqiy vazifalarini bajargan. U katta oila jamoasi oqsoqollari «nmapati»lar ichidan saylanib, urug‘ jamoasi boshlig‘i, qozi, diniy kohin, rahnamo hisoblangan. «Daoxiyu sastar»lar bir necha qabilalar yashaydigan ma‘muriy hududni, viloyatlar va yirik o‘lkani va harbiy qo‘mondonlik boshqaruvi vazifasini bajargan. Ular tomonidan chiqarilgan har qanday nizomlar va buyruqlar jamoa a'zolari uchun muqaddas qonun vazifasini bajargan.

Jamiyat aholisi 4 toifaga bo‘lingan. Kohinlar, jangi askar, chorvador va hunarmandlar. («Yasna», 19 bob) qullar ham bo‘lgan ular –“vaysa”, oila xizmatkorlari «Viranmaja», insoniy huquqlari cheklangan cho‘pon-“payshautar” deb atalgan. Asosiy boylik jamoa boshliqlari, oqsoqollar, sarkardalarning qo‘lida to‘planib, «gayta» boylik yoki xususiy mulk degan ma‘noni anglatadi.

«Avesto»da jamiyat to‘rtta asosiy qismga bo‘linadi. Uy, oila jamoasi - «nmana», «dmana», urug‘ jamoasi - «vis», «qabila», «zantu», qabilalar ittifoqi - «dahiyu» deb atalgan. Vis 15 ta qarindosh nmanadan tashkil topgan. Visga qizning farzandlari kirmagan. Chunki “vis” mutlaqo patriarxal oila bo‘lgan. Jamiyat iqtisodiy asosini urug‘ jamoasi tashkil etib, ijtimoiy huquqiy vazifani bajargan.

Zardushtiylik ta‘limotiga ko‘ra Markaziy Osiyoda davlatchilikning shakllanishi 3 davrga bo‘linadi.

1-eng qadimgi davrda adolat va insoniy saodat hukmron bo‘lgan (Yasna 32)

2-davr ezgulik ruhlari bilan yovuzlik ruhlari o‘rtasida adolat uchun kurash.

3-davr - aql-idrok va adolat tantana qiladi va bu davrda dehqonlarning badavlat, davlatning mustahkam bo‘lishi uchun yaxshilik ta‘limini va sadoqatini amalga oshirib, yaxshi hokimlar hukm yuritaversinlar, adolatli qonunlarni amalga oshirsinlar (Yasna,48).

Zardushtiylik ta‘limotida rostlik va haqiqat uch ma‘naviy-huquqiy g‘oyaga asoslanadi: ezgu fikr, ezgu kalom (so‘z), ezgu amal (ish).

«Avesto»da Oila va nikoh munosabatlari quyidagicha tartibga solingan:

15 yoshga to‘lganlar balog‘at yoshida hisoblangan. Bu o‘smirlar zardushtiylikka e‘tiqod ramzi sifatida beliga yung ipakdan to‘qilgan kamar bog‘lab yurishi va «otashparastlar ibodatxonasida o‘tkaziladigan diniy

marosimlarda qatnashishi shart bo'lgan». Diniy tarbiya bolaning 7 yoshidan otashparastlik ibodatxonasida boshlangan: 1) diniy va axloqiy tarbiya. 2) jismoniy tarbiya. 3) o'qish va yozishga o'rgatishdan iborat bo'lgan.

«Zardushtiy»larda bolalarning axloqiy, aqliy, jismoniy, jinsiy hislarni, rostgo'ylik, vatanparvarlik, saxiylik fazilatlarini tarbiyalashga jiddiy e'tibor berilgan.

O'g'il bolalarga kurash tushish, otga suvliq solish, uni egarlash, mol boqish, urchitish, tuya-otlarni parvarishlash, ularni boshqara olish, ularni yirtqich hayvonlardan himoya qilish uchun 50dan ortiq harbiy qurol ishlata olish malakasini egallash majburiy bo'lgan. Ularga chavandozlik va 32 xil harbiy hunar o'rgatilgan.

Qiz bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Qiz bolalarning ip yigirish, liboslar tikish, o'g'il bolalar bilan kurash tushish, chavandozlik, qilichbozlik, suvda suzish, kamondan o'q uzish kabi jismoniy-harbiy malakani egallashi majburiy bo'lgan. Ana shundan so'ng qizlar 15, o'g'il bolalar 16 yoshida oqsoqol boshchiligida jamoa oldida maxsus imtihondan o'tkazilgan. Qizlar «kadbonu» ya'ni, «uy bekasi», yigitlar esa, «kad xudo»-«oila boshlig'i» bo'lish huquqini qo'lga kiritganlar.

«Avesto»da o'smirlar 15-16 yoshlarida balog'atga yetgan va turmush qurish huquqiga ega deb ko'rsatilgan. Agar erkak zurriyod qoldirish qobiliyatiga ega bo'lsa-yu, ammo uylanmasa unga tamg'a bosishar yoki beliga zanjir bog'lab yurishga majbur qilishgan. Yer yuzida zurriyotni ko'payishiga qarshi chiqib, turmush ko'rmay yurgan qizni qopga solishib, 25 darra kaltaklashgan. Zardushtiylik dinida erkak kishi sog'lom bo'lishi uchun o'z vaqtida to'yib ovqat yeb yurishi olqishlanadi. Serfarzandlik ham qo'llab-quvvatlangan. Zardusht Axuramazdadan «serfarzand xonadonga nima berasan» deb so'ralganda: u «bunday odamlarni o'z himoyamga olaman, hayotini farovon, rizqini mo'l qilaman» deb javob beradi.

«Avesto»da qarindoshlarning o'zaro oila qurishi qonun bilan qat'iy man qilingan. Ko'p bolali ayollarga tuyalar berilgan. Bolasini nobud qilgan ayollar esa o'limga mahkum etilgan. Shuningdek oilasini, bolalarini sarson qilgan oila boshlig'iga, zinoga berilgan erkak va ayolga nisbatan darra bilan kaltaklash yoki o'lim jazosi qo'llanilgan. Bir yo'la 2-3 ta farzand ko'rgan ayolga bir juft sog'in sigir, sariq tuya berilgan, davlat xazinasidan nafaqa to'langan.

Jinoyat va jazo. Zardushtiylik aqidasisiga ko'ra, yolg'on gapirish, bironi aldash gunoh, ya'ni jinoyat hisoblanadi. Tabiatga nisbatan qo'pol

muomalada bo'lganlarga ham jazolar tayinlangan, yer, suv, tuproq, olov, muqaddas hisoblangan.

«Avesto»ning «Videvdat» qismining 5-bobida tabiat va atrof-muhitni bulg'aydigan va turli kasalliklar tarqatadigan hayvon va hashoratlarni yo'qotishga kuchli da'vat etilsa-da, lekin uy jonivorlarini ehtiyot qilishga chaqirilgan. Suv yoki (OV) itini o'ldirgan kishi 10.000 barsuk, 10.000 ruhiyatni tetiklashtiradigan o'simlik bargi terib berish lozim. Shuningdek, u 1000 ta echkiemar, 1000 ta suv qo'ng'izi, 1000 ta kasal tarqatuvchi pashshani o'ldirib gunohini yuvishi lozim bo'lgan.

Bu haqidagi qonunlar «Avesto»ning «Videvdat («Viy dayevo datem-romiycha devlarga qarshi qonun») nomi bilan atalgan bobida shaxsning suvdan foydalanish, jinoyat va jazo, oila-nikoh, mulki bilan bog'liq huquqlarni tartibga soluvchi qoidalar o'z aksini topgan. Ushbu qonunning 13-15 boblarida suvni tejash, uni qadrlash, undan unumli foydalanish haqidagi qoidalar bitilgan. Unda har kuni ikki marta sug'orish mumkinligi, har bir ekin ekuvchi bir belkurak kenglik va chuqurlikdagi ariqqa sig'adigan suv olishga haqli ekanligi, suvni taqsimlash ishlarini kohanlar amalga oshirganligidan dalolat beradi. Jumladan, odam yoki it o'ligini yerga ko'mib uni olti oygacha qazib olmagan kishi ming darra, agar bir yilgacha qazib olmasa, u holda uni 2 ming darra urish bilan jazolanishi ko'rsatilgan.

«Videvdat»da murdani yoqqan kishiga nisbatan o'lim jazosi belgilangan. Sudya vazifasini kohanlar, jamoa boshliqlari amalga oshirgan.

«Asha» ya'ni haqiqatning ilohiy ifodasi bo'lib, bunga ko'ra, ikki xil majburiyat tan olinadi. 1-si biror harakatni sodir etish yoki etmaslik majburiyati, 2-si bu bitim yoki shartnoma hisoblanib bunga ko'ra tomonlar o'zaro biron narsa to'g'risida kelishishadi. Ikkala holda ham, kuch ichilgan qasamda bo'ladi. U kuch ilohiy hisoblangan, qasam ichib ahd qilgan kishini o'z ahdini bajarmagan yoki uni buzgan hollarda haqligini isbotlash uchun **Ordaliya (sinab ko'rish usuli)** o'tkazib, sinash usulida o't bilan sinash, ko'kragiga qizigan temirni bosish kabilar qo'llanilgan.

Agar qasam bilan bog'liq bo'lsa, suv bilan, shartnomaga oid bo'lsa o't bilan sinash yo'li bilan aybdor yoki gumondorga o'zini haqligini isbotlashga imkon berilgan. Zoroastr joriy etgan ordaliyaning 33 usuli mavjud bo'lgan. Ayblanuvchi o'z yonida turgan kishining oyoqlarini ushlab turgan holda suvga sho'ng'igan ana shu paytda kamondan o'q uzilgan, chopqir kishi o'q ketidan yugurgan u o'qini suv tagidagi aybdor o'lib qolguncha keltirsa, qasam xudosi Varuna aybdorni afv etgan hisoblangan. O't bilan sinashda yonayotgan ikki qator o'tli chamberaklar

orasidagi tor yo‘lakdan yugurib o‘tish lozim bo‘lgan, agar tirik qolsa, shartnoma xudosi Mitra uni aybsiz deb hisoblab uni afv etadi. Qaynab turgan suyuqlik, yog‘, suv bilan sinash, sovuq suv bilan sinash, daryo suviga uloqtirish bilan sinash usullari qo‘llanilayotganda maxsus tayyorlangan o‘simlik shirasini (o‘simlik shirasiga sut aralastirib tayyorlangan, mast qilmaydigan) ichirib sinalgan. Xivchinlar bog‘lami bilan urib sinash keng qo‘llanilgan.

Nazorat uchun savollar

1. “Videvat” nima ma'noni anglatadi?
2. “Avesto”da dastlabki nechta davlat haqida fikr yuritiladi?
3. “Avesto”da qaysi xalqlarning ko‘chmanchilikdan o‘troq hayotga o‘tishi o‘z aksini topgan?
4. “Avesto” bo‘yicha qonun chiqaruvchi organ qanday nomlangan?
5. “Zarushstroema” qanday vazifani bajargan?
6. Zardushtiylik ta'limotiga ko‘ra, Markaziy Osiyoda davlatchilikning shakllanishi nechta turga bo‘linadi va ular qaysilar?
7. “Kadbonu”, “Kadxudo” qanday huquqni anglatadi?
8. “Avesto” bo‘yicha ordaliyaning nechta turi berilgan?
9. “Avesto” da sud ishlari qanday yuritilgan?

Adabiyotlar:

1. I.Jabborov. Antik madaniyat va ma'naviyat xazinasini. T., «O‘zbekiston» 1999-y.
2. T.Maxmudov. «Avesto» haqida. T., «Sharq» 2001-y.
3. Toxir Karim. Muqaddas «Avesto» izidan T, Cho‘lpon., 2000-y.
4. H.Boboyev. S.Hasanov T., «Avesto» ma'naviyatimiz sarchashmasi «Adolat» 2001 y.
5. A.Saidov., J.Toshqulov O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. IIV Akademiyasi. T., 1995-y
6. «Avesto»- insonparvarlik va ezgulik chashmasi. T., «Kuch adolatda», 2000-yil, yanvar soni 7-b.
7. Z.Muqimov. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. Samarqand. “Zarafshon”, 1998.
8. M.Hamidova. «O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi». O‘quv qo‘llanmasi. T. TDYI. 2004.

O‘rta asrlarda Movarounnahr davlati va huquqi (XIII asrgacha)

Reja:

- 1. O‘rta Osiyoda arablar hukmronligining o‘rnatilishi**
- 2. Arablar hukmronligi davrida Movarounnahrning boshqaruv tizimi.**
- 3. Islom dinining yoyilishi va uning Movarounnahr siyosiy ijtimoiy va huquqiy hayotidagi o‘rni.**
- 4. Somoniylar davlati va huquqi.**
- 5. Qoraxoniylar davlati va huquqi.**
- 6. Saljuqiylar davlati va huquqi.**
- 7. G‘aznaviylar davlati va huquqi.**
- 8. Xorazmshohlar davlati va huquqi.**

Arablar O‘zbekiston hududini bosib olishda Xurosonni o‘zlarining tayanch nuqtalariga aylantirganlar. O‘sha yerda turib, O‘zbekiston hududini «Movarounnahr» - «daryoning orti», «daryoning narigi tomoni» deb ataganlar.

Shu davrdan boshlab «Movarounnahr» degan ibora bizning hududimizga nisbatan ishlatiladigan bo‘lgan. Markaziy Osiyo yerlariga birinchi bor lashkar tortib kelgan hukmdor Ziyod ibn Abu Sufyondir. U 666-yilda (hijriy 46-yilda) Amudaryo bo‘ylarigacha keladi, Marvni egallab katta boylik va o‘ljalar olib yurtiga qaytib ketadi. O‘rta Osiyoning qulay va go‘zal tabiiy iqlimi va sharoiti hamda behisob boyliklari mol-dunyoga o‘ch arab sahroyilarining tinchligini buzgan edi. Har ikki o‘rtada shartnoma-bitim tuzilgan bo‘lsa-da, Ubaydulloh o‘rniga Xuroson amiri etib tayinlangan Sa‘id ibn Usmon 676-yilda Buxoro ustiga qo‘shin tortadi. U juda ko‘p hiyla-nayranglar ishlatib Buxoro va unga yordamga kelgan So‘g‘diyona, Kesh, Nasaf qo‘shinlarini tor-mor keltiradi. Buxoro podshosi Xotun ibn Usmonning talabi bilan uning huzuriga borishga majbur bo‘ladi va juda ko‘p o‘lponlar to‘lab, shahzoda va aslzodalardan 80 kishini garovga beradi. Shundan so‘ng, arablar Movarounnahr va Samarqandga yurish qilganlar. Ular bu joylarni egallab, juda ko‘p boyliklarni qo‘lga kiritganlar va samarqandliklardan 30 ming kishini asirlikka olganlar.

Sa‘id ibn Usmon garovga olingan Buxorolik shahzodalarni Marvga qaytishda ozod qilishga so‘z bergan. Lekin u va‘dasida turmaydi va shahzodalarni aldab Madinagacha olib borib ularni barcha zarbop kiyimlarini yechib olib qullarga aylantirgan. Erkparvar buxoroliklar

bunday haqorat va pastkashlikka chiday olmasdan Sa'id ibn Usmon saroyiga bostirib kiradilar va avval uni, so'ngra o'zlarini o'ldiradilar. Narshaxiyning yozishicha, Buxoro aholisi har safar islom lashkarlari kelganda musulmon bo'lar, arablar qaytib ketgandan so'ng, esa yana dindand qaytar edilar. 704-yilda Xuroson taxtiga Qutayba ibn Muslim o'tiradi va Xurosonni batamom o'ziga bo'ysundiradi. Ana shu davrdan e'tiboran arab bosqinchilari tomonidan Movarounnahrni zabt etishning ikkinchi davri boshlanadi. Narshaxiyning ma'lumot berishicha, Qutayba katta tayyorgarlikdan so'ng sakson sakkizinchi yili (12-dekabr 706- 30 noyabr 707) Jayhun daryosidan o'tadi. Poykand aholisi bundan xabardor bo'lib, shaharni juda mustahkam devor bilan o'raydilar. Shuning uchun ham uni «jez shahar» deb atashgan. Musulmonlar qattiq va shiddatli janglardan so'ng, bu shaharni egallashgan. Ikki o'rtada sulh tuziladi. Qutayba Poykand shahriga amir etib, Varqo ibn Nasr Bobiliyni tayinlab, o'zi Buxoro tomon yurishni davom ettiradi. Poykandda hukmron bo'lib qolgan Varqo shahar xalqiga jabr va zulm o'tkazadi, axloqiy buzuv ishlar bilan shug'ullanadi. Bunga javoban shahar fuqarolari qo'zg'olon ko'taradilar. Qutayba bu xabarni eshitib tezda orqasiga qaytadi va qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostiradi. Uning buyrug'i bilan arab sahroyilari shaharni talab, xarob qiladilar.

Qutayba Poykandni batamom o'ziga bo'ysundirgach, uning atrofidagi barcha qishloqlarni ham egallaydi va 707-yilda (89) Kesh, Naxshobni fatx qiladi. 708 (90)-yilda Vardan (hozirgi Vardonze) ustiga yurishga tayyorgarlik ko'rayotganda kutilmagan qarshilikka duch keladi. Turk xonlari Qutaybaga qarshi ittifoq tuzib, Torob, Xunbun va Romiton oralig'ida uni ko'p lashkar bilan o'rab oladilar. Xitoy podshosining jiyani Ko'rmag'onun ham bu ittifoqqa qo'shiladi. Natijada Qutayba og'ir ahvolga tushib qoladi. Qutaybaning yaqin kishilaridan bo'lgan Xayyoni Nabatiy ishlab chiqqan reja asosida musulmon arablar og'ir vaziyatdan eson-omon qutiladilar. Ular Tarxunni aldov bilan safdan chiqarib ittifoqchilar safini bo'lib yuboradilar. Qutayba bilan So'g'd podshosi sulh bitimi tuzadi. Bitimga ko'ra, Tarxun arablarga har yili ikki million dirhamdan xiroj to'laydigand bo'ladi.

G'oyatda og'ir vaziyatdan ustamonlik bilan chiqib ketgan Qutayba endi asosiy zarbani kuchli raqib, lekin laqma siyosatdon so'g'd hokimi Tarxunga qarshi qaratadi. O'rtada tuzilgan sulh shartnomasiga qaramasdan, o'zaro kelishuv asosida Samarqanddagi masjid qurilishini tezlashtirish bahonasida shaharga g'isht teruvchilar o'rniga 4000 qurollangan arab kiritiladi. Shahar talanib, aholi qirg'in qilinadi. Tarxun

ham qatl etiladi. Sosoniylarning eng so'nggisi Yazdigardning qizi asir olinadi va u Xalifa Validga yuboriladi. Samarqandda qo'lga olingan oltin butlar va ularning jihozlari 50 ming misqolni tashkil etadi. Samarqandni egallashda 300 ta devor-buzar moslamalar ishlatilib arablar Samarqandni batamom vayron etadilar. Nihoyat Samarqandning yangi hokimi Gurak (709-738) bilan Qutayba o'rtasida sulh bitimi imzolanib, bu bitimga ko'ra u arablarga yiliga 2 mln 200 ming dirham tovon to'lashi kerak bo'ladi. Yana arablarga 300 ming sog'lom kishini qul o'rnida berish sharti ham bor edi. Shartnomaga asosan shahar markazi arablarga bo'shatib beriladi. Qutayba u yerda (Afrosiyobda) masjid qurdiradi.

Shunday qilib, sahroyi arablar dunyoning eng qadimiy va madaniyat o'lkalaridan biri bo'lmish Movarounnahrni o'z mustamlakalariga aylantiradilar. Movarounnahr hududida yashagan ajdodlarimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda sahroyi arablarga qaraganda anchagina oldinda edilar.

Nima sababdan ularni arab istilochilari nisbatan tez va oson bosib olishga muvaffaq bo'lganlar? Buning sabablari – birinchidan, o'lka xalqlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy birlikning bo'lmaganligi va feodal tarqoqlikning mavjudligidadir. Arablar Movarounnahrda kichik-kichik feodal davlatchalar tarqoqlikdan ustalik bilan foydalanganlar. Ikkinchidan, arablar ko'manchi turk qabilalari bilan mahalliy o'troq xalqlar o'rtasida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklardan ham foydalandilar. Uchinchidan, arablar Movarounnahrqa qadar juda ko'plab boshqa mamlakatlar va aholi hududlarini bosib olgan edilar. To'rtinchidan, arablar Movarounnahr hududlariga bostirib kelganlarida, bu yerda ko'pdinlik hukm surardi. Bu hol arablarga qarshi o'lkamiz hududi xalqlarining birlashuviga to'sqinlik qilgan va arab bosqinchilarining g'alabasini yengillashtirgan.

Arablar talonchilik siyosatini yuritib, O'zbekistonning juda ko'p madaniy boyliklarini vayron qilganlar, juda katta o'ljalarni qo'lga kiritganlar va mahalliy aholining katta qismini qullarga aylantirganlar. Manbalarda Qutayba ibn Muslim O'rta Osiyodan 100 mingtaga yaqin asirlarni qul qilib olib ketganligi ko'rsatiladi. Arablar bosib olgan yerlariga o'zlarining dini- islomni va u bilan birga xalifalikda hukmron bo'lgan feodal huquqiy tizimi – musulmon huquqi yoki shariatni kuch bilan joriy qilganlar.

Xalifalikning talonchilik va mahalliy xalqni huquq jihatdan ezish siyosati mahalliy madaniyatni yemirish, arab tili, yozuvi va islom dini aqidalarini zo'rlab o'rnatish xalq g'azabiga duch kelgan. Kuchli

qo'zg'olonlar ham bo'lgan. 720-722 va 728-yillarda So'g'dda katta xalq qo'zg'olonlari ko'tarilgan. Keyinchalik Abu Muslim, ayniqsa Muqanna boshchiligidagi qo'zg'olonlar shafqatsiz bostirilgan bo'lsa ham, ammo ular xalifani larzaga keltirilgan.

806-yilda So'g'dlarning Samarqandda Rofe ibn Lays boshchiligidagi boshlagan qo'zg'oloni tez orada Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo va Xorazmga yoyilib, xalifalik qo'shinlari bu qo'zg'oloni bostira olmagan. Zodagonlarning xoinligi tufayligina bu qo'zg'olon bostirilib, uning rahbarlari qatl etiladi. Shundan so'ng Xuroson va Movarounnahrda hokimiyat mahalliy zadogonlar qo'liga o'tgan. Xalq ommasining bosqinchilarga qarshi fidokorona olib borgan kurashi tufayli mahalliy sulola boshchiligidagi mustaqil davlat tuzishga sharoit yaratilgan.

Arablar O'rta Osiyoda o'z hukmronliklarini o'rnatish bilan bu yerda mustahkam o'rtnashib qolishga harakat qilganlar. Shu maqsadda ular bosib olingan shahar va qishloqlarga butun-butun oilalari bilan kelib joylashganlar, mahalliy aholining uylarini, mol-mulklarini zo'rlik bilan tortib olganlar. Masalan, arablar tomonidan Buxoro va Samarqand bosib olingandan keyin Qutayba aholidan uylarining yarmini arablarga berishni talab qilgan. Xonadonlarga kirib olgan arablar o'zlarini katta tutar, sahoba avlodidanmiz deb pesh qilar edilar. Shuning uchun ham keyinchalik ular xo'ja nomi bilan tanilib ketadi. Demak, tarixdan xalqni xo'ja va fuqaro (qora xalq)larga ajratish o'sha vaqtlardan boshlagan.

Mahalliy aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik hisoblangan. Bu davrdagi butun dehqonlar ommasini ozod dehqonlarga, yarim qaram (kadivar) dehqonlarga yoki qullarga ajratish mumkin. Chorikorlik ijarasining keng tarqalishi natijasida kadivarlar soni o'sgan. Badavlat yer egalari o'zlarining yirik xo'jaliklariga ega emas edilar. Ular o'z yerlarini mayda qismlarga ajratib, dehqonlarga turli shartlar asosida bo'lib berganlar. Bunday chorikorlik ijarasi asosida yer olgan dehqonlar egalariiga hosilning yarmini 1/3 yoki 1/4 qismini berishlari lozim edi. Chorikor kadivar, erkinlikka chiqarilgan qul yoki qul bo'lishi mumkin edi. Ba'zan erkin dehqonlar ham kam yerli bo'lgani tufayli xonavayron bo'lib, hosilsizlik yoki boshqa sabablar bilan chorikor bo'lib qolishar edi.

Xalifa davlat yerlarini shaxslarga "iqto" tariqasida tuxfa qilgan. Davlat yerlari ayrim harbiy yo'lboshchilar va amaldorlarga umr bo'yi yoki merosiylik tariqasida berilgan. Biroq yerlarning asosiy egasi xalifa sanalar va u iktodordlardan ushr olish huquqiga ega edi.

VIII asr o'rtalariga kelib Movarounnahr hudududa siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirilgan edi. So'g'diyonada

buxorxudotlar va boshqa hukmdorlarning qo‘li ostidagi ma‘muriy idora usuli o‘z shaklini saqlab qolgan bo‘lishiga qaramay, hokimlarning xalifa noibiga itoat etishlari shart edi. Mahalliy davlat boshliqlarining ko‘pchiligi o‘z huquqlari va imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida islom dinini qabul qilgan edilar. Islomni qabul qilmagan zodagonlar o‘z yerlaridan mahrum etilar yoki tovon to‘lar edilar.

Arablar Movarounnahrni istilo qilganlaridan so‘ng, bu hududning yer-mulkari xalifaga qarashli bo‘lib qoldi. Ilgari yerlar Buxoroda yirik zodagon – buxorxudotlarning xususiy mulki sanalsa, endilikda ular xalifalik mulklariga aylandi.

Xalifa davlatni boshqarishda vazir ul-vuzaro (ulug‘ vazir)ga tayangan. Harbiy ishlar, harbiy qo‘shinlar amir ul-umaro qo‘li ostida edi. Xalifa turli masalalarni devon ad-dar, ya‘ni kengashda ko‘rib chiqar edi. Devon ad-dar uchta asosiy devonga bo‘lingan ular devon al-mashriq, devon al-mag‘rib va devon al-xarajdan iborat bo‘lgan. Movarounnahrda tegishli masalalar devon al-mashriqda hal etilar edi.

Xalifa viloyat noiblarini lavozimiga tayinlash yoki bo‘shata olish huquqiga ega edi. Xalifalikning huquqiy masalalari Qur‘oni Karim va Payg‘ambar ko‘rsatmalari, nasihatlariga asoslangan holda ko‘rib chiqilgan.

Dehqonlarning arab zodagonlari bilan qon-qarindoshlik rishtalarini bog‘lashi, ularga katta imtiyoz berar edi. Birinchidan, ular o‘z hukmronlik mavqelarini saqlab qoldilar, ikkinchidan, ma‘lum miqdorda xalifa xazinasiga soliq berish bilan o‘z yerlarini ixtiyorlarida qoldiradilar. Ijaraga berishni kuchaytirishi bilan ularning ijtimoiy nufuzi kadivarlarga nisbatan ancha yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Dehqonlarning qaramog‘idagi kam sonli qullar ham ozodlikka chiqib ijarachilarga aylandilar.

Yirik yer egalari dehqonlar arab xalifaligi davrida ham o‘z yerlarining egalari bo‘lib qoldilar, biroq ular endilikda ijaradorlarga aylanib, daromadning ma‘lum qismini xalifalik xazinasiga jo‘natish majburiyatini olgan edilar. Islomni qabul qilmaganlar soliq to‘lovchilar sanalar va ular zilmmiyar deb atalar edi.

Yirik yer egalari dehqonlar yerlarini mayda bo‘laklarga taqsimlab ziroatkorlarga ijara tarzida bo‘lib berishgan.

Arablar Turkiston yerlarini bosib olgandan keyin oddiy xalqning ahvoli yanada og‘irlashib ketdi. Uning yelkasiga yangi soliqlar solindi. Xalifaga juda katta miqdorda o‘lpon jo‘natilar edi. Bu albatta oddiy xalqdan olinadigan turli soliqdan yig‘ilar edi. Arablar Movarounnahr xalqidan mumkin qadar ko‘proq boylik undirib olish siyosatini olib borganlar. Ular dastlabki yilda islomni qabul qilganlarga ba‘zi imtiyozlar

berganlar. 728-yilda islomni qabul qilganlar «xiroj» solig'i (ekilgan hosilning 1/4 hissasi miqdorida) va «juzya» (jon boshiga solinadigan soliq)dan ozod qilinganlar.

Lekin keyinchalik xalifaning daromadlari ancha kamayib ketadi. Biroq tez orada Arab xalifaligi O'rta Osiyoda o'z mavqeini tamoman mustahkamlab olgach, musulmon va musulmon bo'lmagan xalqdan ham bir xilda soliq olinadigan bo'ldi. Xirojning miqdori hosilning yarmiga to'g'ri kelgan. Bulardan tashqari aholidan yana bir keng tarqalgan soliq-zakat olinar edi.

Bu soliq chorvadan, hunarmandchilik va savdodan keladigan daromadning 1/40 qismi miqdori olingan. Soliq yig'uvchilar «amil» deb atalgan. Bag'dodning maxsus soliq yig'uvchisi Buxoroga kelib soliqlarni o'zi jamlab olib ketgan. Soliqlar pul yoki mahsulot shaklida to'planib turilgan.

Soliqlar uch xil shaklda yig'ilgan:

1. "Qavonin yoki muqati'a" – mayda viloyatlar va tumanlardan xazinaga tushib turgan yig'in.

2. "Maqosima" – hosilning ma'lum ulushi miqdorida to'langan. Uning xajmi sug'orishga bog'liq holda belgilangan.

3. "Misoxa" – yer hajmiga qarab miqdori belgilanadigan soliq bo'lib, unda ekin ekilishi yoki ekilmasligiga e'tibor berilmagan.

O'zbekiston hududi arablar tomonidan bosib olinganidan so'ng Arab xalifaligi tarkibiga kirgan. Arab xalifaligi feodal teokratik davlat bo'lib, uning tepasida xalifa turgan. Xalifaga davlatdagi barcha dunyoviy hamda diniy hokimiyat tegishli bo'lgan. Arab xalifaligi tomonidan bosib olingan viloyatlar tepasida xalifa tomonidan tayinlanadigan amirlar turgan. O'zbekiston hududini xalifaning Xuroson va Movarounnahr bo'yicha noibi idora etgan.

Noib alohida shaharlar va aholi punktlarining hokimlarini, shayxlarini tayinlagan. Ular mahalliy aholidan o'lponlar yig'ish hamda jamoat tartibni saqlab turish kabi vazifalarni bajarib turgan. Ba'zi shaharlarning hokimlari ma'muriy-moliyaviy huquqlardan tashqari hatto harbiy kuchlarni ham boshqarganlar. Ko'p joylarga arablar o'z harbiy qismlarini joylashtirgan edilar. Ular mahalliy aholini tutqunlikda ushlab turganlar. Arablarning ma'muriy apparati va mirshablari bo'lgan, hokimlarning esa shaxsiy qo'riqchilari mavjud edi.

Arablar Movarounnahrni istilo etish jarayonida islom dinini va shu bilan bir qatorda musulmon qonunchilik tizimini ham joriy qildilar. Islom huquqshunosligining asosini shariat tashkil qiladi.

Shariat asosan quyidagi manbalarga asoslanadi.

1. Qur'oni Karim – musulmonlarning muqaddas kitobi.
2. Hadisi Sharif – Muhammad Payg'ambar nasihatlari, ko'rsatmalari va faoliyati bilan bog'liq axloqiy, huquqiy me'yorlar.
3. Xulafoyi Rashidinning odil qarorlari va farmoyishlari.
4. Ijmo'-nufuzli, obro' e'tiborli musulmon huquqshunoslarining turli savollarga javoblari va qarorlari.

Islom dinida fatvo atamasi keng qo'llanilib, u islom qonunshunosi oliy martabali va nufuzli shaxslarning, dunyoviy hukmdorlarning qarorlari va farmonlarini yozma ravishda tasdiqlanishini anglatadi.

Islom qonunchiligini amalga oshiruvchi huquqshunoslar ma'lum nomga ega bo'lib, ular o'z ilmiy darajalariga muvofiq muayyan pog'onada turishgan. Qozi sud ishlarini amalga oshiruvchi, sharxlovchi shaxs bo'lib, islom qonunchiligida quyi pog'onada turgan. Qozilar ijtixod, ya'ni oliy qonun ilmini bilishlari shart bo'lmagan. Islom qonunchiligini amalga oshiruvchilar:

Mufatix- vaqf ishlarini amalga oshiruvchi shaxs.

Mujtaxid – oliy darajaga erishgan ilm sohibi, ya'ni ijtixodni to'liq egallagan shaxs.

Shayx ul-islom – eng yuqori pog'onada turuvchi huquqshunos shaxs.

Muftiy – ayrim mamlakatlardagi fatvo beruvchi, qaror chiqaruvchi, sud ishlarini amalga oshiruvchi oliy martabali shaxs.

Islomni qabul qilganlar musulmon yoki musulmonlar deyilgan. Islom jamiyatida hamma Olloh oldida teng, bab-baravar hisoblangan.

Har qanday inson, u tug'ilishi va qaysi ijtimoiy toifaga mansub bo'lishidan qat'i nazar, shariatda bir xil va teng huquqqa ega sanaladi.

Islom qonunshunosligi mohiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Huquq olloh - insonlarning olloh oldidagi majburiyatlari.
2. Huquq an-nos- insonlar o'rtasidagi huquq va majburiyatlar.

IX asrga kelib arab xalifaligining siyosiy inqirozi yuz beradi. O'rta Osiyo aholisining arablar zulmiga qarshi qo'zg'olonlari bu inqirozni yanada chuqurlashtirib yuboradi. Ayniqsa 806-yilda so'g'dlarning Samarqandda boshlagan Rofe ibn Lays rahbarligidagi qo'zg'oloni tez orada Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo va Xorazm vohalariga ham keng yoyiladi. Xalifalik qo'shinlari bu qo'zg'olonni har qancha urinib bo'lsa ham bostira olmaganlar. Shundan so'ng xalifa Xorun ar-Rashidning o'g'li Xuroson noibi Ma'mun mahalliy feodallardan yordam so'rashga majbur bo'ladi. Xalifa ularga mamlakatni idora etish huquqini berishni va'da qiladi. Rofe ibn Lays feodallarning so'ziga quloq solib, qo'zg'olonni

to'xtatdi va arablarga taslim bo'ladi. 806-yildan 810-yilgacha davom etgan bu qo'zg'olon bostirilgandan so'ng uning rahbarlari qatl etiladi. Xuroson va Movarounnahrda hokimiyat mahalliy zodagonlar qo'liga o'tadi. Shu tariqa Arab xalifaligining O'rta Osiyodagi hokimiyati barham topadi.

Somoniylar davlati va huquqi (874-999)

IX asrda O'rta Osiyo hududida hali ham arablar hukmronligi davom etardi. Ammo erk va hurlik singari olijanob tarixiy an'analarga sodiq bo'lgan avlod-ajdodlarimiz arab bosqinchilariga qarshi kurashni bir daqiqa bo'lsa-da to'xtatmadilar va mustaqil markazlashgan davlat barpo qilishga intildilar. Bu harakat arab istilochilarini har doim tahlika va qo'rquv ostida saqlab turdi. Ular joylardagi hatto o'zlaridan chiqqan hukmdorlarga ham shubha bilan qarar va ishonmas edilar.

Xolid ibn Barmoq – Barmoqiylar misolida buni ko'rib ishonch hosil qilamiz. Barmoqiylar Xuroson va Movarunnahrni idora qilish bilangina cheklanib qolmadilar. Ularning ta'siri markaziy arab xalifaligida ham kuchli bo'lgan. Abbosiylar hukmronlik qilgan davrda qariyb ellik yil mobaynida davlatni idora qilishning ma'sul lavozimlari Balxdan chiqqan barmoqiylarning qo'lida bo'lgan. Abbosiylar bunday ma'suliyatli lavozimlarni barmoqiylar qo'liga berishga majbur bo'lsalarda, biroq ularning faollashib borayotganligidan qo'rqar edilar. 786–809-yillarda xalifalik qilgan Xorun Ar-Rashid barmoqiylar xonadoniga qaqshatqich zarba bergan.

Hokimiyat tepasiga barmoqiylar o'rniga Tohiriylar keladi. Tohiriylar Xurosonning yirik oqsuyak yer egalaridan bo'lib, bu sulolaning asoschisi Tohir Husayn edi. Bu sulola asli Hirot viloyatining Bushgang shahridan edi. Tohir 809-813 yillarda Xorun ar-Rashidning o'g'illari Ma'mun bilan Amin o'rtasidagi bo'lgan kurashda Ma'mun tomonida bo'ldi, unga Bag'dodni va xalifalik taxtini egallashda yordam berdi.

Ma'mun 813-yilda xalifalik taxtiga o'tirgach, Tohir ibn Husayn katta hurmat va e'tiborga loyiq nufuzli kishi bo'lib qoldi. 821-yilda u Xurosonning noibi etib tayinlanadi. Movarounnahr ham Xuroson noibliigi tarkibiga kirardi. Uning qarorgohi Nishopurda edi. Tohir o'z qo'l ostidagi keng viloyatlarni mustaqil davlatga aylantirish uchun ochiqdan-ochiq harakat qildi. U noiblikka tayinlangan kundan bir yil o'tar-o'tmas, jome' masjidida juma namozida o'qiladigan xutbadan xalifa nomini chiqarib tashlashga buyruq berdi. Bu o'sha davr uchun xalifaga qarshi ko'tarilgan isyon bilan teng edi. Bu voqeadan ko'p vaqt o'tmay Tohir ibn Husayn to'satdan vafot etdi. Shundan keyin Tohirning har bir qadamini kuzatib

yurgan xalifa uni zaharlab o'ldirgan degan gap tarqaldi. Xalifa bunday mayda-chuyda gaplarga asos qoldirmaslik maqsadida Xuroson noibliги taxtiga Tohir ibn Husaynning o'g'illari Talxa va Abulabbos Abdullohni navbat bilan qo'ygan. Abulabbos Abdulloh noibliги davrida (830-844) xalifaga rasman qaram-vassal bo'lsa-da, amalda mustaqil davlatga aylanib, poytaxtni Marvdan Nishopurga ko'chirgan. Buning eng asosiy sababchisi xalifalik hukmronligini xavf ostida qoldirgan va tez-tez ko'tarilib turgan xalq qo'zg'olonlari edi. Ana shunday qo'zg'olonlardan biri 806 yilda bo'lgandi. Xalifalikni zirqiratgan bu qo'zg'olon Nasaf, Buxoro, Ustrushona, Shosh, Xorazm va boshqa hududlarni qamrab oldi. Qo'zg'olonga isyonkor arab lashkarboshisi Rafe ibn Lays boshchilik qilgan. Qo'zg'olon Muqanna an'anasalarini davom ettirgan. Bu harakat ayniqsa Shosh viloyati hududlarida kuchli tus oldi.

VIII asrning 80-yillarida Muqanna muxlislari ko'proq yashiringan edilar. Qo'zg'olonni har galgidek turklar yana qo'llab-quvvatladilar. Qo'zg'olonchilar Samarqandni egallashgan. Xalifa Ma'mun bu harakatning xalifat uchun o'ta xavfli ekanligidan tashvishda edi va uni bostirish uchun turli vositalarni ishga solgan. Nihoyat qo'zg'olon 810-yilda bostirilgan. Uni bostirishda Somon ibn Asad qatnashdi. Bu ishda Somonning o'g'illari Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyoslar katta hissa qo'shdilar. Ular aslida Balx viloyatining Somon qishlog'i oqsoqoli Somon hudotning avlodlari bo'lganlar. Somon ibn Asad va farzandlari xizmatlari evaziga xalifa Ma'mun Nuh ibn Asadni Samarqandga, Ahmad ibn Asadni Farg'onaga, Yahyoni Shosh va Ustrushona, Ilyosni Hirotga noib etib tayinlaydi. Shu tariqa Movarounnahrda somoniylar sulolasi qaror topdi.

Albatta, bu yerda Tohirning Somon ibn Asad o'g'illarini yaxshi bilganligi va ularga xayrixohligi ham katta rol o'ynagan. Somon hali Mavrda noib bo'lib turgan paytda Tohir ibn Husayn va xalifa Ma'munning diqqitini o'ziga tortgan edi. Somon Ma'munning ta'sirida otashparastlik dinidan chiqib islom dinini qabul qilgan.

Aniq bo'lmagan ma'lumotlarga qaraganda aka-uka Somoniylarning, xususan Ahmad ibn Asadning ahvoli og'irlashib qoladi. Farg'ona va Ustrushonda xalifalikka qarshi qo'zg'olon ko'tarilib, Ahmad o'z noibliğini tashlab ketadi. Qo'zg'olonni Tohirning o'g'li Talxa bostirgach, Ahmad Farg'onaga qaytadi va bu yerda uzoq vaqt hokimlik qiladi. Nuh Samarqandda 819-820-yildan 841-842-yilgacha, Ahmad Farg'onada 819-820 yildan 864-865-yilgacha, Yahyo Shosh va Ustrushonda 819-820-yildan 855-856-yilgacha noiblik qiladilar.

Noiblik alohida xizmatlari uchun in'om – mukofot tariqasida berilgan. Mansab bilan bir qatorda foydalanish uchun yer mulklar ham hadya qilingan. Somoniylar ikkinchi darajali noiblar bo'lganliklaridan ularga mis tangalar (filuslar), tohiriylarga esa ayni zamonda kumush tangalar (dirham) zarb qilishga ham ruxsat berilgan. Somoniylar in'om qilingan yerlarning naqadar boy bo'lganligini IX asrdagi mashhur arab geografi Ibn Ho'rdodbehning viloyatlarning soliq miqdori to'g'risidagi ma'lumotlaridan bilsak ham bo'ladi. Uning yozishicha butun So'g'd hududi xalifalik xazinasiga tohiriylar orqali 326 ming muhammadiy dirhamdan to'lab turgan. Farg'ona Ahmad ibn Asad orqali 280 ming, Yahyo ibn Asad orqali Shosh – 607 ming, Ustrushon – 50 ming dirhamdan to'lagan. Bunday katta soliqlarni faqat juda boy o'lkalargina to'lashi mumkin edi. Iqtisodiy yuksalish harbiy qudratni ham belgilagan. Movarounnahrda 600 ming suvoriy va piyoda qo'shin bo'lgan. Hozirgi O'zbekistonning shimoliy chegaralariga yaqin viloyatlarida asosan ko'chmanchi turk qabilalari yashagan. Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida ularning shaharlari ko'p bo'lgan. Ko'chmanchi turkiy qabilalar Movarounnahr vohalarida so'g'diylar, farg'onaliklar, xorazmliklar va boshqalar bilan birga umumiy hayot kechirishgan.

IX asrning birinchi yarmidan e'tiboran turkiy – o'g'uzlar Movarounnahrning o'troq va madaniy hayot kechirayotgan vohasi xalqlariga hujumlar uyushtirib, ularni tez-tez bezovta qila boshlaganlar. Shu boisdan ham Abdulla ibn Tohir IX asrning 30-yillarida turk-o'g'uzlardan himoyalaniş uchun Farobod (qizil Arvotga yaqin) va Dohiston (Mashhadi Misriyon)da mustahkam ravotlar qurdirgan, hatto o'z o'g'li Tohirni qo'shinga bosh qilib turk-o'g'izlarga qarshi jang qilish uchun urushga yuborgan. Bunday istehkom devorlari Buxoroda (Kampir devor nomi bilan hozirgacha mashhur), Samarqandda (Qiyomat devor deb ataladi) va boshqa joylarda ham qurilgan.

Ko'chmanchi turk qabilalari XIX asrning birinchi yarmida Yahyo ibn Asad hokimlik qiluvchi Shosh (Chosh)ga tez-tez hujumlar uyushtirganlar. Yahyoning iltimosiga binoan va uning ishtirokida akasi Nuh ibn Asad 840 yilda Isfijobning turk hokimiga qarshi yurishda mustahkam mudofaa devori qurdirgan. Nuh ibn Asad 841-yilda vafot etadi. Manbalarning guvohlik berishicha, Samarqand viloyatini bir vaqtlar aka-uka Ahmad va Yahyo birgalikda idora qilganlar. 855-yilda Ahmadning o'g'li Nasr ibn Ahmad Samarqand noibligiga tayinlanadi. Bu hol Movarounnahrda Ahmad ibn Asad nufuzining oshuviga olib keladi. 856-yilda Yahyo ham

vafot etgan. Ahmad endi Shosh va Ustrushon noibligini ham o'z qo'liga oladi va bu viloyatlarni o'g'li Yoqub ibn Ahmadga bergan.

Ana shu tariqa IX asrning o'rtalariga kelganda Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari va Chag'onrud (hozirgi Surxondaryo) vodiylaridan boshqa Movarounnahrning barcha hududi Ahmad va uning o'g'illari ta'siri doirasiga kirib qolgan. Bu ishga Tohir ibn Abdulla (844-862) qarshilik qilmagan. Chunki endi somoniylar ustidan ilgariyidek ota-bobosi singari hukmronlik qila olmasligini yaxshi bilardi. Sababi, tohiriylar sulolasi borgan sayin inqiroz sari yuz tutmoqda edi.

IX asrning 60-yillaridan e'tiboran tohiriy hukmdorlarga qarshi xalq harakatlari kuchaydi. Bu harakatga Foziylar boshchilik qildilar. (Foziylar asosan ko'chmanchi qabilalar hujumini bartaraf qilish maqsadida kambag'al hunarmandlar va yersiz ziroatchilardan tashkil topgan qurolli qo'shin). Foziylar harakati aholidan ko'proq o'lponlar to'plashga shoshildi. To'plangan o'lponlar past qiymatli dirhamlardan iborat bo'lganligi uchun ularni kumush tangalarga almashtirishni buyurdi. Bu esa aholining g'azabini qo'zg'atdi, xalq qo'zg'olon ko'tarib, Husayn saroyini egallab oldi va uni taladi. Shahar jamoasining yuqori tabaqalari Samarqandga - Nasr ibn Ahmadga o'z vakillarini yubordilar va somoniylar xonadonidan biror kishini hokim qilib jo'natishini iltimos qildilar. Bu taklif albatta Nasrni hursand qildi va u o'z ukasi Ismoil ibn Ahmadni Buxoroga hokim qilib jo'natdi. Ismoil Somoniy 849-yilda Farg'onada tavallud topgan. 14 yoshida otasi vafot etib akasi Nasr qo'lida qolgan. Ismoil Somoniy o'z hokimligining (874-907) dastlabki davrlarida katta qiyinchiliklarga duch keladi. Chunki xalq ommasi somoniy noiblardan shu paytgacha biror-bir yaxshilik ko'rgan emasdi. Ismoilidan ham albatta yaxshilik kutish uchun hech qanday asos yo'q edi. 875-yilda Ismoil o'zining ikkinchi marta Buxoroga kelishida yo'lda xalqning notinch ekanligini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Tarixchi Narshaxiyning yozishicha, Barket bilan Romiton o'rtasida 4 ming dehqon qo'zg'olon ko'tarib chiqadi. Hokim sifatida Ismoilning dastlabki ko'rgan tadbiri dehqon oqsuyaklari va lashkarboshilariga suyanib xalq qo'zg'olonini bostirishdan iborat bo'ldi.

O'zini butun boshli Movarounnahr hokimi deb hisoblagan Nasr ibn Ahmad kumush tangalar zarb qila boshladi. 886-887-yili Nasr tomonidan Samarqandda zarb qildirilgan somoniylarning eng birinchi kumush dirhamlarining namunasi O'zbekiston tarixi muzeyida saqlanmoqda.

Nasr ibn Ahmad o'z ukasi Ismoilni o'ziga tobe noib deb hisoblar va istagan paytda uni almashtirish mumkin deb o'ylardi. Ammo Ismoil

akasiga bo'ysunishni ochiqdan-ochiq xohlamagan va Buxoroni mustaqil bo'lishiga harakat qilgan. Bu harakat Ismoilning turli bahonalar bilan Samarqandga soliq va o'lponlar to'lashdan bosh tortganligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ikki aka-uka o'rtasida 888-yilda kuchayib ketgan dushmanlik urush boshlanishiga sabab bo'ldi. Bu urushda Nasr batamom mag'lubiyatga uchradi va Ismoil butun Movarounnahrni boshqarishni o'z qo'lga oldi. Nasr somoniylar xonadonining boshlig'i sifatida hurmatga loyiq bo'lsada, unda hech qanday hokimiyat yo'q edi. U to'rt yil Samarqandda yashab 893-yilda vafot etdi. Manbalar tili bilan aytganda, Ismoil Somoniy "aqli, adolatli, shafqatli, fikr va tadbir egasi" edi. U 892-yilda butun Movarounnahr hukmini o'z qo'lga olishga erishib, «haqiqatdan ham podsholikka loyiq va haqli ekanligini» isbotladi.

Ismoil Somoniy 893-yilda ko'chmanchi turk qabilalari ustiga yurish qildi. Bu yurishda u katta tarixiy g'alabani qo'lga kiritdi. Taroz (hozirgi Jambul)ni egalladi va turklarning xonini 10 ming askari bilan birga asir oldi. Bu jang davomida shu darajada katta boylik ulashib berildi. Ismoil Taroz shahridagi xristian qasrini musulmon masjidiga aylantirdi. Bu yurish Ismoilning dasht ko'chmanchilariga qarshi uyushtirgan oxirgi va so'nggi yurishi bo'ldi. Chunki Ismoil ta'sir doirasining kengayib borayotganligi Xuroson hukm-farmoni Amr ibn Laysga ham, arab xalifasi Mu'tazidga ham xush kelmaganligi albatta tushunarlidir. Shu bois xalifa 900-yilda Ismoil bilan Xuroson hokimi safforiy Amr ibn Laysni Xuroson bilan Movarounnahr ustidan ham hukmronligini ta'minlovchi farmon chiqargan. U Amr bilan Ismoilni to'qnashtirib o'rtada o'zi yutib chiqishni mo'ljallagan edi. Lekin voqealarning rivojlanib borishi xalifa umidlarini chippakka chiqardi. Bu urushda Ismoil katta g'alaba qozongan va uning davlati, kuch va qudrati yanada yuksaldi. Safforiylar qoldirgan meroslarni o'zini qilib olgan Ismoil butun Xurosonni ham somoniylar davlatiga qo'shib oldi.

Ismoil Somoniy shu darajada kuchli va qudratli davlat barpo qildiki, ko'chmanchi qabilalarga qarshi kurashmoq uchun mudofaa istehkomlari bo'lgan devorlarga, umuman hech qanday ehtiyoj qolmadi. Narshaxiyning ma'lumotlariga qaraganda mamlakat mudofaasini ta'minlashda devorlarga qaraganda qo'shinlarning roliga katta baho berib, Ismoil Somoniy «Men – Buxoroning devoriman» degan edi. Kuchli markaziy hokimiyat va qudratli qo'shinning barpo etilishi Ismoil Somoniy va uning izdoshlariga Movarounnahr va Eronning ichki muammolariga asosiy diqqat-e'tiborini qaratish imkoniyatini berdi.

Ismoil Somoniy o'z davrining yirik va aqlli davlat arboblariidan bo'lgan. U yirik va markazlashgan davlat barpo qilishdan manfaatdor bo'lgan barcha oqsuyak amaldorlarni o'z atrofiga to'plagan. Ularning yordami bilan Ismoil shunday bir qudratli markazlashgan davlat barpo qiladiki, bu davlat o'sha vaqtda Sharqda shuhrat topadi. Ismoil Somoniy davrida Movoraunnahr Arab xalifaligi istibdodidan abadul-abad ozod bo'ldi. Ammo bir qarashda qudratli bo'lib ko'ringan bu davlatni ichdan yemirayotgan bir qator ijtimoiy ziddiyatlar bor ediki, buni hatto Ismoil Somoniy ham bartaraf eta olmadi. Bu markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimiyat o'rtasidagi qarama-qarshilik edi. Somoniylar har qancha urinsalar-da, Seyiston, G'o'zg'on, G'azna, Gurjiston, Isfijob, Xorazm, hozirgi Tojikistonning tog'li viloyatlari: Chag'oniyon va Rashtoni o'zlariga batamom bo'ysundira olmadilar. Bu viloyatlarning hokimlari markaziy hokimiyatni rasman tan olsalarda, amalda mustaqil siyosat yurgazardilar. Somoniylar davrida qo'shinda yetakchi mavqeni turk sarkardalari va g'ulomlari egallagan edilar. Ularga hamma vaqt ham ishonib bo'lmasdi.

Ismoilidan so'ng uning vorislari davrida somoniylar sulolasi inqiroz sari yuzlandi.

Somoniylar davlatining bundan keyingi taraqqiyot bosqichi ham hokimiyat, davlat va mol-dunyo talashib, kurash bilan o'tdi va oxir-oqibatda yuz tuban inqiroz sari ketdi.

Somoniylar davrida davlatning markazlashuvi ikki daryo oralig'ining ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi ma'lum darajada taraqqiy qilishiga olib keldi. Feodal ishlab chiqarishiga asoslangan usul rivojlanib, hunarmandchilik madaniyati, arab va fors tillaridagi ilm-fan hamda adabiyot yuksaldi. Dehqonchilik asosan sun'iy va yomg'ir suvlari bilan sug'orishga (lalmikor) asoslangan edi.

Hukmron sinf vakillari katta-katta yer mulklarining ham egalari edi. Bularga somoniy hukmdorlari va ularning avlodlari, turk askarboshi va amaldorlari, ruhoniylar kirib, ular yuqori tabaqa hisoblanar edilar. Arab xalifaligiga qarshilik ko'rsatgan yirik, boy dehqonlar ularning qarshiligi bostirilishi vaqtida, katta zarar ko'rgan bo'lsalar-da, hali kuchli edilar. Nizomulmulkning yozishicha, ayniqsa turk askarboshilari, jumladan Alp Tegin juda ham boy bo'lib, Movarounnahr va Xurosondagi 500 qishloq uning xususiy mulki bo'lgan. Har bir shaharda unga qarashli karvon-saroylar, hammomlar, uylar kabi qo'zg'almas mulklari bor edi. Turk askarboshilaridan Abu Alp Simjuriy va Foiq ham undan qolishmasdi.

Butun ichki va tashqi savdoni, do'konlar, karvonsaroylar hamda turar joylarni o'z qo'llariga kiritib olgan savdogarlar tabaqasi hukmron sinflar qatorida edilar.

Somoniylar davrida Buxoro musulmon dini va diniy oqimlarning markaziga aylana bordi. Diniy muassasalar, masjid va madrasalarga yer, suv mulklarini vaqf qilib berish kengaydi.

IX asr oxiri va X asrlardagi yer mulklari barcha islom mamlakatlaridagi kabi, avvalo kimga tegishliligi, so'ngra soliq to'lash tartibiga ko'ra guruhlashtirilishi mumkin. Jumladan, mulklar kimning egaligiga qarab uch turga bo'lingan :

1. «Mulki Mamluki Sultoniy» - ya'ni Sulton (hukmdor) davlat boshliqlariga qarashli yerlar. Bu yerlar odatda, davlat yerlaridan farqlanganligi uchun ulardan keladigan daromadlar davlat muassasalari bo'lgan devonlar tomonidan olib borilganligi uchun ham davlat yerlari (mulki) deb hisoblangan.
2. Vaqf yerlari – ya'ni, diniy tashkilotlarga vaqtincha yoki doimiy foydalanishga o'tkazilgan yerlar, bizgacha Somoniylar davridan qolgan vaqf yorliqlarining yetib kelganligi bu mulkning ham taraqqiy qila boshlaganligini ko'rsatadi.

Soliq to'lash shakliga qarab esa asosan:

a) xiroj yerlari – ya'ni davlat yerlarida yashab, uni ishlab, undan foydalanganligi uchun dehqonlardan davlat solig'i – xiroj undiriladigan yerlar.

b) soliq to'lashdan qisman yoki tamoman ozod etilgan, kelib chiqishi bo'yicha Muhammad payg'ambar xonadoniga borib taqaluvchi saidlarning yerlari kirgan.

Somoniylar davrida noiblar, askarboshilar va amaldorlarga mukofot tariqasida butun-butun viloyatlar in'om qilinib, bu «O'qta», uni olgan kishi «iqtidor» deb atalgan. Bunday yer mulk egaligi ham rivojlangan, ular ana shu yerdan keladigan daromadni qisman ushlab qolishga haqli bo'lgan.

Feodallarga tegishli yer mulklari bu davrda ko'proq ijarachi dehqonlar tomonidan turli shakllarda ijaraga olinardi. Ot ulovi va urug'lari bo'lganlari hosilning 1/4, 1/3 qismini olsalar, hech narsasi bo'lmagan ijrachilarning hissasi hatto, 1/10, 1/12 ga tushib qolgan.

Ijarachilarga berilgan yerlardan hosilning qancha qismi kimga tekkanligiga qarab davlat solig'i – xiroj olingan. Bulardan tashqari, somoniylar davlatida ham qullar ko'p bo'lib, ularning mehnatidan keng foydalanilgan.

Davlat tuzumi bo'yicha, Somoniylar davlati markazlashgan tipik o'rta asr davlati bo'lib, boshqarish shakli monarxiya edi. Davlat boshliqlari o'zlarini «Amir ul-muslimun» deb atagan arab xalifalaridan farqli holda doimo amir, ya'ni hukmdor deb ataganlar. Davlatni boshqarish ikkiga, shaxsan amirning o'zi boshqarib turadigan saroy (dargoh) va farmonlarni o'zlariga bo'ysungan tarmoqlar bo'yicha mahkamalar orqali ijro etadigan devonga bo'lingan.

Arab xalifaligida devon tizimining shakllanishi Abbosiy xalifalar, Movarounnahrda somoniylar davriga to'g'ri keladi. Devonlar tizimi Movarounnahrda arab xalifaligidan kirib kelgan.

«Amir... o'z saroyi darvozasi oldida amaldorlar uchun saroy qurishga buyurdi, - deb yozadi Narshaxiy, - uni ham qurdilar, shundayki, har bir amaldorning podshoh saroyi darvozasi oldida qurilgan o'z saroyida alohida devoni bor edi».³

Bu mahkamalar o'ntadan iborat bo'lgan. Vazirlik yoki bosh hojib devini (hojibul hujob) ular ichida eng kattasi sanalib, barcha devonlar unga bo'ysungan, uning farmoyishlarini bajargan. Uning boshlig'i vazirlik mansabi nasldan-naslga sulola asosida o'tgan. Undan keyingi o'rinda davlat daromadlari va xarajatlari, kirim-chiqim ishlari bilan shug'ullanuvchi devon, ya'ni moliya (mustavfiy) devoni turgan.

Davlat yozishmalari ham devon (umidulmulk yoki devoni insho) tomonidan olib borilib, unga ko'proq arab va fors tillarini bilgan, ma'lum darajada bilimli bo'lgan kishilar, «ahli qalam» orasidan tanlab olingan.

Yuqorida aytganimizdek, somoniylar qo'shinlari turk g'ulomlaridan tuzilgan. Ularga Vazir, ya'ni Bosh hojib rahbarlik qilgan. Ammo ularning maoshi ta'minoti bilan shug'ullanuvchi maxsus mansabdor shaxs – Ariz bo'lib, uning mahkamasi – soqchilar yoki devoni ariz deb atalgan. Yerlarning chegaralari xalifaliknikidan katta bo'lgan. Bu davlatda aloqa xizmati alohida o'rin tutgan. Shuning uchun ham uning joylardagi xodimlari mahalliy boshliqlarga bo'ysunmasdan to'g'ridan-to'g'ri markazga xat-xabarlar mutasaddisi devoni (barid)ga bo'ysungan.

Muhtasib devoni ham bo'lib, uning vazifasi avvalo savdogarlarning tosh-tarozisini, hunarmandlar mahsulotining sifatini tekshirib turishga qaratilgan. Keyinchalik u shahar aholisini din va ahloq qoidalariga rioya qilishini tekshirib turuvchi mansabga aylangan.

Bulardan tashqari, davlat xazinasidagi daromad va xarajatlarni nazorat qilish devoni (mushrif), davlat mulklarini boshqarish devoni, shuningdek, qozilar devonlari ham bo'lgan. Bu devonga qozi rahbarlik

³ Narshaxiy. Buxoro tarixi. T., Meros. 1992-y. 106-bet

qilib, u asosan sud ishlarini olib borgan. Shuni aytish lozimki, bu tizim keyinchalik g'aznaviyalar davrida yana ham rivojlanib, mustahkamlanadi.

Mahalliy boshqaruvga kelganimizda, viloyatlarda ularning markazlari «qasaba»lar bo'lib, mahalliy boshqaruv hokimlari, ba'zan, «Kadxudo» (yaxshi o'jayin) qo'lida to'plangan. Shaharlarda hokimiyat rais, diniy boshqaruv esa Shayhulislom qo'lida edi.

Huquqiy munosabatlar. Somoniylar davlatida sud ishlari shariat qonun-qoidalari asoslangan edi. Sud ishlari qozilik devoni tomonidan boshqarilgan. Sud jarayoni qozikalon, qozilar, mufti, raislar tarafidan amalga oshirilgan. Viloyat qozilari qozikalonga bo'ysungan. Og'ir jinoyat sodir etganlar o'limga yoki uzoq muddat qamoq jazosiga mahkum etilgan.

Viloyatlarda og'ir jinoyat sodir etganlar qozikalon va amir hukmiga havola etilgan. O'lim jazosini ibrat bo'lishi uchun Buxoro Registonida, ko'pchilik oldida ijro etilgan. O'g'irlik qilganlar muxtasib va uning mirg'azabi tomonidan ushlanib, aholi to'plangan yoki bozor joylarda qo'li chopib tashlangan. Yengilroq gunoh qilganlarga tan jazosi berilgan yoki jarima solingan.

Somoniylar davlatida islomdagi huquqiy munosabatlarni mahalliy xalq urf-odatlariga moslashtirishga yordam beruvchi asarlar yaratilgan. Ulardan qozilik mahkamalari yordamchi qo'llanma tarzida foydalanganlar. Jumladan, faqih Abulays ibn Ahmad Samarqandiyning «Xazinatul fiqh» (Musulmonchilik qonun qoidalari xazinasini) asaridir.

Viloyatlarda ham mahalliy idora organlarining bo'limlari bo'lgan. Somoniylar davlatida mahkamalarda ishlash uchun ma'lum daraja bilimga ega bo'lgan arab va fors tillarini bilgan kishilar talab qilingan. Albatta, bu davlat amaldorlari to'g'ri, adolatli ishlagan degan gap emas, barcha davr xizmatchilarining poraxo'rlik, ta'magarlik kabi xislatlari ularga ham xos edi. Shuningdek, Narshahiyning kitobida 828-yilda Buxoro shahrining qoziligiga tayinlangan Sa'id ibn Xalaf al Balhiy haqida ham yaxshi fikrlar yozib qoldirgan: «Toki kuchli kishi zaif kishiga zulm o'tkazmasligi uchun to'g'onlar qurdirib, Buxoro suvini adolat va insof yuzasidan taqsim qilishni u kishi asoslagan».

Bu davrda huquq manbai musulmon dinining g'oyaviyligiga asoslangan shariat huquqi tizimiga tayandi. Ko'plab hadis ilmining bilimdonlari muhaddislar va fiqh olimlari yetishib chiqdi hamda islom dunyosiga tanildi.

G'aznaviylar davlati va huquqi

G'aznaviylar davlatining paydo bo'lishi sabablaridan biri somoniylar davlatining zaiflanishi hamda turk lashkarboshilarining mavqei kuchayishidir. G'azna shahrida hokimiyatni qo'lga olishga birinchi bo'lib uringan kishi somoniylar lashkarboshisi «Alp Tegindir». Bu davlat uning o'g'li Mahmud G'aznaviy (998-1030) davrida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Davlatning tashkil topishi va mustahkamlanishi ikki daryo oraliq'ida hokimiyatni o'z qo'lga olayotgan Qoraxoniylar davlatining Amudaryodan o'tishini to'xtatish bilan birga bordi. XI asrda ulkan davlatga aylanib, Shimoliy Hindiston chegarasidan tortib Kaspiy dengizining janubiy qirg'oqlarigacha, hozirgi Afg'oniston, Shimoliy-sharqiy Eron viloyatlarini o'z ichiga olgan g'aznaviylar davlati ikki daryo oraliq'idagi xalqlar taqdirida muhim rol o'ynay boshladi. Bu davlat ham o'rta asr Sharq despotiyasi shaklida bo'lib, uning tarkibiga G'azna, Balx Tohariston, Xuroson, G'arbiy Eron, Kaspiy dengizining janubidagi yerlar, Amudaryo havzasi, Shimoliy Hindiston kirgan, Xorazm 1017-yilda Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olinib, Xorazmshoh Oltintosh uning vassali hisoblangan. Qazvin, Isfahon va Hamadon hokimlari va Kakuidlar sulolasiga mansub vassallar hisoblanib, ular yiliga Mahmud G'aznaviy davlatiga 200 ming hirot dinori va 10 ming kiyim-kechak yetkazib berib turgan. Shuningdek, buidiylar sulolasidan bo'lgan Tohariston va Gurg'on hokimlari ham g'aznaviylarning vassallari bo'lgan.

Davlat boshlig'i arab xalifasi tomonidan Sulton deb tan olinib, unga yorliq berilgan. Garchi uning hokimiyati bo'linmas hisoblansada, ba'zi hollarda o'z yaqinlarining fikri bilan hisoblashishga majbur bo'lgan. Keyinchalik Bag'dod xalifasi al-Qodir (991-1031) tomonidan unga yamin-ud-davlat – ya'ni, davlatning o'ng qo'li faxriy unvoni berilgan.⁴

Sultonning eng yaqin yordamchisi barcha fuqarolik va ma'muriy amaldorlarning boshlig'i – vazir hisoblangan. Mashhur tarixchi Bayhaqiyning «Mas'ud tarixi» asarida g'aznaviylar davlatida sulton va vazir o'rtasidagi boshqa davlatlarda ko'zga tashlanmaydigan o'ziga xos bir munosabatlar borligi ko'rsatiladi. Agarda sulton biror kishiga vazirlik mansabini bersa, vazir bilan sulton o'rtasida davlat boshqaruvini chegaralash uchun bitim tuzilgan. Shundan keyin vazir sultondan o'z vakolatini qay darajada, qay hajmda amalga oshirishni so'rab qog'ozga yozgan. Unga sulton o'z qo'li bilan javob bergan. Ikkalasi ham javoblar so'ngida qasam ichib imzo chekishgan. Vazir guvohlar oldida baland

⁴ Muqimov Z. «O'zbekiston davlati va huquqi tarixi». I-qism. Samarqand., Zarafshon. 1998.

ovozlar bilan o'z vazifasini namunali olib borishga qasamyod qilgan. Bu qasam yorlig'i davlat arxivida saqlangan. Bitimni esa vazir o'ziga olgan.

Vazirning vazifalaridan biri g'aznaviylar davlatining markaziy apparatiga rahbarlik qilish bo'lgan. Bunga quyidagilar kirgan: davlat mirzaxonasi, devon ar-rasoil, vazirlik devoni - devoni nazorat, moliya hisob devoni – devoni istefo': qo'shinlar devoni- devoni arz: saroy devoni – devoni vakolat: pochta- aloqa devoni- devoni barid: ularning boshida turgan amaldorlar sohiblar deb atalib, vazirning barcha buyruq va farmoyishlarini bajargan.

Omil-solig' yig'uvchi mansabdor, fuqarolik va harbiy amaldorlar «qilich va qalam sohiblari» deb atalib, ular o'rtasida daromadli mansablarni egallab olish uchun qattiq kurash borgan. Shuni ko'rsatib o'tish lozimki, X-XII asrlarda Markaziy Osiyo va Xurosonda ikki xalq va ularning davlat xizmatida ishtirok etishida ham keyingi ming yillar davom etgan tarixiy an'analari deyarli yaqqol ajraldi. Bu xalqlar turkiy tilda so'zlashuvchi tojiklar edi. Ammo ularning etnik mazmunga ega nomlari hali boshqacha edi, o'zbeklarning avlodlari turklar, tojiklarning avlodlari esa «tojikon» (Nizomi mulk - «Siyosatnoma», Bayhaqiy «Mas'ud tarixi») deb atalgan. Faznaviylar va boshqa turk davlatlarida ham harbiy tabaqaning asosiy qismini turklar, fuqaro byurokrtiyasining asosiy qismini esa tojiklar tashkil qilgan.

Armiya qo'mondonlari asosan turklardan tashkil topgan bo'lib, kelib chiqishi bo'yicha g'ulomlardan bo'lgan. Sulton taxtining tayanchi qo'shin bo'lib, asosan otliq, qisman piyoda askarlardan tashkil topgan. G'aznaviylar armiyasining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, unda alohida tutqunlikda bo'lgan g'ulomlardan iborat qismi mavjud edi. Bu qism ko'pincha, Movarounnahr, Xo'jand, Qoshg'ar, Taroz tomonlardan sotib olingan qullar, harbiy asirlardan iborat bo'lib, ular harbiy ishga o'rgatilgan. G'ulomlar Saroy g'ulomlariga (2 ming kishilar chamasi) sultonning xos qo'riqchisi va bayroqdorlariga (300 g'ulom) bo'linib, ular xizmat evaziga xazinadan yillik maosh va oziq-ovqat mahsulotlarini olgan. G'ulomlar yaxshi xizmat uchun ozodlik olishlari, yer, mahsulot olishlari, katta mansablarga erishlari mumkin bo'lgan, ammo sultonning quli bo'lib qolavergan. Shuning uchun ularni shaxsan ozod bo'lmagan imtiyozli tabaqa deb atash mumkin. G'ulomlar doimiy ravishda sulton mirzaxonasining amaldori dabirning yashirin nazorati ostida bo'lgan. G'aznaviylar armiyasi uchta yirik qo'shilmadan iborat bo'lib, uchta qo'mondon sipohsolar – Hindiston, Iroq, Xurosonda joylashgan. Butun armiyaning qo'mondoni xos-hojib bo'lib, u alohida bayroq va dovulga ega

bo'lgan. Bu davlat boshqa bir yangi turk qabilalari- saljuqiylar hujumlari ostida inqirozga yuz tutgan.

Saljuqiylar davlati va huquqi. (1040-1160)

X asrning oxiri va XI asrning o'rtalarida Orol bo'yi va Kaspiy bo'yida O'g'uzlar ittifoqi shakllanadi. X asrda Sirdaryo etaklarida O'g'uzlar davlati tashkil topadi. Tashkil topgan davlatning poytaxti Yangikent deb ataladi.

Sirdaryoning quyi oqimida barpo bo'lgan o'g'uz davlatining yabg'usi Saljuqbek (Mahmud Qoshg'ariyning asarida Saljuqbek) saljuqiylar xonadoning asoschisi edi. Saljuqbekning nabiralaridan To'g'ulbek, Chag'irbek va Shakarbeklar saljuqiylar davlatini saltanat darajasiga ko'tarishda katta xizmatlar qildilar. O'g'uzlar nafaqat o'zbeklar va turkmanlarning, balki hozirgi Turkiya turklari, Iroq turkmanlari, Eron turkmanlari, Gagauzlar Ozarbayjon xalqining ham tashkil topishiga yetakchi etnik guruh bo'lganlar.

Demak, X asrlarda, Sirdaryoning o'rta va quyi qismida o'zlarini saljuqiylar deb atovchi, juda ko'p sonli turkiy tilli xalqlar yashar edilar. Ularning bu umumiy nomi nufuzli boshliqlardan bo'lgan Saljuq ibn Tug'loq nomidan kelib chiqqan. Ana shu turkiy o'g'uz qabilalari X asrlarning o'rtalarida dastlab Movarounnahr, keyinchalik Sirdaryoning quyi oqimiga ko'chib joylashadilar.

Ammo o'g'uzlar xoni, Jand qal'asi yabg'usi Shohmalik davrida ular Sirdaryo havzalaridan yana siqib chiqariladi, ularning asosiy qismi Zarafshon vohasi va Nurota tog'lari yon bag'irlariga qayta joylashadilar. XI asrda qoraxoniylarning Buxoro va Samarqandni bosib olishlari bilan ularning ahvoli og'irlasha boshlaydi. Shu davrlarda Saljuqiylar urug' birlashmasida bo'linish yuz berib, Saljuqning ikki o'g'li Isroil va Mikoil avlodlari Muso Boyg'u, Dovud, Chag'irbek hamda Muhammad Tug'ulbek boshchilik qilgan mustaqil guruhlar tashkil topadi. Isroil Qoraxoniy Ali-Tegin bilan ittifoqchi bo'lgani uchun 1025-yilda sulton Mahmud G'aznaviy tomonidan asir olinib, uzoq Hindistonga qamoqqa yuborilgan. Uning guruhidagilarni Mahmud G'aznaviy Amudaryoni o'tkazib yuborib, Saraxs, Obivard, Fervida joylashtiradi. Ular sultonga xiroj to'lashga va harbiy xizmatni o'tashga majbur qilinadi. Ammo ularning 1027-yilda sultonga qarshi ko'tarilgan qo'zg'oloni shafqatsiz bostirilgan. XI asrda Saljuqiylarning birlashmasi yemirilib, 3 ta mustaqil guruh: Bolxon tog'lari, Kaspiy bo'ylari va Shimoliy Xuroson guruhi, Gurgon, Ray, Isfaxon, shimoliy-g'arbiy Eron guruhi va Muso boyg'u,

Chag'irbek Tug'rulbek boshchiligidagi Movarounnahr guruhlari vujudga keladi.

Bu davlat o'zining eng rivojlangan davrida hozirgi Markaziy Osiyoni va Eron, Afg'onistonning bir qismini, Zakavkazye, Old va Kichik Osiyoni o'z tarkibida birlashtirdi. Ularning rahbari Sulton Muhammad To'g'rulbek (1038-1062) 1055 yilda Eronni bosib olgach, Bag'dodga kiradi.

Sultonlik taxti uchun kurashlarning boshlanib ketishi va Qoraxoniylar tomonidan berilgan zarba ulkan imperiya bo'lgan Saljuqiylar davlatini inqirozga olib keldi. Uning g'arbiy mulklari Zakavkazye, Eron, Iroq Suriya va Kichik Osiyo mustaqil davlatlariga bo'linib, ilgari bitta davlat o'rnida XI asr oxiri XII asrning boshlarida Xuroson, Iroq, Rum, Shimoliy Xuroson sultonliklari vujudga keladi.

Markaziy Osiyoning janubiy-g'arbiy yerlarida sharqiy Saljuqiylar sultonligi tashkil topib, XII asr boshlarida Sanjar ibn Malikshoh (1118-1157) hokimiyatiga o'tadi. Movarounnahr saljuqiylarning vassali bo'lib qoladi. Xorazmda esa ularning vassali bo'lgan Anushteginlar sulolasi (1097-1221) kuchaya boshlaydi.

Ijtimoiy tuzum. Saljuqiylar davlati o'rta asr feodal davlati bo'lib, uning doirasida qadimdan yashab kelgan xalq dehqonchilik, savdo, hunarmandchilik va davlatning ma'muriy apparatida xizmat qilish bilan shug'ullangan. Turkiy xalq esa qisman sug'orish bilan bog'liq dehqonchilik, asosan chorvachilik, hunarmandchilik, qo'shinda xizmat qilish bilan shug'ullangan.

Feodal yer egalari – dehqonlar yer mulklariga ega bo'lib, boy dehqonlar o'rta, kambag'allashgan dehqonlarga, jamoachi dehqonlarga, sultonning mulkida ishlovchi dehqonlar –barzigorlarga, shuningdek, ijarachi dehqonlarga bo'lingan.

Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik Saljuqiylar davlatida, shuningdek, keyinchalik uning vassaliga aylangan Movarounnahrda muhim ahamiyat kasb etganligi uchun suvga egalik huquqi mavjud bo'lgan.

X asrlarda Marv shahrida «Kastafzud» degan sug'orish uchun suvdan foydalanadigan ko'chalarni hisobga oladigan maxsus davlat organi – devon bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotni keltiradi. Uning tarkibiga suv devoni ham kirib, unda sug'orish va suvga egalik qilish huquqi haqidagi hujjatlar saqlangan. Xuddi shunday devonlar Eron va Rumda bo'lib, suvning qiymati ham belgilab qo'yilgan. Saljuqiylar davrida suv devoni tugatilgan bo'lsa-da, ammo suvga egalik qilish huquqi bu davrda ham

saqlab qolingan. Suv huquqi amalda vorislarga qoldirilishigina mumkin bo‘lib, lekin savdo bitimlari orqali birovga berilmagan.

Saljuqiylar davlatida yerning rasmiy egasi sultondir. Yer mulkining davlat yer egaligi nasliy uzatiladigan yer egaligi, umrbod (bir avlodga) egaligi va shartli (muqto, iqto) egaliklari mavjud bo‘lgan.

Davlat yerlari, ya'ni sulton saroyiga tegishli yerlarni boshqarish uchun maxsus davlat boshqaruv organi – amloki xos tuzilgan bo‘lib, Malikshoh davrida bunday yerlar saroyga 21 ming qizil oltin daromad keltirgan. Yerga xususiy egalik mulk shaklida bo‘lib, ular merosiy, sotib olingan va boshqa yer mulklariga bo‘lingan.

XI-XII asrlarda Saljuqiy sultonlar o‘z farmonlari – tauke bilan yirik harbiy boshliq va amaldorlarga katta-katta viloyatlarni, ya'ni davlat yerlarini tekinga bo‘lib bergan. Mashhur vazir Nizomulmulk davrida esa xazinaning kambag‘allashganligi uchun ko‘p yerlar shartli yer egaligi “iqto” tarzida harbiy boshliqlar va amaldorlarga, ularga to‘lanadigan maosh evaziga bo‘lib berila boshlangan. Bu voqea Nizomulmulkning “yer islohoti” deb atalgan.

Shu islohotdan keyin saljuqiylar armiyasi ta'minotga qarab xazinadan maosh oladigan va iqtodorlar ro‘yxatiga tirkalgan qismlarga bo‘lingan. Bu mulk saljuqiylar davlatida asta-sekinlik bilan umrbodlik mulkka aylanib borgan.

Saljuqiy sultonlar islom dinining himoyachilari bo‘lganligi uchun ham ular davrida vaqf mulklari rivojlanib tegirmonlar, uylar, madrasa va boshqa diniy muassasaga vaqf mulki tarzida o‘tkazilgan. Vaqf mulklarini vasiyat qiluvchi yoki bosh qozi – qoziul-quzzot tomonidan tayinlanadigan mutavalli boshqargan.

Davlat tuzilishiga kelsak, Saljuqiylar davlati mutloqiy monarxiyaga asoslangan o‘rta asr markazlashgan (imperiya) davlati bo‘lib, uning boshlig‘i sulton bo‘lgan va u rasman bu lavozimni arab xalifaligining yorlig‘i bilan egallagan. Bag‘dod xalifasi o‘zini «amir al-mo‘min» – musulmonlar amiri hamda sultoni deb atagan bo‘lsa-da, saljuqiylar davrida xalifalarning hokimiyati nisbiy – qo‘g‘irchoq hisoblangan.

Sulton juda keng, amalda cheklanmagan monarx huquqlariga ega bo‘lib, mansabdorlar ustidan tushgan shikoyatlarni hal qilgan, yer bo‘laklarini bo‘lib bergan, hadya qilgan, mansabdorlar va qo‘shin boshliqlarini tayinlagan, muhim davlat ishlarini hal etishda kengash chaqirib, sarkarda va qo‘mondonlarning fikrlarini olishga harakat qilgan. Tug‘rulbek har haftada 2 kun Xuroson podsholarining qoidalariga mos holda aholini o‘zi qabul qilib, nizo va janjallarni shaxsan o‘zi hal etgan.

Saljuqiylar davlatining eng yuksalgan davrida Bag'dod xalifasi sulton Muhammad To'g'rubekka «Malik la-Mashriq va-l mag'rib», ya'ni Sharq va Farbning podshosi hamda «Rukn-ad-Din» - Din suyanchig'i unvonlarini bergan. Bular uning hokimiyati naqadar yuksak bo'lganligini ko'rsatadi. Sultonning vaziri bo'lib, u butun ma'muriy apparatga rahbarlik qilgan, sulton vazirga hamda musulmon ruhoniylarga tayanib, mamlakatni boshqargan. Saljuqiylarning tarixida mashhur vazir Abu Ali Hasan ibn Ali at Tusiy (1017-1092) bo'lib, U Nizom ul Mulk - ya'ni «davlatni quruvchi» degan faxriy unvonga ega edi. Nizomulmulk Alp Arslon va Malikshoh davrida 20 yil vazirlik qilib, ishni saljuqiylarda oddiy amaldorlikdan boshlagan va shu darajaga erishgan. Saljuqiylarda Otabek mansabi ham bo'lib, u bosib olgan mamlakatlardagi vazirlik mansabiga deyarli to'g'ri kelgan.⁵

Alp Arslon ustidan otabeklikka tayinlangan Nizomulmulkni maxsus taukega ko'ra, «Iliq» va «Ota xo'ja» deb ulug'lashlari buyurilgan. Iliq atamasi esa, - o'g'uzlardagi faxriy unvonlari, «bayg'u» «sag'un»ga teng bo'lgan. Shuning uchun, ya'ni otabeklik vazirlikka tengligi uchun saljuqiylar davlati parchalanib, uning bo'laklari otabeklik deb atalgan.

Vazirning asosiy vazifasi davlat apparatiga rahbarlik qilish bo'lib, uning huzurida markaziy hokimiyatning oliy organi devoni – a'lo bo'lgan. U bo'lim va devonlardan iborat edi. Davlat mirzaxonasi devoni insho va tug'ro, devoni istefo – moliya devoni, kontrol-nazorat bo'limi – devoni ashraf, armiya muassasasi – devoni arz al-djayni va boshqalari bo'lgan. Vazir barcha devonlar ustidan bevosita rahbarlikni olib borgan, xazina ustidan nazorat qilgan, o'ziga bo'ysungan mahkamalarga mansablarni tayinlash, bo'shatish, maosh berish, tashqi siyosatni olib borish ishlari bilan shug'ullangan.

Viloyatlarga valiylar tayinlab, uning huzurida noiblari, soliq yig'uvchilar – omillar, jamoat tartibini qo'riqlovchi shiahna va boshqa mansabdorlar bo'lgan.

Saljuqiylar davlati vujudga kelgandan keyin urug' lashkarlari o'rniga doimiy armiya tuzilgan. Sulton Sanjar davrida armiya o'g'uzlarning harbiy odat huquqlariga ko'ra tiklana boshlangan. Bunga ko'ra armiyaning o'ng qanotini quyi, bayot qabilalarining beklar begi, chap qanotini esa bayonlar va benajak qabilalarining beklar begi boshqargan.

Shunday qilib, ikkita guruh katta qabilalar – uchuqlar va kichik qabilalar buzuqlar deb atalishi odat bo'lib qolgan. Bundan tashqari,

⁵ Агаджанов С.Г. Государство Селджукидов и Средняя Азия в XI-XII в. М., Наука. 1991 г.

saljuqiylar armiyasida manglay markaz, qo‘riqchi o‘trad qorovul, avangard va soqchi – yosol kabi bo‘linmalardan iborat bo‘lgan.

Saljuqiylar davlatidagi huquq manbalarga kelsak, shariat huquqi va turk xalqlari orasida tura- odat huquqlari amalda bo‘lgan. Shuningdek, Saljuqiy sultonlariga o‘ttiz yil mobaynida vazirlik qilgan Nizomulmulk tomonidan 1091-yilda yozilgan «Siyosatnoma» yoki «Siyar ul-muluk» (Podsholar turmushi) asari⁶ ham mazkur davlat boshqarilishining asosiy qoidalarini hamda huquqiy masalalarini o‘rganishda manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Kitob xuddi qissadan hissa tarzida, ya‘ni hikoyat va undan chiqarilishi lozim bo‘lgan xulosalar tarzida yozilgan.

Qoraxoniylar davlati va huquqi

Qoraxoniylar davlati X asrning ikkinchi yarmida tashkil topgan. «Qoraxoniylar» so‘zi qarluqlarning islomni qabul qilgan boshliqlaridan biri- Satuk Abdulkarim qoraxon unvonidan kelib chiqqan. («qora» so‘zi qadimdan turkiy xalqlarda buyuklik va ulug‘lik ma‘nosida ishlatilgan). Xon hokimiyati madaniyatli bo‘lsa, qarluqlar yoki chigillar qabilasidan chiqmadi, balki madaniy taraqqiyotda orqaroqda bo‘lgan yag‘moldan chiqqan. Buni Satuk Abdulkarim qoraxonning yag‘molar urug‘idan bo‘lganligi ham ochiq-oydin isbotlaydi. “Majmuayi at-tavoriy” (“Tarixning qisqartma to‘plami”) asarining muallifi «yag‘molar podshoni bo‘g‘raxon deydilar» deb aniq aytgan fikrlari yuqoridagi xulosalarni to‘la tasdiqlaydi. Markazi ikki shahar: Qoshg‘ar va Bolasog‘undan iborat bo‘lgan yangi davlatning birinchi podshosi “bo‘g‘raxon” unvonini olganligi tavsiflidir.

Qoraxoniylar hukmronligi davrida Movrounnahrda bir qator ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar amalga oshirilgan. Bu o‘zgarishlar va tadbirlar siyosiy va iqtisodiy hayotning hamma sohalarini o‘z ichiga qamrab olgan edi. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, somoniylar hukmronligi davrida vujudga kelgan markazlashgan davlat boshqaruvi tugatildi. Qoraxoniylar markazlashgan davlat boshqaruvi o‘rniga mamlakatni udel tizimi asosida boshqarishga o‘tishgan.

Qoshg‘ardan tortib Amudaryogacha bo‘lgan hamma yerlar qoraxoniylar xonadoning shaxsiy mulki hisoblanib, uning tepasida ulug‘xon turgan. U ko‘pincha Qoshg‘arda, onda-sonda Bolasog‘unda bo‘lgan. Qoraxoniylar xonadoning boshlig‘i xuddi Erondagi singari «xonlar xoni»

⁶ Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki «Siyar ul-mulk», T., Adolat, 1997-y.

(shahanshoh), «sultonlar sultoni» nomi bilan yuritilgan. Manbalarda qoraxoniylar xonadonining boshlig'i – xonlar xoni «tobg'achxon» deb nomlangan. Xonlar xoni idora qilayotgan qoraxoniylar davlati bir necha bo'laklarga, qismlarga – udellarga bo'lingan. Bu udellarning tepasida qoraxoniylar xonadonlari avlodlari vakillaridan iloqhon unvonini olgan a'zolari turgan.

Qoraxoniylar va saljuqiylar tarixining bilimdoni, XIII asr boshlarida yashagan arab tarixchisi Ibn al Asir 1043-1044-yillarga aloqador qimmatli misollarni keltiradi. Bu davrda qoraxoniylar davlatini boshqargan Tamg'achxon Sharafuddavla o'ziga qarashli viloyatlarni hammasini aka-ukalari, o'g'illari va qarindosh-urug'lariga bo'lib bergan. Jumladan, ukasi Bo'g'raxonga Tarozni, Isfijobni, amakisi To'g'onxonga Farg'onaning hammasini bergan, o'ziga esa faqat Qoshg'ar bilan Bolasog'unni qoldirgani ma'lum.

Markaziy xonlar xoni bilan iloqxonlar o'rtasida aloqa mustahkam bo'lmagan. Iloqxonlar bir-birlari bilan doimo dushmanlik kayfiyatida yashaganlar va har biri o'zicha mustaqil bo'lishga intilgan.

Hoqon huzurida Iloqxonlar vazirlik, saroy boshqaruvchisi, xos hojiblik mansabi, amaldorlar, xizmatchilar, ya'ni tapug'chilar tomonidan qurshab olingan (saroy qorovullari qapug' - eshik), Xazinachilik mansabi ham bo'lib, bu agnachi (agna – mol-mulk degani) deb atalgan. Mamlakatni boshqarishda vazirning mavqei kuchli bo'lgan. Ramziy ma'noda vazir «Otboqarga» xalq esa Saroy eshigi oldida turgan “egarlangan otga” tenglashtirilgan. Qoraxoniylar davlatining ijtimoiy-siyosiy tuzumini o'rganishda, mansablar, ularning ahamiyatini tushunishda Sotuq Bug'roxon tomonidan Xos Xojib mansabiga tayinlangan Yusuf Bolosog'unining «Qutadg'u bilig» asari katta ahamiyat kasb etadi. «Mamlakat ishiga nafi eng tegadigan toifa uch xildir, - deb yozadi u - birinchisi bilimli donishmand kishilar, turli kasb egalari; ikkinchisi – botir, sheryurak – ular bo'ri, yovga qarshi kurash paytida asqotadi; nihoyat uchinchi guruhini so'zamol kotib tashkil etadi».

Mazkur asarda podsholarga (elig) elchilar, vazirlik, kotiblik, harbiy boshliq, bek bo'lish uchun qanday talablar qo'yilishi, ularning yaxshi xislatlari va uning ahamiyati to'g'risida batafsil fikr yuritilgan. Shuning uchun mazkur kitobni turkiy xalqlarda davlat lavozimlarida ishlaydigan kishilar uchun tarbiyaviy qo'llanma tarzida yozilgan, deb hisoblanadi.

Qoraxoniylar davlatida ko'chmanchi xalq “elchilar” (el boshlig'i ma'nosida) tomonidan boshqarilgan bo'lib, bunday lavozimda nufuzli

⁷ Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. T., Yulduzcha, 1990-y

beklar turgan. Bek xoqonga bo'ysunib, uning vakolat doirasi odat huquqlari – turada belgilab qo'yilgan. Beklar jamoat tartibini qo'riqlash, sud hukmlarining ijrosini ta'minlash, odat huquqlarining bajarilishi, davlat chegaralarining qo'riqlanishini nazorat qilgan. Bir necha beklar ustidan “beklar begi” tayinlangan (yoki ulug' bek, buyuk bek). Beklar begi katta qo'shinga qo'mondonlik qilib, xon kengashida qatnashgan.

Qoraxoniylar davrida jamiyatning ijtimoiy bo'g'inlari quyidagi shakl va ko'rinishga ega bo'lgan:

- elixxon-hoqonul-hoqondan keyingi pog'onada turuvchi shaxs. U hoqon xonadoniga mansub bo'lib, viloyatning mulk sohibi hisoblangan;
- iqtidorlar – qoraxoniylar davlatining tayanch qatlami, asosiy harbiy harakatlarni amalga oshiruvchi jangovor bo'linmalar vakillari. Ular o'z martabalariga ko'ra bir-birlaridan farq qilganlar;
- islom dinining peshvolari- imomlar, Sayyidlar shayxlar, sadrlar. qoraxoniy- hukmdorlar musulmon rahbarlari bilan yaxshi munosabatda bo'lganlar. Diniy mansab sohiblarining mavqei benihoya katta bo'lgan;
- hokimlar, raislar, muxtasiblar va hakazo.

Bunday shaxslar somoniylar davridagi singari qoraxoniylar davrida o'z mavqelarini mustahkam saqlay olgan ijtimoiy qatlamdir;

- tariqchilar – ziroatkorlarning turkcha nomi, qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlovchi asosiy ijtimoiy qatlam sanaladi;
- hunarmandlar turli xildagi xo'jalik ahamiyatiga molik ashyo, asbob – anjomlar yasovchi, tayyorlovchi mehnatkash qatlam;
- savdogarlar – savdo-sotiq bilan mashg'ul bo'lgan shahar ahli;
- ko'chmanchilar – chorvadorlar, ya'ni chorva mahsulotlari yetishtiruvchi asosiy qatlam.

Qoraxoniylarda oddiy xalq «budun» deyilgan. Soliq to'lovchi aholi “raiyyat” deb atalgan. Qabila boshliqlari “bek” deyilgan. Savdogarlar “sart” deb atalgan. Qoraxoniylar davlatida hunarmandchilik, shuningdek, ziroat va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi sohalar taraqqiy etgan.

Shaxsan ozod chorvador xalq xonlar va beklarga tegishli yaylovlarda o'zlarining mollarini boqqanlari uchun, davlatga soliq-maran va zakot, mol bergan.

Yusuf Bolosog'uniy o'z asarida bek bo'lish uchun yuksak sifatlar bo'lishini talab qiladi: «Bek – dono, botir, sheryurak bo'lishi lozim. Uning bilimli, zakovatli, mulohazali bo'lishi taqozo etiladi. Ochiq yuzlilik

bekning yaxshi fazilatlaridan biridir». Albatta bek kim va qanday bo'lmasin, u xalq bor bo'lgani uchun bekdir. Shuning uchun ham u bek hokimiyatida xalqning o'rniga yuksak baho beradi. «Oddiy aholi «aratlar» beklarning qanot va parlari bo'lib, ularsiz qush kabi ucha olmas edilar. Qaysi bek hushyor bo'lsa, elini mustahkamlaydi, yov bo'ynini yanchib uning ustiga balolar yog'diradi, qaysi bek elida to'g'ri (odil) siyosat yurgizsa. Elini yashnatadi, uning kunlarini yoritadi. Mana shu ikki narsa tugal bo'lsa, el ham mangu turaveradi». Qoraxoniylar davlatida aratlar – oddiy xalq uchga: boylarga, o'rtahollarga va chig'aylar – yo'qsillarga bo'lingan. Bundan tashqari, kishilar «qul kabi er», «qulsik er», «qulsik kishi» kabi nomlar bilan atalgan qaramlikka tushib qolgan kishilar ham mavjud.

Xorazmshohlar davlati va huquqi. (XI-XIII asrlar)

Xorazm vohasining tarixiy taqdiri juda boy veqalarga ega bo'lib, bu yerda Amudaryoning quyi oqimi va unga yondosh bo'lgan hududda qadim zamonlardayoq dehqonchilik madaniyati rivojlangan edi. Miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalaridayoq sug'orish shahobchalari qurila boshlangan. Miloddan avvalgi I ming yilliklarga kelib, Xorazm O'rta Osiyo va Eronning iqtisodi va madaniyati eng rivoj topgan markazi bo'lib qoldi.

Xorazmshohlar nomi bilan ataluvchi hukmdorlar sulolasining tarixi eramizning birinchi asarlaridan boshlanib, 712-yili Xorazmni arablar tomonidan bosib olinganidan keyin ham mo'g'ullar istilosiga qadar davom etdi.

Arab xalifaligi tarkibida Xorazm qadimiy madaniyat markazi sifatidagi ahamiyatini yo'qotmadi. Madaniy an'analarning uzviyligi shundaki, Muhammad ibn al-Xorazmiy, Abu Rayhon al-Beruniy kabi bir qancha buyuk olimlar Xorazmdan yetishib chiqqanlar.

X-XI asrlarda ham Xorazm madaniyat markazi sifatida ahamiyatini saqlab qoldi. XI asr boshlarida G'aznaviylar tomonidan bosib olinishi oqibatida O'rta Osiyoda o'z davrining yetuk davlat ahamiyatini yo'qotdi. XI asr oxirlarida Xorazm Saljuqiy davlati tarkibida rivojlanib bordi. Xorazmda Anushteginlar sulolasi hokimiyatni egallaganidan keyin Xorazmshohlarining to'rtinchi sulolasi hukmronligi (1097-1231-yillar) davri boshlandi. Bu sulolaning asoschisi Anushtegin Murg'ob daryosini Sharqiy tomonida joylangan Gurjistonda yoshligida qul bo'lgan. Saljuqiy amirlaridan biri uni sotib olib, sulton saroyiga tortiq qilgan. U Sulton Malikshoh saroyida toshdorlik vazifasini bajargan. Xizmat evaziga u

“shixna” unvoni bilan Xorazm hokimi (vali) etib tayinlanadi va shu tariqa Anushteginlar sulolasiga asos soladi.

Saljuqiylar sultoni Sanjar Anushteginning o‘g‘li Qutbidin Muhammad (1097-1127-yy) hukmronlik qilgan.

Xorazmshoh laqabi bilan “muqta” etib tayinlanib, shu davrdan bu viloyat hukmdorlari Xorazmshohlar deb atala boshlandi. Xorazmshohlarning hokimiyati ularning qo‘llab-quvvatlanishiga qarab kuchli yoki markazlashgan bo‘lgan. Ayrim feoddalarning o‘zboshimchaligiga qarshi kurashda hunarmandchilik va tovar-pul munosabatlari rivojlangan shahar aholisini qo‘llab quvvatlashiga tayangan Xorazm davlatida xonlar (shohlar)ning saylanishi tartibi umumiy qoida hisoblansa ham, mo‘g‘ullar bosqinchiligi arafasida Xorazmshohlar hayot vaqtlaridayoq hokimiyatni o‘z vorisiga o‘tishini ta‘minlay olganlar.

Xorazmshohlar davlatida markaziy boshqarish devoni (apparati) “al-majlis al-faxr”i deb atalib, uni oliy darajadagi mansabdor vazir boshqargan. Vazir davlat boshlig‘ining birinchi darajadagi maslahatchisi bo‘lib, faqat uning oldida hisobot berib turgan. Vazir rasmiy tantanalarda, davlatlararo munosabatlarda, shoh vassalari bilan muomalada uning nomidan harakat qilgan. Umumiy tartibqoidalarga rioya qilinishini nazorat qilgan. Davlat arboblari, viloyat hokimlari, harbiy boshliqlar bevosita vazirga bo‘ysunganlar. Vazir devon mansabdorlari (asxabul-davovin) boshlig‘i ham edi. Ularga nafaqa (arzak), ish haqi (mavojib) to‘lash, soliq boshqarmasini, davlat xazinasini nazorat qilish ham uning vazifasi hisoblangan.

Vazirlik mansabi davlatda juda katta ehtirom bilan hurmat qilingan. Chunki mamlakatning moddiy ahvoli, aholining tartib-intizomga rioya etishi, amaldorlarning haqqoniy xizmat qilishi, qolaversa, davlat boshlig‘ining siyosiy va ma‘naviy mavqei ana shu vazirning ishbi-larmonligi, mamlakatni boshqarish qoidalarini bilishi va unga amal qilishi, hayot tajribasiga ega bo‘lishi bilan bog‘liq edi. Shuning uchun ham Xorazmshohlar bilimdon, shariat qoidalarini yaxshi biladigan, katta hayot tajribasiga ega bo‘lgan, sadoqat bilan xizmat qila oladigan shaxslarni vazirlik mansabiga tayinlaganlar.

Vazirlarning “sadr”, dastur yoki “xoja‘i buzrug” unvonlari bo‘lib, ular mansabining belgisi siyoxdon (da‘vat) va maxsus matodan to‘qilgan salla edi.

Vazirlik mansabiga odatda ajdodlari mansabdor bo‘lgan arab yoki fors millatiga mansub bo‘lgan shaxs tayinlangan. Turkiy xalq vakillari bu mansabga tayinlanmagan. Vazir arab yoki fors tilini bilishi, ma‘muriy

ishlarga qobiliyatli bo'lishi, saroy axloq-odob qoidalarini bilishi zarur edi. Vazirlar qabul paytida shohning o'ng tomoniga qo'yilgan maxsus kursida o'tirgan. Xorazmshohlar davlatida vazir mansabi birinchi marta sulton Otsiz davrida joriy etilgan. Xorazmshohlar davlati tarixida o'z vazifasini vijdonan bajargan, mamlakatda sadoqat bilan xizmat qilgan va tarixda yaxshi nom qoldirgan vazirlar ko'p bo'lib, ulardan eng mashhuri sulton Takash hukmronligi davrida vazirlik qilgan Nizomul-mulk Shamsaddin Mas'ud ibn Ali ad-Xaraviy edi. Uning davrida Marv, Urganch kabi shaharlarda machit, madrasa va qo'lyozmalar saqlanadigan joylar qurdirganligi ma'lum.

Mo'g'ullar bosqini arafasida shoh Alovuddin Muhammad vazirlik mansabini bekor qilib, uning o'rniga oltita vakildorlardan iborat "Kengash" tuzgan edi. Bu Xorazmshohlar davrining oxirlarida tuzilgan davlat kengashi bo'lib, muhokama etilgan har bir masala yakdillik bilan qabul qilinishi va qarorda kengash a'zolari hammasining imzosi bo'lishi kerak edi.

Vakildorlar Davlat kengashi tuzilishiga sabab ko'chmanchi mo'g'ullar hujumi xavfining kuchayganligida edi. Lekin mo'g'ullar hujumi xavfiga qarshi vakillar kengashi birorta jiddiy qaror qabul qilganligi yoki chora-tadbir ishlab chiqqanligi haqida ma'lumotlar yo'q.

Mamlakatdagi oliy mansablardan yana biri- bu viloyatlar va nohiya vazirlari edi. Bu mansab faqat Xorazmshohlar davlatida bo'lgan. Bunday vazirlar odatda siyosiy jihatdan muhim hisoblangan viloyatlarga, shaharlarga va nohiyalarga tayinlanib, ular shohning maxsus topshiriqlarini bajarganlar. Oxirgi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi ham bir shaharga vazir etib tayinlagani tarixdan ma'lum.

Xorazmshohlar davlati markaziy boshqaruv apparatida siyosiy ahamiyati jihatidan uchinchi o'rinda turadigan mansab- "buyuk hojib" mansabi edi. Odatda bu mansabga turk urug'-qabila zodagon vakillaridan tayinlangan. Hojiblar shohning shaxsiy xizmatida bo'lib, saroy tantanalari tartibini nazorat qilishgan, shaxsan shohga aloqador masalalar yuzasidan unga axborot berib turgan, uning maxsus topshiriqlarini bajargan va unga doimiy hamrohlik qilgan. Shoh ixtiyoridagi maxsus topshiriqlarni bajaruvchi hojiblar ustidan nazorat ishlarini amalga oshirish "kotibal-kabir" (buyuk xojob)ga yuklatilgan. Masalan, Xorazm shohlaridan Nizom-al-Mupini o'zboshimchaligi, xazina mulkini talon-taroj qilayotganini tekshirish va aniqlash uchun yuborgan. Hojib Erboz vazirotni devoni daftarlarini, mol-mulk ro'yxatini (jaroidni), arxivni (mahzan), kotiblarni va moddiy tassarrufining faoliyatini tekshirish vakolatini olgan edi.

Sulton Jaloliddin Manguberdi hojib al-xoss Xonberdini qo'zg'olonchilar boshlig'i Bandar, hojib al-xosa Badriddin Tutakchi Sulton Jaloliddin nomidan ismoyiliylar bilan muzokaralar olib borish uchun yuborgan. Xorazm davlatida hojiblar sulton-shohlarning maxsus topshiriqlarini bajargan va hattoki, uning nomidan qo'shni davlatlar hukmdorlari bilan muzokaralar olib borgan hamda elchilik vazifasini o'tagan. hattoki xalifa muntaqisr elchisini qabul qilgan.

Yuqorida ko'rib o'tilgan davlatning asosiy amaldorlaridan tashqari shoh saroyida turli mayda vazifalarni bajaruvchi mansabdorlar ham bo'lgan:

Ustozdor – shoh saroyidagi barcha xo'jalik yumushlariga boshchilik qilgan. Otxona, nonvoyxona, oshxona va saroy yugurdaklari uning ixtiyorida edi. Ustozdor saroy sarfiyot xizmatlariga haq to'lash uchun xazina hisobidan xarajat qila olar edi.

Keyingi saroy mansabdorlari qatoriga “Amir-oxur”- shoxning otboqari, “amir-shikor”-ovchilik ishlarini tashkil qiluvchi, “toshdor” – shohning shaxsiy hammomini boshqaruvchi, “tarobdor” shohning shaxsiy mirzasi, “amiral-alam”, “tug'dor” va boshqa amaldorlar ham mavjud edi.

Xorazmshohlar qo'shini o'z zamonasi uchun g'oyatda kuchli hisoblanar va o'z davrining eng yaxshi qurollari bilan jihozlangan edi. Bu qo'shinlarda odatdagi qurollardan tashqari qamal mashinalari ham bo'lgan. Bular orasida harakatchan minorlar, taranlar, hujum narvonlari ajralib turgan. Z.M.Buniyotov bular Takash yorlig'iga ko'ra «olovdan dahshatliroq, shamoldan ko'ra tezroq» deydi. Xorazm yaxshi tayyorgarlik ko'rgan doimiy armiyaga ega edi. Doimiy armiya asosan turklardan tuzilgan bo'lib, qo'shin bo'linmalar qabilachilik asosida tuzilgan edi. 1195-yilgi harbiy reyestrga ko'ra Xorazmshohlar 170 mingdan ziyod doimiy armiyaga ega edi. Ba'zi tarixiy ma'lumotlarda Xorazmda 400 mingli armiya borligi qayd etilgan. Xorazmshohlarning, shuningdek, qullardan tuzilgan shaxsiy gvardiyasi (xaras) ham bor edi. Xaras ko'proq savdo karvonlarini kuzatib borgan. Qo'shinlarning bosh boshqarmasi devon-al-joyish bo'lib, uni shoh tayinlaydigan nozir devon al-ard (devonal-joyish) boshqargan. Ba'zi manbalarda umum harbiy boshqaruv organi devoni arz dar jumlai- mamolik deb atalgan.

Devonal-joyish harbiylarga berilgan “iqto” ishlarini, hamma unvon-dagi harbiylarga maosh va boshqa to'lovlarni, qo'shinlarni va ularning qurollanishini ro'yxatga olish, hamma jangchilarga maoshni (arzaq) o'z vaqtida to'lanishini, ularning barcha zarur anjomlar bilan ta'minlanishini tekshirib turgan. Yirik viloyatlarda mahalliy harbiy boshqarmalar ham

tuzilgan. Xorazmshohlar armiyasidagi eng muhim mansablardan ikkinchisi harbiy nazoratchi-nazir-al edi. U ham sohib-al-divon al-joyish nazorati ostida ish olib borar edi.

Armiya qo'mondonlari "qayd" yoki "muqaddam" deb atalib, eng ish bilarmon, epchil amirlar (lashkarboshilar) bu mansabga tayinlangan. Ba'zi hollarda viloyat hokimlari ayni bir vaqtning o'zida mahalliy qo'shinlarga ham qo'mondonlik qilgan. Viloyat qo'shinlari qo'mondoni ham sohib al-joyish unvoniga ega edi. Yangi viloyatlarni bosib olgandan so'ng, shu hudud yerlari amirlarga "iqto" tarzida in'om qilingan va eng katta xizmat ko'rsatgan amirlarga "amir ul-umaro" unvoni berilib, shu hududiga amirlar oqsoqoli etib tayinlangan. 10 mingacha otliq askarlar qo'mondoni "molik" deb atalgan. Ularning ba'zilariga jangda jonbozlik ko'rsatgani uchun "xon" unvoni berilar edi. Xorazmshohlar armiyasida aloqachilar, razvedkachilar bo'lib, ularni go'vushlar va josuslar deb atashgan. Josuslar g'animning qo'shinlari holati, uning harakati va maqsadlari haqida ma'lumotlar to'planganlar.

Armiyada diniy ishlarga "qozi-yi-xasham" yoki "qozi al-askar" rahbarlik qilgan.

Xorazm qo'shinlari yaxshi qurollangan bo'lib, odatdagi qilich, nayza, kamon kabi qurollardan tashqari manjaliq (katapult) tosh otar kabi hujumda ishlatiladigan narvonlari, to'sinlardan ham keng foydalanganlar.

Xorazmshohlar istehkomlar va qal'alar qurishga katta e'tibor berganlar. Xorazmda har tomonlama baland va mustahkam qurilgan Ilal, Xo'rondiz, Qohri, Ardaxn kabi qal'alar bo'lganligi haqida tarixiy ma'lumotlar saqlanib qolgan. Qal'alardagi jangchilarga "mustahfizlar" qo'mondonlik qilgan.

Xorazmshohlar davlatida politsiya va jazolash vazifalarini maxsus otryadlarga rahbarlik qiluvchi "shihna"lar bajargan. Bu mansabga asosan turk harbiy boshliqlari – amir etib tayinlangan. Shihna hokimiyat uchun xavfli bo'lgan hamma ishlarni nazorat qilgan. Har bir bosib olingan viloyat va nohiyalarga zudlik bilan "shihna"lar tayinlangan.

Xorazmshohlar davlatida qo'shinlarning tashkiliy tuzilishi, hujum yoki mudofasida qo'llaniladigan harbiy harakatlar tuzugi arab qo'shinlari tuzilishidan olingan bo'lib, ilg'or – o'ng qanot markaz – chap qanot, aryergard va zasada (xofiya) qismlardan iborat edi.

Harbiy harakat yoki urush e'lon qilishdan oldin yirik qo'mondonlar, ulamolar, faqhlar, munajjimlar ishtirokida kengash o'tkazilar va shu kengashda ishlab chiqilgan reja asosida harbiy harakat boshlanar edi.

Xorazmshohlar davlatida XIII asrning boshlarida mo'g'ullarning O'rta Osiyoga istilosi (bosqinchiligi) boshlanishi arafasida Xorazmshohlarni Anushteginlar sulolasining so'nggi hukmdori Ala ad-din Muhammad davrida ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlari, o'zaro nizolar kuchayib ketdi. Bunday vaziyatdan ustalik bilan foydalangan Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullar Xorazmni zabt etishga muvaffaq bo'lgan.

Buni esda tuting :

Foziylar - asosan ko'chmanchi qabilalar hujumini bartaraf qilish maqsadida kambag'al hunarmandlar va yersiz ziroatchilardan tashkil topgan qurolli qo'shin.

Xorazmshohlar davlatida politsiya va jazolash vazifalarini maxsus otryadlarga rahbarlik qiluvchi "shihna"lar bajargan

Shihna - hokimiyat uchun xavfli bo'lgan hamma ishlarni nazorat qilgan.

«**Kastafzud**» - sug'orish uchun suvdan foydalanadigan ko'chalarni hisobga oladigan maxsus davlat organi – devon.

Nazorat uchun savollar

1. Arablar tomonidan Turon yerlarini bosib olinish sabab va oqibatlari, hamda arablar boshqaruvining ahamiyati nimadan iborat?
2. 712 yilgi Samarqand shartnomasining asosiy mazmuni nimalardan iborat edi?
3. Movarounnahr fiqh maktablaridan qaysilarini bilasiz? Ularning o'ziga xos xususiyatlari?
4. Shariat bo'yicha jinoyatlar qanday klassifikatsiya qilinadi?
5. Somoniylar davlatining eng rivojlangan davri qachon va uni qanday asoslaysiz?
6. Qoraxoniylar davlatining siyosiy va ijtimoiy tuzumining o'ziga xos jihatlari nimalarda ko'rinadi?
7. G'aznaviylar davlatida sulton va vazir o'rtasidagi o'zaro shartnomaga ko'ra, sulton va vazirning vakolati, vazifalarini tahlil eting.
8. Saljuqiylar davlatining siyosiy –ijtimoiy tuzumi o'rta asr davlatlaridan farqli jihatlari nimada ?
9. Xorazmshohlar davlatining huquq manbalarini tahlil eting.

Adabiyotlar:

1. Ишонов О.И., Х.Саматова, Ш.З.Уразаев. “История государства и права Узбекистан” Т., “Ўқитувчи”, 1969 й.
2. Н.В.Бобоев. О‘zbek davlatchiligi. Т.Т-2005.
3. Saidov A.X., J.U.Toshqulov. О‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. Т., О‘zbekiston IIV Akademiyasi, 1995-y
4. Z.Muqimov. О‘zbekiston davlati va huquqi tarixi, Samarqand. “Zarafshon”, 1998-y.
5. N.Nematov. Somoniylar davlati. Dushanba. Adib 1977-y.
6. A.J.Narshaxiy. Buxoro tarixi. Т., Kamalak 1991-y.
7. Z.Muqimov Movarounnahr fiqh maktabi. Samarqand, Zarafshon. 1997-y.
8. B.Ahmedov. Qadimiy qonunlarimiz. Temurni yod etib. Т., О‘zbekiston. 1996-y.
9. A.SH.Juzjoniy.Islom huquqshunosligi. Т-2003.
10. M.Hamidova. О‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. Т. TDYUI. 2004.

Reja:

1. Mo'g'ullar hukmronligi davrida Movarounnahrning boshqaruvi tuzumi.
2. Markaziy va mahalliy boshqaruv.
3. Chingizxon «Yaso»lari .
4. Kebekxon islohotlari.
5. Mo'g'ullar hukmronligi davrida jinoyat va jazo masalalari.

Chig'atoy ulusining tashkil topishi XII asrning boshlariga kelib, qadimgi turklar bilan qo'shni yashab kelgan mo'g'ul – tatarlar tarqoq urug'larni birlashtirib, o'zaro nizolarga barham berishdi. Temuchin (Chingizxon) (1206-1227) boshchiligidagi harbiy - demokratik tuzumdagi markazlashgan turk-mo'g'ul davlati tashkil topdi. Uning bosh kenti Qoraqurum shahri edi. 1219-yilning sentabrida O'tror, 1220-yil fevralida Buxoro, martida Samarqand Chingizxon tomonidan egallandi. 1221-yil butun O'rta Osiyo mo'g'ullar hukmronligiga bo'ysundirilgan.

Chingizxon o'z jamiyatida odat huquqlaridan tashqari o'zining qattiq jazolari bilan ajralib turuvchi qonunlar to'plami Yaso (yoso)ni taqdim etdi. 1206-yildan esa qurultoyni tashkil qildi. Qurultoy ikki masala: 1. Davlatning oliy boshlig'i. 2. Yaso qonunlari hamda unga amal qilishning nazorat qilish masalasini hal qildi. "Qurultoy" asli turkcha so'z bo'lib, "umumxalq yig'ini" ma'nosini anglatgan. Temuchin (Chingizxon) qurultoyni karnay- surnaylar bilan jarchilar yordamida chaqirgan. Qo'shinni o'ng qanoti (barongor), so'l qanoti (jangovor)ga bo'lingan. Oq rangdagi Tugi maydonida to'qqiz bor yuqoriga ko'tarilib, u butun mo'g'ullarning buyuk xoqoni (buyuk xoni) qilib saylangan hamda unga Chingizxon unvoni berilgan. Chingizxon unvoni bir qancha ma'nolarni anglatadi. Mirzo Ulug'bek bu haqida "shohlar shohi" degan ma'noda desa, ingliz olimi Bosvort turkiycha "Dengizxon" so'zining talaffuzidir deydi. Mo'g'ul udumlariga ko'ra, Temuchinga bu unvonni Keucha ismli Tabtangr laqabli, shaman berib, bu so'z shamanlar sig'inadigan ruxlardan birining nomini bildirishini va bu so'z "xonlar xoni" degan ma'no anglatishini aytishadi. Asosiysi Temuchin o'zidan oldin o'tgan qoraxoniylar xonining buyuk xon yoki xonlar xoniga teng kelgani uchun ham barcha mo'g'ullar bajarishi shart bo'lgan "Yoso qonunlarini" e'lon qilgan. "Shaboshou" yoki "Yoso qonunlari" deb ataluvchi bu to'plam, uyg'ur yozuvida yozilgan, muhrlanib davlat xazinasiga topshirilgan.

Barcha sultonlar va xonlar unga bo'ysunishi shart bo'lgan. quriltoylarda bu qonunlar o'qib turilgan. Chingizxon "yaso"ga amal qilish ustidan nazorat qilishni katta o'g'li Chig'atoyga topshirgan. Bu qonunlar Turkistonda mo'g'ullar hukmronligi tugatilgandan so'ng ham qisman ta'sir etib turgan.

Davlat tepasida oliy hukmdor xon turgan. Chingizxon o'ziga tegishli yerlarni 4 ta ulusga bo'lib, katta o'g'li Jo'jiga

1. Irtish daryosining Sirdaryoning quyi oqimigacha nargi tomonini;
2. Qoshg'or, Yettisuv, Movarounnahr ikkinchi o'g'li Chig'atoyga;
3. G'arbiy Mo'g'uliston va Tarbag'atoy o'lkasi O'g'adoyxonga;
4. Shimoliy Mo'g'uliston kenja o'g'il Tuluysga bo'lib berilgan.

Oltin O'rdaga asos solingan. Chig'atoy ulusini Mahmud Yalavoch boshqargan, keyinchalik u Xitoyga hokim etib tayinlangan. Harbiy hokimiyat aholini ro'yxatdan o'tkazish, soliq yig'ish ishlari, dorug'achi va "tamg'achi" deb ataluvchi mug'ul amirlari qo'lida bo'lgan.

Chingizxonning o'g'illari o'zlariga tegishli joylarda, uluslarda keng huquqlarga ega bo'lishgan. Ular viloyatlarni beklarini o'zlari tayinlar va vazifasidan ozod qilishgan. Oliy sud hokimiyatini ham o'zlari amalga oshirgan. Mo'g'ullar davrida harbiy qo'shin alohida o'rin tutib, u o'nliklar, yuzliklar, mingliklar tarzida tashkil topgan. 1206-yilda mo'g'ullar qurultoyida qabul qilingan "Chingizxon yusunlari" yoki "Yaso qonunlari" nomi bilan ataluvchi huquqiy qoidalar to'plami 33 qismdan iborat bo'lib, O'zbekiston hududida ham amal qilgan. Unda jinoyat va jazo, harbiy qismlarni boshqarish va ularda qat'iy tartib-intizomni joriy qilish, oila va nikoh, mulk masalalariga e'tibor berilgan.

Yusunlarga binoan, suv va olovni haqoratlash, sutni yerga to'kish, asirdagilarga yordam ko'rsatish, qulni egasiga qaytarmaslik, qo'riqlash uchun topshirilgan makonni qarovsiz qoldirish, yolg'on gapirish va guvohlik berish, xoinlik, harbiy intizomni buzish kabilar og'ir jinoyat hisoblangan. Bunday xatti-harakatlar uchun o'lim jazosi belgilangan.

Mol o'g'rilari molni to'qqiz barobar qilib egasiga qaytarish, agar mablag'i bo'lmasa, bolalarini qul sifatida berishi kerak edi. Agar bolalari ham bo'lmasa, o'lim jazosiga hukm etilgan.

Chingizxon yusunlarida harbiy qo'shinning tashkiliy ishlari va vazifalari, unga hukmronlik qilish, harbiy intizom, uni buzganlik uchun javobgarlik haqidagi qoidalar o'rin olgan. O'nta jangchi 10 boshiga, yuzta jangchi yuzboshiga, o'nta yuzboshi mingboshiga, o'nta mingboshi tumanboshiga, bir necha tumanboshlar noyonga, ikki-uch noyon esa bosh qo'mondonga bo'ysungan. Barcha jangchilar bir-biriga kafil bo'lib, bir

jangchi yoki bir necha jangchining aybi uchun o'nlilik a'zolari javobgarlikka tortilgan, asosiy jazo-o'lim hisoblangan.

"Yusun"larda barcha dinlarga erkinlik berish, dindorlarni va ruxoniylarni soliqlardan ozod qilish urush vaqtlarida ayollar gunohidan kechish, imtiyozlar, ov qilish tartiblari ham o'rin olgan.

Movarounnahrda mo'g'ullar hukmronligi davridagi huquq manbalaridan biri - bu Chig'atoy xoni **Kebekxon** (1318-1326-yy) davrida pul va ma'muriy islohotlar o'tkazilishi haqidagi farmonlaridir. Kebekxonning pul islohoti o'tkazish haqidagi farmoniga ko'ra, pul muomalasidagi tartibsizliklarga chek qo'yish maqsadida Eron va Oltin O'rdada bo'lgani kabi kumush dinorlar va dirhamlar joriy qilgan, bir dinorning og'irligi ikki misqol (bir misqol 4,64 gr.) dirhamning og'irligi 1/3 misqol qilib belgilangan. Yangi pul birligi tarixda "kepakiy" nomi bilan mashhur bo'ldi. Bir dinor kepakiy ikki misqol, bir dirham kepakiy esa 3/1 misqolga teng bo'lgan.

Ma'muriy islohotlariga binoan, ikki tomonlama idora tizimiga; bir tomondan mamlakat hokimi va ikkinchi tomondan shahar hokimlari tomonidan boshqarilishiga barham berilgan.

Ma'muriy islohotlariga ko'ra, mamlakat Buxoro va Samarqand viloyatlari tumanlarga, Farg'ona va Sharqiy Turkistonda "orchin"ga ya'ni poytaxt atrofi nohiyalariga bo'lindi.

Boshqaruvning yagona tizimi joriy qilingan. Mamlakatdagi mayda xonlik va beklar saqlanib qolgan va ular tumanlarga bo'lingan. Shahar hokimlari tuman boshliqlarining noiblariga aylantirilgan. Chingizxon demak, yasoni tuzishdan maqsadi markazlashgan mo'g'ul davlatini tuzish va uni mustahkamlashdan iborat edi. Unda davlat huquqi, harbiy qurilish, dalat boshqaruvi, beklar, noyondar va amaldorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatga oid qoidalar, jinoyat, grajdanlik, sud yuritish, jazo va uning turlariga oid qoidalar metall taxtalarga o'yib yozilgan. Shulardan 33 parchasi Chingizxonning davlat, harbiy va jinoyat huquqi bo'yicha: 27 nutqi biliklar tarzida qolgan. **Jazo:** agar mo'g'ul tatar urug'idan bo'lgan kishi yaso qoidasini 1 marta buzsa, unga ijtimoiy jazo so'z bilan tanbeh berish; 2-chi marta buzsa, bilikka asosan, jazoga tortish, 3-chi marotaba esa uzoq Boljin Suljurga surgun qilingan, shundan keyin ham buzsa, oyog'iga kunda urib qorong'i qamoqxonada saqlangan.

Agar qarz olgan kishi o'z vaqtida qarzini qaytarmasa, qaytarish imkoniyati bo'lmasa, bolalari qarzdor holatiga tushgan. Jazo ijtimoiy va milliy tengsizlikka asoslangan: bir begunoh mo'g'ulning o'limi uchun xun bahosi 40 tangaga (kumushga) teng bo'lsa, xitoylikning o'limi uchun bir

eshakning bahosi belgilangan. Ayg'oqchilik, aldanchilik, soxta guvohlik, tabiatni ifloslantirgani uchun, poraxo'rlik, fohishalik uchun ham o'lim jazosi berilgan.

Mol-mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlar o'g'rilik uchun o'g'irlangan narsaning 3-9 baravarigacha jarima to'latilgan, to'lay olmasa, 7-700 tagacha qamchi urish bilan jazolangan. Katta miqdordagi o'g'rilik uchun esa – o'lim jazosi berilgan.

Yorg'u va yaso qoidalariga uluslar xonlar qattiq amal qilishgan.

Sud ishlari markazda bevosita xon noibining huzurida uning nazorati ostida olib borilgan. Mo'g'ullarga taalluqli ishlarda sud yuritish yasoga asoslangan edi. Diniy ishlar shariat huquqi asosida yorg'uchilar (sud'yalar) tomonidan hal etilgan. Sudyalar yorg'uchilar obro'li, e'tiborli kishilardan tayinlangan. Sud funksiyasi kundalik ish bo'lgan.

Chig'atoy ulusida yer solig'i 10/1 hajmida belgilangan. Oliy mansabdorlar soliq to'lashdan ozod etilgan edi. Chorvador xo'jaliklardan ko'pchur solig'i olinardi.

Yana bir soliq targ'u deb atalgan, u hunarmandlar, savdogarlardan olingan. Ishlab chiqarilgan va sotilgan molning 30/1 ulushi hajmida bo'lgan. Mahalliy xalq tuz solig'i, jon va kumush solig'i to'lagan. Noiblarga barot (ijara yorlig'i), payza berganlar.

Nazorat uchun savollar

1. Mo'g'ullar davlatida 1206 yilda qanday tarixiy voqea sodir bo'lgan?
2. Kebekxon qanday islohotlar o'tkazgan?
3. Chig'atoy ulusida "Yorg'uchilar" qanday vazifani bajargan?
4. "Yaso" qonunlari qaysi sohalarni himoya qilish ko'zda tutilgan?
5. Ikkinchi marotaba jinoyatni takroran sodir qilgan shaxsga qanday jazo chorasi belgilangan?
6. "Yaso" qonunlarida jazo choralaridagi milliy tengsizlikka misollar keltiring?

Adabiyotlar:

1. Saidov A.X., J.U.Toshkulov. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. IIV. Akademiyasi. T., 1995-y.
2. Z.Muqimov. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. Zarafshon. Samarqand. 1998-y.
3. A.Sagdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi davlat va jamiyat taraqqiyoti. Akademiya. T., 2000-y.
4. M.Hamidova. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. T. TDYUI. 2004.

Musulmon huquqi

Reja:

1. Musulmon huquqi tashkil topishi va rivojlanishining o'ziga xos tomonlari
2. Musulmon huquqi manbalari
3. Mulkiy va oilaviy munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi
4. Musulmon huquqi bo'yicha jinoyat va jazo
5. «Hidoya» fiqhshunoslik ilmining shoh asari.
6. «Hidoya» asarida sud dalillari va sudlov haqida.
7. «Hidoya» asarida oila va nikoh munosabatlari.

Musulmon huquqi tashkil topishi va rivojlanishining o'ziga xos tomonlari. Sharqda o'rta asr sivilizatsiyasining yirik hodisalardan biri musulmon huquqi (shariat) bo'ladi. Ushbu dunyo ahamiyatini kasb etgan huquq tizimi Arab xalifaligi asosida paydo bo'ldi va tasdiqlandi. Uning rivojlanish jarayoni arab davlatchiligining evolutsiyasi bilan, ya'ni VII asrda uncha katta bo'lmagan patriarxal-diniy jamoadan tortib, to VII-IX asrlarda yirik imperiyalar: Ummaviylar va Abbosiylargacha bo'lgan davr bilan mustahkam bog'liqdir.

Arab xalifaligi inqirozga uchragandan keyin musulmon huquqi o'zining avvalgi ahamiyatini (nafaqat) yo'qotmadi, balki go'yoki "ikkinchi hayot" bilan rivojlandi va u yoki bu shaklda Islomni qabul qilgan (Misr, Hindiston, Usmoniylar imperiyasi va hakoza) bir qancha O'rta asr Osiyo va Afrika davlatlarida amaldagi huquq sohasiga aylandi.

Musulmon huquqi o'zida o'zidan oldingi ko'plab Sharq huquqiy madaniyat elementlarini mujassamlashtirgan. Xususan, islomgacha bo'lgan Arabiston va arablar tomonidan bosib olingan hududlarning huquqiy urf-odatlarini bularga kiritishimiz mumkin. Misol uchun, Ummaviylar davrida, ma'lum vaqt mobaynida Eron sosoniylari, Vizantiya va qisman Rim huquqlari qo'llanilib kelingan. Bu barcha manbalar oz bo'lsada, shariat shakllanishida o'zining ta'sirini ko'rsatgan. Bu holatga Sharq va G'arb sivilizatsiyasining bog'liqlik ramzi sifatida qarashimiz mumkin. Lekin shariatning qaytarilmas va o'ziga xosligi, mustaqil huquq tizimi sifatida mavjud bo'lishini oxir-oqibat ular tomonidan belgilab berilmagan.

Muhammad (S.A.V.) va musulmonlarning muqaddas kitoblari bo'lmish Qur'on va Sunnati oyatlar, suralar va payg'ambarimizning qilgan

ishlarini tashviqot qilish orqali yig'gan to'rt xalifaning faoliyatlari shariatning shakllanishida eng muhim rol o'ynadi.

Ilk paytlardan oq shariat qat'iy konfessional huquq tarzida shakllandi va rivojlanib keldi. U islomning diniy-axloqiy qarashlariga asoslanar edi. Islomning arkonlariga binoan, huquqiy munosabatlarga ilohiy qoida va qonunlarning bir.

Musulmon huquqi manbalari. Shariatning muhim manbasi bo'lib, oyat va suralardan tashkil topgan, musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lmish Qur'on hisoblanadi. Tadqiqotchilar Qur'onda unga nisbatan Sharqning qadimgiroq huquqiy yodgorliklarining holatlari mavjudligini ta'kidlashadi. Qur'onni tuzish bir qancha o'n yilliklarga cho'zilgan. Uning to'liq ishlangan nusxasi xalifa Umar (644-656 yillar) hozirgi holatga keltirgan. Qur'onning o'zida uning huquqiy ahamiyati quyidagicha ta'riflanadi: "Shunday qilib, biz uni arab qonunlari sifatida nozil qildik". Qur'on arablarga islom tomonidan o'rgatilgan qoidalar foydasiga ajdodlar odatlaridan voz kechishni tavsiya etadi.

Qur'on 6666 oyatga bo'lingan, 114 suradan iborat. Bu she'rlarning ko'pchilik qismi diniy xarakterga ega va faqatgina 500ga yaqini musulmonlarning yurish-turish qoidalariga tegishli. Ularning 80 ga yaqini huquqiy (deyarli, bular oila, nikohga tegishli), qolgan esa diniy marosim va majburiyatlarga qaratilgan.

Qur'onning ko'pchilik qismi murakkab xarakterga egadir. Ko'pchilik holatlar noaniq ko'rinishga ega bo'lib, uning tarkibi nimalardan iborat bo'lishiga qarab turli ma'nolar kasb etishi mumkin. Turli mazhablar tomonidan bularni erkin tushunishi natijasida, ular bir-biriga qarama-qarshi huquqiy tavsiyalarda o'z aksini topa boshladi.

Musulmonlar uchun eng muhim manbalardan biri bu Sunna ("Muqaddas meros") bo'lib, u Muhammad (S.A.V.)ning fikr-mulohazalari va qilgan ishlari jamlangan ko'plab hodisalardan iboratdir. Shuningdek, hodisalarda arab jamiyatida ijtimoiy munosabatlarni rivojlanishini aks ettiruvchi turli huquqiy ko'rsatmalarni uchratish mumkin. Hodisalarning so'nggi tarixi IX asrda, sunnaning 6 ta asosiy to'plamlari tuzilib bo'linganidan so'ng amalga oshirilgan. Ular orasida Al-Buxoriyning to'plami eng mashhurdir. Shuningdek Sunnada nikoh va meros, isbotlash va sudlov huquqi, qullar haqidagi normalar o'z aksini topgan. Sunna hodisalari, ularning qayta ishlanganligiga qaramay, ko'plab bir-biriga qarama-qarshi holatlar o'z ichiga olgan va nisbatan "to'g'ri"sini ular orasidan tanlab olish fiqhshunoslar va qozilar extiyoriga qoldirilgan. Bundan tashqari, faqatgina Muhammad (S.A.V.) muridlari tomonidan

aytilgan hadislarigina kuchga ega deb hisoblangan. Shialarda sunniylardan farqli o'laroq, xalifa Ali va uning izdoshlari tomonidan aytilgan hadislarini tan olingan.

Musulmon huquqi manbalari ichida uchunchi o'rinni Ijmo egallagan bo'lib, unga musulmon jamoasining umumiy kelishuvi sifatida qaralgan. Ijmo Qur'on va sunna bilan bir qatorda ta'sirchan manbalar guruhiga kirgan. Amaliy jihatdan ijmo Muhammad (S.A.V.) muridlari yoki oqibatda ta'sirchan musulmon-ilohiyotchilari huquqshunoslari tomonidan aytilib, bir-biriga mos diniy va huquqiy masalalar to'g'risidagi fikrlardan shakllangandir. Ijmo qur'onning ta'siri sifatida rivojlanishi bilan birga, Muhammad (S.A.V.) bilan bog'liq bo'lmagan yangi normalar sifatida ham shakllangandir. Ular mustaqil yurish-turish qoidalarini nazarda tutib, muftilarning bir ovozdan qo'llab-quvvatlashlari oqibatida majburiy tus olganlar. Musulmon huquqi normalarining bunday rivojlanish yo'li «ijtxod» deb nom olgandir. Ijmoning shariatning asosiy manbalaridan biri sifatida, haqqoniyligi Muhammad (S.A.V.) ko'rsatmalaridan aniqlangan: «Agar siz o'zingiz bilmasangiz, biladigan o'zgidan so'rang».

Qur'on va hadislarda aniq ko'rsatma berilmagan huquqiy masalalarni hal qilishda musulmonlar jamoasining chiqargan hukmlari yakdillik bilan qabul qilingan qarorlari shunday deb atalgan va shunday yo'l bilan chiqarilgan hukm shariatda sha'riy ya'ni qonuniy deb qabul qilingan.

Ijmo' bir necha turga bo'lingan:

Ijmo'-al-Muhosil alohida masalalar bo'yicha yirik fiqhshunoslarning birlikdagi fikrlari, Ijmo'-al-Manqul bu obro'li, e'tiborli kishilarning xuddi shunday ishlari, ilgari shunday hollarda qo'llagan fikrlari va guvohliklari asosida hal etilgan ishlari. Musulmonlarning umumiy majlisidagi jamoa fikri Ijmo'-al-umma Davlat boshliqlari bilan diniy tashkilotlarning rahbarlari yig'inida qabul qilgan qarorlari Ijmo' al-aimma kabi turlarga bo'lingan.

Ijmoning shariatning rivojlanishidagi katta ahamiyati Arab xalifaligini boshqaruvchi diniy hokimiyatga yangi feodal jamiyat sharoiti va bosib olingan mamlakatlarning o'ziga xosligiga moslashtirilgan huquqiy normalar yaratish uchun imkoniyat tug'dirishi bilan belgilangan. Shariatni to'ldiruvchi huquqiy manbalar sifatida ijmo'ga alohida muftilarning huquqiy masalalar bo'yicha fatvo-yechimlari va usulining keng tarqalishi munosabati bilan, musulmon huquqi yuqorida ko'rsatilgan huquqiy maktablarning asosiy asoschilari tomonidan ularning asarlarida ilmiy asoslash yo'li bilan rivojlantirildi, keyinchalik esa ularning izdoshlari buni davom ettirishdi. X asrda bir qator obro'li teolog-

huquqshunoslar tomonidan bu vaqtga kelib to'planib qolgan keng huquqiy materiallar tizimlashtirildi. XI asrdan boshlab, islomdagi asosiy oqimlar va har xil huquqiy maktablar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni chuqurlashishi amalda musulmon huquqini yagona tizim sifatida mavjudligini tugatdi.

Musulmon huquqinining eng tortishuvchi manbalaridan biri qiyos-analogiya (ilgarigi qarorga qarab qaror chiqarish) bo'yicha huquqiy masalalarni yechish hisoblangan. Qiyosga ko'ra Qur'onda, Sunnada yoki Ijmoda o'rnatilgan qoidalar bu huquq manbalarida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmagan ishlarga ham qo'llanishi mumkin bo'lgan. Qiyos nafaqat yangi paydo bo'lgan munosabatlarni tez yechishga imkon yaratgan, balki u shariatni bir qator holatlarda ilohiy aralashuvlaridan ozod qilishga xizmat qilgan.

Lekin qiyos tez-tez musulmon sudyalari qo'lida ochiqdan-ochiq o'z manfaatlarining quroliga aylanib turgan. Bu usul kengroq Abu Xanifa va uning izdoshlari xanifiylar tomonidan asoslangan edi. Qiyosga nisbatan qat'iy qarshilik bilan xanbaliylar va alohida, uni umuman huquqning manbai sifatida tan olmagan, shialar qarar edilar. Huquqning qo'shimcha manbasi sifatida shariat, uning prinsiplari va normalariga to'g'ridan-to'g'ri qarshi bo'lmagan mahalliy odatlarni ham tan olgan. Bular qatoriga arab jamiyatining o'zida shakllangan urf-odatlarini, shuningdek, arab bosqinlari oqibatida bosib olingan qismi sifatida qaraladi. Ayniqsa, umuman shariat va uning doktorinal-me'yoriy qismi bo'lmish fiqh ilk davrdanoq, o'zida nafaqat huquqiy qoidalarni, balki dogma va qarashlarni ham mujassamlashtirgan. Shariatning bunday birligi (sinkretizm)ning o'ziga xoslik tomoni shundaki, uning normalari birinchidan, ijtimoiy (insoniy) munosabatlarni tartibga solsa, ikkinchidan, musulmonlarni Olloh bilan munosabatlarini belgilab bergan. Shariatda ilohiy qoidalar va diniy qarashlarning o'z aksini topishi huquqni tushunish hamda huquqiy va huquqiy bo'lmagan harakatlarni baholashda o'ziga xos yondashishni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, huquqning islom teologiyasi bilan mustahkam aloqa huquqiy va diniy tus beriladigan musulmonlarning besh xil xatti-harakatini shariatda o'rnatilishiga olib keldi. Bular majburiy, tavsiyaviy, qilish mumkin bo'lgan, jazo qo'llash ko'zda tutilmagan, lekin qoidalarga to'g'ri kelmaydigan, ta'qiqlangan va jazo qo'llash ko'zda tutilgan harakatlardir. Shariatda ilohiy oldindan belgilanishni tan olinishi musulmon kishisining erki va uning chegaralari haqidagi masalaning ahamiyatini yanada oshirdi.

Bu masalada qarama-qarshilikka duch kelgan diniy maktablar alohida fikrlarni olg'a surishdi. Shunday maktablardan biri (jaboritlar)

umuman inson erkini inkor etdi. Shariat, ayniqsa uning rivojlanishining ilk davrlarida musulmon kishisining huquqlariga bo'lgan e'tibor xarakterlidir (Oллоh oldidagi). Bunday majburiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan normalar shariatda keng o'rin egallagan va ular e'tiqod qiluvchi musulmonning butun hayotini belgilab bergan (har kungi ibodat, ro'za tutish, kulish qoidalari va hakoza). Shariatni tashkil qiluvchi normalarning o'ziga xosligi, ularning faqat musulmonlarga hamda ular orasidagi munosabatlarga nisbatan qo'llanilishi ekanligi bejiz emas. Ilk islom va shariatga o'zida mehr-oqibat elementlarini mujassamlashtirgan ibtidoiy jamoa tuzumidan kelib chiquvchi normalar xosdir. Ammo shariatda insonning Oллоh oldida kuchsiz ekanligi, unga so'zsiz bo'ysunishi kerakligi haqidagi qarashlar ham o'z ifodasini topgan. Qur'onda alohida musulmon kishining sabr-toqatli bo'lishi kerakligi ta'kidlab o'tilgan. «Sabr qiling, axir Oллоh sabrliklar bilan birgadir» (8.48). Xuddi shunday shaklda mo'minning xalifa va davlat hokimiyatiga bo'ysunish majburiyati mustahkamlab qo'yilgan: «Oллоhga bo'ysuning, payg'ambarga va orangizdagi hokimiyat egasiga bo'ysuning» (4.62).

Shariatning diniy-mistik qobig'i uni tashkil qiluvchi huquqiy tuzilish va tushunchalarni o'ziga xosligini belgilab berdi, hamda Rim huquqida bo'lganidek, tizim (sistema) ichida ongli va logik asosni shakllanishiga halaqit berdi.

Lekin VIII-IX asrlarga kelib (bu davrga kelib shariat dunyoni ibtidoiy-qabila nuqtai nazaridan qarash chegaralaridan chiqib, feodal-lashayotgan ijtimoiy munosabatlarga to'qnashadi), musulmon huquqshunoslarining samarali say-harakatlari bilan huquqni anglashning ilohiy usulidan ratsional (ongli) usuliga, huquq normalarini yuritishning noaniq usulidan tizimlashgan logik usuliga o'tildi. Musulmon huquqshunos olimlari shariatning negizi va an'analarini buzmaganda alohida yuridik tabiatga ega bir qancha yangi huquqiy doktrina va normalarni ishlab chiqdilar. Dunyoga mashhur bu davr musulmon huquqshunoslaridan «Buyuk ustoz» unvonini olgan Abu Xanifa (767-yilda vafot etgan), Malik ibn Anos (795-yilda vafot etgan), Ahmad ibn Xonballarni sanab o'tishimiz mumkin.

Huquqshunos olimlari tomonidan musulmon huquqini, unga logik-ratsional asos kiritib, oqibatda katta miqdordagi yangi huquq norma (fiqhni qiyinlashtirish) yaratib, ilmiy qayta ishlanishi Qur'on va Sunnada ko'rsatilgan asl islomdan ajralib ketdi degan tushunchani anglatmaydi. Aksincha, yangi normalar va doktrinalar muftilar va mujtaxidlar sud qilish amaliyotida buzilmagan bo'lsa bas, ular huquqiy va artodoksal islom

normativ mo'ljal berayapti, hamda hayotning barcha hodisalari normalar orasidagi ichki qarama-qarshilikni inkor etayapti degan tasavvur shakllandi.

O'rta asrlar musulmon huquqining o'ziga xos tomonlaridan biri (ayniqsa ilk asrlarda) uning nisbatan butunligida edi. Yagona tangri Olloh degan tasavvur bilan birga universal xarakterga ega bo'lgan yagona huquqiy tartib haqidagi g'oya tasdiqlandi. Bundan tashqari, ilk bor Arabiston yarim orolida vujudga kelgan musulmon huquqi, xalifalik hududi kengayishi bilan yangidan-yangi hududlarga yoyildi. Lekin u birinchi navbatda hududiy tamoyilni emas, balki diniy tamoyilni yo'lga qo'ydi. Qaysi davlatda bo'lishidan qat'iy nazar, musulmon kishi shariatga amal qilmog'i, islomga sadoqatni saqlamog'i dardkor edi.

Asta-sekin islomni yoyilishi va asosiy dunyo dinlaridan biriga aylanishi, shariatni o'ziga xos jahon huquqiy tizimiga aylantirdi. Bu islomni partikulyarizm, chegaralangan faoliyat sohalari, ichki kelish-movchilik va hokazo kabi xususiyatlarga ega bo'lgan, o'rta asr G'arbiy Yevropa davlatlarining huquqidan ajratib turar edi.

Konfessional huquq sifatida shariat Yevropa davlatlaridagi kanonik huquqidan shunisi bilan farq qilganki, u qat'iy belgilangan ijtimoiy sohalar va masjid (cherkov) hayotini emas, balki bir qator Osiyo va Afrika davlatlarida o'rnatilgan umumqamrab oluvchi normativ tizimni tartibga solgan. Vaqt o'tishi bilan shariat normalari Yaqin va O'rta Sharq chegaralaridan chiqib, o'z ta'sirini O'rta Osiyo va Kavkazortining bir qismiga, Shimoliy hamda qisman Sharqiy va G'arbiy Afrika davlatlariga, bir qator Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga yoydi. Biroq, shariat va islomning bu tarzda tez va keng yoyilishi, unda borgan sari keng mahalliy o'ziga xoslikni, hamda alohida huquq institutlari va muayyan huquqiy nizolar bo'yicha bo'ladigan qarorlarni turlicha talqin qilinishiga olib keldi. Shunday qilib, vaqt o'tishi bilan islomda ikki asosiy oqimlarning o'rnatilishi, o'z-o'zidan shariatda parchalanishga olib keldi. Endilikda artodoksal yo'nalish (sunnaylik) bilan birga hatto hozirda ham Eron, qisman Livan va Yemenda asosiy oqim bo'lib kelayotgan shialar oqimi paydo bo'ldi.

Bu ikki yo'nalishlar o'rtasidagi kurash jamiyat va davlat hayotining turli xil tomonlarini o'zida qamrab oluvchi huquqiy normalarda ham o'z hokimiyatini meros tariqasida o'tkazish huquqiy qoidasi, hamda begunoh hisoblangan imomlar qo'l ostida diniy va dunyoviy hokimiyatning to'planishi o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, shialar faqatgina xalifa Ali tomonidan ma'qullangan payg'ambarimiz Muhammad (S.A.V.)ning

meros va huquqiy ko'rsatmalarini tan olganlar. Sekin-asta sunniylar ham o'z shakl-mohiyatiga ko'ra mustaqil huquqiy maktablarni ifodalaydigan 4 ta mazhabga bo'lindi. Bu quyidagi 4 ta musulmon huquqshunoslari nomi bilan bog'liq: Xanafiylar, Molikiylar, Shofi'iyilar, Hanbaliylar. Ular orasida eng keng tarqalgani xanafiya mazhabi bo'lib (Abu Xanifa) Misr, Turkiya, Hindiston, shuningdek, bizning davlatimiz hududlarida o'z izdoshlariga ega bo'lgan.

Yangi asosiy maktab-mazhablarning faoliyati musulmon huquqining yanada rivojlanishiga, eskirgan normalardan voz kechishga yaqqol imkoniyat yaratdi. Vaqt o'tishi bilan bu maktablar orasida huquqning muhim masalalari bo'yicha qarama-qarshiliklar chuqurlashib bordi.

Shiaizm asosida ham qator mustaqil maktablar qaror topdi: Ismoiliylar, jaffariylar, zaydiylar va boshqalar. Shunday qilib, o'rta asrlarning oxiriga kelib, nazariy va normativ asoslari qiyinlashgan va sezilarli o'zgarishlarga uchragan shariat favqulodda qiyin va noan'anaviy huquqiy hodisaga aylandi. Yoki keyinchalik musulmon huquqi ta'siriga tushib qolgan ko'p sonli xalqlarning odatlarni ham kiritishimiz mumkin. Va so'ngisi, shariatdan kelib chiquvchi musulmon huquqining manbasi bo'lib, Xalifalarning qarorlari, buyruqlari-farmonlari hisoblangan. Qonunchilik faoliyatining rivojlanishi bilan boshqa musulmon davlatlarida huquq manbasi sifatida tobora rivojlanib borayotgan «qonunlar» muhim rol o'ynaydi. O'z navbatida farmonlar va qonunlar ham shariat prinsiplariga qarama-qarshi bo'lmasligi, hamda, eng avvalo, davlat organlari faoliyatini tartibga soluvchi va davlat hokimiyati bilan aholi o'rtasidagi ma'muriy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni to'ldirishlari kerak edi.

Mulkiy va oilaviy munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi.

Shariat huquqni alohida sohalariga bo'lishni nazarda tutmasada, unda fuqarolik-huquqiy munosabatlar, xususan, mulk huquqi, shartnoma va delikt huquqlar nisbatan rivojlandi. Alohida e'tibor shariatda Arab xalifaligidagi «shaxsiy maqom huquqiga» ajratilar edi. Boshqa o'rta asr Sharq davlatlaridagidek, bu yerda ham alohida tabaqachilik tuzumi shakllanmagan edi. Musulmon huquqiga binoan shaxsning huquqiy holati uni dinni qabul qilishi bilan belgilangan. Xristian yoki iudaizm dinini qabul qilganlar qiyin ahvolga solingan va katta davlat soliqlarini to'lashga majbur etilganlar. Ularga nisbatan shariat normalari faqatgina ular musulmon kishi bilan bitim tuzganlarida yoki jinoyat sodir etganlarida qo'llanilgan. Ijtimoiy munosabatlarni rivojlanishi qullarning holatiga ta'sir qildi.

Ular huquq subyekti sifatida tan olinmas edilar, lekin o'z xo'jayinlarining roziligi bilan turli savdo aloqalarini olib borishlari va mulk sotib olishlari mumkin bo'lgan (egalik qilish maqsadida). Musulmon qullarini ozodlikka chiqarish savobli amal hisoblangan. Shuningdek, shariatga binoan shaxsning huquqiy holatidagi o'ziga xos belgilardan biri erkak va ayolning notengligi hisoblangan.

Shariatning diniy qarashlariga—ko'ra huquqning subyekti Olloh hisoblanganligi sababli, musulmon odamga xudo tomonidan o'rnatilgan majburiyatlarni bajaruvchisi sifatida qaralgan. Islom ko'rsatmalariga binoan, diniy majburiyatlarni bajarishiga qarab, u shariatda belgilangan huquq, erkinlik va boshqa yuridik imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin bo'lgan. Shuning uchun musulmon huquqshunoslari huquqiy layoqat masalasini ishlab chiqishdan ko'ra, shaxsning uni bajarish qobiliyatiga, ya'ni uning shartnoma va boshqa huquqiy hujjatlarda qatnashish imkoniyatlariga katta e'tibor qaratganlar. Fuqarolik muomalaga layoqat mulk huquqini qo'lga kiritishda zarur shart-sharoit sifatida qaralgan. To'liq muomalaga layoqat voyaga yetgan va aqliy ruhiy sog'lom bo'lgan shaxslarga berilgan.

Shaxslar masalasida musulmon huquqi jismoniy va yuridik shaxslarga bo'linadi. Huquqning asosiy subyekti jismoniy shaxslar bo'lib, ularning huquqiy layoqati uch holatga: a) ozodlik holatiga; b) diniy e'tiqodiga; v) oilaviy sharoitiga bog'liq bo'lgan. Huquqiy layoqat tug'ilish bilan vujudga kelib, shaxsning vafoti bilan bekor bo'lgan. Muomala layoqati erkaklar uchun 15 yosh, xotin-qizlar uchun 9 yosh hisoblangan.

Shariatda yo'qolgan kishini bir necha yildan so'ng vafot etgan deb e'lon qilish mumkinligi to'g'risidagi yagona fikr yo'q. Yo'qolgan kishi tug'ilganidan 120 yil o'tgach, keyinchalik ayrim hollarda 90 yil o'tgandan keyin o'lgan deb e'lon qilingan (hisoblashgan).

Har bir alohida holatda voyaga yetganlikni belgilash huquqi bu masalani o'zining qarashlariga binoan hal qiladigan sudyalardan tomonidan amalga oshirilgan. Shuningdek, yosh bolalarga, aqliy norasolarga va mast holdagi shaxslar uchun cheklangan muomala layoqati tushunchasi ma'lum edi.

Musulmon huquqi ta'limotida muhim o'rinni mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar egallagan. Eng avvalo, huquqiy ta'limotda ashyo huquqining subyekti sifatida mulk to'g'risidagi tushunchalar mustahkamlangan. Alohida toifani, musulmon kishisi tasarrufida bo'lishi mumkin bo'lmagan yoki ta'qiqlangan ashyolar tashkil qilgan. Bular, havo, sahro, dengiz, masjidlar, suv yo'llari va hokozolar. Musulmonning shaxsiy

mulki sifatida, shuningdek «nopok ashyolar» deb atalmish – vino, cho'chqa, islom arkonlariga zid kitoblar ham tan olinmagan. Arab bosqinlari oqibatida bunday ashyolarning yo'q qilish holatlari juda ko'p bo'lgan. Vaholanki, o'zga din vakillariga tegishli mulkni yo'q qilish huquqi tortishuvli bo'lib, har xil mazhablarda turlicha talqin qilingan. Musulmon huquqiga shuningdek, ashyolarning ko'chadigan va ko'chmaydigan, tiklanadigan va tiklanmaydigan turlarga bo'lish ma'lum bo'lgan. Musulmon huquqshunoslari yer shaklidagi mulklarni tizimlashga katta e'tibor berar edilar. Yer shaklining quyidagi turlari mavjud bo'lgan: davlat yerlari, xususiy yerlar, tashlandiq yerlar va hako'zolar. Qishloq jamoa yerlari, diniy tashkilotlarga tegishli yerlar (vaqf yerlari) mavjud bo'lgan.

Soliq to'lash tartibiga ko'ra:

a) Xiroj yerlari (davlat yerlaridan foydalanib), davlatga soliq to'lagan;

b) ushriya yerlari, xususiy kishilarning hosilning o'ndan birini soliq sifatida to'laydigan yerlar;

v) sulh yerlari – ya'ni davlatga tobe bo'lgan boshqa dindagi shaxslarning yerlari yoki bosib olingan o'lkalardagi yerlar.

Shariatda mulk huquqining paydo bo'lish usullari aniq belgilangan bo'lib, bunda ham turli mazhablar huquqshunosliklarining fikrlari turli xil bo'lgan. Arablarning bosqinchilik yurishlari harbiy bosqinlarning bosib olingan mulkka nisbatan mulkdorlik huquqini paydo bo'lishi qoidasining huquqiyligi haqidagi masalani keltirib chiqardi. Umumiy qoidaga binoan bosib olingan yerlarga davlat mulki sifatida qaralgan, hamda xalifalar va amirlar tassarrufiga o'tgan. Dushmanidan tortib olingan o'zga mulkning huquqiy holati, eng avvalo, uni qaysi yo'l bilan (majburiymi yoki ixtiyoriy) qo'lga kiritgani bilan bog'liq holda belgilangan. Kuch bilan bosib olingan mulk bir qancha qismlarga bo'lingan bo'lib, ularning hajmi alohida mazhablarda turlicha belgilangan. Ulardan biri bosib oluvchining o'ziga, ikkinchisi davlatga, uchinchisi masjidga va hako'zo kabi tasarrufiga o'tgan. Shariatda, shuningdek, mulk huquqiga ega bo'lishning – meros, shartnoma, ashyoni topib olish kabi turlari ma'lum bo'lgan. Ashyoni topib olishdagi o'ziga xoslik shundan iborat bo'lganki, o'zining hududida birovning ashyosini topib olgan yer egasi uning mulkdoriga aylangan.

Mulk huquqi holatlar bo'yicha yoki qonunlarga binoan bekor bo'lgan. Birinchi holda, molning jismoniy yo'q bo'lishi, mulk egasining o'z mulkidan voz kechishi hamda molning yo'qolishi, dushman qo'lga o'tishlarini ko'rsatish mumkin.

Musulmon davlatlarida shakllangan mulkiy munosabatlar tizimi qunt bilan ishlab chiqilar va shariat normalari bilan qo'riqlanar edi. Xususiy mulkning o'ziga xosligi uning ilohiy kelib chiqishi, doimiy va chegaralanmaganligi, mulkdorning esa o'z mulkini mustaqil tasarruf etish erkinligi bilan belgilangan. Xususiy mulkning qat'iyligi bevosita Qur'ondan kelib chiqqan bo'lib, Qur'onda bu haqda: «Biz ayrimlarga bergan narsalarga ko'z olaytirmanglar» (20.31) deyilgan.

“Xijoz” deb ataladigan alohida huquqiy holatga, ilk musulmon jamoasi hududi (Makka va uning atroflari)ni tashkil qiladigan yerlar ega bo'lgan. Bu yerlarda faqat musulmon yashashi mumkin bo'lgan va daraxtlarni kesish, ovchilik qilish taqiqlangan. Bosib olingan hududlar aholisi, qoida tariqasida, egalik qilish huquqini yo'qotganlar va ularning yerlari davlatga o'tgan. Yer egalari esa ijarachilar sifatida namoyon bo'lgan bo'lib, davlatga katta va og'ir soliqlar (xiroj) to'lashga majbur bo'lgan. Arab xalifaligida xususiy feodal mulk davlat mulki va jamoaviy yerdan foydalanishga nisbatan qaramlik holatida bo'lgan, shuning uchun u keng yoyilmagan. Yevropa davlatlaridagidan farqli o'laroq feodal mulk tabaqachilik tizimiga ega bo'lmagan hamda turli majburiyatlar va xizmatlar o'tash sharti bilan bog'lanmagan. Davlat yer fondini o'sishi va feodal munosabatlarining rivojlanishi bilan birga yerga egalik qilishning **shartli shakli** ham kengayib bordi. Bosib olingan yerlarning bir qismi harbiy yoki davlat xizmatini o'tagani uchun feodallarning yuqori tabaqa vakillariga berila boshladi. Iqtador o'z qo'li ostidagi aholidan o'zining foydasiga yig'imglar undirish huquqiga ega bo'ldi. Keyinchalik “iqto” meros tariqasida o'tganligi uchun, u mulkdorlik huquqi bilan mustahkamlangan yer shakliga yaqinlashib qoldi. Qur'onning ilk ta'siriga binoan sho'rlanmagan suv ham havo kabi umumboylik hisoblangan. Lekin asta-sekin quduqlar, daryolar va kichik ko'llar yirik yer egalari mulkiga aylana bordi. Faqatgina ma'lum bir qismdagi daryo va ko'llar ilgarigidek jamoa va davlat mulkining umumiy tizimiga kirib, bu o'z navbatida irrigatsion ishlarni birgalikda, mansabdor shaxs nazorati ostida amalga oshirishni talab qilari edi.

Ashyo huquqi bilan bog'liq bo'lgan, shariatning o'ziga xos institutlaridan biri “vaqf” bo'lib, u o'zida mulkni aks ettirgan. Odatda bu mulk mulkdor tomonidan qandaydir diniy va ilohiy maqsadlar yo'lida berilgan.

Vaqf o'rnatgan shaxs mulkdorlik huquqi va ushbu mulkidan mahrum bo'lgan, lekin vaqfni boshqarish va undan tushgan ma'lum foydani o'zi va merosxo'rlari foydasiga undirib olish huquqini saqlab qolgan. Vaqfni

tashkil qiluvchi mulk oldi-sotdi, kafolat kabilar sifatida munosabatlarda qatnashishi mumkin emas edi. Lekin vaqf yerlari ijaraga berilishi yoki teng qiymatli yerga almashtirilishi mumkin bo'lgan. Ushbu institut boy tabaqa tomonidan katta soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashda keng qo'llanilgan, chunki vaqfni tashkil qiluvchi mulk davlat soliqlardan ozod qilingan edi.

Rim huquqidan farqli o'laroq, shariatda majburiyatning umumiy konsepsiyasi aniq belgilanmagan bo'lib, ammo tovar-pul munosabatlariga asoslangan amaliy shartnoma huquqi masalalari har tomonlama ishlab chiqilgan. Majburiyatlar bir tomonlama va ko'p tomonlama, tez bajariladigan va tez bajarilmaydigan turlarga bo'lingan. Musulmon jamiyati uchun o'ziga xos bir tomonlama majburiyatlar – obyektlarning yoyilishi xarakterlidir. Shariatga binoan shartnomaga tomonlarning o'zaro ishonchlari asosida paydo bo'luvchi aloqa sifatida qaralgan. Shartnoma shartlari xohlagan shaklda ifoda etilishi mumkin bo'lgan: hujjatda, norasmiy xatda, og'zaki. Tuzilgan shartnoma qat'iy bo'lgan. Majburiyatga amal qilmoq Qur'onda muqaddas hisoblanadi. Quyidagi shartnomalar haqiqiy hisoblanmagan: «nopok» yoki muomaladan chiqarilgan ashyodan foydalangan holda be'mani maqsadlarni ko'zlab tuzilgan shartnomalar. Musulmon huquqshunoslari shartnomada tomonlar erkini ifoda etishga bog'liq shakllarga qattiq shartlar o'rnatmaganlar. Tomonlarning shartnomaga kirish, shartnoma shartlari bilan kelishuvlari hujjat, og'zaki va norasmiy xat shaklida ifoda etilishi mumkin bo'lgan. Shariatda turli shartnomalar turlari aniq ko'rsatilgan: oldi-sotdi, ijara, xadya, birodarlik, ittifoq va hokazo. Savdoni tez rivojlanishi munosabati bilan oldi-sotdi shartnomasi keng ahamiyat kasb eta boshladi. Savdoning «o'zaro rozilik asosida» halolligi Qur'onda ham o'z ifodasini topgan. (4.33).

Oldi-sotdi shartnomasining o'zi bir necha turlarga bo'ling.

1. Boyi kote' – bunga ko'ra sotilgan mulk sotib oluvchiga uning haqini to'lashdan oldin o'tishi mumkin bo'lgan.
2. Boyi joiz – biror bir shartni qo'yib, savdo-sotiq shartnomasini tuzish, u shart bajarilmasa bekor bo'lishi mumkin.
3. Boyi fosil – bunga ko'ra sotilgan mulk uni ko'rinishini o'zgarmagan holda, uchinchi kishiga xali sotilmasdan, egasi tomonidan qaytib sotib olinishi mumkin bo'lgan.

Musulmon huquqida keng tarqalgan huquq tizimi Shuf'a (Shubizm) bo'lib, unga ko'ra yer mulki uylar sotilgan vaqtida shu joyni qo'shnisi imtiyozli sotib olish huquqiga ega bo'lgan.

Oldi-sotdi shartnomasi ayni paytda mavjud ashyolarga nisbatangina tuzilishiga yo'l qo'yilgan va faqatgina xanafiya mazhabida kelgusida

ishlab chiqiladigan ashyolar oldi-sotdisi tan olingan. Sotib olingan ashyoni berkitilgan kamchiliklari (qulning, hayvonning kasalligi) aniqlangan holda, xaridor shartnomani bekor qilishi mumkin bo'lgan.

Shariatda sudxo'rlikni rasman qoralaydigan holatlar o'z ifodasini topgan. Qur'onda ham: «Oloh savdoga ruxsat berdi va sudxo'rlikni ta'qiqladi» - deb ta'kidlab o'tilgan. Lekin amalda bu ta'qiq ko'p buzilgan. Qarzdorni qarzi uchun qulga aylantirish ta'qiqlangan. Lekin uni o'z qarzi evaziga kreditor foydasiga ishlashga majbur qilish mumkin bo'lgan...

Musulmon huquqida hattoki e'tibor mulk ijarasiga, eng avvalo yer ijarasiga qaratilgan. Ijaraning bir necha turi ma'lum bo'lib, mulkdor foydasiga to'lanadigan haqning hajmi va tartibiga birinchi navbatda e'tibor berilgan. Arab jamiyatida ittifoq va birodarlik shartnomalari keng tarqalgan. Bu huquqiy shakl yerni birgalikda ishlatish, savdo karvonlarini kerakli narsalar bilan birgalikda ta'minlashda foydalanilgan. Islom dinida nikohsizlik salbiy holat, nikoh esa har bir musulmonning burchi sifatida qaralgan. Lekin amalda nikoh shartnomasi o'ziga xos savdo bitimiga aylanib qolgan hollar oz emas. Rasman nikohga kirishish uchun tomonlar, shuningdek, kelinning roziligi kerak bo'lgan. Lekin kelinning erkini otana bildirishga haqli deb hisoblanganligi sababli, nikoh shartnomasi ko'p hollarda qiz bolani sotishning berkitilgan shakliga aylanib qolgan. Aslida ota katta pul evaziga qizlarining taqdiralarini hal qilgan.

Nikoh shartnomasida tomonlarning roziligi olinmasdan nikoh tuzishlari mumkin bo'lib, bunday nikoh "fuzuliy" nikoh deb atalgan. Nikoh tuzishda ijtimoiy tenglik, diniy e'tiqodi birligi, ozodligi, mustaqilligi, jismoniy sog'liq, rostgo'ylik va er-xotinlarning mashg'ul bo'lgan kasblari bo'lishi kabi shartlari bo'lgan. Ikkinchi bir sharti qalin pulini eng kam miqdori uch dirxamgacha belgilangan.

Muhammad (S.A.V.) Oyshani 9 yoshida o'z nikohlariga olganlari sababli, bu yosh nikohga kirishda ayollar uchun yetarli deb tan olingan. Shialarda ma'lum muddatga tuzilgan vaqtinchalik nikohga yo'l qo'yilgan. Shariatga binoan musulmon kishi (ayol) g'ayri din yoki islomdan qaytgan kishi bilan nikohga kirishi mumkin bo'lmagan. Ushbu qoidalarni buzgan holda tuzilgan nikohlar bekor qilingan. Lekin musulmon erkak kishiga g'ayri din ayol bilan nikohga kirishishga yo'l qo'yilgan, sababi erkak kishi ayolni musulmon diniga qaratadi deb o'ylangan. Musulmon ayoli g'ayri din bilan nikohga kirishi ta'qiqlangan.

Qur'onda musulmon erkak bir vaqtning o'zida 4 ta bilan nikohda bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan. Bundan tashqari qullari ichida jazmanga ega bo'lishi mumkin edi. Lekin er har bir xotinini o'zining sharoitiga

to'g'ri keladigan mulk bilan, uy-joy, ust-bosh bilan ta'minlashga majbur edi. Lekin amalda bir necha xotin bilan nikohda bo'lish feodal jamiyatining yuqori tabaqa vakillarininggina qo'lidan kelar edi.

Islom dini oilada ayolning past va qaram holatini yoqlar edi. Erning hukmronligi Qur'ondagi quyidagi qoidaga asoslanadi: «Oллоh erkaklarga ayollar ustidan hukmronlikni hamda erkaklarni o'z mulki hisobidan ayollarga chiqim qilishni buyurdi». Xotin erkaklarga yuklatilgan uy xarajatlari aralashmagan, lekin uy xo'jaligini yuritish, bolalarni tarbiyalashga majbur bo'lgan. Mulkiy munosabatlarda ayollarning mustaqil qatnashishi chegaralangan. Masalan, molikiylar ayollar erning roziligisiz umumiy mulkning 3 dan bir qismigacha mustaqil foydalanishi mumkin deb qaraganlar. Qur'on xotining nisbatan er tomonidan turli jazolar, xatto tan jazosini qo'llashni ruxsat bergan: «Buysunmaydiganni majbur qiling, yotgan joyidan tashlab keting, uring...»

Musulmon huquqida nikohni bekor qilish sabablari va tartibi aniq belgilangan.

Shariat bo'yicha nikohni bekor qilishning to'rt turi mavjud bo'lgan.

1. Uzil-kesil (bain) bekor qilish, uch marta er «sen menga xotin emassan» degan so'zlarni aytish orqali amalga oshirilgan.
2. Erning xotinini kechirishi mumkin bo'lgan holda bekor qilinishi, bunday holda xotin erning uyida yashagan, taloq to'la aytilmaydi.
3. Xotinning ixtiyori bilan eridan nikohni bekor qilishni talabi orqali o'z ozodligini sotib oladi va qozi tomonidan nikoh bekor qilinadi.
4. Har ikkala tarafning roziligi bilan faqat endi er xotiniga haq to'lab nikohni bekor qilish.

To'rtta nikohdan istagan biri bekor qilinishi mumkin bo'lgan. Shariatga tartibi va yuridik oqibati jihatidan farq qiladigan ajralishning bir necha turi ma'lum. Masalan, o'ziga xos sinov muddatini ko'zlaydigan vaqtinchalik ajralish mavjud bo'lgan. Ajralishning sabablari aniq belgilanganligiga qaramay, er hech qanday sabablarni qisqartirilgan holda tushuntirmasdan, belgilangan quyidagi iboralardan: «sen ozodsan», «urug'ing bilan birlash» birini aytib xotini bilan ajralishi mumkin bo'lgan. Odatlarga binoan, nikoh bekor qilingan taqdirda er xotiniga kerakli mulkni ajratib berishi shart edi. Ajrashgan ayol uning homila borligi yoki yo'qligini aniqlash maqsadida uch oy mobaynida sobiq erining uyida qolishi kerak bo'lgan. Bola tug'ilgan taqdirda u ota uyida qolishi shart bo'lgan. Xotin nikohni bekor qilishni faqat sud orqali talab qilishi mumkin bo'lgan bo'lib, bunda ham qat'iy sabablarni: erning jismoniy

kamchiliklarini, er-xotinlik majburiyatlarini bajarmaganligini, xotini bilan vahshiy munosabatda bo'lganligi kabilarni ko'rsatishi shart bo'lgan.

Meros huquqi murakkab va noaniq hisoblanib, turli huquq maktablarida har xil talqin qilingan. Merosning ikki tartibi tan olingan: vasiyat va qonun bo'yicha. Vasiyat qonuniy merosxo'rlar foydasiga tuzilishi va vasiyat qiluvchi mulkning 1 qismidan ko'p qismini o'z ichiga olishi mumkin emas edi. Uni tuzish chog'ida ikkita guvoh ishtiroki shart edi. Qonun bo'yicha meros qat'iy ishlab chiqarilgan edi. O'lgan kishining mulkidan, eng avvalo, uni ko'mishga ketadigan chiqimlar qoplangan, so'ngra esa barcha qarzlari to'langan. Sharitaning o'ziga xos tomoni shundaki meros tariqasida o'lganning majburiyatlari emas, balki mulkiy huquqlari o'tgan. qolgan mulk esa marhumning qonuniy merosxo'rlariga o'tgan: ular bir qancha toifalarga bo'lingan bo'lib, ular o'rtasida meros oluvchilarning ketma-ketligi belgilangan. Shunday qilib, merosni birinchi navbatda marhumning bolalari, keyin aka-ukalari, tog'alari olganlar. Ayollarning merosdagi ulushlari erkaklarnikiga qaraganda ikki barobar kam bo'lgan. Dindan qaytganlar, ajrashgan er-xotinlar, meros qoldiruvchining o'limiga qandaydir harakati bilan sababchi bo'lib qolgan shaxslar meros olish huquqiga ega emas edilar. Faqatgina molikiylar adolat uchun qotillik sodir etgan shaxsning meros olish huquqini olganlar.

Jinoyat va jazo. Jinoyat huquqi normalari shariatning nisbatan past darajada ishlab chiqilgan qismini o'zida aks ettiradi. Ular qadimgi elementlarni o'zida saqlab qolganligi, hamda yuridik texnikaning nisbatan past darajasini aks ettirishi bilan ajralib turadi. Jinoyatning umumiy tushunchasi bo'lmagan. Suiqasd, ishtirokchilik, aybni yengillashtiradigan va og'irlashtiradigan holatlar kabi instiktlar yaxshi ishlab chiqilmagan. Musulmon huquqshunoslari o'rta asrlardayoq barcha jinoyatlarni uch turga ajratganlar. Ularning birinchisini, «Olloh huquqlariga» tajovuz qilish tashkil qilgan bo'lib, avf etishga yo'l qo'yilmagan. Eng avvalo bunga o'lim jazosi bilan jazolanadigan, islomdan qaytish taalluqli bo'lgan. Bunday qattiq jazo, shuningdek, boshqarish tartibiga qarshi jinoyatlar – qo'zg'olon va davlat hokimiyatiga qarshi turish kabilar uchun ham qo'llanilgan. Bu turga o'g'rilik, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, xotin-bozlik, nohaq ayblash kabi jinoyatlar kirgan va ular «xadd» jinoyatlari guruhi ham deb atalgan.

Jinoyatlarning ikkinchi guruhini butun musulmon jamiyatiga emas, balki alohida shaxslarning huquqlariga tajovuz qilish sifatida qaraladigan g'ayri huquqiy harakatlar tashkil qilgan. Ularga «qasos» yoki «dia» guruhidagi jinoyatlar deb qaralgan. Ularni tartibga soluvchi normalar urug'

qabila tuzumi odatlaridan kelib chiqqan bo'lib, aybdor va jabrlanuvchining bevosita qasd olish kabi qoldiqlari saqlanib qolgan. Qasddan odam o'ldirish yoki o'limga olib keladigan darajada jarohat yetkazish o'ldirilgan shaxsning qarindoshlari tomonidan qonli qasos olinishiga olib kelgan keyinchalik shariatda agar o'ldirilgan shaxsning qarindoshlari qotilni kechirsalar, qonli qasosni pul bilan qoplash imkoniyatlari nazarda tutilgan. Xun haqi ozod kishini qasddan o'ldirganlik uchun ming oltin tanga, kumushdan ming dirxam, 100 ta tuya berish nazarda tutilgan.

Ehtiyotsizlikdan qilingan qotillik uchun sotib olish belgilangan bo'lib, bunga qo'shimcha tariqasida 1 oy ro'za tutib berish va bitta musulmon qulni ozod qilish shart bo'lgan. Bu guruhga kiruvchi boshqa jinoyatlar, xususan, tan jarohati uchun ham javobgarlik qasd ya'ni tovon prinsipi asosida paydo bo'lgan. Bu prinsip Qur'onda qat'iy belgilab qo'yilgan: «qalb uchun qalb, ko'z uchun ko'z, quloq uchun quloq, burun uchun burun javob berishi kerak». Va nihoyat, uchinchi guruh jinoyatlarni xalifalikni tashkil topishi davrida jazolashga loyiq emas deb hisoblangan harakatlar tashkil qiladi. Shuning uchun ular asosiy shariat manbalarida ham o'z ifodasini topmagan.

Huquqiy ta'limotning rivojlanishi va yuqori tabaqaning shakllangan ijtimoiy tartibni mustahkamlashga intilishi oqibatida – zakot to'lamaslik, ro'zaga amal qilmaslik, yengil tan jarohati yetkazish, haqorat, bezorilik, firibgarlik, poraxo'rlik kabi harakatlari jinoyat sifatida baholanadigan va sud tartibida jazolanadigan bo'ldi. Bu ishlar yuzasidan jazoning chegarasi mujtaxidlar tomonidan bildirilgan fikr va alohida sud'yalarning shaxsiy baholashiga bog'liq bo'lgan.

Musulmon huquqida jazolar jazolashning davlatgacha bo'lgan usullari bilan bir qatorda, yetarli darajada ishlab chiqilgan yo'naltirilgan huquqiy repressiyani o'zida aks ettiradi.

Birinchi va ikkinchi guruh jinoyatlar qat'iy belgilangan va qattiq jazolanadigan xarakterga ega bo'lgan. Uchinchi guruhga tegishli, jinoyat uchun jazo keng turli xilliylik va egiluvchanlik bilan ajralib turadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, shariat qonli qasosni ruxsat bergan, bu bilan qonunlashtirgan. Shu bilan birga shariatda qotil jabrlanuvchi yoki uning qarindoshlaridan, agar ular o'zlarining qonli qasos olish huquqlaridan voz kechsalar kompensatsiya tariqasida ashho yoki pul berib o'z jonini sotib olishi mumkin bo'lgan. Shariat o'rta asrlarga xos qattiq va vahshiy jazolarni qo'llashni ko'zlaydi. Masalan, bir qancha jinoyatlarga nisbat oshirilgan, so'ngra jasad umumiy nalatlashga qo'yilgan. Shuningdek, o'lim jazosining tirigicha ko'mish yoki cho'ktirish kabi turlari ham

qo'llanilgan. Jinsiy a'zolari ishdan chiqarish va tan jazolari, barmoqlarni oyoq va qo'llarni kesish bichish, toshbo'ron qilish, kabilar keng qo'llanilgan. Arab xalifaligida odatda qamoq jinoyatchilarni sudgacha saqlab turadigan joy vazifasini bajargan, asta-sekin uni jazo turi sifatida qo'llash keng tus oldida, ayniqsa, aloxida holatlar bo'yicha butun umrga qamash holatlari ko'p kuzatilgan. Ozodlikdan mahrum qilish, shuningdek, uy yoki masjidga qamash yo'li bilan amalga oshirilgan.

Musulmon huquqida, shuningdek mulkiy sanksiyalar va uyaltirish jazolari – soqolini olib tashlash, hamma oldida izza qilish, surgun qilish kabilar ma'lum bo'lgan.

Sud jarayoni. Odatda musulmon huquqida sud jarayoni ayblovchi xarakterga ega bo'lgan. Ish davlat organlari nomidan emas, balki manfaatdor shaxslar tomonidan qo'zg'atilgan. Jinoyat va fuqarolik ishlari o'rtasida farq bo'lmagan. Sud ishlari ochiq, odatda barcha xohlovchilar qatnashishi mumkin bo'lgan masjidlarda ko'rilgan. Tomonlar advokatlar yordamidan foydalanmasdan ishni o'zlari olib borishlari kerak bo'lgan. Protsess og'zaki olib borilgan bo'lib, yozma shaklda ifodalanmagan. Vaqt o'tishi bilan Abbosiylar davrida fuqarolik ishlari bo'yicha sud protokoli tuzilgan. Tomonlarning tan olishi, guvohlar ko'rsatmasi va qasam asosiy isbot hisoblangan. Ish bitta majlisda hal bo'lishi shart edi, keyingi majlisga o'tishi mumkin emas edi. Aslini olganda sud protsessi tomonlarning bellashuviga aylanib ketar edi. Tabiiyki, bunda boy, kambag'allar bir xil holatda bo'lmaganlar. Nisbatan ko'p bo'lmagan ishlarni hisobga olmaganda, sud'yalar qaror chiqarishda o'zining shaxsiy qarashlar va tomonlarning ijtimoiy holatini hisobga olish imkoniyatini beradigan ishlarni mustaqil hal qilish huquqiga ega edilar. Shariat protsessual huquqining o'ziga xos tomoni shundaki, sud qarorlari oxirgi va o'zgarmas qaror bo'lgan. Yangi faktlar va sudya o'zining qarorini qayta ko'rib chiqishi mumkin bo'lgan. Bu suiste'molchilikka yo'l ochib berar edi. Dalillarni baholash, sudda, shaklan muhim o'rin tutgan. Shunday qilib, ish bo'yicha to'liq isbot deb ishonchga munosib ikki musulmon – guvohlarining ko'rsatmasi tan olingan. Ayollar ko'rsatmasi yarim isbot sifatida qaralgan. Aniq va ishonchli dalillar yo'q bo'lgan holatlarda ayblanuvchi tomonidan aytiladigan qasam qo'llanilgan. Tantanali tarzda va Oллоhga murojaat bilan aytilgan qasami ishonchli dalil sifatida qabul qilingan. Bu ayblanuvchini javobgarlikdan ozod etgan yoki hech bo'lmaganda jazoni yengillashtirgan. Ayblanuvchining jinoyat sodir etganligini tan olishi, agar bu harakat voyaga yetgan, aqli raso, shaxs

tomonidan sodir etilgan bo'lsa, sud hukm chiqarishi uchun yetarli dalil hisoblangan.

“Hidoya” islom dunyosida e'tiborli kitoblardan bo'lib, barcha madrasalarda musulmon huquqi bo'yicha qo'llanma sifatida o'qitilgan. “Hidoya” muallifi mujtahidi muallaq darajasidagi fiqh olimi bo'lib, yuridik amaliyotda pretsedent (o'xshash holatlar va ishlarga qo'llanilishi mumkin) bo'la oladigan qarorlar (fatvo)ni qabul qilishga haqli edi. Shuning uchun ham muallif kitobning ko'pgina joylarida huquqiy masala yechimida o'z fikrini keltiradi. Sharhlar berilgan joylarda Abu Hanifa huquq maktabi hamda uning shogirdlarining fikrini ham keltiradi.

“Hidoya” faqat musulmon dunyosida fiqhni o'rganish manbai sifatidagina emas, uning yuridik (huquqiy masalalarni hal etishda qo'llanma) manbaiga ham aylanib qolgan.

Unga o'z zamonasining amaliyotchi qonunshunoslari murojaat qilganlar va sharhlar bitishgan. Jumladan, Husomiddin al-Husayin bin ali as-Sig'noqiy (1313-1314-yillarda vafot etgan) bu kitobga to'la sharh: «Nihoya»ni yozgan.

“Hidoya” ma'lum ma'noda, madrasa talabalari, qozi va muftilarning o'rganishlari hamda qo'llashlarga qulaylik yaratish uchun yozilgan, deyish mumkin. Movarounnahr fiqhllari uchun, ma'lumki, huquq tarmoqlari haqida «Al-hidoya»ga o'xshash 50dan ortiq kitoblar yozishgan. Marg'inoniy «Hidoya»sini shuhrat topganligining sababi uning ilmiy va amaliy jihatdan mukammalligi bo'lishi edi. Asar o'quvchiga o'sha davrdagi musulmon huquqining tarmoqlari bo'yicha to'la tasavvur beradi. Uning bizgacha arab tilidagi bir necha nusxalari yetib kelgan bo'lib, bu asar fors, ingliz va rus tillariga ham o'girilgan. Asar ikki jild va to'rt juz' 57 kitobdan iborat bo'lib, birinchi juz'ga asosan ibodat masalalari kiritilgan. Qolgan uchta juz' fiqh masalalarini o'z ichiga oladi. Ingliz va rus tillariga qilingan tarjimalar esa 4 jildga bo'linib nashr etilgan. 1-jild 5 kitob: tozalanish, ibodat qilish xayr-ehson qilish, ro'za tutish va haj qilishdan iborat. Bundan yaqqol ko'rinib turibdiki, musulmon huquqida diniy urf-odatlar va huquq hamda majburiyatlar bilan dunyoviy fiqh masalalari bog'lanib ketgan. Shuning uchun ham bu jild fors tilidan ingliz tiliga o'girilganda, xayr-ehson qismidan boshqasi tushirib qoldirilgan. 2-jild 14 kitob: nikoh, sut bo'yicha qarindoshlik, nikohni bekor qilish, qasam, jazo, o'g'rilik, siyosiy qonun-qoidalar, topilgan narsalar haqida, daraksiz yo'qolganlar, o'rtoqlik shartnomasidan iborat. Ya'ni, bu jildda asosan oila va nikoh haqidagi hamda qisman grajdanlik huquqi masalalari yoritiladi. 3-jild 22 kitobga bo'lingan: savdo-sotiq, pulni maydalash,

kafolat, qarzlarni o'tkazish, qozi (sud'yaning) majburiyatlari, guvohlik ko'rsatuvlarini rad qilish, ishonchnoma, da'vogar, tan olish, kelishuv, garov, qarz, ssuda, hadya, ijara, vasiylik. Bundan ko'rinib turibdiki, mazkur jildni grajdanlik huquqining asosiy masalalari va sud-protsessual huquqiga bag'ishlangan deb aytish mumkin. 4-jild 16 kitobdan: aralash mulk huquqini olish va bunday huquqning vorislikka o'tishi, mulkni bo'lish, yerlarni ishlash bo'yicha tuzilgan shartnomalar, oziq-ovqatlarni yetishtirish va iste'mol qilishdagi turli ehtiyot choralari, bo'sh yotgan yerlarni ishlash, ta'qiqlangan (ichimlik) suyuqliklar, ov haqida, zakolat, shaxsga qaratilgan shikoyatlar, pul bilan undiriladigan (qoplanadigan) jazo choralari, peniya (pinni) undirish, vasiyatlardan iborat. Ya'ni mazkur jild hozirgi zamon huquq tarmoqlariga nisbatan olganda, diniy huquq, yer huquqi, jinoyat huquqi masalalariga bag'ishlanadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, musulmon huquqi XII asrdayoq ma'lum tarmoqlarga va institutlarga ega bo'lgan huquq tizimini tashkil qilgan. Ana shu jihatdan o'rganishda bu manbaning ahamiyati katta bo'lgan. Shuning uchun ham «Al hidoya»ni o'qib, sharhlay bilish madrasada fiqh ilmidan ma'lum natijaga erishganlikni bildirib, mufti, qozi lavozimlarini bajarishga huquq bergan.

Xullas, «Hidoya» asari o'z davrini islom huquqshunosligining o'ziga xos qomusi bo'lgan desak, adashmaymiz.

Burhoniddin Marg'inoniyning “Al-hidoya” asarida sud dalillari va sudlov haqida

“Hidoya” shariat sudlari – qozilar, ularning oldiga qo'yiladigan maqsad va vazifalar, ish yuritish, jazo, hukmni ijro etish masalalariga maxsus kitob bag'ishlangan bo'lib, u “qozining majburiyatlari” deb ataladi. Musulmon fiqhi asosida ish ko'radigan sud'yalar–qozilar tizimi ham dastlab Arabistonda vujudga kelib, ayniqsa Abu Yusuf davrida u maxsus muassasa sifatida shakllangan, musulmon huquqiy ideologiyasiga ko'ra qozilik so'rab yoki iltimos qilib, yugurib tanish-bilishchilik qilib egallanadigan mansab emas, hukmdor tomonidan shu ishga loyiq qilish majburiy tayinlash natijasida egallanishi rag'batlidir. Bunday hisoblanishiga Muhammad Alayhissalomning hodisalarida keltirilgan “kim qozi qilib tayinlansa, u halqumi o'tkir pichoq bilan emas, o'tmas pichoq bilan kesilayotgan hayvon kabi azobga tortiladi”, degan hadis sabab bo'lsa kerak. Shuning uchun ham manbalarda keltirilishicha, ko'plab fiqhlar qozilik mansabini egallashdan bosh tortganlar (Masalan, Abu Hanifaning o'zi) qiynoq ostidagina uni egallashga rozi bo'lganlar.

Qozilar oldiga qo'yilgan talablar uncha murakkab emas, oddiy kasbiy va insoniy talablardan iboratdir. "Hidoya" islom dunyosida e'tiborli kitobdan bo'lib, barcha madrasalarda musulmon huquqi bo'yicha qo'llanma sifatida o'qitilgan. "Hidoya" muallifi mujtahidi muallaq darajasidagi fiqh olimi bo'lib, yuridik amaliyotda va yaxshilik tarafdori bo'lishlari lozim. Ular kamida guvohlik bera oladigan shaxslarga qo'yilgan talablarga javob bera bilishlari kerak. Chunki guvohlar uchun muhim bo'lgan xislatlar qozilar uchun ham muhimdir. Agar qozilikka tayinlanayotgan shaxs ozod va sog'lom, musulmon bo'lmasa, voyaga yetmagan, tuhmatda ayblangan bo'lsa, unga bu vazifa berilmagan. Bu talabni hozirgi huquqshunoslik tili bilan ifodalasak, qozi aqli raso, huquq va muomalaga layoqatli, jismoniy shaxslar talabiga javob bera oladigan, fiqh ilmidan yaxshi xabardor bo'lishi lozim.

Qozilik mansabiga tayinlash davlat vakolati xususiyatiga ega. Hukmdor (davlat boshlig'i) bu mansabga o'z majburiyatlarini bajaradigan va adolat bilan qarorlar chiqara oladigan shaxslarni tayinlashi lozim edi. Qozilikka noqobil kishilarning tayinlanishi jamiyatga katta zarar keltiradi. Bu holni Marg'inoniy Rasululloh hodisalariga tayangan holda asoslab beradi. Muhammad Rasululloh aytganlar: "Kimda kim biror tegishli mansabga qo'li ostidagi shu mansabni bajarishga loyiq, sofdil, adolatli kishilarni tayinlamay, boshqa bir kishini tayinlasa, u xudoga, payg'ambarga, musulmonga nisbatan adolatsizlik qilgan bo'ladi." Yana shuni ko'rsatish mumkinki, qozilikka o'z qobiliyatiga ishonadigan shaxslar tayinlanishi lozim. ammo bu ishga o'zini o'zi nomzod qilib ko'rsatish maqsadga muvofiq hisoblanmaydi. Ammo har bir musulmon kishi qozilikka tayinlanish istagiga ega bo'lishi mumkin. Muhammad Rasululloh deganlar: "Kimda-kim qozilik mansabini axtarsa, u o'ziga o'zi javob berishi kerak, lekin kimda kim majburiyat orqasida istasa, uning uchun farishta osmondan tushib, uni boshqaradi".

Bundan ko'rinib turibdiki, musulmon huquqiy falsafasiga ko'ra, majburiyat orqasida qozi bo'lish faxrlidir.

Qozilikka tayinlangan shaxslar o'z majburiyatlarini masjidda, xaloyiq oldida, yoki o'z uylarida olib borishlari kerak bo'lgan. Eng yaxshi joy jome' masjidleri hisoblangan. Ularning pora olishlari, o'z qarindosh-urug'lari va yaqin do'stlaridan, boshqa shaxslardan sovg'a-salom kutishlari mumkin emas edi. Ammo qarindosh urug'lari ham qonunga qarshi harakat sodir etgan bo'lsa, qozi undan sovg'a-salom olishdan voz kechishi zarur edi. Qozi imomning ruxsatisiz o'z o'rinbosarini tayinlay olmagan. Agar qozi imomning ruxsati bilan o'zi xohlagan kishini

o‘rinbosar etib tayinlasa, keyinchalik uni bo‘shatish huquqidan mahrum bo‘lgan. Chunki o‘rinbosar hukmdor (davlat boshlig‘i)ning vakili hisoblangan. Har bir qozi o‘z faoliyatida boshqa qozilarni adolat bilan ishlashga undashi, Qur‘oni Sharif va sunnatlarga rioya qilishlikni talab etish kerak.

Agar javobgar qozi hukm chiqarish paytida dastlab da‘vogar talabiga qarshi tursa-yu, so‘ngra ko‘rinmay ketsa, qozi qaror chiqarish muddatini kechiktirishi mumkin. Chunki, qoidaga ko‘ra, qozi qaror chiqarayotgan paytda da‘vogar bilan javobgar o‘rtasida haqiqiy bahs bo‘lishi kerak.

Qozi hakamlar sudining qarorini ko‘rib chiqib, agar uni ma‘qullasa, unga ijro kuchini bergan. Ammo unga norozi yoki qarshi bo‘lsa, u holda qozi uni bekor qilishi lozim, chunki hakamlar sudining qarori qozi uchun majburiy bo‘lmagan.

Sudda agar da‘vogar, javobgarga biror narsani da‘vo qilsayu, javobgar bundan tonsa, u holda javobgar o‘zining javobgar emasligini guvohlar orqali isbotlashi kerak va bunday hollarda javobgarga ishonish lozim bo‘lgan. Agar nasroniylik diniga mansub kishi vafot etsayu, uning bevasi qozi huzuriga musulmon ayol sifatida kelsa, ammo merosxo‘rlar uning aksini (musulmon emasligini) tasdiqlasalar, bunday holda marhumning merosxo‘rlariga ishonish kerak hisoblangan.

“Hidoya”ga ko‘ra qozining buyrug‘i bilan har qanday kishi jazolash to‘g‘risidagi hukmni ijro etishi mumkin. Agar qozi: “Men bu shaxsni toshbo‘ron qilishga hukm qildim, shuning uchun uning qo‘lini chopib tashla deb aytsa, buyurilgan shaxs qozining hukmini bajarishga majbur bo‘lgan. Qozi ishdan bo‘shatilgandan so‘ng oddiy xususiy shaxs bo‘lib qolgan.

Ma‘lumki, sud davlat tomonidan turli ko‘rinish va shakllarda ta‘sis etilib, hokimiyat vakolati bilan ta‘minlangan, faqatgina o‘ziga topshirilgan maxsus sudlovni amalga oshiradigan davlat organlarining bir turidir. Sud jamiyatning siyosiy tashkiloti bo‘lgan- davlatning ajralmas belgisi, davlat faoliyatining bir yo‘nalishi, odil sudlovni amalga oshiradigan tashkilotdir. Shuning uchun ham sud organlari davlat va huquq bilan bir vaqtda vujudga kelgan. Boshlang‘ich, sud faoliyati ma‘muriy faoliyatidan ajralmagan. Arablar tomonidan bosib olinishi va Turkistonda musulmon huquqining yoyilishi bilan alohida sud organi qozilar sudi tizimi tashkil topdi. Musulmon huquqiy ideologiyasiga ko‘ra, sud faoliyati sodir etilgan g‘ayriqonuniy harakatning diniy ijtimoiy xavfli darajasini va uni sodir etgan ayblanuvchi Shariat qonunlari asosida aniqlash, keltirilgan zararni qoplatish (Xun olish), zararli oqibatni tugatishni nazarda tutgan. Bu yerda

biz G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bo'lganidek, tartibni sudlarni diniy (inkvizitsion) sudlar va dunyoviy sudlarning alohidaligini, inkvizitsion sud tomonidan turli shakllarda qo'llanilgan azoblash usullarini ham ko'rmaymiz. Bu yerda huquq tizimi yagona bo'lgani kabi sud tizimi, sud faoliyati va huquqiy targ'ibot ham yagona. Ammo musulmon huquqi mamlakatlarida ham xudosislik, diniy jinoyatlar qattiq ta'qib ostiga olingan.

Sud tashkilotlari, huquqiy tizim ham islom davlatini qo'riqlovchi, mustahkamlovchi vazifani bajaradi. Davlat ham sud va huquqqa nisbatan uyushtiruvchi, qo'riqlovchi vazifalarni amalga oshiradi. Diniy huquqiy targ'ibot ko'proq nazorat etuvchi mansabdor shayxlar Shayxulislom (yoki rais), sadr, muhtasib kabilan faoliyati bilan ta'minlanganligini ko'ramiz.

Dunyoviy huquq – tartibot esa qozilarning barcha turlari, bosh qozi (qozi kalon) (qozi kuzzat), shuningdek, biylar sudlari, bulardan tashqari, davlatga qarshi jinoyatlarni hokim va beklar o'zlari ko'rib jazo tayinlaganlar. Ammo bu sudlar vazifalari biror bir sud to'g'risidagi qonunlar bilan aniq ajratib qo'yilmagan. Shuning uchun ham sudlovlilik turli qozilarga almashib, o'tib ham turgan. qozilar shariat fiqh ilmlaridan xabardor, odatda madrasalarda tahsil ko'rgan kishilardan tayinlangan.

“Hidoya”da shahodat berish yoki dalillarga ajratilgan qoida hamda fikrlar maxsus kitobda (XXI-XXII) jamlangan. Bunda dalillarni qabul qilish, ularni qabul qilishni rad qilish, guvohlarning ko'rsatuvlari orasidagi fikrlar haqida, meros masalalarida dalillar, dalillarni guvohlantirish kabi masalalar yoritilgan. Sudda isbot dalil kuchiga ega bo'lgan asosiy narsa bu guvohlarning ko'rsatuvlari, hujjatlari hamda lozim bo'lgan hollarda, qozi tomonidan yashirin yoki ochiq holda o'tkaziladigan gumonlardan (shartli ravishda psixatrik ekspertiza) tozalash o'tkazilishi. “Bunda guvoh yoki javobgarning so'zlariga ishonish mumkinmi? Uning xarakteri, ruhiyati qanday?” degan savolga javob berish uchun uni yaxshi bilgan yoki kishilarning xarakterini ajratishi mumkin bo'lgan kishilarga qozi yozma so'rov ba'zan ochiq majlisiga shunday kishilarni (kamida 2 kishi bo'lishi kerak) taklif qiladi.

Guvoh aqli raso, shaxsan ozod, obro'li, er va xotin kishilar ham bo'lishi mumkin, ammo ikki xotin kishining ko'rsatuvi bir erkaknikiga to'g'ri keladi.

Guvohlik ko'rsatmalarini berish bu farz, ya'ni musulmonning majburiyatlaridan biridir. Shuning uchun undan bila turib, bo'yin tovlash mumkin emas. Shuning bilan birga qullar, cho'rilar, tuhmatchilikda ayblanganlar, motam marosimlarida yig'lash va kuylash bilan

shug‘ullashuvchilar (go‘yandalar), ta‘qiqlangan ichimlik ichishga o‘rganib qolganlar, qush ovchilari, ilgari rahimsiz jinoyatlar qilgan kishilar, sudxo‘r va o‘yinchi, kamtar bo‘lmagan kishilar ham guvoh bo‘lishlari mumkin bo‘lmagan.

Oila-nikoh munosabatlari

Nikoh so‘rash va qabul qilish o‘tgan zamon fe‘li yoki kelasi-o‘tgan zamon fe‘li shaklida bo‘lishi mumkin.

Nikoh ahdomasi “Nikoh”, “Tazvij”, “Hiba”, “Tamlik” va “Sadaqa” so‘zlari vositasida bajariladi.

Musulmonlarning nikohlari aql-hushli balog‘at yoshidagi ikkita ozod musulmon erkak yoki bir ikki ayolga guvohlarsiz amalga oshirilmaydi.

Musulmon kishi ustidan kofir guvohlik qila olmaydi. Chunki kofirlar musulmonlarning gapini eshitmaydilar.

Bir kishi biror-bir boshqa odamga o‘zining balog‘atga yetmagan qizini turmushga uzatish vazifasini topshirgan holda o‘sha odamning qizini turmushga nikolashi marosimida uning o‘zi qizining otasi va yana bitta guvoh bo‘lsa bunday nikohga ruxsat etiladi.

Agar qanday majlisda ota bevosita ishtirok etmasa, bu holda nikoh marosimini o‘tkazish mumkin bo‘lmaydi.

Erkak kishi o‘z onasiga, ota va onasi tomonidan bo‘lgan buvilariga uylanishi mumkin emas.

O‘z qiziga, nabirasiga va undan quyi avlodlariga uylanish mumkin emas.

Qaynonalariga, yaqinlik qilgan xotinlarning qizlariga ham uylanishi ta‘qiqlanadi. Ota va bobolarning xotinlariga uylanishi ta‘qiqlanadi. O‘z o‘g‘lining xotiniga va nabira keliniga uylanish ham mumkin emas. Qur‘oni Karimda: “sizlarni emizgan va bir ko‘krakni emishgan singillaringizga uylanish ta‘qiqlanadi” degan oyat mavjud.

Ikki opa-singil bir vaqtning o‘zida bir kishi nikohida turish yoki bir kishi bir vaqtning o‘zida opa-singillar bilan yaqinlik qilish huquqiga ega emas. Bir ayol o‘z amma, xola yoki qiz jiyanalari bilan bir kishining nikohida bo‘lishi mumkin emas.

Erkak kishi bir ayolni va uning oldingi eridan qolgan bu ayol o‘gay qizini nikohiga olsa bo‘ladi.

Kimki bir ayol bilan zino qilsa, unga bu ayolning onasi va qizi mahram bo‘lib qoladi.

Kimki o‘z xotinini taloq qilgan bo‘lsa toki bu ayolning iddasi o‘tmaguncha uning singlisiga uylanishi mumkin emas.

Ma'jusiy dindan bo'lgan ayollarga uylanish mumkin emas.

Ozod kishining cho'ri ayolga uylanishiga, faqatgina ilojisiz holatdagina ruxsat etiladi. Ozod xotinning ustiga cho'ri ayolni nikohlash mumkin emas. Cho'ri ayol ustidan ozod ayolni nikohlash mumkin. Ozod erkak (bir vaqtning o'zida) cho'ri va ozod ayollardan bo'lgan to'rttasiga uylanishi mumkin, undan ortig'iga mumkin emas.

Qul erkak ikkitanidan ortiq xotin olishi mumkin emas.

Imom Shofi'iy fikricha zinodan homilador bo'lgan ayol turmushga chiqsa, uni nikohlash mumkin, lekin homiladan turib unga uylangan bo'lsa, poklanish davri o'tishini kutmay xotini bilan yaqinlik qilishi mumkin.

Al-Muqta nikohi shunday nikohki, unda bir erkak bir ayolni muayyan muddatga va muayyan mablag' hisobiga lazzatlanish uchun nikohga oladi. Al-Muaqqat nikohi ham g'ayriqonuniydir.

Agar ayol kishi bir kishi ustidan u kishi menga uylandi deb da'vo qilsa va shu da'voni tasdiqlaydigan dalillar keltirsa, qozi bu ayolni o'sha kishiniki deb e'lon qiladi.

Asir olingan homilador ayolni nikohlash g'ayriqonuniydir.

Kimki, o'z joriyasi bilan jinsiy yaqinlik qilgandan keyin uni boshqa birovga turmushga bersa bunday nikohga ruxsat etiladi.

Abu Hanifa va Abu Yusufning fikrlaricha, shuningdek, bir kishi bir ayolning zino qilganini ko'rib turib unga uylangan bo'lsa, poklanish davri o'tishini kutmay xotin bilan yaqinlik qilishi mumkin. Muhammad (s.a.v.) ham poklanish davrini kutmay turib yaqinlik qilish durust emas, deb hisoblaydilar.

Nazorat uchun savollar

1. Movarounnahrda musulmon huquqining yoyilishi sabablari?
2. Musulmon huquqining asosiy manbalari?
3. Musulmon huquqi bo'yicha egalik huquqi qanday tartibda solingan?
4. Musulmon huquqi bo'yicha meros huquqi va majburiyat huquqlari qanday bo'lgan?
5. "Hidoya" asarining yaratilish tarixi haqida nimalar bilasiz?
6. "Hidoya" da huquqiy munosabatlarning tartibga solinishini tahlil eting.
7. "Hidoya" da oila va nikoh munosabatlarini tushuntiring.

8. “Hidoya” da qozilik mansabiga qo‘yilgan talab va shartlarni bugungi kunda huquqshunoslar tayyorlashda o‘qitishning ahamiyati nimada deb o‘ylaysiz?

9. “Burxonuddin Marg‘inoniy- buyuk fiqhshunos” mavzusida mustaqil ish yozing, hamda ushbu ishda musulmon huquqidagi jinoyat va jazo masalalarini “Al-Hidoya” asari bilan qiyosiy o‘rganing.

Adabiyotlar:

1. A.X. Саидов. Основы мусульманского права. Т. Академия МВД. 1995 г.
2. Burhonuddin Al-Marg‘inoniy. “Hidoya”.1-jild. T.Adolat. 2000.
3. Vamberi X. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi T., G‘.G‘ulom. 1991-y.
4. M.Rajabova Shariatda jinoyat va jazo T., Adolat. 1996-y.
5. Z.Muqimov. O‘zbekiston huquqining tarixiy manbalari. Samarqand. Zarafshon. 1995-y.
6. Saidov A. Toshqulov J.U. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi IV. Akademiyasi, T., 1995-y.
7. Z.Muqimov. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi.Samarqand. “Zarafshon”-1998.
8. Джабборов С., Шариат, семейное и обычное право в Узбекистане: история и современной. Т., Фан. 1996-й.
9. U.Uvatov. Buyuk muxaddislar. T., 1998.
10. S.Ishoqov. Burxoniddin Marg‘inoniy va fiqh ilmi. T. 2000.
11. Saidov A.X. Burxoniddin Marg‘inoniy – buyuk huquqshunos. «Iqtisodiyot va huquq»., T., 1997.
12. M.Hamidova. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. O‘quv qo‘llanma. T. TDYUI. 2004.

Temur va temuriylar saltanati davlati va huquqi

Reja:

1. A.Temur va temuriylar saltanati
2. Temuriylar davlatining boshqaruv tizimi.
3. Temuriylar davlatining sud hokimiyati, harbiy qo'shin va soliq tizimi.
4. "Temur tuzuklari"- temuriylar saltanatining huquq manbai.

XIV asrning o'rtalariga kelib, Movarounnahrda Chig'atoy ulusining ikkiga bo'linib ketishi natijasida hokimiyat ancha zaiflashadi. Taxt uchun olib borilgan kurashlar natijasida (1326-1358-yillar) mamlakatda siyosiy tarqoqlikdan foydalangan katta-katta viloyatlarni qabilalar boshliqlari, jumladan Keshni Xoji Barlos, Xujandda Boyazid Jaloyir, Balxni Uljoy Bug'asulduz, Toshkentni Xizir Yasevuriylaro'z mulklari sifatida mustaqil boshqarar edi. Buni sabablari birinchidan:

Chig'atoy ulusini parchalanib, siyosiy tarqoqlikning avj olishi, ikkinchidan 140 yil hukm surgan Mo'g'ul zulimidan qutulishga intilish, uchinchidan Chig'atoy ulusini Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temurxon tomonidan qayta bosib olinishiga intilishi bilan xarakterlanib kelgan.

Ana shunday bir davrda Borlos begining o'g'li Tarag'ay Bahodirning o'g'li Temurbek tarix maydoniga keladi. Sharafutdin Ali Yazdiyning fikriga ko'ra, A.Temur hijriy 736-yil sha'ban oyining 25-kuni ya'ni milodiy 1336-yil 9-aprelda tug'ilgan. Uning otasi Tarag'ay Bahodur Barlos urug'ining boshlig'i bo'lib, Xo'ja Ilg'or qishlog'idan edi. Onasi Takina xotun ismli ayol edi.

A.Temur yoshlik yillaridayoq bilim olishga kirishadi. Bu haqida uning o'zi shunday deydi: "Yetti yoshga to'lganimda meni madrasaga olib borishdi va qo'linga so'zlar jadvalini berishdi. Men o'qiy boshladim. Va erishgan muvaffaqiyatlarimdan behad xursand bo'ldim". 9 yoshga to'lganda esa namoz o'qiganligi, 12 yoshda o'z tengqurlari bilan suhbatlar o'tkazganligi va nihoyat 21 yoshda otasining bor mol-mulkini boshqarganligini hikoya qiladi: "Otam amir Tarag'ay va uning fuqarolarining ekini shu yil mo'l hosil berdi, qaramol va yilqi ham juda ko'p tug'ildi. Har o'n xizmatkorni birini boshliq qilib qo'ydim, har 20ta otni bir podaga ajratdim, har podani bir xizmatkorga topshirdim. Menga qarashli molu-mulkni boshqarishni maxsus ishonchli xizmatkorga topshirdim". Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Temur yoshligidanoq juda tadbirkor bo'lgan, boshqaruvni nozik sirlarini bilgan.

Temurning dunyoqarashida davlatga, harbiy ishlarga bo‘lgan qiziqish juda erta o‘yɡ‘onadi. Bu haqida shunday deydi: “Men 10 yoshda o‘zimdada favqulodda hukmronlik va ulug‘lik alomatlarini his qildim. 18 yoshimda o‘zimning suvoriylik va ovchilik hunarim haqida ko‘p o‘yladim. Umrinni Qur‘on o‘qish, shatranj o‘ynash va ot minish mashqlariga sarf qildim”.

A.Temur davlatni tuzishga kirishar ekan, u Samarqanddan boshqa shahar va mamlakatlarni birma-bir ishg‘ol qila boshlaydi.

Mug‘ul xoni Tug‘luq Temurxonning o‘g‘li Ilyosxuja Movaroun-nahmi o‘ziga buysundiradi. Amir Temur esa Keshni amiri etib tayinlanadi. Xon vafot etgandan so‘ng uni o‘g‘li Ilyosxo‘jaga bo‘ysunmasdan mustaqil hokim bo‘lib oladi. Turk amiri qozog‘onning nabirasi Xusaynni jangda yengib 1370-yilda, bosh kent Balxni qo‘lga kiritadi va ikkidaryo oralig‘ida markazlashgan kuchli davlat tuzishga kirishadi. Temurning zafar qozonishida "uch yillik yurish", "besh yillik yurish", "yetti yillik yurishlari" alohida ahamiyatga ega. U davlatni idora qilishda kuchli va ko‘p sonli qo‘shinga tayanadi. U o‘z imperiyasini boshqa qo‘shni davlatlarni bosib olish yo‘li bilan kengaytiradi va mustahkamlaydi. Temur davlatining chegaralari shimolda Volga daryosidan janubda Hindistonning Ganga, sharqda Xitoy devori va g‘arbda O‘rta yer dengizigacha bo‘lgan katta hududni o‘z ichiga oladi. Bu imperiyaga kiruvchi davlatlar qo‘yidagilar Turon, Eron, Rum, Mag‘rib, Suriya, Misr, Iroqi Arab, Iroqi Azam, Mozandoron, Keylam, Shirvon Ozarbayjon, Fors, Jidda, Buyuk Totariston, Xorazm, Xo‘ton, Kabuliston, Boxtar, Zomin, Hindiston, Dashti qipchoq, Oq O‘rda, Gurjiston, Armaniston, Oltin O‘rda edi. Amir ya‘ni lashkor boshi (Ilyosxo‘ja davlatida) Sohibqiron ya‘ni “shohlarni shohi” degan ma‘noda unvonlariga sazovor bo‘lgan. Tuzuklarda yozilishicha Temur davlati 9 ulushi kengash va 1 ulushi esa shamshir yordamida barpo etilgan.

Ijtimoiy tuzumiga kelsak, bu haqida A.Temur shunday deydi: “Saltanatning ishlarini qonun qoida va intizomga solib, saltanatni martabasiga zebu-ziynat berdim. Saltanatimni 12 toifaga bo‘ldim, ularga tayangan holda ish yurgizdim”. Bu toifalar quyidagilardan iborat edi:

1. Sayidlar ulamo, shayxlar, fozillar.
2. Aqlli tajribali kishilar, donishmand, olimlar.
3. Duoguy kishilar.
4. Amirlar, sarxanglar, sinohsalar.
5. Askar va xalq.
6. Maxfiy ishlar bilan shug‘ullanuvchi tajribali ishlar.
7. Vazirlar, bosh kotiblar, devon munshiyarlari.

8. Hakimlar tabiblar, munajjim va muhandislar, arxitektorlar.
9. Muhaddislar, payg‘ambar va uning sahobalari haqida rivoyat qiluvchi tarixchilar.
10. Mashoyix va so‘filar.
11. Hunar va sa‘nat egalari.
12. Har mamlakat va o‘lkalarni yaxshi biluvchi sayohatchi va musofirlar.

Amir Temur o‘zining siyosatini amalga oshirishda, davlatni boshqarishda ulamolar, ilm fan ahillari va yuqoridagi tabaqa vakillariga qattiq tayangan. Bu haqida sohibqiron shunday dedi: “Fan va dinning mashhur kishilari o‘z maslahatlari bilan podsholarga yordam berib kelganlar. Sizlar menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim mamlakatda adolat o‘rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqarolarning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirish. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishda o‘z maslahatlaringiz bilan ko‘maklashishingiz kerak”.

Amir Temur ana shu tabaqalarning xizmati, ijtimoiy mavqeiga qarab foydalangan, hamda ularni taqdirlab turgan. Uning davrida “suyurg‘ol” tariqasida ayrim mansabdorlarga (askarboshi, shoir, ruhoniylar va devon xizmatchilariga) beriladigan mulkchilik rivojlangan. Alohida xizmat ko‘rsatgan beklarga, lashkarboshilarga beriladigan yer-suv mulki ya‘ni ma‘lum joydan (tuman, viloyatdan) o‘z foydasiga soliq yig‘ib olish haqini beradigan mulk “jogir” rivojlangan.

Temurning davlat gerbi uch doiradan iborat bo‘lib bu shakl tashqaridan o‘rab olingan jahonning 3 qismi Osiyo va Afrika, Yevropa hukmdori degan ma‘noni anglatadi. Keshga katta e‘tibor berdi. “Qubbat-ul-ilm val adab” deb yuritildi. Shiori “Rusti-rosti”, ya‘ni “Kuch adolatdadir” bo‘lgan.

Temuriylar davlatining boshqaruv tizimi

Amir Temur davlatini boshqarish "Tuzuklar"da ko‘rsatilishicha, kengash va maslahatga tayangan. Bu haqida uning o‘zi shunday degan: “Davlat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi qilichdir.” Bunda u albatta o‘z yaqinlari zadogonlar, yirik amaldorlar bilan kengashni nazarda tutgan. Bunga qurultoylar, shuningdek, harbiy yurishlar oldidan qo‘shin boshliqlari bo‘lgan amirlar va amrzodalar bilan o‘tkazilgan kengashlarni kiritish mumkin. Faqat boshqarishda emas, harbiy kengashlarga, ayniqsa, katta ahamiyat berilgan. Yuz ming otliq asar qila olmagan ishni bir to‘g‘ri kengash bilan amalga

oshirish mumkin degan fikr bunga guvohlik beradi. Amir Temur huzurida maslahat kengash organlariga qurultoy va davlat kengashini ko'rsatish mumkin. Qurultoy - bu Temur davrida oliy feodal tabaqalarining kengashi bo'lib, vaqti-vaqti bilan mamlakat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etish uchun chaqirilib turilgan. Bunday qurultoylar Balxda, qarshi va Qorabog'da, Samarqandda chaqirilgan. Ayrim manbalarda bunday qurultoylar "millat majlisi" ham deb atalgan.

Qurultoyda barcha shaxzodalar, oliy martabali dindorlar bosh amaldorlar, ma'muriyat xodimlari, harbiy boshliqlar, zadogonlar vakillari ishtirok etishgan. Davlatning markaziy idora organi ham oliy hukmdori ham Temurning o'zi bo'lgan, bu haqida shunday deydi "...butun mamlakatda buyruq-farmon berish ishlari poshdoning o'zida bo'lishi lozimki, har ishda podsho o'zi hukm chiqarsin, toki hech kim uning hukmiga aralashib o'zgartirilmasin".

Amir Temur "Tuzuklari"da davlatni idora qilishda 12ta tamoyilga asoslangan.

1. Davlat va saltanatimga bog'lagan tangri taoloning dini va Muxammad Mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim.

2. Davlatning, mamlakatning ustunlarini tashkil qilgan turli tabaqalar va toifalar bilan birgalikda bamaslahat ish yuritish siyosat yurgizish, faqatgina zo'rlikka emas ommaga xalqqa tayangan holda ular bilan kengashgan holda ish olib borgan.

3. Maslahat, tadbirkorlik va hushyorlik bilan ish yuritish. Kengashib, ehtiyotkorlik bilan yuritish natijasida o'z imperiyasini barpo etgan.

4. Davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda bajarish. To'ra va tuzukka ya'ni mulozimlari va qonunlarga tayanib ish ko'rish. Temur davlatida amirlar, vazirlar, sipohlar o'z vakolatlariga ko'ra harakat qiladi. Bu esa temuriylar davlatini huquqiy davlat tamoyillariga asoslanganligidan dalolat beradi.

5. Amirlar va sipohiylar bilan yaxshi munosabatda bo'lgan, ularni hurmat qilib, xizmatlarini rag'batlantirib borgan.

6. Adolat va insof bilan ish ko'rgan. Gunohkorga ham begunohga ham raxm-shafqat qilgan.

7. Sayidlar, ulamo-yu mashoyix, oqilu donolar muhandislar, tarixchilarni e'tiborli shaxslar deb izzat va hurmat qilgan.

8. Azmu-jazm bilan ish tutgan, ya'ni nima ishni amalga oshirishga qaror qilgan bo'lsa unga butun vujudi bilan kirishib, oxiriga yetkazgan. O'tgan shahar va payg'ambarlarning ishlarini o'rgangan.

9. Raiyat (oddiy xalq) hol-ahvolidan doimo ogoh bo'lgan. Ularning ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini esa farzand o'rnida ko'rgan. Har bir yurtni urf-odatiga, qonun va qoidalariga hurmat bilan qaragan. Ulardan xabardor bo'lish uchun tarixchi, xabarchilarni yozma ravishda turli xalqlar hayotidan xabardor qilib turishlarini talab qilgan.

10. Turli millat toifalaridan o'z panohiga kirgan kishilarga xurmat bilan qaragan. Do'stlik qilgan kishilarga muruvvat ko'rsatgan. Dushmanlik qilib, keyin undan pushaymon bo'lib tavba qilsa dushmanligini unutgan. Unga muruvvat ko'rsatgan.

11. Farzandlari, qarindoshlar, oshna og'ayni qo'ni-qo'shnilar va u bilan do'stlashgan kishilarni davlat martabasiga erishganda ham ularni unutmagan.

12. Do'sti-dushman bilan kelishib yashagan.

Amir Temur buyuk siyosatchi darajasida o'zga davlatlarni zabt etish, ularni o'z imperiyasiga qo'shib olishda, asosan tadbirlar va kengashlarga tayangan holda amalga oshirgan. Ustozlari maslahatlariga tayanib ish ko'rgan. Piri Zayniddin Abubakr Taibodiy Amir Temurning ustози bo'lgan. Biror manlakatga yurish qilishdan oldin u bilan maslahatlashgan va u ko'rsatgan yo'ldan yurgan. Ustozining maslahatlariga ko'ra saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qiladi. 1.Kengash. 2.Mashvaratu maslahat 3. Qat'iy qaror, tadbirkorlik va xushyorlik. 4. Ehtiyotkorlik.

Amir Temur bir ishni qilmoqchi bo'lsa, avval kengash qurgan, keyin Qur'ondan fol ochirgan. Qur'onning hukmiga binoan ish ko'rgan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, saltanatni tashkil qilish uchun o'tkazgan 31 ta muhim kengash haqida alohida-alohida Tuzuklarda to'xtatilib o'tilgan.

Amir Temur saltanatni boshqarishda yirik masalalardan tortib, oddiy masalalargacha alohida e'tibor berib, ularni tartibga solgan. Masalan: saltanat saroyida o'tirish va o'rin olish tuzugini ishlab chiqadi. Bu qonunga ko'ra quyidagicha tartib o'rnatilgan edi: Temurning o'g'illari, nabiralari va qarindoshlari o'z darajasi va mansablariga ko'ra oysimon shaklida taxtni o'rab o'tirishlari kerak. Sayidlar, qozilar, ulamo, fuzalo, shayxlar ulug'lar o'ng tomonidan o'rin olgan. Amiri ul umaro, beklar – begi, amirlar, ulus, tumanlar va qo'shinlarning sardorlari va amirlari mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar o'z martabalariga yarasha chap qo'l tomonidan joy olganlar. Devonbegi va vazirlar taxt qarshisidan joy olganlar. qolganlari taxt orqa tomonlariga joylashgan. Xirovul amiri taxtning ro'parasidan o'rin olsa, ichki xususiy yasovul katta chodir eshik oldida taxtning to'g'risida tik turgan. Dodxoxlar esa o'ng va chap tomonlarida tik turgan. O'rin olish qoidalarini nazorat qilish amirga

topshiriladi. Majlis qoida bilan boshlangandan so'ng ming tovoq osh, ming dona non keltirilgan va yig'ilganlarga berilgan. Buni "shohona ziyofat" deb atalgan.

Bu davlatda "saltanat qo'rg'onlari" deb atalgan amirlar va saltanat saroyining ishonchli, e'tiborli kishilari bo'lmish vazirlar, ayniqsa (vazirlar) katta mavqega ega bo'lganlar.

Davlatning markaziy boshqaruv organi devonxona bo'lib, tarmoq boshqaruvi esa vazirlar tomonidan olib borilgan. Amir Temur vazirlarni tayinlashda juda ehtiyotkorlik va xushyorlik bilan ish ko'rgan va "Agar podshoh zolim bo'lib, vazir odil bo'lsa podshohning jabru zulmini to'xtatish chora-tadbirlarini ko'radi, lekin vazir zolim bo'lsa saltanat ishlari tez muddatda porakandalikka uchraydi, deb o'z "Tuzuk"larida qayd etgan.

Amirlar, asosan harbiy kishilar bo'lib, ular lashkarni boshqarish, jangga hozirlash kabi ishlarni yaxshi bilishgan. Amirlarning eng kattasi Amiru-ul-umaro ya'ni amirlar amiri, shohning yo'qligida uning vazifasini bajarib, sipohga buyruq bera oladigan darajadagi shaxs bo'lishi kerak. Shu tariqa Amir Temur 313 kishidan 4 nafarini "beklar begi" etib, bir kishini esa, amir ul-umaro etib tayinlaydi. G'ayratli or nomusli bo'lgan yana o'n ikki kishiga ushbu tartibda daraja berganini aytgan.

Birinchi kishiga ming kishiga buyruq berish huquqini bergan bo'lsa, ikkinchi amirga ikki ming kishiga, 3-chi amirga 3 ming kishiga amir va huquq o'n ikkinchi amirgacha ko'paytirib, 12 ming kishiga bo'yruq bergan. Birinchisi, ikkinsini o'rniga 2-chisi esa 3-si o'rniga va hokazo – etib tayinlanadi. 12-chi amir esa amir ul-umaro noibi etib tayinlanadi. Amir ul-umaro esa Amir Temurning noibi hisoblangan. Agarda qaysi bir amirga biror kor hol bo'lsa, uning o'rnini noibi egallashi ham belgilanadi. O'sha 313 amirdan 100 tasi o'n boshi, 100 tasi yuzboshi, 100 tasi mingboshi bo'lgan. Jang paytlarida amir-ul umaro amirlarga, amirlar-mingboshilarga, mingboshilar yuzboshilarga, yuzboshilar -o'nboshilarga boshliq degan buyruq ham bergan. Shuningdek birini vazifasini ikkinchisiga buyurmaslikni ham qattiq tayinlaydi.

Amir Temurning to'rt vaziri bo'lib, ularning vazifalari maxsus qonunlarda aniq ko'rsatib qo'yilgan bo'lgan Ularning to'rttalovi ham har kuni devonxonada hozir bo'lganlar.

1-mamlakat va raiyat vaziri. Bu vazir mamlakatdagi muhim ishlarni, kundalik muammolarni, raiyat ahvolini, viloyatlardan olinadigan hosil, soliq-o'lponlar, ularni taqsimlash, kirim-chiqimlarni, mamlakatning

obodonchiligini, aholining farovonligi ishlarini va xazinani qanday qilib tartibga solinganligi haqida Sohibqironga bildirib turgan.

2-vazir, sipoh (ko'shin) vaziri bo'lib, sipohiyarning maoshini, xizmat evaziga beriladigan mulklarni idora qilgan.

3-vazir egasiz qolgan, o'lib ketgan va qochganlarga tegishli mol-mulkni, kelib ketayotgan xorijiy savdogarlardan olinadigan zakot va bojlarni, mamlakat chorvalarini, ularni o'tloq-yaylovlarini boshqaruvchi va bularning barchasidan keladigan soliqlarni daromadlarini jamlab, omonat tariqasida ushlab turadigan vazir Egasiz mulklarni merosxo'rlarga berish bilan shug'ullangan.

4-vazir, saltanat ishlarini yurituvchi vazir. U butun saltanatning idoralari kirim-chiqimi, xazinadan taomlar uchun sarf qilinadigan xarajatlar, otxona va boshqa jonzotlarga qilinadigan xarajatlar bo'yicha vazir. Bulardan tashqari chegara tumanlari bo'yicha ham uchta vazir tayinlangan. Ular sarhadlar va tobe mamlakatlar muammolari, daromadlarini idora qilganlar. Bosib olingan yerlardagi vazirlardan 7 tasi Devonboshga bo'ysungan. Kelib tushgan arizalar bilan shug'ullanuvchi "ariza begi-dodxox" mansabi mavjud bo'lgan.

Amir Temur ulkan saltanatni uluslarga bo'lib idora qilgan. U o'ziga bo'ysungan butun viloyat va mamlakatlarni 4 o'g'liga ulus qilib bergan. To'ng'ich o'g'li Muhammad Jaxongirga Balx viloyati 12 ming qo'shin bilan, o'g'li Umar Shayx Mirzoga Fors viloyati 10 ming askarga qo'mondonlik qilish uchun, Mironshohga Ozorbayjon, Iroq va Armaniston 9 ming askar bilan va kenja o'g'li Shohruxga Xuroson, Jurjon, Mozondoron, Seyiston viloyati va 7 ming askarga qo'mondonlikni bergan.

Temuriylar davlatining mahalliy boshqaruvi tizimi va ma'muriy bo'linishi butun davlat okrug-nohialarga, o'n mingliklar-tumanlarga, mingliklar xazoraga, yuzliklar sad va o'nliklar dahalarga bo'lingan. Mahalliy boshqarishning "o'nliklar" tizimi mavjud bo'lib, uning asosida askar yetkazib berish ya'ni tumanlar 10.000., xazoralar-1000, sadlar-100, dahalar 10 askar qurollantirib yuborishi ko'zda tutilgan.

Temuriylar davlati sud hokimiyati, harbiy qo'shin va soliq tizimi

Temur davlatida sudlov ishlarini qozilar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, ular fuqarolar, harbiylar, ruhoniylar va xizmatchilar ishlarini ko'radigan qozilar turlariga bo'lingan. Har bir shaharda Dorul-omonat ya'ni hukumat uyi, Dorul-adolat qozixonalar mavjud bo'lgan. Yuqoridagilarga ko'ra temuriylar davlatida qozilar 4 ga bo'lingan;

1. Qozi-askar: -lashkarlar, sipohlar uchun qozi.

2. Urf- odatlar bilan bog‘liq ishlarni ko‘ruvchi Axdos qozi.
3. Ruhoniylar bilan bog‘liq ishlarni ko‘ruvchi Shayx-ul-islom.
4. Aslzodalar bilan bog‘liq ishlarni ko‘ruvchi Ixdom qozisi.

Temur tuzuklariga ko‘ra, qozilar asoslangan hukm va qaror chiqarishi zarur bo‘lgan. Agar tomonlardan biri qozining chiqargan qaroridan norozi bo‘lsa davlat boshlig‘iga shikoyat qilish lozim bo‘lgan. Butun mamlakat bo‘yicha qozilar faoliyatini nazorat qilish kozikolonga yuklatilgan.

Temur davlatida alohida muassasa “Adolat devoni” bo‘lgan. U asosan, davlatga qarshi qaratilgan jinoyatlar, boshqarish tartibiga va mansabdorlik jinoyatlarini ko‘rib, tegishli jazo tayinlangan.

Temur davlatida maxsus jinoyat qidiruv mirshabligi bo‘lgan. U savdo karvonlari harakati xavfsizligini ta‘minlash, bosqinchilar va o‘g‘rilar to‘dalarini topish va qo‘lga olish, shariat qoidalarini buzganlarga, darbadarlarga, tilamchilarga qarshi choralar ko‘rish bilan shug‘ullangan.

Amir Temurning nomini dunyoga mashhur qilgan hamda uni Sohibqiron, ya‘ni shohlarni shohi degan unvonga sazovor bo‘lishi zaminida uning shavkatli amirlari, lashkarlari turadi. Gap shundaki, u hokimiyat uchun kurashga kirgan kunidan boshlab, ana shu sipohni tuzish va uning kuch-qudratini doimo yuksaltrishga alohida e‘tibor berdi. Eng oliy bosh qo‘mondon Temurning o‘zi hisoblangan, u bo‘lmagan vaqtlarda qo‘shinlar ishi yuzasidan noibi bosh amir, Amiru-ul-umaro boshchilik, qilgan. Tuzuklarda ko‘rsatilishicha bu unvonga 5 kishi sazovor bo‘lgan, qoidaga ko‘ra “Amir ul-umaro” unvoniga sazovor bo‘lgan kishilar chegara nohiyalarning hokimi, o‘z yo‘l ostidagi viloyatlarning harbiy va fuqaroviy hukmdori hisoblangan. Ulardan keyingi darajada 4 ta “beklar begi” turgan. Amirlar 1-12 darajali amirga bo‘linib, darajasiga qarab 1-12 mingta qo‘shinga boshchilik qilgan. Urush vaqtida ular amiri ul-umaroning noiblari hisoblangan. Sipoh tashkil qilishda Temur ularga 10 boshi, 100 boshi, mingboshi, amirlar tanlashda bevosita jang maydonida o‘zining mahoratini ko‘rsatgan kishilarni tanlaydi. Bu haqida uning o‘zi shunday deydi: Cherik tuzib navkar olmoqda 3 qoidaga amal qildim. 1-dan yigitning kuch-quvvatiga, 2-dan qilichni o‘ynata olishiga, 3-dan aql-zaqovatiyu – kamolotiga e‘tibor qildim. Shu uch fazilat jamuljam bo‘lsa navkarlik xizmatiga oldim.

Yurish vaqtida ulus va tuman amirlari har chodir (o‘tov) 1 otliq har 2 (kapa chayla) 1 otliq, har 1 o‘troq aholidan 1 otliq miqdorida qo‘shin to‘planishi lozim. Qo‘shin ichidagi tuzilish o‘nlar tuzumiga asosan tuzilib, ular boshida o‘nboshi, yuzboshi, mingboshilar turgan. Temur o‘z sipohni

tuzishda tabiiy qonunchilikga amal qiladi. Shuningdek, ularning boshlig'i qilib, o'zlarining orasida hammalaridan ham botirini, shijoati ortiqroq jangchini tanlab, qolgan to'qqiztasini roziligi asosida o'nboshi qilib tayinlaydi. Bu holat 100 boshi va ming boshilarga nisbatan ham qo'llangan, bu esa o'ziga xos harbiy demokratiyani belgisi edi.

Amir Temur o'ratgan qonun va qoidasiga binoan lashkarlar orasida biror-bir kimsa o'lsa, yoki qochib ketsa uning o'rniga yangi kishi taynlash qo'yidagi tartibda o'tkazilgan: oddiy jangchi o'nboshi, o'nboshi 100 boshi, 100 boshi esa mingboshi bo'lishiga huquq beriladi. Bu o'zgarishlar va yangi tayinlanganlar haqida va uning sabablarini shaxsan o'zini xabardor qilishlarini talab qilgan. Amir Temur jang maydonlarida hamda saltanat ishlarini boshqarishda mingboshning hukmi yuzboshiga, yuzboshining hukmi o'nboshiga va 10 boshining hukmi qo'l ostidagi jangchilarga qat'iy qilib belgilab qo'yadi. Agarda kimda kim bu qoidani buzsa, u qonuniy jazoga tortilib, o'z lavozimidan bo'shatilgan va o'rniga yangi shaxs tayinlangan.

Amir Temur faqatgina o'z sipohini tashkil etish yoki uning jangovorligini oshirish ishlari bilangina emas, balki u sipohning ichki masalalari, sipohga ulusda oziq-ovqat, maosh turli moddiy in'omlar qilish, tanho taqsimlash, ya'ni ayrim amirlarga, mingboshi, yuzboshilari uchun boylik, yer-suv, amirlik mansabini berish, martabalarga tayinlash qoidalarini ishlab chiqqan va amalga oshirgan. Maosh tayinlashni quyidagicha amalga oshirgan:

Odiy sipoh o'z vazifasini o'rinlatib bajarganda unga mingan otining bahosi berilgan, bahodirlarning maoshi ikki ot bahosidan 4 ot bahosigacha. O'nboshilarning maoshi qo'l ostidagi oddiy sipohiydan 10 barobar ortiq bo'lgan. Yuzboshilarning maoshi esa 10 boshilarning maoshidan 2 barobar, mingboshning maoshi esa, 100 boshining maoshidan 3 barobar ortiq belgilangan. Askarlarning maoshi ko'rsatgan xizmatlariga qarab berilgan. Bundan tashqari alohida ko'rsatgan xizmatlari uchun (qahramonliklari uchun) "ulufa", "tanho" kabi rag'batlantirishlar joriy qilingan.

Agarda sipohiylerden qaysi biri jangda xatolikka yo'l qo'ysa, uning maoshi o'ndan birga kamaytirilgan. Maoshni belgilash "devon begilar" orqali amalga oshirilgan.

Amirlar va amir ul-umarolarga sarxad yerlaridagi viloyatlardan biri "tiyul" mulk (soliq yig'ib olish uchun topshiriladigan viloyat, yer mulk) qilib belgilangan.

Amir Temur o'z qo'shinining yaroq va jihozlari haqida doimo g'amxo'rlik qilgan. Oddiy askarlar 18-1 chodir, 1 qilich arra bigiz. 1 qop, Bahodirlar 5-1 chodir har biri temir sovut, dubulg'a qilich o'q 5 ta ot, yuzboshilar har biriga 1 chodir, 10 ot, sovut, mingboshilar 1-1 chodir, soyabon, boshqa aslaha qurol yaroq ko'tara olganicha.

1-amir 110 ot, 2-chisi 120 ta ot, 3-si 130 4-chisi 140 ta ot. Amir Temurni o'zi esa 300dan kam bo'lmagan ot olishi belgilab qo'yilgan.

Urush va tinchlik paytlarida sipoh va o'rda 4 tarafdin qo'riqlab turilgan. Sipohlar, amirlar, yuzboshi, mingboshilar devonxonaga majlislarga bosh kiyimsiz, qilichsiz kirishi mumkin bo'lmagan. Hamma vaqt 12 ming askar qorovullikda turgan. Har kecha 1000 kishidan soqchilik qilib turishgan. Har 100 soqchiga 100 boshi tayinlanib, shartlashgan mahfiy so'z aytilgan

Qo'shin tuzishda yuqoridagi tamoyillarga, qoidalarga qat'iy amal qilish natijasida Amir Temur o'rta asrlarda misli ko'rilmagan jan-gavorliklarni qo'lga kiritgan va eng og'ir shiddatli janglarda ham doimo zafar qozongan.

Ko'p ming sonli armiya va boshqaruv apparatini moliyaviy ta'minlashning asosiy yo'li turli soliqlarni yig'ish bo'lgan. Temur davlatida olinadigan soliqlar quyidagilardan iborat bo'lgan.

1. Xiroj-solig'i (naqd pul yoki mahsulot)
2. Sovarin-oliy martabali shaxslarga qilinadigan tortiq.
3. Qo'nalg'a-safar paytida olinadigan soliq.
4. Shilon puli-podsho va oliy mansabdorlarning ovqati uchun yig'iladigan soliq.

Xiroj miqdori daromadning uchdan biri miqdorida undirilgan.

Shuningdek, tashlab qo'yilgan yerlarni ishlab, hosildor yerga aylantirgan dehqonlardan, hosilning birinchi va ikkinchi yili o'zi xohlaganicha soliq to'lab, 3 yildan boshlab umumiy asoslarda soliq to'laganlar.

“Temur Tuzuklari” – tarixiy huquqiy manba

Reja:

- 1. “Temur Tuzuklari” – temuriylar davlatining asosiy huquq manbasi.**
- 2. Amir Temurning taxt vorislariga vasiyat va pand nasihatlari.**
- 3. “Temur Tuzuklari” bo‘yicha mamlakatni boshqarish tartibi.**
- 4. “Temur Tuzuklari”da vazir va davlat amaldorlarini tayinlash tartibi.**
- 5. “Temur Tuzuklari” bo‘yicha taqdirlash va rag‘batlantirish.**

Amir Temur nomi bilan bog‘liq bo‘lgan uning siyosiy-huquqiy qarashlari to‘plami “Temur Tuzuklari”, “Voqeoti Temuriy” (Temurning boshidan kechirganlari) kabi nomlar bilan sharq va g‘arbda mashhur bo‘lgan to‘plam Temurning hayotiy tajribalari asosida ishlab chiqilgan, qonun darajasiga ko‘tarilgan va o‘zining vorislari uchun nasihatlarini o‘z ichiga olgan.

“Temur Tuzuklari” XIV asrning II yarmiga oid ijtimoiy-siyosiy voqealarni o‘rganishga doir Temur saltanati uning davlati tizimi, boshqarilishi, sud tuzilishiga oid juda muhim qoidalar va ma‘lumotlarni o‘zida aks ettirgan tarixiy huquqiy manbadir. Tuzilishi jihatidan “Temur Tuzuklari” ma‘muriy-harbiy kodeksdir.

Tuzuklar ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi – birinchi maqola Sohibqiron Temurning 7 yoshidan to uning so‘nggi kunigacha bo‘lgan hayoti, siyosiy faoliyati haqida aniqrog‘i Amir Temurning asta-sekin Movarounnahrda hokimiyatini qo‘lga kiritish va uning keyingi yurishlari asosida Temuriylar saltanatiga asos solinishi haqida hikoya qilinadi.

Birinchi maqolada 31 tadan 13 ta kengash birma bir sanab ko‘rsatiladi.

Ikkinchi qism esa, Sohibqiron Temur nomidan shahzodalarga qaratilgan vasiyatlari, pand nasihatlaridir. Unda jahongir o‘z vorislariga qarata davlatni idora qilish san‘atining nozik sirlari, tamoyillari haqida yozilgan. Amir, vazirlar va beklarni tanlash, ularni joy joyiga qo‘yish, qo‘shin boshliqlari, ularni xizmatlarini taqdirlash, sipohiylar va ularning maoshlari kabi masalalari xususida vasiyat qilinadi.

“Temur Tuzuklari” 1783-yil Angliyada, 1785-yil va 1981-yil Hindistonda, 1868-yil Eronda bosmadan chiqadi. 1787-yil fransuz, 1830-

yil ingliz, 1845-yil urdu, 1894-yil, 1934-yil rus, 1835-yil, 1857-yil turk (eski o'zbek) tilida, o'z ona yurtida esa 1991-yil nashr qilingan.

Amir Temur toju-taxtlari vorislariga vasiyat va pand-nasixatlar qilar ekan, jumladan shunday deydi: "Mamlakatlarni fatx etuvchi baxtli farzandlarim va jahonni idora etuvchi qudratli nabiralaringa ma'lum bo'lsinki, tagri taolo dargoxida umidim shulki, ko'plab farzandlarim, avlodim saltanat taxtiga o'tirib, mamlakatlarni idora etgay. Shuning uchun saltanat qurish, davlat tutish ishlarini bir necha tuzukka (dastur ul-amal) yozib qoldirdim, toki farzandlarim va avlodlarimdan bo'lganlarining har biri unga muvofiq ish yuritsin, mehnatu mashoqatlar, ko'p harbiy yurishlar, urush-taloshlar bilan tangrining inoyati va xazrat Muhammadning va salomlari bo'lsin, tole'i bilan millatning sharofati, on xazrating ulug'vor avlodi va qimmatli sahobalariga qilgan muhabbat va do'stligim orqali qo'lga kiritgan davlat va saltanatni saqlaganlar".⁸

Temur o'z fikrini davom ettirib yana shunday degan: "Vorilarim bu tuzuklardan o'z saltanat ishlarini boshqarishda qo'llanma sifatida foydalangaylar, toki mendan ularga yetadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan ozod bo'lgan.

Endi mening nomdor baxtiyor farzandlarim, mamlakatlarni zabt etuvchi iqtidorli nabiralaringa yo'l yo'rig'im shulki, men o'n ikki narsani o'zimga shior qilib olib, saltanat martabasiga erishdim. Shu o'n ikki narsa yordamida mamlakatlarni zabt etib, saltanatimni boshqardim va saltanat taxtiga ziynat berdim. Ular ham ushbu tuzukka amal qilsinlar. Davlatu saltanatimni va o'zlarini ehtiyot qilsinlar". Amir Temur o'z hayot tajribasida ko'rgan-kechirganlaridan kelib chiqib, o'zi doimo amal qilib kelgan o'n ikki asosiy qonun-qoidani bayon qiladi.

Temur toju-taxt egalaringning tutumi va vazifalari haqida ham bir qator zarur qonun-qoidalarni belgilaydi. "Yana tajribada ko'rib bildimki, – deydi Amir Temur, davlat agar dini oyin (tartib) asosida qurilmas ekan, to'ra tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xshar ekan, uni ko'rgan har kimsa nazarini olib qochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib-chiqadigan, tomsiz, eshigi-to'sig'i yo'q uyuqa o'xshaydi".

Shuning uchun ham men, o'z saltanatim binosini dini islom to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Saltanatimni boshqarishda uchragan har qanday voqea va ishni to'ra va tuzuk asosida bajardim. Dilimning mashriqidan ko'tarilgan birinchi tuzuk shundan iborat bo'ldiki, islom dinini yoyib, Muhammad unga tagrining marhamatlari va salomlari

⁸ "Temur Tuzuklari". Toshkent. G'afur G'ulom. 1991-yil. 53-bet.

bo'lsin, shariatni quvvatladim. Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqolar (g'aribxonalar) qurishni musofir yo'lovchilar uchun yo'l ustiga rabotlar (karvonsaroylar) bino qilishni, daryolar ustiga ko'priklar qurishni buyurdim.

Sohibqiron xuddi ana shu qoidaning muhimligiga bir necha bor e'tiborni qaratgan edi. Bu haqida "Shuning uchun ham men o'z saltanatim binosini dinu-islom, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Saltanatimni boshqarishda uchragan har qanday voqea va ishni to'ra va tuzuk asosida bajardim".

Dinu shariat tuzukini tartibga keltirganimdan so'ng, saltanatim korxonasining tuzugini tuzishga kirishdim. Saltanat ishlarini qonun va qoidalar (to'ra va tuzuk)ga solib, uning martabalari tuzukini quyidagilarga tayanib tuzdim: Birinchidan, saltanatim qonun qoidalarini islom dini va kishilarning eng xayrlisi (Xazrati Muhammad)ning shariatiga bog'lab, izzatu hurmatlash vojib bo'lgan onhazratning avlodi va sahobalariga muhabbat bildirgan holda ularni mustahkamladim, saltanatim martabasini qonun-qoida asosida shunday saqladimki, saltanatim ishlarini aralashib, ziyon yetkazishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi.

Ikkinchidan, sipohi raiyatni umid va qo'rquv orasida saqladim. Do'st-dushmani murosayu-madora martabasida tutdim. Qilmishlarini, aytgan gaplarini gohida sabr-toqat, gohida bilib bilmaslikka olish bilan o'tkazdim. Do'st-dushmanlardan kimki menga iltijo qilib kelgudek bo'lsa, do'stlarga shunday muomila qildimki, do'stligi yanada ortdi, dushmanlarga esa shunday munosabatda bo'ldimki, ularning dushmanligi do'stlikka aylandi.

Menda biron kimsaning haqi bo'lsa, haqini hech vaqt unutmadim. Biron kimsa bilan tanishgan bo'lsam uni hech vaqt nazarimdan chetga qoldirmadim.

Uchinchidan, hech kimdan o'ch olish payida bo'lmadim. Tuzimni tatib menga yomonlik qilganlardan hech narsa talab qilmay, ularni parvardigoru olamga topshirdim.

Ish ko'rgan, sinalgan shijoatli er-yigitlarni qoshimda tutdim, sofdil kishilar sayyidlar, olimlar va fozillarga dargohim doim ochiq bo'ldi. Nafsi yomon himmatsiz kimsalarimni, ko'ngli buzuq qo'rqoqlarni majlisimdan quvib yubordim.

To'rtinchidan, ochiq yuzlilik, rahm shavkat bilan xalqni o'zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr zulumdan uzoqroq bo'lishga intildim.

Amir Temurning takidlashicha, agar hukmdor davlatda kuchli hokimiyat bo'lishini istasa quyidagilarga amal qilishi kerak: "Saltanat

korxonasi Tagri Taolo korxonasining bir kichik nusxasidirki, unda turli mansabdagi xodim va xizmatchilar (amal va fe'li) noiblar, eshik og'alari (hujjat) bordir, ularning har biri martabasiga yarasha o'z yurishlari bilan mashhurdir. Hech biri o'z martabasidan chetga chiqmaydi va doimo Ollohning amriga muntazir bo'lib turadilar.

Amir Temur o'zining "Tuzuklari"da vazirlar qanday bo'lishlar zarurligi haqida ham fikr bildirib, jumladan shunday deydi: "Amir qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishlari lozim; birinchisi - asillik, toza nasllik; ikkinchisi - aql farosatlilik; uchinchisi - sipohi - raiyat ahvolidan xabardorlik ularga nisbatan xushmomalalik bo'lishlik; to'rtinchisi - sabr - chidamlik, tinchliksevarlik. Kimki, shu to'rt sifatga ega bo'lsa, unday odamni vazirlik martabasiga loyiq deb bilsinlar. Uni vazir yoki maslaxatchi etib tayinlasinlar. Bunday vazirga to'rt imtiyoz; ishonch, e'tibor, ixtiyor va iqtidor berilsin.

Sohibqron vazirlarga xos bo'lgan noyob fazilatlarni sanar ekan, yana bunday deb yozgan edi: "Kamolga erishgan vazir ul kim, davlat muomalasini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan asl-nasli tozaligini ko'rsatib ajoyib tarzda ko'rsatadi".

Uning takidlashicha: "Qaysi vazir soflilik, to'g'rilik bilan vazirlik ishiga kirishib, davlatning, moliyaviy-mulkiy ishlarini diyonat, savob bilan nafi buzuvchi qilmay, omonatga xiyonat etmay, bajarar ekan, unday vazirni eng oliy martabalariga yetkasinlar".⁹

Ma'lumki, Amir Temur bir vaqtlar o'zi ham vazir bo'lgan. Shuning uchun uning barcha siru-asrorlaridan voqif bo'lgan. Bu haqida uning o'zi shunday deydi: "Xalqqa yordamu-madad berish maqsadida men ham Tug'luq Temurxonning o'g'li Ilyosxo'jaga vazirlik hamda sipohsolarlik qilishga rozi bo'lgan edim. Tangri Taoloning bandalariga yordam qilganimdan bo'lsa kerakki, Olloh Taolo menga saltanat martabasiga yetkazdi".¹⁰

Xos ul-xos navkarlarimdan uch yuz o'n uch kishiga amirlik mansabi berishni buyurdim, chunki ular asli toza, pok nasllik, aql-farosatlik, bahodir, dovyurak, tadbirkor, sergak, ehtiyotkor, oldini va orqasini o'ylab ish tutadigan kishilar edi. Ularning har biriga o'rinbosar tayinladim. Agar amirlardan birontasi vafot etsa, u holda, o'rinbosari uning o'rniga o'tiradi. Uni amirlikka nomzod (muntazir ul amorat) deb aytadilar.

Tajribalardan sinab bildimki, jangning sir asrorlarini, g'anim askarlarini sindirish yo'lini bilgan, jang qiziganda o'zini yo'qotmasdan,

⁹ "Temur Tuzuklari". 75-bet.

¹⁰ "Temur Tuzuklari". 76-bet.

qo'l-oyog'i bo'shamasdan, lashkar favjlarini jangga boshlay oladigan, rahna tushsa uni tezda tuzata oladigan kishi amirlik va hukmdorlikka loyiq hisoblanadi.

Amirliklarda amirlar, mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar va boshqa sipohiyarga quyidagi tartibda maosh berilgan: oddiy sipohiyga o'z vazifasini o'rinlatib bajarishi sharti bilan maoshi mingan otining bahosi bo'lgan. Bahodirlarning maoshi ikki ot bahosidan to'rt ot bahosigacha, o'nboshilar maoshi qo'l ostidagi oddiy sipoxiyardan o'n baravar ortiq, yuzboshilar maoshi o'nboshilarga qaraganda ikki baravar ko'p, mingboshilarniki esa ziyoda etib belgilangan.

Sipohiyardan qaysi biri xatolikka yo'l qo'ysa, maoshidan o'ndan birini kamaytirganlar.

Amir Temur saltanatni o'z erkida saqlash uchun o'n ikki narsani o'ziga shior qilib oldi jumladan: o'z so'ziga ega bo'lish, ishini o'zi bilib qilish, ya'ni raiyat podshosining aytgan so'zini, qilgan ishini o'zi aytishi. "Sultonni har narsada adolat-pesha bo'lishi, qoshida insofli, adolati vazirlar saqlashi, toki podshox zulm qilgudek bo'lsa, odil vazir uning chorasini topsin". Butun mamlakatda buyruq farmon berish ishlarining podsho ixtiyorida bo'lishi. Podshohning o'z qarorlarida bo'lishi, ya'ni har qanday ishni qasd qilar ekan, to bitirmaguncha undan qo'l tortmaslik.

Podshohlik ishlarini tamoman boshqaga topshirib, erkni unga berib qo'ymaslik. Saltanat ishlarida har kimning so'zini eshitish, har kimdan fikr olish, qaysi biri foydaliroq bo'lsa, uni ko'ngil xazinasida saqlab, vaqtida ishlatish. Saltanat ishlarida sipohu raiyatga bog'liq masalalarda boshqalarning so'z va fe'lga qarab amal qilmaslik. Podshoh hay'ati sipohu raiyat ko'nglida shunday o'rmasgan bo'lishi kerakki uning amr-farmoniga hech kim qarshilik qilishga jur'at etolmasin. Podshoh nima qilsa o'z erkicha qilsin, nima desa o'z so'zida tursin. Saltanat ishlarida, hukm yurgizishda podshoh o'zini yagona bilib, hech kimni o'ziga saltanat sherigi qilmasin. Podshoh majlis ahvolidan ogoh va hushyor bo'lsinkim, ular ko'pincha ayb axtarib, uni tashqariga tashiydilar.

Amir Temur o'z tuzuklarida davlat arboblarning va qo'shin boshliqlarining ham burch hamda vazifalari xususida o'z fikrlarini bayon qiladi. Vazirlarning xizmat qilish turi quyidagicha amr etilgan: To'rt vazir har kuni devonxonada hozir bo'lsinlar. Birinchi-mamlakat va raiyat vaziri, bu vazir mamlakatdagi muhim ishlarni, kundalik muammolarni, raiyat ahvolini, viloyatlardan olingan hosil, soliq, o'lponlar, ularni taqsimlash, kirim-chiqimlarni, mamlakat obodonchiligini, aholining farovonligini, xazinani qanday qilib tartibga keltirayotganini menga bildirib tursin.

Ikkinchi-sipoh vazirdirkim, u sipohiylarning maoshlari, tanholarini boshqarsin va tarqoq holatga tushib qolmasligi uchun doimo sipoh ahvolidan ogoh bo'lib tursin, ularning ahvoli to'g'risida menga xabar berib tursin.

Uchinchi-egasiz qolgan, o'lib ketgan, qochganlarga tegishli mollarni, kelib-ketayotgan savdogarlar mol-mulkidan olinadigan zakot va bojlarni, mamlakat chorvalarini, ularning o'tloq va yaylovlarni boshqarib, bularning hammasidan yig'ilgan daromadlarni omonat tarzida saqlaydigan vazirdir.

To'rtinchi-saltanat ishlarini yurituvchi vazir. U butun saltanat idoralarning kiritim-chiqimlari, xazinadan sarf qilingan taom xarajatlardan ogoh bo'lishi kerak. Shu tariqa Amir Temur barcha davlat arboblari hamda qo'shin boshliqlarining burch va vazifalarini belgilab bergan.

Amir Temur xizmatchilarini taqdirlashga alohida e'tibor bergan, u amirlar, vazirlar, sipoh hamda raiyatni taqdirlab, in'om va sovg'alar berish yuzasidan quyidagi tuzuklarni belgilaydi: qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa yo g'anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar: birinchi-fahrli xijob. Tug' va nog'ora berib uni "bahodir" deb atasinlar. Ikkinchi-uni davlat va saltanat sherigi bilib, kengash majlisiga kirgizsinlar. Uchinchi-unga chegara viloyati topshirilsin va o'sha yerlik amirlar unga bo'ysinsinlar. Agar amirlardan qaysi birovi to'rani (xon o'g'lini) yengsa yoki biron amirga shikast yetkazsa, yo biron o'lkani mag'lub etsa, uni yuqoridagi yo'sinda mukofotlasinlar. Jangda o'zini ko'rsatib, qarshisidagi g'anim lashkarini sindirgan bir amirning martabasini oshirsinlar.

O'nboshi, yuzboshi, mingboshilardan qaysi biri dushman safini buzib, o'z qarshisidagi askar favjini sindirsa, o'nboshi bo'lsa shahar hokimligini bersinlar. Yuz boshi bo'lsa, uni biron mamlakat hukmdori etsinlar.

Amirlardan qaysi biri g'anim qo'lidagi biron mamlakatni fath etib dushman tasarrufidan ozod qilsa shu mamlakatni uch yilga unga in'om tariqasida bersinlar.

Qaysi bir askar qilich chopib bahodirlik ko'rsatsa, unga in'om tariqasida cho'mok, qimmatbaho toshlar qadalgan o'tog'a, kamor turna bellik qilich va bir ot bersinlar, o'nboshilik martabasiga ko'tarsinlar. Ikkinchi bor bahodirlik ko'rsatsa yuzboshi martabasiga yetishadi.

Amir Temur shu tariqa amirlar vazirlar, sipohlar hamda raiyatning ko'rsatgan bahodirligiga qarab taqdirlab, in'om sovg'alar berishni joriy etgan.

"Tuzuk" yozish odati Amir Temurdan avval ham, keyin ham bo'lgan. Bu asarlarda davlatni idora qilish tartib-qoidalari, turli mansab egalarining vazifalari, xayri-sadaqa qilish tartib-qoidalari turli mansab egalarining vazifalari va unga amal qilish tartibi, soliq solish va uni to'plash tartibi, harbiy yurishlarni o'tkazish va qo'zg'olonni bostirish qoidalari bayon etiladi.

"Temur tuzuklari" ana shunday asarlardan biridir. "Temur tuzuklari" Amir Temur tarixi uning zamonida aniqrog'i 1342-1405 yillar orasida Movarounnahrni ijtimoiy-siyosiy ahvoli Temur va temuriylar davlati hamda qo'shining tuzilishi, o'sha yillarda Temur davlatining qo'shni mamlakatlar va xalqlari bilan bo'lgan munosabatlari haqida hikoya qiladi.

Temur davrida davlat asosini 12 ijtimoiy toifa tashkil etgan, uning taqdirini esa uch narsa: podsho, xazina va askar hal qilgan Amir Temur o'zining ulkan imperiyasini uluslarga bo'lib idora qilgan. Movarounnahrda boshqa uning tasarrufida bo'lgan barcha viloyatlar va mamlakatlar to'rt ulusga bo'linib ularga Temurning o'g'illari hukmronlik qilgan.

"Tuzuklar"da vazirlar, amirlar va voliylar haqida ham muhim ma'lumotlar keltirilgan. Vazirlar deyiladi "Tuzuklar"da, saltanat ustunlaridir... Mamlakat obodonchiligini, raiyatning tinchligini sipoharning birligini, xazina boyligini doimo ko'zda tutadilar. Davlat, saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo'l qo'ymaslik, saltanatga zararli narsalarni qaytarishda molu-jonini ayamaydilar.

Xulosa qilib shuni aytish joizki "Temur tuzuklari" bu faqat Amir Temurning tarjimai holidan iborat asar emas, balki Movarounnahrning hali yaxshi o'rganilmagan ijtimoiy-siyosiy tarixi hamdir. Ikkiichidan, bu asar Amir Temur asos solgan nisbatan markazlashgan feodal tuzilishini, XIV asrda jahonga dahshat solgan Temur qo'shining tarkibi, feodal munosabatlarini va boshqa ilmiy masalalarni o'rganishda muhim manba vazifasini o'tashi mumkin.

"Temur tuzuklari"ni o'rganish hozirgi kunda juda muhimdir, chunki uning tuzuklari ko'pchilikni muomala madaniyatini o'rganishga, o'zini idora etishga o'rgatadigan manbalardan biridir. "Temur Tuzuklari" – O'rta Osiyo xalqlarining harbiy sanatini o'rganishda ham muhim vazifani o'tashi mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. XIV asrda Movarounnahrda markazlashgan davlatning tashkil topishining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
2. Temuriy davlatining boshqaruv idoralari qanday tashkil qilingan.
3. Temuriy davlatida vazirlar faoliyati qanday tartibga solingan va ular qanday xislatlarga ega bo'lishlari kerak edi?
4. Amir Temur sipohni boshqarishda qanday nazariyalarga asoslangan?
5. Temuriylar davlatida qanday soliq va «majburiyat»lar turlari mavjud edi?
6. Amir Temur saltanatida jinoyat va jazo masalalari haqida nimalar bilasiz?
7. Amir Temur saltanatida sud institutlarining tutgan o'rni haqida fikr va mulohazalaringiz.
8. "Tuzuklar"ga ko'ra, agar, oddiy sipoh biror bir sipoh tomonidan haqoratlangan, yoki tahqirlangan bo'lsa, jabrlangan sipoh o'z huquqini qanday himoya qilish huquqiga ega bo'lgan ?
9. «Temur tuzuklari»ning tarkibiy tuzulishi haqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar:

1. A.X.Saidov, J.U.Toshkulov O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. T., IIVA, 1995-y.
2. Z.Muqimov O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. Samarqand, "Zarafshon". 1998-y.
3. X.Boboyev. A.Temur va Temuriylar saltanati. T., "Kamalak", 1996-y.
4. Amir Temur o'g'itlari. T., 1992-y.
5. B.Ahmedov. Tarixdan saboqlar. "O'qituvchi" T., 1994-y.
6. A.Sagdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. 1-qism "Akademiya". T., 2000-y.
7. "Temur Tuzuklari" "G'afur G'ulom" T., 1991-y.
8. H.B.Boboyev. O'zbek davlatchiligi tarixi.T-2005.
9. M.Hamidova. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi".O'quv qo'llanmasi. T. TDYUI. 2004.

Movarounnahr va Xuroson hududida shayboniylar dinastiyasi hukmronligi davrida davlat va huquq

Reja:

- 1. Shayboniylar davlatining tashkil topishi va ijtimoiy tuzumi.**
- 2. Shayboniylar davlatining markaziy va mahalliy boshqaruvi.**
- 3. Shayboniylar davlatida harbiy qo'shin va soliq tizimi.**
- 4. Shayboniylar davlatining huquq tizimida.**

Shayboniylar davlatining tashkil topishi va ijtimoiy tuzumi

Balxash ko'li va Sirdaryoning quyi oqimlaridan to Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan ulkan hudud XI asrdan boshlab Dashti qipchoq deb atala boshlandi. Qipchoqlar va boshqa turkiy qabilalar hukmronligi ostida bo'lgan bu hududni 1236-yilda Botuxon o'zining turk mug'ul qo'shinlari bilan egalladi. Tarixda Oltin O'rda deb atalgan bu davlat XIV asr boshlarida ikki qismga bo'linib ketadi. Sharqiy qismi Oq O'rda tarixiy manbalarda "O'zbeklar mamlakati" deb ham yuritilgan. XV asrning o'rtalariga kelib, Jo'jixonning beshinchi o'g'li Shayboniy urug'idan bo'lgan Abulxayrxon (1412-1468-y) ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga asos soladi. Bu davrda temuriylar hukmronlik qilayotgan Movarounnahrda o'zaro feodal urushlar nihoyatda kuchayib ketgan edi. Bundan foydalangan Abulxayrxon Sirdaryoning o'rta oqimidagi bir qancha shaharlarni Xorazmning bir qismini bosib olib, temuriylar davlatining yon qo'shnisi bo'lib qoladi. Abulxayrxonning vafotidan keyin inqirozga uchragan bu davlat XV asrning 80-yillarida Muhammad Shayboniyxon (1481-1510) tomonidan qayta tiklanadi.

Shayboniylar davlatining asoschisi Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon iste'dodli shoir va zamonasining o'qimishli, bilimdon kishilaridan biri edi. U taxtga o'tirmasdan oldin Buxoroda yashab, madrasada ta'lim oladi. Mashhur ilohiyot olimi Muhammad Xitoyi uning ustози bo'lgan. Tarixchi olimlardan Kamoliddin Binoiy va Muhammad Solih "Shayboniyнома" asarida Shayboniylar davlatining tarixi haqida hikoya qiladi. Movarounnahrdağı temuriylar saltanatini zaiflashib borayotganidan foydalangan Shayboniyxon 1497-yil Samarqandga yurish qilib, Buxoroni jangsiz egallagan. 1500-yil Samarqandni ham jangsiz qo'lga kiritgan. Samarqand hokimi Sulton Alining onasiga uylanadi. Asta-sekin qarshi va G'uzor shaharlari ham shayboniylar tomonidan bosib olinadi. Movarounnahrning ikki yirik shaharlarni Buxoro va Samarqandni jangsiz

Shayboniyxonning qo'liga o'tishi, uning nafaqat tajribali sarkarda balki yetuk davlat arbobi va aqlli siyosatchi ham ekanligini ko'rsatadi. 1501-yil Toshkentga yurish qilib ko'plab qal'alalarni qo'lga kiritadi. Shu yillarda Shayboniyxon qo'shinlari O'ratepa, Shosh, Shohruhiya, Sayramni egallaydi. 1503–1504-yillarda Xorazmga yurish qilib, 1505-yil Xorazmni bosib olgan. 1507-yil Xurosonni bosib oladi. Shayboniyxon zamondoshlari tomonidan «Xalifa ur-Rahmon» va «Imom az-zamon» deb ulug'langan. Shayboniyxon Movarounnahr va Xurosonni o'zbek sultonlariga "suyuorg'ol" sifatida taqsimlab bergan edi. Keyin Shayboniyxon Eronni zabt etishga intilgan jangda vafot etadi. Taxtga amakisi Ko'chkunchixon o'tiradi (1510-1529). Undan keyin uning o'g'li Abu Saidxon (1529-1533) o'tiradi.

Buxoro viloyati hukmdori Ubaydullaxon hokimiyatni qo'lga oladi. (1533-1539). Buxoro viloyati har tomonlama rivojlanadi. Poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko'chiriladi. Shundan so'ng Shayboniyxon davlati Buxoro xonligi deb atala boshladi. Shayboniylar davlatining so'nggi vakili Pirmuhammad ibn Sulaymon bo'lgan 1601-yil Pirmuhammaddan keyin Buxoro taxti Ashtarxoniy (Joniylar) qo'lga o'tadi.

Shayboniylar davlatida jamiyat hayotida, davlat boshqaruvida tutgan o'rniga, mavqeiga qarab quyidagi bir necha ijtimoiy tabaqalarni ajratish mumkin:

1. Oliy tabaqa, unga xon va uning yaqinlari, o'zbek sultonlari, yirik saroy amaldorlari (vaziri-vuzaro) kirgan. Davlat boshqaruvini ana shu ijtimoiy tabaqa amalga oshirgan.

2. Umuro-harbiy-ma'muriy amaldorlar, yirik sarkardalar, viloyat hokimlari, qo'shin va qabila boshliqlari. Mahalliy boshqaruv ular qo'lida bo'lgan;

3. Ulamolalar-yirik din peshvolari, shayxlar, xojalar. Ular nafaqat diniy balki dunyoviy boshqaruvda ham faol ishtirok etganlar.

4. Fuzalo. Jamiyat madaniy-ma'naviy hayotini aks ettirgan ijtimoiy tabaqa olimlar, shoirlar va boshqalar.

5. Raiyat. Jamiyatda asosiy ishlab chiqaruvchi, moddiy boylik yaratuvchi, xazinaga soliq to'lovchi ijtimoiy tabaqa bo'lib, ularga do'kondorlar, hunarmandlar, o'rtahol dehqonlar va chorvadorlar, yollanib ishlaydigan aholi kirgan.

6. Qullar. Qullar asosan harbiy talonchilik yurishlari paytida asirga tushirilgan, o'lja qilib olingan kishilar tashkil etgan. Ma'lum haq evaziga ular ozod bo'lishi mumkin bo'lgan. Qullar mehnatidan saroyda, yirik amaldorlar va ulamolarni xo'jaliklarida foydalanishgan.

Xonlik iqtisodining asosiy tarmoqlari qishloq xo‘jaligi (dehqonchilik va chorvachilik) savdo-sotiq va hunarmandchilik hisoblangan. Shayboniylar davrida yer egaligining asosiy tarmoqlari mavjud edi.

1. Mulki sultoni – davlatga qarashli yerlar.
2. Mulki xolis- xususiy shaxslarga tegishli.
3. Vaqf – diniy mahkamalarga, madrasa va masjidlarga, qabristonlarga qarashli yerlar.
4. Qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar.

Mehnat qiladigan kishilarning asosiy qismi kambag‘al qishloq aholisi bo‘lib, ular ijaraga olingan yerda dehqonchilik qilib kun kechirgan. Manbalarda keltirilishicha, bu davrda bug‘doyning 10 xil navi, arpa, jo‘xori, mosh, no‘xot, makkajo‘xori va sabzavot, poliz ekinlari, sholi, paxta yetishtirilgan.

Dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan hosildor yer maydonlari bepoyon yaylovlar xon va uning yaqinlari, yirik harbiy-ma‘muriy amaldorlarga qarashli edi. Bu davrda iqto, suyurg‘ol va tanho kabi xususiy yer egaligi keng tarqalgan. harbiy-ma‘muriy amaldorlarga yirik din peshvolariga davlat oldidagi xizmatlari uchun beriladigan bunday yerlarda asosan, yersiz kambag‘al dehqonlar yollanib ishlaganlar.

Chorvachilik qishloq-xo‘jaligida yetakchi tarmoq sifatida katta ahamiyatga ega edi.

Yirik va mayda tuyoqli hayvonlarni boqish, yilqichilik, tuyachilik ancha rivojlanadi. Yarim ko‘chmanchi hayot kechiruvchi o‘zbek qabilalari boshliqlari, yirik chorvador boylar, shuningdek, xon va saroy amaldorlari, harbiy-ma‘muriy mansabdorlar, din peshvolari tog‘ va tog‘ oldi tumanlarida, dashtlarda katta-katta yaylovlarga ega bo‘lganlar.

Shayboniylar davlatining markaziy va mahalliy boshqaruvi

Shayboniylar davlati o‘z mohiyatiga ko‘ra yirik davlat bo‘lib, oliy hokimiyat cheklanmaga huquqlarga ega bo‘lgan davlat boshlig‘i xon tomonidan boshqarilgan. Xonlikning siyosiy tizimida, boshqaruvida Amir Temur va temuriylar davrida qaror topgan tartib qoidalar, xususiyatlar bilan birga ko‘chmanchi o‘zbeklar davlatiga xos an‘analar ham mavjud edi. Davlat boshqaruvida islomiy shariat va odat qonun qoidalariga amal qilingan. Davlatni boshqarishda xon saroyidagi oliy darajadagi amaldorlardan tashkil topgan markaziy boshqaruv va viloyat hokimlari qo‘lidagi mahalliy boshqaruv asosiy o‘rin tutib, ular mamlakatning amaldagi haqiqiy egalari edilar.

Ular yordamida, bevosita ishtirokida xon ma'muriy boshqaruvni amalga oshirardi.

Markaziy boshqaruv davlatning ichki va tashqi hayotiga bog'liq barcha masalalarni hal qiladigan dargoh-saroy devonida jamlangan edi. Davlatning oliy darajali amaldorlari a'zo bo'lgan va odatda bosh vazir tomonidan boshqariladigan bu mahkama mamlakatning siyosiy, moliyaviy, harbiy tashkiliy va boshqa masalalarni ko'rib chiqar edi. Bu yerda qabul qilingan qarorlar xonning tasdiqi bilangina kuchga kirar va hayotga joriy etilardi.

Ko'kaldosh, otaliq, naqib, vaziri a'zam, vazir, devonbegi va boshqa oliy darajali saroy amaldorlari, no'yon, tug'begi, kutvol, dorug'a, qurchiboshi va boshqa harbiy amaldorlarning fikri va manfaatlari ham qarorlar qabul qilinishida katta ahamiyatga ega edi.

Davlat boshqaruvida harbiy-ma'muriy amaldorlardan tashqari, ulamolar, din peshvolari, shayxlar va xojalarning, aynan Shayx ul-islom, qozi kalon, Mufti kabi diniy mansab egalarining ham ta'siri katta bo'lgan. Bu davrda ayniqsa, Buxoro yaqinidagi Jo'ybor qishlog'idan chiqqan xojalarning mavqei juda oshib ketdi.

Mahalliy boshqaruv viloyat hokimlari qo'lida bo'lib, ular ham o'z boshqaruv tizimiga ega bo'lgan. Unga qo'shinga boshchilik qiladigan, shariat qonunlarining to'g'ri bajarilishini nazorat qiladigan, aholidan soliqlarni yig'ib oladigan amaldorlar (rais)lar kirgan. Viloyatlar o'z navbatida kichik ma'muriy birliklar: tuman, kasaba va mavzelarga bo'linib idora qilingan.

Mahalliy boshqaruvning eng quyi bo'g'ini oqsoqol (kalon taron) tomonidan boshqariladigan qishloq jamoalari edi.

Xonlik viloyat (ulus)ga bo'lib boshqarilgan. Manbalarda Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Xisor, Balx, Termiz, Karmana, Qorako'l, Miyonkol, Shosh, Turkiston, Farg'ona, O'ratepa, Marv kabi viloyatlardan tashkil topganligi ko'rsatilgan. Viloyat hokimlari xon tomonidan tayinlangan. Odatda bunday yuksak mavqega xonning yaqin va ishonchli kishilari, qarindoshlari, yirik qabila boshliqlari, harbiy yurishlarda o'zini ko'rsatgan o'zbek sultonlari muyassar bo'lgan. Xonlikni chegaralari doimiy bo'lmay tez-tez o'zgarib, kengayib yoki qisqarib turgan.

Shayboniylar davlatida harbiy qo'shin va soliq tizimi

Mamlakat siyosiy hayotida, davlat boshqaruvida yirik sarkardalar, qo'shin boshliqlarining o'rni katta edi. Ichki va tashqi xavfni bartaraf etishda, yangi yerlarni bosib olish uchun qilinadigan istilochilik

yurishlarida qo'shinlarning soni, harbiy tayyorgarligi, qo'shin boshliqlarining qo'mondonlik mahorati katta ahamiyat kasb etardi.

Shayboniylar qo'shini asosan otlik va piyoda askarlardan tashkil topgan. Qo'shin urushda o'q-yoy, uzun, nayza, qilich, gurzi, uzun dastali jang boltasi (tabarzin), changak kabi asosiy hujum qurollaridan foydalangan. Abdullaxon II davrida qo'shin xorijdan keltirilgan pilta miltiqlardan qurollantirilgan. Shayboniylar qo'shinida navkarlar himoya uchun qalqon (sipar)dan foydalanganlar, hamda temir simdan mayda qilib to'qilib, usti ipak va baxmal mato bilan yopilgan sovut-jovshan (forscha baxtar) yoki jiba (jeva) – temir yoki po'latdan ishlangan maxsus kiyim kiyib jang qilganlar. Abudllaxon II davrida Yevropadan keltirilgan jovshan (sovut) ham bo'lgan. Urushda yaroq va o'q o'tmasligi uchun otlar ustiga maxsus yopinchiq gejm (kejim) yopishgan.

Qo'shin tarkibida naftandozlar, manjaniqchilar va tosh otuvchilar ham bo'lib, ular shahar va mudofaa qo'rg'onlarini egallashda katta o'rin tutgan. XVI asrning 2-yarmidan boshlab Abdullaxon II qo'shinida chet ellardan keltirilgan kichik zambaraklar paydo bo'ladi.

Qo'shin tarkibi, uning jangovor saflanishi, jang qilish tartibi, Chingizxon va Amir Temur qo'shinlari harbiy tuzilishi, urush taktikasiga asoslangan bo'lib, unga Shayboniixon davrida ko'chmanchi o'zbeklarga xos bo'lgan bir qancha yangi jang usullari kiritildi. (Turlama).

Shayboniylar qo'shini asosan, qalb (kavl) deb ataluvchi markaziy qism, barong'or (o'ng qanot) va javong'or (so'l qanot) qismlaridan hamda xirovul (qo'shinning orqa qismi)dan tashkil topgan. Ularga xonning o'zi va tajribali o'zbek sarkardalari boshchilik qilgan.

Qo'shinning qanotlariga boshchilik qilgan sarkarda o'g'lon deb yuritilgan.

Qo'shini oldida manglay (avangard) deb ataluvchi harbiy qism yarim doira shaklida saf tortib borgan. Uning oldida esa tez harakatlanuvchi kichik jangovor qism - ilg'or bo'lgan. Shayboniylar qo'shinida umumiy qism oldida boruvchi «qoravul» deb atalgan maxsus qism, qo'shinining o'ng va so'l qismlari oldida boruvchi "kichik" g'o'l deb yuritilgan bo'linmalar va ortidan boruvchi maxsus yordamchi bo'linma-chanoh bo'lgan.

Qo'shin tarkibida tug'chi qism, ya'ni bayroq ostida ehtiyotda turuvchi (tug'ni qo'riqlovchi) 20-30 ming kishilik jangovor harbiy bo'linma hamda zabongilari – ya'ni dushman tomonidan yashirin ravishda "til" tutib keluvchi maxsus bo'linma va xabarchi-dushman to'g'risida umumiy ma'lumot keltiruvchi bo'linmalar ham bo'lgan.

Harbiy yurishlar paytida xon uchun rasmiy qabul marosimlari o'tkaziladigan maxsus joy-bargoh hozirlashgan.

Qo'shinda saralangan o'zbek navkarlaridan tuzilgan xonning qo'riqchilari ham katta rol o'ynagan.

Shayboniylar qo'shini ham Chingizxon va Amir Temur qo'shinlaridek 10 minglik korpuslar – tumanlarga bo'lingan. Unga Nuyon deb ataluvchi harbiy sarkarda boshchilik qilgan. Tumanlar o'z navbatida minglik, yuzlik, o'nliklarga bo'lingan.

Qo'shinni jangga hozirlash, ularning maoshini to'lash va boshqa tashkiliy ishlar bilan maxsus amaldor – tavochi shug'ullangan. Qo'shinni qurol-yarog' bilan ta'minlashga ma'sul bo'lgan amaldorlar –jevachi bo'lib, u xonning qurol-aslahalariga ham javobgar bo'lgan.

Harbiy amaldorlar va navkarlarga xazinadan beriladigan yillik maoshdan tashqari harbiy yurishlar paytida qo'lgan kiritiladigan o'ljadan ham berib turilgan.

Shayboniylar davrida 40 dan ortiq turli soliq va jarimalar mavjud bo'lgan. Soliq to'lovchi aholi fuqaro (raiyyat) deb yuritilgan va ulardan soliqlardan tashqari jarimalar ham undirib olingan.

Yerdan olinadigan asosiy soliq xiroj bo'lib, u ishlab chiqarilgan mahsulotning 5/1 miqdorida pul yoki mahsulot bilan olingan.

Zakot solig'i savdogarlar va chorvadorlardan olinib, uning hajmi 40/1 miqdorida bo'lgan.

Shahar aholisi hunarmandlar va do'kondorlar maxsus soliq – tamg'a to'laganlar. Yirik boylar va so'dxo'rlarga tegishli savdo rastasida do'konlarni ma'lum haq evaziga ijaraga olib, o'z mahsulotlarini sotganligi uchun taxti joy (tagjoy) deb ataluvchi soliq to'langan.

Boshqa dingan mansub savdogarlar o'z mahsulotlarining 5/1 qismini juzya solig'i tarzida to'laganlar.

Bu davrda yana ixrojot, tog'ar, ulufa-ko'nalg'a, begar, madadi lashkar, boj, tansuqot, tuxfa va boshqa soliqlar mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi butun o'rta asrlar davriga xos edi. Raiyyat soliqlarni to'lashdan tashqari turli ishlarga mudofaa inshootlarini, sug'orish tarmoqlarini tiklash kabilarga majburan jalb etilgan.

Shayboniylar davlatida huquq tizimi

Xonlikda jinoyatni aniqlovchi va jazo beruvchi asosiy mahkama islomiy shariat qonun-qoidalariga asoslanib tutuvchilar qozilik idoralari edi. Davlatdagi Oliy sudya qozi kalon bo'lib, viloyatlardagi jinoyatlarni jazolash viloyat qozilari qo'lida edi. Oliy jazo – o'lim hukmini faqat

xonning maxsus farmoni bilan amalga oshirganlar. Aybdorni aniqlashda shariat qonunlariga asosan ikki kishi guvohiligi yetarli bo'lgan. Viloyatlarda, tumanlarda jinoyat ishlarini viloyat hokimi nazoratida mahalliy qozilar olib borgan. Jinoyatchilarga gunohiga qarab o'lim jazosi, ma'lum muddatga (ko'pchilik hollarda umrbod) zindonga tashlash, tan jazosi berish (darra urish, barmoqlarini kesib tashlash), sazoyi qilish, qoziqqa o'tkazish kabi jazo choralari ham qo'llanilgan. Aybdorlarga jazo berish ko'pincha bozor oldida maxsus maydonda – aholi ko'z o'ngida amalga oshirilgan.

Harbiylar sodir etgan jinoyatlar va jazo turlari maxsus harbiy sudyalar qozi askar va mufti askar tomonidan ko'rib chiqilgan.

Mol-mulk bilan bog'liq jinoyatlar, o'g'irlik shariat qonunlariga rioya qilmaslik uchun beriladigan jazolar turi ko'pincha amaldorlarning hoxish-irodasiga bog'liq bo'lib, ma'lum jinoyatlar uchun aniq jazo oldindan belgilab qo'yilmagan.

Bu davrga oid hujjatlarda (Jo'ybor shayxlari arxivi, Samarqand qozilik idorasi hujjatlari) fuqarolik ishlari, huquqiy ma'muriy jinoyatlar, tartibbuzarliklar va ularga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralari haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Masalan: Buxorodagi Katta G'oziyon va kichik G'oziyon madrasasiga tegishli hujjatlarda (1535) madrasada o'qish va hujrada yashash tartib-qoidalarini buzgan talabalarga quyidagi jazo choralari ko'rilishi qayd etilgan. Agar talaba darslarga bir oy sababsiz qatnashmasa uni hujradan mahrum qilishgan, agar talaba dangasaligi tufayli darslarni yaxshi o'zlashtira olmasa yoki bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'ta olmasa unga nafaqa to'lash bekor qilinib, hujara tortib olingan.

Ro'zbexon Isfaxoniyning "Mehmonnomai Buxoro", "Suluk al-muluk" «Podsholarning xulq atvorlari» asari (15 bobdan iborat): savollarga javob tariqasida yozilgan bo'lib, davlat ishlarida, musulmonlar bilan o'zaro munosabatlarda, dorug'alar tayyorlashda, xiroj, ushr, juzya kabi soliqlarni yig'ib olishda nimalarga asoslanish lozimligi va Shayboniyxonlar davlati haqidagi ma'lumotlar yoritib berilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Shayboniylar dinasitiyasi hukmronligi davrida siyosiy va ijtimoiy tuzum qanday bo'lgan?
2. Shayboniyxon qanday islohotlarni amalga oshirgan?
3. Shayboniyxon davlatining huquqiy an'analari qanday tashkil qilingan?
4. Shayboniylar davlatining markaziy va mahalliy boshqaruvi qanday amalga oshirilgan?
5. Taxt joy (tag joy) solig'i kimlardan undirilgan?
6. Harbiylar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni kim ko'rib chiqqan?

Adabiyotlar:

1. A.Saidov., J.Toshqulov., O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. Toshkent. IIV Akademiyasi. 1995.
2. Z.Muqimov. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. Zarafshon. Samarqand 1998-y.
3. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Akademiya Toshkent. 2000-y., A.Sagdullayev va b. I-qism.
4. Мухаммад Солиҳ. Shayboniynoma T., G'.G'ulom 1989-y.
5. Р.Исфаконий. Мехмонномаи Бухоро. М., Наука. 1976 й.
6. В.Аhmedov. O'zbek ulusi. T., Meros 1991-y.
7. Z.Muqimov O'zbekiston davlat va huquq tarifi. T. Adolat. 2004-yil.
8. M.Hamidova. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. T. TDYUI. 2004.

Xonliklarning tashkil topishi. (XVI-XIX asrning I yarmi)

Reja:

1. Buxoro xonligining ijtimoiy tuzumi va davlat boshqaruvi.
2. Buxoro amirligining markaziy va mahalliy boshqaruvi.
3. Buxoro amirligining sud ishlari va huquq manbalari.
4. Xiva xonligi davlati va huquqi.
5. Qo'qon xonligi davlati va huquqi.

XVI asrga kelib, Movarounnahr davlatchilik va huquqi tarixida Abdulxayrxon avlodlari bo'lgan dasht o'zbeklari davlatining tashkil topishi bilan xarakterlanadi.

1558-yilda Abdulxayrxonning avlodlaridan eng yoshi kattasi Pirmuhammad "xonlar xoni" etib saylangan.

Shayboniy sultonlar ichida katta mavqega ega bo'lgan Ubaydullaxon oliy hokimiyatni o'z qo'liga olishga erishgach, (1533–1539-y). Movarounnahr ayniqsa, Buxoro viloyati har tomonlama rivojlangan. Xonlikning poytaxti Samarqanddan Buxoro shahriga ko'chirilgan. Shundan so'ng, Shayboniy davlati rasman Buxoro xonligi deb atala boshlangan.

Lekin Ubaydullaxonning o'limidan so'ng, o'zbek sultonlari orasidagi kelishmovchiliklar yana kuchayib ketdi. Buxoroda Abdulazizxon, Samarqandda Abdulatifxon va Toshkent, Turkistonda Navro'z Ahmadxon hukmronlik qila boshlagan.

Shayboniy sultonlarning yagona davlatga birlashtirishda Abdulla ibn Iskandarxonning roli katta bo'lgan. Buxoro xonligi taxtida o'tirgan tog'asi Pirmuhammad yordamida Miyonkol, Kesh, Buxoro va Nasafni egallangan.

1560-yil otasi Iskandar sultonni Buxoroga olib kelib butun o'zbeklarning Oliy xoni deb e'lon qiladi. Amalda esa hokimiyatni Abdullaxonning o'zi boshqargan.

Keyinchalik Abdullaxonning vafotidan so'ng, Markaziy davlatning zaiflashuvi natijasida Xorazm va Xuroson qo'ldan ketadi.

Farg'ona vodiysini, Toshkentni, Samarqand va Zarafshon vohasini katta qismini qozoq xoni Tavakkalxon bosib oladi. 1601-yilda Pirmuhammadning o'limidan keyin Buxoro taxti yangi sulola Ashtarxoniylar (Joniiylar) qo'liga o'tgan.

"Ashtarxoniy" so'zi sulola asoschisi Jonibek sulton nomidan olingan.

Xonlikning asosiy boyligi yer edi. Yer egaligining quyidagi turlari mavjud bo'lgan:

1. Mulkiy sultoniylar, amlak yerlar – bu yerlardan olinadigan daromad xon va uning xonadoniga tegishli edi.
2. Xususiy yerlar - ma'muriy va diniy amaldorlarga tegishli bo'lgan va suyurg'ol, iqto', tanho shaklidagi xususiy yerlar.
3. Vaqf yerlari – diniy tashkilotlarga tegishli yerlar.

Ashtarxoniylar davrida sug'oriladigan yerlarda O'rta Osiyo mintaqasi uchun an'anaviy bo'lgan bug'doy, arpa, jo'xori, loviya, mosh, sholi, paxta, sabzavot va poliz ekinlari dasht va tog' oldi lalmi yerlarida bug'doy, arpa, kunjut, tarvuz, qovun va boshqalar ekilib dehqonchilik qilgan.

Bu davrda Shayboniylar davrlaridek ijtimoiy tabaqalar saqlanib qolgan.

1. Oliy tabaqa- xon va yirik saroy amaldorlari.
2. Ulamolar va boshqa diniy amaldorlar (ayniqsa Jo'ybor xo'jalari).
3. Raiyat – soliq to'lovchilar.
4. Qullar. (Saroy xizmatidagi qullar, xonning shaxsiy qo'riqchilari).

Ashtarxoniylar davrida xonlikning hududi qisqarib ketadi. Xonlik tarkibiga oltita viloyat Buxoro, Samarqand, Sagaraj, O'ratepa, Shahrisabz va G'uzor kirgan. Keyinchalik Xisor, Toshkent, Farg'ona, Turkiston, Balx viloyatlari bo'ysundirilgan. Ammo Hirot va Xorazm xonlik tarkibidan chiqib ketgan.

Buxoro xonligida xon rasman oliy hokimiyat boshlig'i bo'lib, davlatning ichki va tashqi siyosatiga bog'liq barcha masalalar uning ixtiyori bilan hal qilinardi. Barcha oliy farmonlar xon tomonidan joriy qilinar, uning nomidan tangalar zarb qilinar, xonning nomi Xutbada qo'shib o'qilardi.

Davlat boshqaruvi ikki bosqichli bo'lib – markaziy va mahalliy boshqaruv tizimiga ega edi.

Markaziy boshqaruv xon saroyi amaldorlari qo'lida bo'lib, ashtarxoniylar davrida "otaliq" mansabiga ega shaxs katta mavqega ega edi. Bu davrda saroy amaldorlari huddi shayboniylar davridagidek edi. O'taliqdan tashqari devonbegi, parvonachi, mushrif, xazinachi va boshqa saroy amaldorlari davlat boshqaruvida katta ahamiyatga ega edilar.

Jumladan, xondan keyingi O'taliq mansabi xonning murabbiysi, maslahatchisi, birinchi vazir lavozimi hisoblangan. Keyinchalik unga Zarafshon daryosi suvini boshqarish vakolati yuklatilgan.

Devonbegi – moliya va soliq ishlarini yuritish, unga rahbarlik qilish, tashqi aloqa masalalari bilan shug'ullangan.

Bundan tashqari parvonachi, dodhox, ko'kaldosh katta inoq, qushbegi kabi mansabdorlar ham bo'lgan.

Xonlik tarkibiga kiruvchi Balx o'zi xonlik deb atalib, uni taxt vorisi boshqarar edi, u dastlab "navvab" o'rinbosar yoki xon keyinchalik "kichik xon" deb atalgan. U o'zining Devoni amorat, amlok, tavadji, moliya devonlaridan tashqari, unga yarim qaram bo'lgan Badaxshon devonlari kabi markaziy boshqaruv devonlariga ega bo'lgan.

Ashtarxoniylar davrida harbiy va ma'muriy amaldorlar katta huquqlarga ega edi. Ular bilan bir qatorda yirik din peshvolari xojalar va diniy mansab egalari – Shayx ulislom, qozi kalon, sadr va boshqalarning ahamiyati ham katta bo'lgan. Davlat boshqaruvida Jo'ybor hojalarining mavqei yuqori bo'lib, asl diniy mansabdorlar ular ichidan tayinlanar edi.

Bu davrda qo'shin uncha yaxshi tashkil qilinmaganligini ko'ramiz.

Xonlikka xos bo'lgan xiroj, zakot, ixrojt, boj kabi soliqlardan tashqari juda ko'plab soliqlar bor edi. Turli soliqlardan tashqari qishloq va shahar aholisi kanallar qazish, ariqlarni tozalash, qurilish ishlari kabi majburiyatlarni ham bajarar edi. Mazkur tadbirlar uchun sarflanadigan xarajatlar aholidan turli yo'llar bilan undirib olingan. Fuqaroligi bo'lmagan savdogorlardan boj solig'i olingan. Uning miqdori siyosiy munosabatlarga bog'liq edi.

Buxoro amirligi

Ashtarxoniylar sulolasining so'nggi vakillaridan Abdulfayzxon o'limidan so'ng, Buxoro taxtini egallagan Muhammad Rahim mang'itlar (1756-1759) sulolasi hukmronligini boshlab berdi. Uning vafotidan so'ng, Buxoro taxtiga tog'asi Donyolbiy mang'it (1759-1784) o'tirgan, so'ngra u hokimiyatni o'g'li Shohmurodga (1785-y) topshirgan.

Shohmurod Mang'itlar sulolasi ichida birinchi bo'lib, "amir" unvoni bilan davlatni boshqaradi. Shundan so'ng bu davlat Buxoro amirligi deb atala boshladi.

Buxoro amirligida ham yer egaligining quyidagi turlari mavjud bo'lgan:

1. Mulki Sultoniylar yoki amloq yerlar, amir, uning yaqinlariga, davlatga tegishli yerlar (amloqi podshohiy, amloqi sultoniylar). Bunday yerlar dehqonlarga ijaraga berilar edi. Eng ko'p soliq xazinaga shu yerdan tushardi. Soliq yig'uvchilar maxsus ro'yxat bilan yetishtirilgan hosilning bir qismini mahsulot hisobidan olardi.

Soliq to'lash miqdori har 10 botmon hosildan uch botmonni tashkil qilardi.

2. Xususiy yer egaligi "mulki hur" yoki "mulki xolis" yerlardan iborat bo'lgan. Bunday yerlar tanho, suyurg'ol, iqto' tariqasida berilgan.

Tanho – davlat oldidagi xizmatlari uchun harbiylarga berilgan yer mulklari, ular meros tariqasida o'tmagan, suyurg'ol yerlar esa harbiy boshliqlar, davlat arboblari, ulamolarga xizmatlari evaziga berilgan in'om, suyurg'ol egasi moliyaviy va ma'muriy imtiyozlarga ega bo'lganlar, iqto' yerlari ham harbiy-ma'muriy amaldorlarga berilgan. Ulardan olinadigan daromadning bir qismi davlat xazinasiga topshirilgan.

3. Yerning uchinchi ko'rinishi vaqf yerlari, masjid, madrasalar, qabristonlar va boshqa diniy idoralarga tegishli yer mulklaridan iborat.

4. Qishloq jamoa yerlariga tegishli yerlar. qishloq boylari egaligidagi yerlar bo'lib, unda qishloq aholisi ijara asosida dehqonchilik qilishgan.

Mang'itlar sulolasi davrida ham eng oliy tabaqa Amir va saroy amaldorlari (vazir-vuzaro) ijtimoiy jihatdan eng katta imtiyozlarga ega bo'lgan tabaqa edi.

Davlat boshqaruvida ishtirok etadigan harbiy - ma'muriy amaldorlar (umaro) ham nufuzli ijtimoiy tabaqa sanalgan.

Alohida ajralib turadigan oqsuyaklar o'zlaridan barcha aholidan ustun qo'yadigan, Muhammad Payg'ambar avlodidan hisoblangan saidlar hamda hojalar edi. Ular o'z avlodlari shajarasiga ega bo'lishlari shart edi. Soliq to'lovchi aholi, jamiyatdagi barcha moddiy boyliklarni yaratuvchi ijtimoiy tabaqa raiyat edi. Bundan tashqari Buxoro amirligida qulchilik ham saqlanib qolgan edi. Qullar asosan rus, eron millatlarga mansub bo'lib, ular harbiy talonchilik yurishi paytida qo'lga olinardi. Turkman hamda qozoqlar olib kelib ularni Buxoro bozorida sotishardi. Manbalarda har biri 40 tagacha qulga egalik qiluvchi badavlat buxoroliklar borligi haqida ma'lumotlar bor.

Shuningdek, manbalarda keltirilishicha, amirlikning barcha aholisi quyidagi tabaqalarga bo'lingan:

1. Oqsuyaklar. Ularga Muhammad payg'ambar avlodlari hisoblangan saidlar hamda hojalar kirgan.
2. O'z urug'iga ega barcha atoqli o'zbek urug'dor deb atalgan.
3. Tojiklar, forslarga mansub bo'lgan shogirpesha.
4. Madrasani tugatgan yetarli bilimga ega bo'lgan o'qimishli kishilar – mullalar.

Bu tabaqalarning barchasi o'z navbatida sipoyi, ya'ni davlat xizmatida bo'lgan amaldorlarga va fuqarolarga bo'lingan.

Buxoro amirligida davlat mutlaq qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga ega bo'lgan amir tomonidan boshqarilar edi. Davlat hayotiga tegishli siyosiy, iqtisodiy, diniy va boshqa barcha masalalar Buxorodagi bosh qarorgoh Arkda hal etilgan. Arkda amir va uning oilasidan tashqari

qushbegi, shig'ovul, to'pchiboshi, mirzaboshi va ba'zi saroy amaldorlari ularning oilalari, xizmatkorlari yashaganlar. Davlat ahamiyatiga molik ishlarni hal qilish uchun vaqti vaqti bilan Davlat kengashi chaqirilib turilgan. Unga beshtadan yigirmatagacha yuqori amaldorlar a'zo bo'lganlar.

Davlat boshqaruvi ikki bo'g'inli markaziy va mahalliy boshqaruvdan iborat bo'lgan. Markaziy boshqaruvni asosan saroy amaldorlari amalga oshirishgan. Amirdan keyingi mansabdor qushbegi lavozimining mavqei juda katta bo'lgan. Amirlik poytaxti Buxoro shahrini shaxsan qushbегining o'zi boshqargan. U davlat doirasi bo'yicha bosh vazir hisoblangan. Davlat boshqaruvida devonbegi, parvonachi, otaliq, dodxox, xudoychi, mirzaboshi va boshqa saroy amaldorlari, Shayxulislom, qozikalon kabi diniy rahbarlarning ham mavqei katta bo'lgan.

Mahalliy boshqaruv esa viloyatlarga bo'linib amalga oshirilgan. Viloyatlarda boshqaruvni amir tomonidan tayinlangan (odatda ular mang'it urug'idan bo'lganlar) beklar tomonidan boshqarilgan. Ular o'z boshqaruv tizimiga ega bo'lib, mirzaboshi, soliq yig'uvchi amaldorlar (tanobchi, zakotchi), qozi, rais kabi diniy mansabdorlar, qishloq oqsoqollari yordamida beklidlarni idora qilganlar.

Turli davrlarda amirlikning ma'muriy hududi turlicha bo'lgan. Eng kengaygan davri Amir Nasrullo hukmronligi davri bo'lib, unda amirlik tarkibida 30ta beklilik Qarshi, G'uzor, Chiroqchi, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Boysun, Denov, Sherobod, Xisor, Qorategin, Darvoza, Baljuvon, Shuxkon, Rushon, Qo'lob, Qo'rg'ontepa, Kobadiyon, Kaloor, Kerki, Burdalik, Qalakli, Xorazm, Chorjo'y, Karmana, Ziyovuddin, Nurota, Xatirchi, Urgut va Samarqand edi. Bekliklar kichik hududiy bo'linma amlodkorliklarga bo'lingan bo'lib, ularni amlodkor boshqargan. Eng qo'yi bo'g'in qishloq janbarlari bo'lib, ular oqsoqol tomonidan boshqarilgan.

Buxoro amirligi harbiy qo'shini ham otliq va piyoda jangchilardan iborat bo'lib, amirlikning harbiy qudrati Amir Nasrullo davrida ancha kuchayadi. Bu davrda Buxoroda doimiy armiya Sarboz (sipoh) qo'shin tashkil etildi. Manbalarda keltirilishicha ularning soni 40 mingga yaqin bo'lgan. Ular asosan qilich, nayza o'q-yoydan iborat qurollar bilan qurollangan edi.

Oliy harbiy amaldorlar "sarkarda" unvoniga ega bo'lib, davlat xazinasidan maosh olib turishgan. Amirdan keyin turuvchi eng yuqori harbiy amaldor "dodxox" (qo'shin boshlig'i) turardi. Unga qo'shinni boshqarishda qo'rg'onbegi, to'qsabo, mingboshi kabi oliy va ponsadboshi,

churaboshi, yuzboshi, dahboshi kabi harbiy bo'linma boshliqlari yordam berishgan.

Sud ishlari.

Buxoro amirligida. Islom davlatlariga xos jinoyat va jazolar mavjud bo'lgan. Ammo bulardan tashqari, Buxoroda o'ziga jazoning va jinoyatning o'ziga xos turlari va ijro etish usullari bo'lgan. Sayyoh Yefremovning xabar berishicha, XVIII asrning 20-yillarida Buxoroda o'g'rilik uchun erkak kishi osib o'ldirilgan, Xotin kishi ko'kragigacha ko'milib, toshbo'ron qilib o'ldirilgan. Agar odam o'ldirish yoki tanga jarohat yetkazish jinoyati sodir etilgan bo'lsa, otaliq aybdorni o'ldirilgan odamning qarindoshlariga tutib bergan. Ular esa aybdorni musulmon huquqidagi «tishga tish» qoidasiga ko'ra qilgan bo'lsa, yarador, o'ldirilgan bo'lsa, jinoyatchini o'ldirishgan. Agar er xotinini boshqa shaxs bilan jinsiy aloqa qilayotganini o'z ko'zi bilan ko'rib, uni guvohlantirsa, er ikkalasini ham o'ldirib, ularning qarindoshlariga xabar bergan. Ular esa, o'likni olib ko'mishgan, shu bilan hech qanday sud ishi yuritilmagan. Ko'rinib turibdiki, bu og'ir jinoyatlar deb hisoblanib, ular sudsiz, tergovsiz ijro etilgan. Buxoro shahri katta-kichik 366 kvartalga bo'lingan. Ularning har biri o'z machitlariga ega bo'lgan mavzega bo'linib, oqsoqol tomonidan boshqarilgan, odatda ular kekxa savdogarlardan saylanadi. Shuning uchun ham shaharliklar uning odilligiga ko'proq ishonishgan.

Alohida hollarda amir biror-bir jinoyatni sodir etmaslik uchun qo'rquv hissini uyg'otmoqchi bo'lsa, Mir Arab madrasasi oldidagi minoradan uloqtirish yo'li bilan qatl qilishga hukm qilingan. Bu jazo odam o'ldirganlik va yaqin qarindoshlar bilan jinsiy aloqa qilganlik uchun ham qo'llanilgan. Kam ahamiyatli jinoyatlar uchun aybdorning tovoniga yoki ko'kragiga urish bilan chegaralanilgan. Buxoroda kaltak bilan jazolashning keng qo'llanilishini bu yerga 1836-yil elchi bo'lib kelgan P.I.Vitkevich ham ta'kidlab o'tganidek: "Buxoroda umuman yo'g'on kaltak bilan jazolash, shu darajadagi, mahkumning suyaklari sinib ketadi yoki o'lib qoladi".

P.I.Vitkevich devordan itarib yuborish jazosining ham bo'lganligini yozib, uni o'z ko'zi bilan ko'rganligini ta'kidlagan. Buxoro shahrining devorlari mustahkam, darvozadan kirish joyida, devor ustida maydoncha bo'lib, ana shu yerdan uning ko'zi oldida ikki kishi o'g'rilik qilganlari uchun itarib yuborilganlarini yozib qoldirgan.

Ulardan birining qo'li sinib, ikkinchisining esa badanlari momataloq bo'lib ketgan. Jinoyat va jazo masalalarida mahalliy hukmdorlar faqatgina

shariat ko'rsatmalarigagina amal qilib qolmasdan, o'zlari ma'qul deb hisoblagan jazolarga ham, uni ijro etish usullariga ham hukm qilganlar.

Jazoning asosiy maqsadi : qoplash, o'ch olish, xun undirish, qo'rqitishdan iborat bo'lgan.

Amir Shohmurod islohotlari.

Buxoro amirligida mang'itlar sulolasidan Amir Ma'sum al-Ma'ruf, ibn Doniyolbiy otaliq Shohmurodbiy (1785-1800) davlat hokimiyatini mustahkamlash bo'yicha qator islohotlar o'tkazgan. U o'tkazgan islohotlar uning topshirig'iga binoan 1789-yilda Mirzo Bodi devon tomonidan yozilgan "Majami al-arqam" (Raqamlar va ruqumlar) asarida keltirilgan.

Asar tuzilishiga ko'ra, 5 bob va mansabdorlar haqidagi ilovadan iborat. Unda davlat devonida xizmatni qanday o'tash, kirimchiqim daftarlari, davlatning ma'muriy xo'jalik bo'linishi tamoyillari yoritilgan. Ma'lumki, davlat kirim-chiqimlari xazina boyliklari miqdorini sir tutish va uni o'zgartirish, soxtalashtirishning oldini olish uchun faqat katta mirzolarigagina ma'lum bo'lgan devon daftari raqumlar va siyoqat (alohida raqamlar) bilan yozilgan.

Asarning ikkinchi-uchinchi boblari ana shunday yozuv va ularning sirlariga bag'ishlangan. Beshinchi bobi-astronomiya. Arifmetik harakatlar jadvalidan iborat, to'rtinchi bobi esa arifmetika, geometriya, algebra hisob-kitoblari va qoidalariga bag'ishlangan

Mansablar haqidagi ilovada esa, Buxoro amirligidagi 135 dan ortiq katta va kichik mansablar, vazifalar va ularning vakolatlari haqida hikoya qilinadi.

Asarda davlat boshliqlarining birinchi navbatdagi vazifalari armiya ta'minoti ekanligini ta'kidlab, uning esa yig'im tushumlariga bog'liq ekanligini ko'rsatib o'tilgan. Soliq yig'uvchilar oldiga yuksak talablar qo'yilgan. Soliq yig'uvchi soliqchilar, to'la hech qanday aldovlarsiz, qonunlarni buzmasdan o'z burchlarini bajarishlari, barcha xalqlarda tartib saqlashlari, ishni oxirigacha olib borishi, xazina egaligidagi mulkni, kishilarning huquqlarini qo'riqlashi lozimligi ko'rsatilgan.

Shuningdek asarda Buxorodagi mulk egaligi shakllari bo'yicha ham ma'lumotlar uchraydi.

Mamlakatning pul va mablag'larini 4ta xazinaga bo'linishi, ya'ni qaysi manbadan kelishiga qarab 4ga bo'lingan, buni Buxoro amirligi davlat budjetining 4-moddasi deb atash mumkin:

1-zakat, ushr va Xums (harbiy o'ljaning kambag'allar uchun ajratilgan 5/1 qismi) soliqlaridan keladigan mablag'lar to'plangan.

2-xiroj, juzya va musulmon bo'lmagan savdogorlardan olinadigan soliqlardan tushadigan mablag'lar.

3. Egasiz mulklardan xazinaga tushadigan mablag'lar (ular kambag'allar, yetimlar bemorlarga sarflangan).

4. Topib olingan mulklardan tushadigan mablag'lar (u zakotdan foydalanuvchilarga berilgan)

Asarda Buxoro amirligining ma'muriy bo'linishi haqida ma'lumotlar berilgan, unga ko'ra davlat, viloyatlar, tumanlar, xazora, yarim xazora, obxor, norma, mazralarga bo'linganligi, bir qator ariq bilan sug'oriladigan 100 ming tanob yer bir tumanni tashkil qilishi ularning 12ta nomi ko'rsatilgan, bir katta ariq bilan sug'oriladigan 50 ming tanob yer xazora, 25 tanob yer esa yarim (nim) xazora, 10, 15 ming tanob sug'oriladigan yer esa daryoning obkori, 400 tanob yerli aholi yashaydigan qishloq qoriya, 300 tanob va undan kam yeri bo'lgan aholi yashaydigan joy mazra'a deb atalgan.

Shohmurod birinchi navbatda, o'z islohotlarida soliqlarni tartibga keltirishga qaratgan. U butun Buxoro shahri aholisiga Tarxon yorlig'i berib, xalqni harbiy soliqdan boshqa barcha soliqlardan ozod qilgan. Avvallari joriy qilingan shariatga zid bo'lgan yorg'u, boj, tarx, tushmol, yasoq va boshqa soliqlarni bekor qilgan.

Shohmurod o'tkazgan sud islohotlariga ko'ra:

«Har bir musulmon, hatto qul ham qoziga o'z shikoyati bilan kelishga va o'zining xo'jayinining g'ayriqonuniy ish qilayotgan bo'lsa, uni javobgarlikka tortishga haqli qilib qo'ygan» edi. Bundan tashqari qirq a'lam (qonunshunoslar)dan iborat. Oliy sud (qozixona) palatasini tuzgan. Uning a'zolari shariat huquqi asosida Shohmurodning o'zi tuzib bergan to'plamni qo'llariga ushlab olib, arz va shikoyatlarni hal etishda mana shu risolaga qarab ish ko'rishgan. Ish ko'rilayotganda amirning o'zi bosh bo'lib turgan. Bundan tashqari ish ko'rilayotganda da'vogarning shaxsan o'zi ishtirok etishi talab qilingan. Tumanlar va kattaroq qishloqlarga (kasabalarga) ham qozilar tayinlangan. Amir Shohmurod davrida Buxoro amirligida yangi sud tizimi: kasabalar, tumanlar, viloyatlar qozilari, Bosh qozi hamda "qirq a'lam" sudi vujudga kelib, eng oliy qozi Amirning o'zi bo'lgan.

Amir Shohmurod bundan tashqari obodonchilik, ayniqsa, Samarqandni qayta tiklashga, unga boshqa joylardan ko'plab aholini ko'chirib kelishi ham katta ahamiyatga ega.

Temuriylar davlati tarkibiga kirgan Xorazm vohasi 1505-yilda Shayboniyxon tomonidan bosib olingan bo'lsa, keyinchalik, 1510-1512-

yillarda esa Eron shohi davlati tarkibiga kirgan. Xorazmning obro'li shayxlaridan bo'lgan Shayx ota avlodlari Dashti qipchoqlik o'zbeklar yo'l boshchisi Elbarsxonga Xorazm taxtini taklif qiladilar. Elbarsxon Xorazm poytaxti bo'lgan Urganch shahrini egallab, mustaqil xonlikka asos solgan.

1593-yilda Xivadagi o'zaro urushlardan foydalangan Abdullaxon II Xiva xonligini bosib olgan. 1598-yil Xiva xonligi yana mustaqillikka erishadi. Buxoro xoni, Eron shohi tomonidan bosib olingan Xiva xonligida 1763-yildan hokimiyat o'zbek urug'laridan bo'lgan qo'ng'irot sulolasi qo'lga o'tgan.

Ma'lumotlarga qaraganda, Urganchda yetti yil ichida to'rt marotaba xon almashganligini ko'ramiz. Bu yerda o'zbek urug' boshliqlarining ijtimoiy siyosiy hokimiyatda ta'siri kuchli bo'lib, o'larni asosan qiyot-qo'ng'irot, uyg'ur-nayman, qang'li-qipchoq kabi qabila va urug'larga birlashgan. 4 guruhga asosiy qabilalarga inoqlar rahbarlik qilib ular hatto xonlarga ham bo'ysunishmagan.

XIX asrning boshlariga kelib inoqlar faqat amalda emas balki, rasman ham Xiva taxtini egallashgan. Eltuzarxon Inoq Xiva taxtiga o'tirgan qo'ng'irotlar sulolasining birinchi xoni hisoblanadi. Uning vorisi Muhammad Rahim I Xiva xonligini birlashtirishni nihoyasiga yetkazgan.

Xiva xonligida ham o'sha davrga xos bo'lgan yer egaliklari mavjud bo'lib, ular davlat yerlari, vaqf yer egaligi va xususiy yer mulklaridan iborat bo'lgan.

Yerning katta qismi davlat yerlaridan iborat bo'lib, amlak, "mamlakat" yoki "podsholik yerlari" deb atalgan. Bunday yerlar dehqonlarga bo'lak qilib bo'lib berilgan, dehqonlar u yerda ishlab davlatga soliq to'lab turishgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, XVII-XVIII asrlarda feodallar yerlarini tortiq sifatida emas, xususiy mulk sifatida sotib olish haqida bitimlar tuzilgan. Bunday yerlar "mulki hurri xolis" deb atalib, barcha soliqlardan ozod hisoblangan. Bitim davlat nomidan tuzilganligi uchun qozi huzurida shaxsan xonning o'zi ishtirok etgan va yerni sotib olinganligi haqida vasiqalar berilgan.

"Tanho" yerlari xonga yoki davlatga ko'rsatilgan xizmatlari evaziga berilgan. Buni merosga qoldirish mumkin bo'lmagan.

Vaqf yerlari ham keng tarqalgan bo'lib, sug'oriladigan va aholi yashaydigan yerlarning 40%ga yaqinini tashkil etgan. Vaqf yerlari ishlab foydalanish uchun ijaraga berilgan. Vaqfning nomlanishiga, turlariga

kelsak, soliqlardan ozod etilgan vaqf-oq vaqf, soliq olinadigan yer- qora vaqflarga bo'lingan.

Xiva xonligida shartli yer egaligining o'ziga xos bir turi mavjud bo'lib u "otliq" deb atalgan, bu esa boshqa xonliklarda uchramaydi. Xiva xonligida foydalanish uchun otliqlarga 30-50 tanob yer joriy etilgan. Otliq yerini olgan yer egasi xon talabi bilan bir otliq askarni qurollantirib xon huzuriga yuborgan.

Yerlarni ishlovchi asosan dehqonlar bo'lib, ular davlat dehqonlari, xususiy yerlardagi dehqonlar, vaqf yerlaridagi dehqonlar, yersiz dehqonlarga bo'lingan.

Xiva xonligida qulchilik mavjud bo'lgan, ulardan uy-ro'zg'or ishlaridagina emas, balki dehqonchilikda ham foydalanganlar.

Xonlik iqtisodini asosan dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq tashkil etib, ko'plab kanallar va ariqlar muhim o'rin tutgan. Ulardan 11 tasi davlat ahamiyatiga ega edi.

Xonlikning ijtimoiy hayotida yakka xonlikka asoslangan o'rta asr musulmon davlatlarida bo'lganidek, xon va uning a'yonlari katta ijtimoiy huquqlarga ega edi.

Saroy amaldorlari, markaziy va mahalliy boshqaruvning yuqori pog'onalarini egallab turgan ijtimoiy tabaqalar, harbiy ma'muriy amaldorlar va mansab egalari katta huquq va imtiyozlarga ega ijtimoiy tabaqa edi.

Daxlsiz huquqlarga, aholining barcha ijtimoiy tabaqalariga katta ta'sir ko'rsatish kuchiga ega bo'lgan oqsuyak tabaqa mahalliy shayxlar avlodlari xonlikdagi eng nufuzli ijtimoiy tabaqa hisoblanardi. Katta miqdordagi xususiy yer mulklarga egalik qilishdan tashqari ular odatda vaqf yerlaridan keladigan daromadlarning nazorat qilishda ham ko'pgina imtiyozlarga ega edilar. Ularning huquqlari va imtiyozlari har qanday vaqt va sharoitda ham saqlanib qolinardi.

Markaziy va mahalliy boshqaruv

Xiva xonligi xon tomonidan saroy amaldorlari yordamida boshqariladigan, yakka hokimlikka asoslangan davlat bo'lib, xonlikdagi eng yuqori unvon xon bo'lib, u siyosiy, harbiy va diniy hokimiyatga ega edi. Xon va boshqa amaldorlarning mansabi bu xonlikda meros tariqasida avloddan avlodga o'tgan.

Xon davlatni boshqarishda harbiy ma'muriy, harbiy va diniy amaldorlarga tayangan, xonlikdagi mansab va unvonlar 3 toifaga bo'lingan.

Xondan keyingi eng katta nufuzga inoq, otaliq va biylar unvonlarga ega bo'lgan. Ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo'lib, davlatning siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, harbiy, hayotini nazorat qilgan.

Inoq – vazirlik, xondan keyingi birinchi mansabdor bo'lgan. Davlat hokimiyatining markazlashuvi va kuchayishi natijasida XIX asrning birinchi yarmidan boshlab inoqlarning ahamiyati pasayib, qushbегining ta'siri orta boradi. Qushbegi asosan, xonning barcha yorliq va farmonlari uchun javobgar, o'troq aholiga boshchilik qilish, soliqlarni davlat xazinasiga tushib turishi ustidan nazorat olib borgan. Mehtar esa xonlikning moliya ishlari hamda uning Shimoldagi o'troq aholisini boshqarishga rahbarlik qilgan.

Xonlikning siyosiy iqtisodiy hayotida ulardan tashqari naqib, amir-ul-umaro, mehtar, qushbegi, beklarbegi, devonbegi, parvonachi, dasturxonchi, eshik og'asi, shotir, yasavulboshi, udaychi, mingboshi, mirobboshi va boshqa mansabdorlar ham muhim o'rin tutgan. Diniy hokimiyat Shayxulislom boshliq din peshvolari qo'lida bo'lgan. Mahalliy shayxlar Said ota Shayx avlodlari, Darvish shayxlari davlatdagi nufuzli diniy amaldorlar sirasiga kirar, barcha diniy mansablar ularning vakillariga berilar edi.

Barcha farmonlar, davlat ishlari, hujjatlar o'zbek tilida yozilardi. Dastlab xonlik ma'muriy jihatdan viloyatlarga bo'lingan bo'lsa, keyinchalik (XVIII asrning boshlari XIX asrning boshlaridan) davlatdagi asosiy ma'muriy birlik beklklar deb yuritila boshladi.

Bu davrda xonlik 16 ta beklklar va 2 ta noiblikdan iborat bo'lgan. Ular Xozarasp, Gurlan, Xonqa, Ko'hna Urganch, qo'shko'prik, Gitraq, Fazovot, Qiyot, Shobboz, Shovot, Toshhovuz, Ambarmanaq, Urganch, Xo'jayli, Shumanay va qo'ng'irot beklklari hamda Beshariq, Qiyot- Qo'ng'irot – noibliklaridan iborat bo'lgan.

Bu beklklar va noibliklarni xon tomonidan tayinlanadigan beklar va noiblar boshqargan. Xiva shahri esa xon va bosh vazir (inoq) tomonidan boshqarilgan.

Inoqlar ta'siri kuchaygan davrda ulardan 5 kishi a'zo bo'lgan. Xon Kengashi ham bo'lib u maslahat organi hisoblangan.

Xonlikning o'troq aholi qavmlar bir masjidga birlashgan bir guruh aholi bo'lib, uning boshida saylanib qo'yiluvchi oqsoqol turgan qavmlar eng boshling'ich soliq va ma'muriy birlik bo'lgan. Xonlikdagi shaharlarni idora qilish hokimlar va ularning yordamchilari yuzboshi va oqsoqollarga topshirilgan.

Xonlik tarkibiga kirgan qozoq va qoraqalpoq aholisini biylar, turkmanlarda esa vakil va bek boshqargan. Bir necha avlodga birlashga urug'larni biylar boshqargan. U otaliqqa ular esa beklar begiga bo'ysungan.

Xonlik qo'shinlari qo'shni mamlakatlarga xavflar solib turuvchi, talonchilik urushlari uyushtiruvchi davlat sifatida ma'lum edi.

Qo'shin Xiva xonligida turli yillarda turli sohada bo'lgan. XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida xonlikda doimiy armiya shakllana boshlagan, ular davlat ta'minotida bo'lgan. Xiva xonlarining davlat ta'minotida turgan oddiy askar bir yillik maoshi oltita qo'ydan iborat bo'lganligi ular davlat ro'yxatida turganligi haqida ma'lumotlar bor.

XIX asring ikkinchi yarmiga kelib, Xiva xonlarining armiyasi 13 mingdan ortiq navkar, 8 mingga yaqin to'pchi va piyoda askarlardan iborat bo'lgan, ular xizmatlari evaziga soliqlardan ozod etilib, sug'oriladigan yerlardan berilgan.

Harbiy sohada oliy bosh qo'mondon Xon hisoblangan. Xondan keyingi ikkinchi o'rinda turgan inoq o'z vazifasiga ko'ra harbiy-ma'muriy amaldorlarga yetakchilik qilgan. Undan keyingi harbiy mansabdor amir ul-umaro bo'lib, qo'shinlar boshlig'i sarkarda deb atalgan.

Xonning shaxsiy gvardiyasi boshlig'i yasovulboshi unvoni berilgan bo'lib, u xonni qo'riqlash, tartib-intizomni saqlashga mas'ul hisoblangan.

Harbiy-ma'muriy amaldorlar ichida mingboshi, yuzboshi kabi harbiy-bo'linmalar boshliqlari, ishg'ovul (ayg'oqchi), kutval, tug'begi kabi harbiy mansabdorlar ham katta ahamiyatga ega edilar.

Qo'shinlar otliq va piyoda navkarlardan tashkil topgan bo'lib, harbiy talonchilik yurishlari davrida asosan, tez harakat qiluvchi otliq qo'shinlardan, shahar va qal'alar himoyasida piyoda qo'shinlardan foydalanilgan.

Asosiy hujum qurollari o'q-yoy, qilich, nayza dubulg'a bo'lib, bu esa qo'shinni kuchsizligidan dalolat beradi.

Qo'shinni asosini yollangan turkman sarbozlari turli o'zbek qabilalaridan tuzilgan qo'shinlar tashkil qilardi. Jang olib borish usuli esa Chingizxon va Amir Temur davridagi qonun qoidalarga asoslangan.

Davlat boshqaruv apparati va qo'shin soliqlar evaziga tutib turilgan. Asosiy davlat solig'i xiroj yoki solg'ut, ushr (10dan 1 qism), chorvadorlardan olinadigan zakot (mulk qiymatining 40%), o'tloq va yaylovlarda mol boqqanlik uchun cho'p puli, shuningdek, yil boshida yoki bir necha yillik soliqlarni avvaldan undirib olish, barot kabi turlari bo'lgan.

Zakot natura tartibida olinsa 5 tuyadan 1 qo'y, har 40 qo'ydan bitta tartibida olingan.

Muhammad Rahimxon I tomonidan o'tkazgan soliq islohotlariga asosan soliqlar pulda undirilib, davlat xazinasiga topshiriladigan bo'ladi.

Soliq asosan yer maydoni hajmiga qarab undirilgan. 10 tanob (4ga)dan ortiq bo'lsa, 3 tilla soliq, 5-10 tanobgacha 2 tilla, 5 tanobdan kam bo'lsa yiliga 1 tilla to'lash belgilab qo'yilgan. Shuningdek, chorakor dehqonlar ham agarda 15 tanob yerda chorakor bo'lsa 34 tanga, 10 tanob yerga esa 34 tanganing 3/2 qismi, 5 tanob yeri bo'lsa 3/1 qismi miqdorida soliq to'laganlar.

Xonlikdagi soliqlar, ularning turlari, miqdori, undirish tartibi turlicha bo'lgan. Soliqlardan tashqari aholi turli majburiyatlarni bajarishi shart edi. Kanallarni tozalash, yangilarini barpo etish uchun ilk bahorda o'z yeriga ega bo'lgan, har bir xonadondan bir kishi jalb etilib, 15 kun ishlab berishi shart bo'lgan.

Xonlikda asosiy sudlov ishlarini qozilik idoralari tomonidan amalga oshirilgan. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, oliy shaxs xon bo'lib, og'ir jinoyatlarni o'zi ko'rib hal qilgan. Undan keyingi o'rinda Bosh sudya – qozikalon turgan. Xonlikdagi barcha viloyat, tuman kasaba, shaharlarda xon tomonidan tayinlangan qozilar bo'lib, ular o'z yordamchilari – muftilar yordamida mulkchilik bilan bog'liq mojarolarni hal qilish, mayda jinoyatlarni ochish va shu kabi ishlar bilan shug'ullangan. Viloyatlardagi jinoyatlarni ko'rib chiqishda mahalliy hokimning ishtirok etish huquqi bor edi. Qishloqlardagi mayda mojarolarni qishloq oqsoqollari tomonidan hal qilinardi.

Aybdorlarga nisbatan o'lim jazosi, tana a'zolarini (barmoq, qo'lini) kesish, kaltaklash, mol-mulkini musodara qilish, jarima solish va boshqa jazo choralari tayinlanardi.

Xonlik hayotida Muhammad Rahimxon I (1806-1825) tomonidan o'tkazilgan siyosiy, iqtisodiy, ma'muriy islohotlarining ahamiyati katta. Islohotlarga ko'ra xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash ta'sis etilgan, soliqlar tartibga solinadi. Ularning muntazam ravishda yig'ilishi tufayli xazina daromadlari oshib boradi.

Bojxona tashkil etilib, tashqi savdodan keladigan daromadlar ko'paytirilgan. Ichki muomala uchun oltin va kumush tangalar zarb etilgan. Orolliklar- qoraqalpoqlar Xiva tarkibiga qo'shilgan.

Qo'qon xonligi. Buxoro taxtiga o'tirgan, Ubaydullaxon hukmronligi davrida (1702-1712) xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskinlashib, markaziy hokimiyat yanada zaiflashgan. Bundan foydalangan Chodak

xo'jalari 1709-yilda Farg'onada qo'zg'olon ko'tarib, mustaqil davlat tuzilganligini e'lon qiladi va 1710-yilda o'zbeklarning ming qabilasi boshlig'i Shohruxbiy hokimiyat tepasiga keladi. Dastlab Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Konibodom, Isfara va ular atrofidagi qishloqlarni o'z ichiga olgan davlat hududi Shohruxbiyning vorisi Muhammad Abdurahimbiy taxtga o'tirgandan so'ng ancha kengayadi. Andijon, Xo'jand, Buxoroga tegishli Samarqand va Kattaqo'rg'on shahari xonlik tarkibiga kiritiladi. Qo'qon qishlog'i yaqinida yangi shahar qurila boshlangan. Bu shahar dastlab «Kal'ai Rahimbiy» deb atalgan. Shahar bitgandan so'ng davlat poytaxti To'raqo'rg'ondan Qo'qonga ko'chiriladi va davlat poytaxt nomi bilan Qo'qon xonligi deb atala boshlanadi.

Olimbek davrida (1801-1810) Qo'qonning siyosiy mavqei ancha oshgan. Dastlab u harbiy islohotlar o'tkazib, qo'shinini ancha kuchaytirgan. Harbiy yurishlar natijasida Angren vohasini, Toshkent, Chimkent va Turkistonni o'ziga bo'ysundirgan. Dastlab davlat hukmdori o'zlarini "biy" va "bek" unvonlari bilan davlatni boshqarishgan.

1805-yildan bu davlat rasman Qo'qon xonligi deb e'lon qilindi va Olimxon "xon" unvoni bilan hokimiyatni boshqargan.

Xonlik tarixida «amir ul-musulimin» unvoni bilan hukmronlik qilgan Umarxon, uning o'g'li Madalixon "g'ozii" (ya'ni din homiysi, din yo'lida kurashuvchi) kabi ko'plab hukmronlari davlatni boshqargani ma'lum.

Qo'qon xonligi yer egaligi ishlab chiqarishga asoslangan davlat bo'lib, ijtimoiy tabaqalar, ularning jamiyat hayotidagi mavqei qo'shni Buxoro xonligidan farq qilmagan. Davlatda xon va uning yaqinlari markaziy va mahalliy boshqaruvni amalga oshirgan. Vaziri ul-vuzaro, amir ul-umaro deb nomlangan ijtimoiy tabaqaning, harbiy-ma'muriy amaldorlarning mavqei juda yuqori bo'lgan. Bu amaldorlar o'z xizmatlari evaziga muayyan maosh olishdan tashqari yer mulklariga ham ega bo'lganlar.

Ruhoniylar, ma'lum darajada yerlari bo'lgan dehqonlar, savdogarlar, hunarmandlar to'la huquqlarga ega edi. Past huquqiy holatga ega bo'lgan yersiz dehqonlar va qisman qullar ham mavjud edi. Qaram holatiga tushib qolgan dehqonlar ham ko'pchilikni tashkil etardi. Ayniqsa Toshkentda yer egalarning yer, bog'larni ishlab berganlar "qora qozonlar" deb atalgan, xonlikda yollanib ishlash ham tarqala boshlagan.

Qo'qon xonligida xonlarning yer mulklarining o'ziga xos shakllari ham mavjud bo'lgan.

Xon va uning oila a'zolariga tegishli yerlar quyidagi shakllarda bo'lgan.

1. Xos mulki – undan keladigan daromadlar xon saroyi va soqchilarga sarf qilingan.

2. Taqiq yerlar yoki quruq yerlar. Bunday yerlar ilgari barchaga, jamoaga tegishli haydalmaydigan dalalar, o'tloqlar, qamishzor va chakalakzorlarni xonlar o'zlariniki qilib olishlari natijasida vujudga kelgan.

3. Chek yerlar. Xon va uning oila a'zolari tasarufidagi yerlar.

Bulardan tashqari amlok yerlar ya'ni davlat yerlari hamda "mulki hur xolis" yerlar (bunday yer egaligi davlatga tegishli yerlarni xususiy kishilarga sotish) vujudga kelgan. Yirik yer egalari, boylar yerlarni sotib olib, undan davlat xazinasiga soliq to'lamasdan, shu yerda ishlovchi dehqonlarni boshqarish huquqini qo'lga kiritgan Davlat boshlig'i bunday yerlarni sotishda yer egasi sifatida qatnashgan, ular vasiqalar orqali rasmiylashtirilgan.

Xonlikda yer egaligining "tanho" shakli ham keng tarqalgan bo'lib, bunday yerlar xonga xizmat qiladigan askarlarga shartli xizmat muddatiga yer berilgan. Bunday yerlarni boshqalarga sotish, berish, meros qoldirish mumkin bo'lmagan.

Shuningdek, bu xonlikda ham xususiy va jamoa egaligidagi yerlar, vaqf yerlari mavjud bo'lgan.

Qo'qon xonligida davlat boshqaruvi tizimi Movoraunnahrdagi o'rta asrlardagi davlatlar boshqaruv tizimiga juda o'xshash bo'lgan.

Xonlikda mutlaq huquqlarga ega bo'lgan va qadimgi odatlarga ko'ra, saylanib qo'yiladigan xon cheklanmagan huquqlarga ega bo'lib, u harbiy-ma'muriy, diniy amaldorlar yordamida davlatni boshqargan. Dastlabki hukmdorlar «biy» unvoni bilan hokimiyatni boshqargan, Olimxon davridan (1805) esa «xon» unvoni bilan yuritila boshlagan.

Xon saroyida muhim ishlarni ko'rib chiqadigan Kengash tuzilgan bo'lib, unga "mingboshi" boshchilik qilgan. A'zolari dasturxonchi, risolachi va yana ba'zi muhim amaldorlar bo'lgan. Davlatni boshqarishda bu Kengashning ham o'rni katta edi. Saroy amaldorlari ichida ming boshi (bosh vazir) va amiri lashkar (harbiy vazir), qushbegi – xon maslahatchi yoki viloyat hokimi, parvonachi (xon maslahatchisi), shig'ovul, xudoychi xonning yordamchisi, tunqator, xon yotog'i posboni, tundan topshiriqlarni bajaruvchi, noib (sarbozlar boshlig'i) otaliq, dodxoh, mextarboshi, dasturxonchi, to'qsoba, devonbegi, mirzaboshi, sarkor va boshqa muhim amaldorlar hisoblanganlar. Ular o'z xizmatlari evaziga maosh va tegishli yer mulklari olishgan.

Mansablardan amirlashkar va mingboshilikka bir kishi tayinlangan.

Bulardan tashqari shariat, sud ishlariga oid mansabdor muddaris, Shayx ul-islom (rais), Oliy sud- qoziul quzot, qozikalon bosh qozi, katta qozi, qozi askar, maxsus qozi, a'lam (huquqiy-maslahatchilar boshlig'i), mufti va boshqa mansabdorlar bo'lgan. Bu mansablarni ishga tayinlash va faoliyati ustidan nazorat qiluvchi mansabdor shaxs "shig'ovul" deb atalgan.

Qo'qon xonligidagi barcha mansablar uch toifaga oliy, o'rta va past darajalarga ajratilgan.

Qo'qon xonligining asosiy hududini Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyati, Xo'jand, O'ratepa, Janubiy Qozog'iston va hozirgi Qirg'iziston Respublikalari tashkil qilgan. Xonlik ma'muriy jihatdan beklklarga bo'linib boshqarilgan. Ularning ko'pchiligi turli davrlarda xonlik tarkibiga kirib chiqib turgan. Asosiy beklklar sifatida Namangan, Marg'ilon, Andijon, To'raqo'rg'on, O'sh, O'ratepa, Xo'jand, Toshkent, Turkiston, Chimkent va boshqalar bo'lgan.

Beklklar xon tomonidan tayinlanadigan hokim – qushbegi tomonidan boshqariladigan, kichik ma'muriy birliklar amin va oqsoqolklarga bo'lingan.

Xonlik qo'shinlari o'sha davr qonun-qoidalari asosida 10 minglik, minglik, yuzliklarga bo'lingan. Harbiy ma'muriy amaldorlar ichida yirik shaharlar va beklklar hokimlari – qushbegilar Oliy harbiy amaldorlar hisoblanib, ularning har biri o'z qo'shiniga ega bo'lgan.

Qo'shin asosan otlik askarlar, piyodlar va sarbozlar, to'pchilardan iborat bo'lgan. Xizmatga chaqirilgan sarbozlar qushbegi tomonidan oziq-ovqat jihatidan to'la ta'minlangan, ammo qurol yarog'ini o'zi sotib olgan, xon esa Qo'qon (shahri) viloyatining qo'shinlarini ta'minoti bilan o'zi shug'ullangan. Tinchlik paytlari sarbozlar tarqatilgan, faqatgina qushbегining soqchilari qolgan. Ular bir vaqtning o'zida qo'shin hamda xizmatkor bo'lib hisoblangan. Keyingi davrlarga kelib doimiy armiya shakllana boshlagan, ma'lumotlarga ko'ra xonlikning xarajatlar jadvalida botirlar soni 8 000 deb ko'rsatilgan, ularning har biriga 50 tanga maosh to'langan.

Xonlikdagi mavjud soliqlar tizimi shariat qonun-qoidalari belgilangan tartibda undirilgan. Shu bilan birga aholidan ko'plab mayda soliqlar, jarimalar undirib olinardi. Savdogarlar va chorvadorlar zakot solig'ini, hunarmandlar turli soliqlar (tamg'a, joy solig'i) to'lardi. Soliqlar naqd pul yoki mahsulot tarzida undirib olingan. Soliq yig'uvchi amaldorlar "tanobchi", "zakotchi" deb atalganlar. Soliqlar qat'iy belgilangan miqdorda va vaqtida yig'ilishi shart bo'lsada, amaldorlarning ixtiyori bilan o'zgarib

ham turgan. Harbiy yurishlar paytida esa soliqlarning turi va miqdori oshirilgan.

Soliqlardan tashqari aholi majburiy ravishda turli ishlarga kanallar qazish, ariqlarni tozalash, obodonchilik ishlariga, turli qurilishlarga jalb qilingan.

Xonlikning asosiy huquq manbai sifatida shariat huquqi amalda bo'lgan. Qozoq va qirg'izlar yashaydigan joylarda esa odat huquqi amalda bo'lgan. Yer, suv, davlat xizmati bilan bog'liq masalalar xonning farmonlari bilan tartibga solingan.

Akademik X.Sulaymanovning fikriga ko'ra, qo'qon xonligida jinoyat huquqi alohida xususiyatlari bilan ajralib turgan. Davlatga qarshi qaratilgan jinoyatlar, diniy, mulkka, shaxsga, oilaga qaratilgan jinoyatlarga bo'lingan. Davlatga qarshi qaratilgan jinoyatlar dinga ham qarshi qaratilgan deb hisoblangan.

Bunday jinoyatlarni xonni o'zi ko'rib hal qilgan. Ko'pchilik hollarda ularga nisbatan o'lim jazosi belgilangan. O'lim jazosi sazoyi qilish bilan birga, osib o'ldirishi shaklida ijro etilgan.

Sazoyi qilish jazosi ham og'ir shaklda qo'llanilgan. Masalan: Oq masjidida Rusiya soldatlari bilan urush olmay qochgan qo'qon qo'shinlarining boshlig'i Shodmonqul sazoyi qilingan. Manbalarda keltirilishicha, uning ijrosi quyidagicha bo'lgan... Xo'jand o'rtasida jamshi azimning o'rtasida Shodmonqulning boshiga xotinlar ro'moli o'ratilib, oldiga charx do'q qo'yib, sharmandayu-sharmisor qilibdilar.

Shuningdek, 1813–1814-yillarda Rusiya savdo karvonlarining tarjimoni sifatida Qo'qonda bo'lgan F.Nazarov quyidagilarni yozib qoldirgan: «Hukumat savdogarlarni kam o'lchab, oshiqcha tortmasliklari ustidan qattiq nazorat qiladi. Mening ko'z o'ngimda kam o'lchab, kam tortib bergan bir kimsani yalong'och holda ko'chalarda qamchi bilan urib, olib yurishganlarini ko'rdim».

Jazoning maqsadi keltirilgan zararni qoplash, hamda xalqni qo'rqitishdan iborat bo'lgan. Jazolar ochiq holda ko'pchilik to'plangan gavjum joyda ijro etilgan. Ozodlikdan mahrum qilish zindonda o'talغان. Zindonlar chayon, kanalar bilan to'ldirilgan.

Maxsus xonalar ham bo'lgan, yoki mahbuslarni ustidan chayonlarni yig'ib tashlangan.

Din bilan bog'liq jinoyatlarga daxriylik boshqa dinni qabul qilish, diniy ko'rsatmalarni buzish, dindan qaytish, xon rejimini ta'qiq qilish, boshqa dindagi kishi bilan nikohga kirish, shariat taqiqlagan ovqatlarni yeyish, spirtli ichimlik iste'mol qilish, yolg'on guvohlik berish, yolg'ondan

qasam ichish kabilar kirib, ularga darra bilan urish, mamlakatdan quvib yuborish va qatl etish kabi jazolar qo'llanilgan.

Shuningdek, xonlikda asosiy yashash joyidan quvib yuborish, jinoyat sodir etgan kishini yoki uning oila a'zolarini xon armiyasiga askarlikka berish, mulkni yo'qotish, musodara qilish kabi jazolari berilgan. Odam o'ldirilganligi uchun qotil o'lgan odamning qarindoshlariga beriladi. Ular uni sotib yuborishlari yoki qon uchun xun olishlari mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Amir Shohmurod amalga oshirgan islohotlari qaysi to'plamga jamlangan va ular qanday islohotlar bo'lgan?

2. Buxoro amirligida amlok yerlaridan qancha miqdorda soliq undirish belgilangan?

3. Amirlikda harbiy-ma'muriy amaldorlar qanday nomlangan?

4. Muhammad Rahimxon qanday islohotlarni amalga oshirgan?

5. Xiva xonligida shartli yer egaligi qanday nomlagan?

6. Xiva xonligidagi nufuzli ijtimoiy tabaqa kimlar edi?

7. Qo'qon xonligining tashkil topishi va o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?

8. Qo'qon xonligida qaysi mansablarga bitta shaxs tayinlangan sababini tushuntirib bering?

9. O'rta osiyo xonliklarida jinoyat va jazo masalalarini qiyosiy tahlil eting. Ulardagi umumiylik va farqli tomonlarni ajrating.

10. "Xonliklarda sud va sudlov" mavzusida mustaqil ish tayyorlang.

Adabiyotlar:

1. A.Saidov, J.Toshqulov, O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. IV Akademiyasi, T., 1995.
2. Z.Muqimov. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. Samarqand. Zarafshon. 1998.
3. M.Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy.T., G'.G'ulom. 1994-y.
4. Abulg'ozii. Shajarai Turk. T., Cho'lpon. 1992-y.
5. X.Сулаймонова. Собрание сочинений в трех томах. Фан. Т., 1967. Том I.
6. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. Т., Фан. 1973.
7. Б.А.Ахмедов. История Балха. Т., Фан. 1982 й.
8. Р. Исфаконий. Мехмонномаи Бухоро. М.Наука. 1976-й.
9. П.И.Демизон. Бухоро хонлиги хақида рисола. Москва. Наука. 1983 й.
10. Межма ал-арқам. М., Наука 1981 й.
11. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. Т. Фан., 1958 й.
12. М.И. Yo'ldoshev. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. T.Fan. 1959 y.
13. A.Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.Sharq, 2000 y
14. M.Narshaxiy. Buxoro tarixi. T.Fan., 1966 y.
15. M.Hamidova. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi".O'quv qo'llanmasi. T. TDYI. 2004.

YANGI DAVRDA O‘ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLAT VA HUQUQ

Chor Rossiyasi hukmronligi davrida Turkiston davlati va huquqi

Reja:

- 1. Turkistonda Chor Rossiyasi hukmronligining o‘rnatilishi.**
- 2. General-gubernatorlikning markaziy va mahalliy boshqaruvi.**
- 3. General-gubernatorlikning sud tizimi.**
- 4. Chor Rossiyasi hukmronligi davridagi huquq manbalari.**
- 5. Rossiya protektorati davrida Buxoro amirligining davlati va huquqi.**
- 6. Rossiya protektorati davrida Xiva xonligining davlati va huquqi.**

O‘zbekiston davlati va huquqi tarixida XIX asrning 60-yillarini «yangi davr»ning boshlanishi deb atash mumkin. Bu bevosita Turkiston o‘lkasini, jumladan O‘zbekiston hududini chor qo‘shinlari tomonidan bosib olinishi bilan xarakterlanadi. Ma‘lumki, Chor qo‘shinlari birin ketin Oqmachit (qizil O‘rda) To‘qmoq, Pishkek, Avliyo ota (Jambul), Turkiston va Chimkentni bosib oldi. Bosib olingan hududlarda 1865-yilda Turkiston viloyati tashkil qilindi. Toshkent, Niyozbek, Xo‘jand, O‘ratepa, Jizzax qal‘arini bosib olinib, 1867-yil 4-iyulda Turkiston general-gubernatorligi, keyinchalik Turkiston harbiy okrugi tashkil etildi. Gubernatorlikning markazi qilib Toshkent shahri belgilandi. Gubernatorlikda markazi Toshkent bo‘lgan Sirdaryo, markazi Verniy (Alma-ota) bo‘lgan Yettisuv viloyatlari tashkil qilindi. 1868-yilning may oyiga kelib Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Zirabuloq chor qo‘shinlari tomonidan egallanadi va Zarafshon okrugi tashkil etildi.

Shu yilning yoz oylarida Buxoro amirligi bosib olindi. Buxoro amirligi bilan Rossiya imperiyasi o‘rtasida Sulh shartnomasi imzolandi. Mazkur shartnomaga ko‘ra Buxoro amirligi Rossiyaning vassali ekanligi, unga 500 ming so‘m urush tavoni to‘lashi, chet ellar bilan mustaqil siyosiy aloqalar o‘rnatish huquqidan mahrum edi. Samarqand va Kattaqo‘rg‘on viloyatlarini Rossiyaga berish haqida kelishib olingan.

1870-yilga kelib chor qo‘shinlari Shahrisabz, Kitob, Qizil Arvotni, 1873-yilga kelib esa Xazorasp, Xiva va Chandir qal‘alarni bosib olganlar. 1873-yil avgust oyida Rossiya imperiyasi bilan Xiva xonligi o‘rtasida tuzilgan Sulh shartnomasiga ko‘ra, Xiva xonligi Rossiyaning vassaliga aylangan.

U mustaqil tashqi siyosiy aloqalar o'rnatish huquqidan mahrum bo'ldi va Rossiyaga 2 mln. 200 ming so'm tovon to'lash majburiyatini olgan. Xonlik poytaxtiga yaqin joyda Petr-Aleksandrovskiy qo'rg'oni tashkil etilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi.

1875-yilga kelib Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan chor qo'shinlari tomonidan bosib olingan. 1876-yilda Qo'qon xonligi tugatilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kirgan Farg'ona viloyati tashkil qilingan.

Chor hukumatining puxta o'ylab, aniq reja asosida izchillik bilan olib borgan mustamlakachilik siyosati tufayli O'rta Osiyo Rossiyaning xom ashyo manbaiga va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirilgan. Dastlabki davridayoq o'lkadagi oltin, neft, ko'mir va boshqa yer osti qazilma boyliklarini qidirib topish ishlarini qizitib yuborishgan. O'rta Osiyo tillasi, paxtasi, qorako'li, pillasi, turli quruq va xo'l mevasi Rossiya san'atining asosiy xom ashyosiga aylangan.

Turkistonda mustamlaka va boshqaruv idoralari, huquq tizimining shakllangan bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Turkiston viloyatini boshqarish, hududda chor hukumatining mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish jarayonida shakllangan munosabatlarni tartibga solishning huquqiy zamini sifatida 1865-yilning 6-avgustida Rossiya imperatori tomonidan tasdiqlangan «Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi Muvaqqat Nizom» xizmat qildi. «Muvaqqat Nizomga» binoan, viloyatda harbiy xalq boshqaruvining amalga oshirish vakolati harbiy gubernatorga berilgan bo'lib, u o'z vakolatini o'z yordamchilari va devonga tayangan holda amalga oshirar edi. Bu davrda chor ma'murlariga o'lkani muhofaza qilish uchun zarur bo'lgan harbiy qo'shinni barcha kerak bo'lgan narsalar bilan ta'minlash; mahalliy ma'murlar faoliyatini nazorat qilish yuklatilgan edi. Perovskiy, Turkiston, Chimkent, Avliyo ota va To'qmoq uyezdlari boshliqlari joylardagi hokimiyatni amalga oshirar edi. Ular viloyat harbiy xalq boshqarmasiga bo'ysunganlar. Mahalliy ma'murlarga o'z'lari boshqarayotgan hududlardan o'tadigan karvonlar xavfsizligini ta'minlash; o'rmonlarni muhofaza qilish choralari ko'rish; sugorish inshootlarini yaroqli holat va saqlash, qirg'izlar bilan o'zbeklarning suvdan foydalanishlari bilan bog'liq bo'lgan nizolarni bartaraf qilish; soliqlar yig'ishni tashkil qilish; yuqori boshliqlar ko'rsatmalarining o'z vaqtida to'g'ri bajarilishini nazorat etish; soliqlar va majburiyatlar miqdori taqsimlanishi bilan bog'liq aholining noroziliklari va shikoyatlarini yuqori boshliqlarga yetkazish; sudda ishlarning to'g'ri qurilishini kuzatish kabi vakolatlar berilgan edi.

Umuman olganda, dastlabki davrlarda Turkistonda tashkil etilgan mustamlaka boshqaruvi mahkamasi unchalik katta bo'lmagan. Keyinchalik esa, keng ko'lamda olib borilgan bosqinchilik harakatlari natijasida Turkiston viloyatining hududlarining kengaytirilishi, bir tomondan, ikkinchi tomondan esa, mahalliy xalqlarning istebsdodiga qarshi noroziligining kun sayin kuchayib borishi, mustamlaka boshqaruvi idoralari tizimini yanada takomillashtirish, Turkistonliklarni itoatda tutib turish uchun zarur tartib-intizomni joriy qilishni taqozo qilgan. Bu muammoni hal qilishda maxsus komissiyani 1867-yilda ishlab chiqqan «Yettisuv va Sirdaryo viloyatlaridagi boshqarish haqidagi Nizom» loyihasi huquqiy asos sifatida xizmat qildi. Nizom loyihasi rasman davlat boshligi tomonidan tasdiqlanmagan bo'lsada, to 1886-yilgacha Turkiston o'lkasida amal qilgan.

«Nizom» loyihasiga binoan, harbiy xalq boshqaruvi bo'yicha Turkiston o'lkasini boshlig'i - general-gubernatori imperiya harbiy vaziriga bo'ysunardi, uning boshqaruv sohasidagi huquqiy maqomi esa, imperiyaning boshqa qismlari gubernalari boshliqlarining huquqiy maqomiga tenglashtirilgan. Unga qo'shni davlatlar bilan diplomatik aloqalar olib borish, yerdan va yetishtirilgan hosildan olinadigan soliqlar, soliq yiguvchilarga beriladigan pochta va telegraf boshqarmasi bilan kelishilgan holda aloqa xizmatidan foydalanganlik uchun, harbiy harakatlar vaqtida yuklarni tashigani uchun to'lanadigan haq miqdorini, o'lkani boshqarishga ajratilgan mablaglar doirasida harbiy xalq boshqaruvining turli yo'nalishlari bo'yicha xarajatlarni belgilash, o'lkadagi o'quv yurtlarga homiylik qilish, sudlarning chiqargan hukmlarini tasdiqlash kabi vakolatlar berilgan.

Hisob-kitob bo'yicha va yozishmalarni tashkil qilish ishlari Turkiston general-gubernatori Kanselariyasi (Devonxona)da jamlangan bo'lib, unda dastlab 18 ta xodim xizmat qilgan bo'lsa, keyinchalik qurilish qo'mitasi, tog' ishlari bo'limi, kimyo laboratoriyasi, Turkiston jamoatchilik kutubxonasi va muzeyi, «Turkiston vedomostlari» ro'znomasi tahririyati va harbiy xalq boshqaruvi bosmaxonasining tashkil etilishi munosabati bilan xodimlar soni 1882-yilda 49 kishiga yetgan.

«Nizom» loyihasi bo'yicha harbiy va fuqarolik hokimiyati viloyatlarda harbiy gubernator qo'lida to'plangan bo'lib, uning fuqarolik boshqaruvi sohasidagi huquqlari saltanat viloyat boshliqlarining vakolatlarini belgilovchi umumiy qoidalar bilan, harbiy sohadagi huquqlari esa Turkiston harbiy okrugi haqidagi «Nizom» bilan belgilangan edi. Harbiy gubernator huzurida viloyat boshqarmasi bo'lib, uni harbiy gubernator

yordamchisi boshqarar edi. Viloyat boshqarmasida farmoyish beruvchi, xo'jalik ishlari va sud bo'limlari bo'lib, harbiy gubernator lozim topgan barcha masalalar boshqarmaning majlisida muhokama qilib, u bo'yicha tegishli qaror qabul qilar edi. 1865-yildagi sudlov ishlari haqidagi «qoidalar»ga binoan viloyat boshqarmasi mirovoy sudlar vakolatiga kirmaydigan qiymati 2000 so'mdan ortiq fuqarolik ishlarini ko'rib hal qilar; tijorat sudi vazifasini o'tar; xizmat vazifasini bajarish bilan bog'liq jinoiy ishlarni ko'rib hukm chiqarar; mirovoy sudlar qurultoyi sifatida jinoyat va grajdanlik ishlari bo'yicha uzil-kesil qaror qabul qilardi.

«Nizom» loyihasi bo'yicha viloyatlar ma'muriy-hududiy jihatidan uyezdlargacha bo'lingan bo'lib, ular ma'muriy va politsiya hokimiyatini amalga oshiruvchi uyezd boshlig'i tomonidan boshqarilardi. Unga uyezd osoyishtalik, tartib-intizomni va xavfsizlikni ta'minlash choralarini qurish, mahalliy ma'murlar faoliyatini, volost (bo'lis) va pul yig'imlarini o'tkazilishini, xalq sudyalari (biy va qozilar) faoliyatini, davlat va mahalliy soliqlarni to'g'ri va o'z vaqtida undirilishi, yo'llar, ko'priklar yaroqligini, maktablar ochish va ularni obodonlashtirish, ishlarini nazorat qilish vakolatlari berilgan va savdo sanoat tarmoqlarning har tomonlama rivojlanishi uchun qulayliklar yaratish vazifasi yuklatilgan edi. Har bir uyezd boshlig'i huzurida boshqarma tashkil qilingan bo'lib unda o'rta hisobda sakkiz nafar zobit xizmat qilardi. Bo'lislarni boshqarish o'tovlar vakillari tomonidan aylanadigan starshinalarga (oqsoqollarga) yuklatilgan. O'troq aholi yashaydigan joylarda aholisi nufuzli va huquqiy maqomi jihatidan bo'lisga, tenglashtirilgan oqsoqolliklar tashkil qilindi. Ularni boshqarish xalq yig'inlarida saylanadigan oqsoqollarga yuklatildi. Oqsoqollar bo'lislar va ovullarning boshliqlariga o'zlari boshqaradigan hududlarda ma'muriy va politsiya hokimiyatini amalga oshirish vakolati berildi. O'troq aholining jamoa xo'jaligini boshqarish undiriladigan soliqlarni belgilash ishlarini amalga oshirish uchun shaharlar va qishloqlarda xo'jalik ishlari bo'yicha jamoatchilik ishlari asosida ishlaydigan boshqarmalar tuzildi. Bu boshqarmaning a'zolari aholi tomonidan saylangan. Ko'chmanchi xalqdan undiriladigan soliqni o'tovlar va ovullar o'rtasida taqsimlash va ularni undirishni amalga oshirish bo'lis boshliqlari va rus ma'murlari nazorati ostida ish ko'ruvchi bo'lis aholisi tomonidan saylanadigan vakillarga yuklatilgan.

1867-yildagi «Nizom» loyihasida Toshkentdan boshqa shaharlarda boshqaruv idorasini tashkil etish ko'zda tutilmagan edi. Loyihaga binoan shaharlar va kattaroq aholi yashaydigan joylar dahalarga bo'linib, ularni har qaysi oqsoqol tomonidan boshqarilgan.

/1867-yilgi «Nizom» loyihasida Turkiston o'lkasida sud hokimiyatini amalga oshirish masalasi ham o'z aksini topgan edi. Unda ko'chmanchi va o'troq, rus aholisi uchun alohida sud organlarini tashkil qilish kerak edi. Loyihada ko'chmanchi aholi uchun har bir bo'lisda 4-8 nafar biylar saylash ko'zda tutilgan bo'lib, bu lavozimga 25 yoshga to'lgan muqaddam sudlanmagan, tergov qilinmayotgan kishi aholi tomonidan uch yil muddatga saylanishi mumkin edi. «Nizom» loyihasida biylar uch turga bo'linadi;

100 so'mgacha (besh ot yoki 50 qo'y) qiymatga ega bo'lgan ishlarni ko'ruvchi, da'volashuvchi tomonlar tomonidan tanlanadigan bitta yoki bir nechta biylar qiymati qanchaligidan qat'iy nazar, barcha ishlarni ko'radigan qiymati, 1000 so'mgacha da'volarni ko'rib, uzil-kesil hal qiladigan vaqti-vaqti bilan chaqiriladigan volost biylari qurultoyi;

Rus sudlari

1. Uyezd sudlari, qiymati 2000 so'mgacha bo'lgan nizolarni ko'rgan sudyalari Uyezd gubernator tomonidan tayinlangan, ularni faoliyatini nazorat qilish viloyat boshqarmalariga yuklatilgan.

2. Harbiy sud komissiyalari;

3. Viloyat sud boshqarmalari. harbiy xalq boshqaruvini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning jinoiy ishlarini ko'rgan (1864-y. Sud tuzukriga asosan).

1. Uyezd sudlari - ular mansab yuzasidan huquq va burchlarini amalga oshirish, mansabdorlardan jarima undirish bilan bog'liq mahalliy ishlarni ko'rib hal qilish, mulk huquqidan mahrum etish, yoki uni cheklash jazosi qo'llanishi mumkin bulgan jinoiy ishlarni ko'rib, hukm chiqargan; qiymati 2000 so'mgacha bo'lgan da'volar va nizolarni sudga ko'rish uchun qabul qilgan, 100 so'mgacha qiymatga ega fuqorolik ishlarini ko'rib, uzil-kesil hal etish; sud tergovini amalga oshirish vakolatlari berilgan.

2. Harbiy - sud komissiyalari; - ular harbiy jinoyat tuzugida ko'rsatilgan vatanga xiyonat qilish, kishilarda, hukumatga qarshilik ko'rsatish hissini uyg'otish, davlat transportiga hujum qilish, xristianlarni, xristianlikni qabul qilishni istovchi kishilarni va mansabdor shaxslarni o'ldirish kabi jinoiy ishlarni ko'rib hukm chiqarar edi.

3. Viloyat boshqarmalari - ular uyezd sudlari vakolatiga taalluqli bo'lmagan fuqarolik ishlarini ko'rib hal qilar edi.

1864-yildagi «Sud tuzuklari»ga binoan uyezd sudyalari qarorlari bo'yicha ariza va xususiy shikoyatlarni ko'rib, tegishli qaror chiqarish, umumiy qarorlar va 1865-yilgi 11-oktabrda imperator tomonidan tasdiqlangan «qoidalar» asosida harbiy xalq boshqaruvi mansabdor

shaxslarning jinoyi ishlarini, talonchilik, bosqinchilik, birovlarining yeriga hujum qilish, o't qo'yish yo'li bilan mulkka zarar yetkazish, ochiqdan-ochiq hokimiyatga qarshilik ko'rsatish, soxta pul yasash va uni muomalaga kiritish, davlat mulkini o'g'irlash, davlat boshqaruvi qoidalarini buzish, tub aholidan chiqqan mansabdorlar jinoyatlarini ko'rib hukm chiqarishgan.

Turkiston o'lkasida Rossiya saltanati fuqarolari nufuzining tobora o'sib borishi ularning manfaatlari bilan bog'liq ishlarni ko'radigan sud idoralarida ayrim o'zgarishlar kiritishni taqazo etgan. Jumladan, ayrim tumanlarda sudda ish ko'rish va tergov ishlarini bir kishiga yuklatish maqsadga muvofiq emas deb topilib, bu ishlar alohida-alohida shaxslarga yuklatilgandi. Ayrim uyezdlarda (masalan, Verniyda hozirgi Olma-otada) rus fuqarolari ishini ko'radigan sudyalari soni ko'paytirilgan.

Turkiston o'lkasida savdo-sotiqning rivojlanishi bilan bog'liq holda tuzilgan shartnomalarni notarial guvohlantirish, ehtiyojini hisobga olib, general-gubernator Kaufmanning 1880-yil 1-maydan e'tiboran, «Notarial qism haqidagi» Nizomi kuchga kirdi. «Nizom»ga binoan, Toshkent va Verniy shaharlarida notarial idoralar tashkil etilgan. Boshqa shaharlarda esa notariuslik vazifasi tuman sudyalariga katta notariuslik vazifasi esa, viloyat boshqarmalari sud bo'limi boshliqlari zimmasiga yuklatilgan.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, Turkiston o'lkasi viloyatlarini boshqarishda, ularda sud va politsiya hokimiyatini amalga oshirishda yagona tartibning yo'qligi sezilib turardi. Buning sababi o'lkaning turli mintaqalarida hokimiyatni amalga oshirish turli normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanganligi edi. Sirdaryo va Yettisuv viloyatlaridagi boshqaruv haqidagi 1867-yildagi «Nizom» loyihasi, Zarafshon okrugi general-gubernatori Kaufman tomonidan 1868 yilda tasdiqlangan «Vaqtinchalik nizom» Farg'ona viloyati 1873-yilda Kaufman tomonidan taklif etilgan «Nizom» loyihasi, Amudaryo bo'limi 1874-yilda Turkiston general-gubernatori tasdiqlagan «Muvaqqat» qoidalariga binoan boshqarilardi.

1882–1883-yillarda maxfiy maslahatchi Girs boshchiligidagi Turkiston o'lkasida o'tkazilgan senat taftishi bu yerdagi boshqaruv sohasidagi kamchiliklar, qarama-qarshiliklar, suiste'molliklarni ochib tashladi. Taftish natijalari chor hukumati Turkiston o'lkasida o'zining mustamlakachilikni to'la-to'kis amalga oshirishi uchun bu o'lkaning boshqarish tizimida yagona tartib joriy etilishi lozim degan xulosaga kelingan. Shu munosabat bilan 1884-yilda Girs taklifiga binoan, maxsus komissiya tashkil etildi. Mazkur komissiya tomonidan tayyorlangan «Muvaqqat o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» loyihasini 1886-yil 12-iyunda Rossiya imperatori

tasdiqladi. Mazkur «Nizom» uncha ko'p bo'lmagan qo'shimchalar bilan 1917-yilning o'rtalarigacha amal qildi.

«Nizom»ga ko'ra ma'muriy-hududiy tuzilishda chor hukumatining Turkistondagi hukmronligini yanada mustahkamlash, uni boshqarish uchun sarflanadigan davlat mablag'larini qisqartirish, o'lka xalqlarini ekspluatatsiya qilish va uning tabiiy boyliklarini talash evaziga keladigan daromadlarni yanada ko'paytirishdan iborat edi.

«Nizom»ga ko'ra ma'muriy-hududiy tuzilishda katta o'zgarishlar qilish ko'zda tutilmagan edi. Ayni paytda o'lkadagi chor ma'murlarining vakolatlari birmuncha kengaytirildi. Jumladan, Turkiston general-gubernatoriga Amudaryoning chap qirg'og'ida joylashgan aholi yashaydigan hududlar bo'ysundirildi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan bevosita aloqalar o'rnatish, ularning fuqarolarini Rossiya fuqaroligiga qabul qilish, qiymatidan qatg'iy nazar, barcha savdo shartnomalarini, qiymati 30000 so'mgacha bo'lgan qurilish ishlarining loyihalari va xarajatlarini tasdiqlash, siyosiy nuqtai nazardan zararli deb hisoblangan tub aholi vakillarini ichki ishlar vazirligi bilan kelishilgan hududlarga 5 yildan ortiq bo'lmagan muddatga surgun qilish, qo'shni davlatlarning fuqarolarini (agar ularning amalga oshirayotgan faoliyatini zararli deb hisoblasa) o'lkadan umuman chiqarib yuborish, rus fuqarolarini Rossiyaning Buxorodagi Siyosiy mulozimi va Amudaryo bo'limi boshlig'i taqdimiga binoan, Buxoro va Xivadan badarg'a qilish, o'lkadagi ijtimoiy tartibga va aholining osoyishtaligiga xavf tug'diruvchi odam o'ldirish, talonchilik, bosqinchilik, hokimiyatga qarshilik ko'rsatish kabi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning ishini harbiy holat sharoitida amal qiladigan qonunlarga binoan harbiy sudda ko'rib, ularning javobgar qilinishini imperatoridan so'rash kabi qo'shimcha vakolatlar berildi.

«Nizom»da Turkiston general-gubernatori huzurida uning yordamchisi raislik qiladigan Kengash tashkil qilish, unga Sirdaryo viloyatining harbiy gubernatorini, Toshkent shahar sud palatasi prokurorini, xazina, nazorat palatalari, dehqonchilik va davlat mulklari boshqarmasi, Turkiston harbiy okrugi shtabi va general-gubernator devonxonasining boshliqlarini, moliya vazirligining doimiy vakilini doimiy a'zo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarining harbiy gubernatorlarini, ular Toshkent shahrida bo'lgan paytlarida vaqtinchalik a'zo qilib kiritish ko'rsatilgan edi. Bundan tashqari, Kengash ishida maslahat ovozi bilan ommaviy xalq iste'mol mahsulotlaridan undiriladigan yigimlar bo'yicha boshqaruvchi, general-gubernator farmoyishi bilan taklif qilingan shaxslar qatnashsa bo'lardi. Kengashga qonunchilik sohasidagi barcha masalalarni, mahalliy

majburiyatlar xarajatlarini ko'rib chiqish, ularning miqdorini belgilash, xarajatlarning to'g'ri bajarilishini nazorat qilish, ortiqcha xarajatlarga ruxsat berish, yerdan foydalanish va soliq undirish ishlariga umumiy rahbarlik qilish, soliqlar haqida takliflar kiritish, general-gubernator nomiga soliqlar masalasi bo'yicha kelgan shikoyatlarni ko'rib chiqish va general-gubernator Kengashda muhokama etilishi lozim deb hisoblangan boshqa masalalarni ham ko'rib hal etish vakolatlari berilgan.

«Nizom»ga va unga keyinchalik kiritilgan qo'shimchalarga binoan, harbiy gubernatorlarning huquqiy maqomi Rossiya imperiyasi guberniyalari boshliqlarining huquqiy maqomiga tenglashtirildi, ularga o'z tashabbusi bilan yoki tuman boshlig'ining bergan ma'lumoti bo'yicha jamoat tartibi va osoyishtaligini buzgan tub aholi vakillarini, unchalik xavfli bo'lmagan huquqbuzarlikni sodir qilgan mahalliy ma'murlarni 1 oydan ortiq bo'lmagan muddatga qamab qo'yish, bo'lis boshliqlari saylovi natijalarini tasdiqlash yoki tasdiqlamaslik, bo'lim boshliqlarini almashtirish va boshqa vakolatlar berildi. Tuman boshliqlari, ularning yordamchilari va hudud pristavlariga janjallashgani, jamoat joylarida shovqin ko'targani, hokimiyat vakiliga qarshilik ko'rsatganligi uchun tub aholi vakillarini jazolash huquqi berildi. Uyezd boshliqlari 7 kundan ortiq bo'lmagan muddatga qamash yoki 15 so'mgacha jarima undirish, ularning yordamchilari va uchastka pristavlari 3 kundan ortiq bo'lmagan muddatga qamash yoki 3 so'mgacha jarima undirish huquqiga ega edilar. 1898-yil 10-iyulda «Nizom»ga kiritilgan qo'shimchaga binoan yuqorida ko'rsatilgan xatti-harakatlarni sodir qilgan mahalliy aholi vakillarini uyezd boshliqlari bir oygacha muddatga qamash huquqi berildi.

Turkiston o'lkasida chor hukumatining mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishga bevosita aloqador bo'lmagan mahalliy aholi o'rtasidagi mulkdan foydalanish, unga egalik qilish, uni tasarruf qilish, olish-sotish, ijaraga berish, hadya etish, oila va nikoh, vasiylik va homiylik, meros, majburiyatlar va hamkorlik bilan bog'liq munosabatlarini shariat va odat qoidalariga ko'ra tartibga kiritishga ijozat berildi.

Chor Rasiyasi hukmronligi davrida o'lka huquq tizimida ham bir qator jiddiy o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'ldi. Qator normativ-huquqiy hujjatlar joriy qilindi. Ulardan "Turkiston viloyatini boshqarish haqida"gi muvaqqat Nizom (6-avgust, 1865-y), "Yettisuv va Sirdaryo viloyatlaridagi boshqaruv haqidagi Nizom" loyihasi (1867-y), Zarafshon okrugini boshqarish haqidagi "Muvaqqat Nizom" (1968-y), "Farg'ona viloyatini boshqarish haqidagi" "Nizom" loyihasi (1873-y), "Amudaryo bo'limini boshqarish haqidagi "Muvaqqat qoidalar" (1873-y), "Turkiston

o'lkasini" boshqarish haqidagi Nizom (12-iyun, 1868-y), "Turkiston o'lkasining qishloq mansabdor shaxslarining huquqlari, burchlari va vakolat doiralari haqidagi" yo'riqnoma (17-sentabr, 1888-y), "Turkiston o'lkasidagi sug'orish ishlarini boshqaruvchi mansabdorlar, uyezd boshliqlari, ariq oqsoqollari va miroblarining huquq va burchlari haqidagi yo'riqnoma (2-avgust, 1888-y), "Jinoyatlarni aniqlash va ularni sodir qilganlarni qidirib topish bo'yicha, Turkiston general-gubernatorligining politsiya xizmatlariga yo'riqnoma" (1892-y.) "xalq sudyalariga yo'riqnoma" (1-dekabr, 1892-y) "Natarial qism haqidagi Nizom" (1 may 1880-y); 1864-yildagi "Sud tuzuklari", 1865-yil oktabrda tasdiqlangan "qoidalar" asosiy huquq manbalari bo'lib xizmat qildi.

Buxoro amirligi davlati va huquqi. Chor Rossiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasida 1868-yildagi "Sulh" va 1873-yil 28-sentabrdagi "Do'stlik" shartnomalariga ko'ra amirlikning davlat tuzumi o'zgarishsiz qoldi. Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad ichki siyosat sohasida mustaqillik berish emas, balki katta mablag' yoki mehnat sarflamasdan unga tegishli ta'sir ko'rsatuvchi vositalar orqali mamlakatni boshqarish edi.

Dastlab general-gubernator 1886-yilda Buxoro Rossiya imperiyasining siyosiy mahkamasi ta'xis etilgan. Siyosiy mahkamaning asosiy vazifasi "Do'stlik" shartnomasi shartlariga amal qilishni kuzatish, qo'shni davlatga tranzit tartibida jo'natiladigan rus mollaridan soliq olishga yo'l qo'ymaslik, mahalliy ma'muriyat xodimlari shartnomaga xilof holda boj undirilishiga yo'l qo'ysa egalariga qaytarish, rus tovarlaridan qonuniy yig'imlar undirishga yo'l qo'ymaslik, qarzga olingan mollarning pulini to'lash, korxonaga mahallif ma'murlarni aralastirmaslik, rus fuqarolari o'rtasida kelib chiqadigan jinoiy va fuqarolik ishlarini ko'rib hal qilardi. Yangi Buxoro (Kogon) shahri boshlig'i, Chorjo'y, Termiz, qarshi shaharlarida esa harbiy boshliqlar orqali amalga oshirardi.

Umuman olganda siyosiy mahkama Buxoro amiri va uning hukumati ustidan bevosita nazoratni amalga oshirgan.

Buxoro amiri rasman davlat boshlig'i bo'lib u siyosiy mahkama tomonidan berilgan ko'rsatmalarni ko'p sonli amaldorlari orqali amalga oshirgan. Saroy xizmatchilari 2 ta udaychi-axborot beruvchi, Peterburgdagi Buxoro elchixonasiga va Turkiston general-gubernatorligiga taalluqli bo'lgan masalalar yuzasidan amirning topshiriqlarini bajaruvchilar, shig'ovul-amirlarning shaxsiy ad'yutanti, mirza munshi- kotib, mirza munshif-ikkinchi darajali shaxsiy kotiblar, **degonbegi** – saroy kirim-chiqim va xo'jalik ishlari boshlig'i, mirzaboshi-politsiya boshlig'i,

tarjimonlar va boshqalardan iborat bo'lgan. Saroy mansabdorlari amir tomonidan vazifasiga tayinlangan va undan ozod etilgan.

Buxoro amirligi ma'muriy boshqaruv mahkamasi to'rt markaziy boshqarmaga taqsimlangan. Bular ma'muriy ijro, moliya-soliq, din va sud ishlari, nazorat-qidiruv boshqarmalari edi.

1. Ma'muriy ijro boshqarmasiga **qushbegi** boshchilik qilgan. U moliya ishlariga, shu soha xizmatchilari faoliyati ustidan nazorat, Buxoro shahrining boshqarish, beklar va amaldorlarga rahbarlik qilishdan iborat bo'lgan. Uning huzurida maxsus devon bo'lib, unda tarjimon, ish yurituvchi mirzolari, qushbegining birinchi va ikkinchi yordamlari, Buxoro shahri politsiya boshlig'i, devonbegi-xo'jalik ishlari boshlig'i, farroshboshi-oshxonaboshlig'i, to'pchiboshi-turma boshlig'i, bozorlardan bozor haqqini yig'uvchilar, aminokachilar, savdo-sotiqni nazorat qiluvchilar, qushbegining shaxsiy xizmatchilari va 500 ta navkari bo'lgan. Ular qushchibegi tomonidan ishga tayinlangan va o'z vazifasidan ozod qilingan.

2. Moliya soliq boshqarmasiga **Devonbegi** rahbarlik qilgan. Devonbegi soliq yig'ish va xazinani boshqarishga rahbarlik qilgan. Bu boshqarmada mirzolar, zakotchilar, ya'ni chorva mollari va boshqa mulklardan olinadigan daromadlar (1/40) dan soliq undiruvchilar, devonbegining shaxsiy xizmatchilari va 300 tagacha navkari va boshqalar xizmat qilgan. Ular devonbegi taqdimiga ko'ra ishga tayinlangan va o'z vazifasidan ozod qilingan.

3. Din va sud ishlari boshqarmasiga amir tomonidan tayinlangan qozikalon rahbarlik qilgan. Qozikalonga sud va notarial idoralar, ruhoniylar va o'quv yurtlarini boshqarish yuklatilgan bo'lib, unga mirzolar ish yurituvchilar, qozilar, mulla azimlar- tergov ishlari bo'yicha qozilarning vakillari, miroxurbosh – Saroy otboqarlari boshlig'i, mahramlar-shaxsiy xizmatchilar va boshqalar bo'ysunardi. Bu boshqarma xizmatchilari qozi kalon tomonidan lavozimiga tayinlangan va ozod qilingan.

4. Nazorat-qidiruv boshqarmasiga bosh rais rahbarlik qilgan. U bevosita qozikalonga bo'ysungan. Boshqarma qonunlar bajarilishi, axloqiy saflikni, dinni muxofaza qilish, bozorlarda torozilarni va boshqa o'lchovlarni nazorat qilgan. Bosh rais huzurida mirzolar- ish yurituvchilar, raislar, mahramlar-shaxsiy xizmatchilardan iborat mahkama bo'lgan. Barcha mansabdorlar bosh rais tomonidan vazifasiga tayinlangan va ozod qilingan. Bu haqida qozikalonni va amirlar xabardor qilingan.

Amirlik ma'muriy hududiy jihatdan 28 ta beklik, bekliklar esa amloqdorlarga bo'lingan. Ularni qushbegi taqdimiga ko'ra tayinlangan beklar va amlokdorlar boshqargan. Ular o'z hududida soliqlarni undirish, jinoyatchilarni qidirish, tartib intizom va osoyishtalikni saqlash ishlariga rahbarlik qilgan.

Ularning huzurida amaldorlar va xizmatchilar ham bo'lgan.

Amlokdorlar qishloqlarga bo'linib, ular oqsoqollar tomonidan boshqarilgan.

Buxoro amirligida Oliy sud hokimiyati amir ko'lida to'plangan bo'lib, amir o'lim jazosi bilan bog'liq ishlarni, mansabdorlarni ishlarini, o'g'irlik, bosqinchilik bilan shug'ullanuvchi guruh boshliqlarini, qushbegi, devonbegi, zakotchi, beklar doimiy qo'shin boshliqlari ishlarini ko'rgan.

Sudlov sohasida amirdan keyin qozikalon turgan, qozikalon qozilarga tegishli bo'lmagan jinoyat va fuqarolik ishlarini, amirlik aholisi bilan Turkiston o'lkasi aholisi o'rtasidagi merosni taqsimlash, da'voni qondirish bilan bog'liq ishlarni, Buxoro shahrida sodir etilgan jinoyat ishlarini ko'rib hal qilgan. Qozikalon huzurida katta mufti va 12 ta muftidan iborat devon bo'lib, u alohida masalalar bo'yicha shariat qonunlariga asoslanib rivoyatlar chiqarish bilan shug'ullangan.

Mahalliy qozilar 3 turga; qozilar, bosh yoki katta qozi va qozi askarga bo'lingan. Qozilar 500 tildan yuqori bo'lmagan fuqarolik ishlarini, yer, meros masalalari bo'yicha notariuslik vazifasini bajargan. Mahalliy amaldorlar tomonidan o'tkazilayotgan tergov ishlarida o'z vakillari yoki o'zlari ishtirok etishgan. Mulkni qiymatini aniqlash, tekshirish o'tkazishni mulla azimlar tomonidan tashkil qilgan.

Bosh yoki katta qozi qozilar tomonidan ko'rilgan ishlar ustidan tushgan shikoyatni ko'rib hal qilgan.

Qozi askar esa harbiylar tomonidan sodir qilingan jinoyatlar va fuqarolik ishlari bo'yicha davolarini ko'rib hal qilgan.

Ruhoniy tabaqalarning ishlarini esa Shayx ul-islom ko'rib hal qilgan.

Buxoro shahrini boshqarish mirshablarga yuklatilgan. Buxoro shaxri 2 qismga bo'lingan bo'lib, har birida 6 tadan mirshablik hududlari bo'lgan, ularga o'nboshi rahbarlik qilgan, uning huzurida esa 100 taga shabgarda bo'lgan. Mirshablar jamoat tartibini saqlash, osoyishtalikni ta'minlash, qamoqlarda tartib intizom o'rnatish va mahkumlarni itoatda saqlashni amalga oshirganlar.

Beklik va amaldorliklarda bu vakolatlar yasovulboshiga yuklatilgan. Yasovulboshi huzurida 10-20 tagacha navkar xizmat qilgan.

Buxoro amirligida Rossiya protektorati davrida huquqning asosiy manbai sifatida shariat qonunlari, ko'chmanchi aholi yashaydigan hududlarda odat huquqi normalari saqlanib qolingan.

Vujudga kelgan yangi ijtimoiy munosabatni tartibga solish uchun esa ko'plab huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ular 1868-yil 23-iyuldagi "Sulh", 1873-yil sentabrdagi "Do'stlik" haqidagi shartnoma, "Buxoro xonligida vino ishlab chiqarish haqidagi qoidalar" (1893-y), "Buxoro xonligidagi oltin sanoati haqidagi qaror" (1896-y) "Buxoro xonligida kuchli quvvatli ichimliklarni sotish qoidalari" (1889-y, iyun), "Buxoro xonligida kuchli quvvatli ichimliklarni sotish joylarini, ularning turlari va soni hamda yangi savdo joylarini tashkil qilish tartibini belgilash haqidagi qoidalar" va boshqalar edi.

Xiva xonligi bilan Rossiya imperiyasi o'rtasida imzolangan "Sulx" (1873-y, avgust) shartnomasiga ko'ra, xonlik Rossiyaning vassaliga aylandi. Shartnomaga ko'ra, xonlik va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarni amalga oshirish va xalq hukumati faoliyatini nazorat qilish uchun 7 kishidan iborat Kengash tashkil etilgan. Kengash a'zolarining 4 tasi chor hukumati vakillaridan 3 tasi xivaliklardan (xon, mextar, devonbegi) dan iborat bo'lib, uning raisi rasman xon bo'lsada, qabul qilingan qarorlar Turkiston general-gubernatori tomonidan tasdiqlanishi belgilangan edi.

1874-yilda Amudaryo okrugini Amudaryo bo'limiga aylantirilishi munosabati bilan Kengashga barham berildi. Amudaryo bo'limiga harbiy boshliq boshchilik qiladigan bo'ldi. U Rossiya bilan Xiva xonligi o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish vakolatiga ega bo'lgan.

1887-yildagi Nizomga ko'ra, Amudaryo bo'limi boshlig'i harbiy gubernatorga bo'ysunadigan bo'ldi. U Amudaryo bo'limidagi chor qo'shinlariga rahbarlik qilardi.

Xonlikda davlat boshlig'i rasman xon bo'lib, u mamlaktni amaldorlariga tayangan holda boshqargan. Markaziy boshqaruv idoralariga mansabdorlarni lavozimga tayinlash va vazifasidan ozod qilishni General-gubernatorning roziligi bilan uning yorlig'iga ko'ra amalga oshirgan. Xondan keyingi mansabdor Mextar bo'lib, u davlat xazinasiga boshchilik qilgan, davlat daromad va xarajatlarining hisobga olishga rahbarlik qilgan. Shimoliy qism aholisini boshqargan. U **Bosh vazir** hisoblanib, xon bo'lmaganda mamlakatni boshqargan. Barcha mansabdorlar unga bo'ysungan.

Ikkinchi vazir **Qushbegi**, mansab jihatidan Mextarga teng bo'lsada, u xon bo'lmaganda mamlakatni boshqarish huquqiga ega emas edi. U

janubiy qism o'troq aholisini boshqargan, o'lpon yig'ishga rahbarlik qilgan, sug'orish inshootlarini qazish ishlariga rahbarlik qilgan.

Uchinchi mansabdor-**Devonbegi** u xon kanselariyasini boshqargan, bojxona, gumruxxona va pul zarb qilish ishlariga rahbarlik qilgan.

Har birining o'z mahkamasi bo'lib, unda 3-4 kishi xizmat qilgan. Xonlikda fuqarolik da'volarini ko'ruvchi, qozikalon, qozi urdu yoki qozi askar, a'lam-shariat qonunlarini to'g'ri bajarilishini nazorat qiluvchi, savdo sotiq qoidalariga amal qilinishi, shaharni tozaligi va xavsizligini kuzatuvchi-raisi; qamoqxonalarni nazorat qilish; xonni qo'riqlash; mamlakatdagi tartib intizomni ta'minlash ishlariga, ko'chmanchi aholidan tuzilgan harbiy qismlarga boshchilik qiluvchi- yasovulboshi; suvdan foydalanish ishlari boshqarmasi boshlig'i, diniy ishlar boshlig'i Shayxuliislom kabi mansabdor bo'lgan.

Xonlik ma'muriy-hududiy jihatdan 20 ta viloyat va 2 ta noiblikka bo'lingan. Ular xonlar va noiblar tomonidan, ko'chmanchi aholi esa inoqlar-qabila boshliqlari, otaliklar-urug' boshliqlari tomonidan boshqarilgan.

Xonlikda Oliy sud hokimiyati xon qo'lida bo'lgan.

Xondan so'ng sudlov sohasida qozi kalonga keng vakolatlar berilgan. U o'lim jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lgan jinoiy ishlardan boshqa barcha ishlarini ko'rib hal qilgan. Harbiy xizmatchilarga taalluqli barcha ishlar qozi askar tomonidan hal qilinardi, joylarda sud hokimiyati qozilar qo'lida bo'lib, ular shariat qonunlariga binoan jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rib hal qilganlar, bitimlar va qarz haqidagi tilxatlarni tasdiqlagan, vasiyatlarining bajarilishi va meroslarning taqsimlanishini, vaqiflarni nazorat qilish, qarorlarni bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rar edi. Qozilar xon tomonidan o'z vazifasiga tayinlangan va o'z vazifasidan ozod qilingan.

Shaharlarda shariat qoidalarini buzilishi bilan bog'liq ishlar rais tomonidan ko'rib hal qilinardi.

Ko'chmanchi xalqlar yashaydigan hududlarda sud hokimiyati og'alar yoki og'alar Kengashi tomonidan odat qoidalari asosida amalga oshirilgan.

1873-yil avgustdagi "Sulx" shariatnomasiga ko'ra, xonlik hududida yashovchi Rossiya fuqarolari tomonidan sodir qilingan jinoyatlar, ular o'rtasidagi jinoyatlar Xiva fuqarolarining ruslarga nisbatan da'volari rus sudlari tomonidan imperiya qonunlari bo'yicha ko'rib hal qilingan.

Shaharlarda tartib intizomni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, qamoq, joylardagi maxbuslarni nazorat qilish mirshablarga yuklatilgan. Ularga **yasovulboshi** rahbarlik qilgan.

Nazorat uchun savollar

1. O'zbekiston davlati va huquqi tarixida yangi davrni boshlanishiga sabab nima?
2. Turkiston general-gubernatorligida markaziy va mahalliy boshqaruv qanday amalga oshirilgan?
3. Buxoro amirligi bilan chor Rossiyasi o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra, amirlikning tashqi faoliyati qanday amalga oshirilgan?
4. Xiva xonligi bilan Rossiyaning imperiyasi o'rtasida tuzilgan shartnomaning mazmuni nimadan iborat?
5. Ushbu davrda jinoyat va jazo masalalarini tahliliy o'rganing.
6. Turkiston general-gubernatorligida sud tizimi qanday faoliyat yuritgan?
7. Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Turkiston o'lkasida qanday huquq manbalari amalda bo'lgan?

Adabiyotlar:

8. I.A.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. T., O'zbekiston. 1994.
9. I.A.Karimov. Milliy istiqolol iqtisod, siyosat, mafkura. T., O'zbekiston. 1996. I-jild.
10. O'zbekistonning yangi tarixi. I-jild. T., Sharq. 2000.
11. O'zbekistonning yangi tarixi. II-jild. T., Sharq. 2000.
12. A.Saidov. J.Tashqulov. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. IIV Akademiyasi T., 1995 y.
13. A.Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T., Sharq. 2000y.
14. Z.Muqimov. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi".Samarqand-1998.
15. M.Hamidova. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi".Qo'llanma. T. TDYI. 2004.

Turkiston o'lkasida bolsheviklar hokimiyatini o'rnatilishi

Reja:

1. Turkistonda Sovet hokimiyatining o'rnatilishi.
2. TASSRning tashkil topishi va uning 1918, 1920 yillardagi Konstitutsiyalari.
3. 1918–20-yillardagi Turkiston qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlari.

1917-yil 27-fevralda Petrogradda burjua-demokratik inqilobi g'alabasi Turkiston o'lkasiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Natijada Turkistonda ham ishchi va soldat deputatlari Sovetlari va har xil toifalar vakillaridan tuzilgan ijroiya komitetlari tashkil etila boshlandi. Toshketning hamma dahalari vakillari to'planib «Sho'roi Islom» tashkilotini tuzishgan.

1917-yilning mart oyida o'lka muxtoriyati masalasi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida asosiy masala bo'lib qoldi. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish g'oyasi nafaqat demokratik ziyolilar o'rtasida, hatto oddiy fuqarolar orasida ham keng tarqalgan.

31-mart kuni rus podshosining o'lkadagi tayanchi- Turkiston general gubernatori hokimiyatni tark etdi. 1917-yil 7-aprelda Muvaqqat hukumat qarori bilan Shchepkin raisligida Turkiston komiteti tashkil qilingan 9 kishidan iborat bu komitet a'zolarining 4 tasi: Davlat Dumasining a'zosi A.Bukeyxonov, II chaqiriq Davlat Dumasi a'zosi Maxmudjon Tinishpayev, III chaqiriq Davlat Dumasining a'zosi Sadri Nizamovich Maqsudov va general mayor Abdulaziz Davlatshin bor edi.

Aslida, Muvaqqat hukumat Turkiston general-gubernatorligi bilan almashtirilib, o'lkani mustamlakachilik usulida boshqarishning tashqi lavhasigina o'zgartirilgan, uning mohiyati esa avvaligicha qolavergan. Natijada, Turkiston qo'mitasi bilan mahalliy jamoat tashkilotlari o'rtasida qarama-qarshilikni vujudga keltirdi.

Turkiston mahalliy aholisining oshib borayotgan ijtimoiy-siyosiy faolligi sharoitida Toshkentda 1917-yil 16-aprelda «Sho'roi Islomi»ning Toshkent tashkiloti tashabbusi bilan chaqirilgan Butunturkiston musulmalarining I-qurultoyi ish boshladi. Bu sye'zda o'lkadagi barcha tub xalqlarning vakillaridan iborat 150 ta delegat qatnashgan. Rayosat tarkibiga Munavvar qori, Ubaydulla Xo'jayev, Sherali Lapin, Mustafu Cho'kayev, Toshpo'latbek Norbutabekov, Ahmad Zaki Validiy, Sodiq Sattorov, I.Shoaxmedov, Abduraxmon O'razayev, Mulla Abdumaxmud

Maxmudov, Serekboy Akayev, Axmadbek Qo‘ybokarov, Sobirjon Yusupovlar hukumatga munosabat; Rossiyada idora qilish shakli to‘g‘risida; Ta‘sis majlisiga tayyorgarlik ko‘rish haqida; Turkistondagi mahalliy fuqarolar muassasalari; Turkistonda diniy-shariat muassasalari; maktablar, madrasalar va vaqflar; moliyaviy ishlar; avvalgi zamondan qolgan muassasalarni yangilash; Turkistondagi barcha musulmonlarga rahbarlik qiluvchi islom diniy boshqaruvini tuzish to‘g‘risida» oziq-ovqat masalasi; urushga munosabat; front ortida (mamlakat ichkarisida) xizmat qiluvchilar haqidagi masala; «Sho‘roi Islomni» o‘lka miqyosida birlashtirish to‘g‘risida; «Sho‘roi Islomiy»ning ijroiya qo‘mitalariga munosabat; Rossiya Umummusulmonlar syezdiga delegatlar saylash haqida; yer-suv to‘g‘risidagi masalalar kiritilgan edi.

Syezdning so‘nggi majlisida Markaziy rahbarlik organi – Turkiston o‘lka musulmonlar Sho‘roi (O‘lkamussho‘rosi)ni tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. O‘lka musulmon sho‘rolarini tuzish milliy harakatga uyushgan va markazlashgan tus bag‘ishlash uchun barcha tarqoq, bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan musulmon jamiyatlari, qo‘mitalari va ittifoqlarini birlashtirishni ko‘zda tutardi.

O‘lkamussho‘roning 1917-yil ...Bo‘lib o‘tgan majlisida Nizom qabul qilindi. Nizomga muvofiq barcha shahar, uyezd, volost, musulmon sovetlari va «Sho‘roi Islom», «Ravnaq-ul islom», «Mirvaj-ul-islom», «Muallimlar jamiyati», «Talabalari jamiyati» kabi boshqa jamoat tashkilotlari milliy va sinfiy tafovutlariga qaramay, musulmon deputatlari volost, uyezd va shahar Sho‘rolariga birlashishlari, ularning hammasi birgalikda musulmon deputatlari Turkiston Markaziy Sho‘rosiga bo‘ysunishlari lozim edi. O‘lkamussho‘ro biron-bir sinf, partiya yoki qabilalarning organi bo‘lmay, balki qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi vakolatli umummusulmon rahbarlik organi sifatida tuzilayotgani haqida aniq izoh berilgan edi.

Dasturda yozilishicha, muxtor jumhuriyatlar parlamenti va mahalliy o‘z-o‘zini boshqaruv tashkilotlariga saylovlar, umumiy asosda, yashirin ovoz berish yo‘li bilan amalga oshiriladi, millatning 20 yoshga yetgan barcha a‘zolari jinsi, sinf yoki dinga mansubligidan qat‘i nazar teng saylov huquqiga ega bo‘lib, o‘zlari ham saylana oladilar. Musulmon ayollarining saylovdagi ishtiroki esa «shariat qonun-qoidalari asosida o‘tishi lozim»¹¹ deyiladi.

Jumladan, ular o‘z dasturlarida muxtoriyatga erishgan o‘lkalar ichki boshqaruv masalalarida, moliya, shariat, madaniyat, adliya va xalq maorif

¹¹ Fan va turmush. T., 1990-y. 7-son.

masalalarida mustaqil bo'lmog'lar kerak, degan fikrni olg'a suradilar. Bunda har bir respublika, viloyat, uyezd'larga bo'linib, ularga mahalliy o'z-o'zini boshqarish huquqi, Rossiyada yashab kelayotgan barcha turkiy millatlar va elatlarga esa tegishli masalalarni hal etish yuzasidan umumiy milliy-madaniy uyushma tashkil etish huquqi berilishi lozimligi ta'kidlandi.

Diniy masalalarni hal etish uchun maxsus «Mahkamai sharia» tashkilotini tuzishni, uning viloyatlardagi boshqarmalariga, qishloqlarda esa bo'linmalari bo'lgan qozixonalarga topshirilishi ko'zda tutilgan.

Rossiya musulmonlariga taalluqli barcha muammolarni hal etish uchun Shayxulislom tomonidan boshqariladigan umumiy kengash saylash mo'ljallangan.

Dasturda fuqarolarning huquqlariga bag'ishlangan bo'lim, ayniqsa, e'tiborga loyiq bo'lib, unda «Jumhuriyatning butun aholisi, dini va millatidagi farqidan qat'i nazar, qonun oldida bir xil javobgardir» deb qayd etilgan edi.

Vijdon erkinligi, ayniqsa, shaxs daxlsizligi ya'ni shaxs hibsga olingandan so'ng 24 soat ichida ayb e'lon qilinishi, pasport tartibini bekor qilish, soliq hajmi daromad va foydadan kelib chiqqan holda belgilanishi zarurligi, barcha davlat mulklari musodara qilinib, aholiga ijara uchun berish yoki fuqarolarga sotish taklif etildi.

Dasturda ishchilar uyushmalari, jamiyatlar tuzish, ish tashlash usuli bilan o'z huquqlarini himoya qilishi mumkinligi bayon etildi. Uning himoya qilish uchun alohida qonunlar zarurligi to'g'risida maxsus modda kiritilgan.

Muxtor jumhuriyatning qonuniy tizimi sud va yustitsiya tashkilotlari biror kimsaning aralashuvidan holi bo'lib, faqat shariat va qonunga bo'ysunmog'i zarurligi, sud ishlari advokat ishtirokida olib borilishi lozim.

Bilim olish huquqi, maktabning mustaqilligi, boshlang'ich maktab bepul, umumta'lim majburiyligi, o'qitish tillari haqida to'xtalib o'tilgan.

O'lkamushshuroning tashkiliy bo'limi tarkibi quyidagilardan : ya'ni, Zaki Validiy, Farid Toxiriy, Tolibjon Musoboy, Yamin Yanboyev, Muhammadamin Afandizoda, Nizomiddin Asaliy, qori Ziyoboy, Murodxo'ja Salimxo'ja, Shokirjon Raximiy, Tuzel Jonboy, Abdulla Avloniy, Salohitdin Muftizoda, Piri Mursilzoda va Muhammadjon Poshshaxo'jayevlardan iborat bo'lgan.

O'lkamushsho'ro huzurida maorif bo'limi ham tashkil qilingan. Uning tarkibiga Munavvar qori, Zaki Validiy, Burxon Xabib, Po'latxon Poshshabekov, Abdulqosi Aminzoda, Abdusalim qori, Rustambek

Yusufbek, Ibrohim Tohiriy va boshqalar saylangan. Turkistonning birligi va yaxshi tomon muhim qadam qo'yildi.

Birlashish jarayonlari har doim ham bir tekisda rivojlanavermaydi. Munavvar qori boshchiligidagi, Sho'roi Islomiyadagi 1917-yil iyun oyida asosan diniy ulamolardan tashkil topgan «Sho'roi Ulamo» ajralib chiqqan.

Toshkentdagi ishchi va soldat deputatlari Soveti musulmonlar o'rtasidagi ushbu bo'linishdan ustalik bilan foydalanishga urinishgan. Sentabr voqealari natijasida Toshket Soveti hokimiyatni qo'lga olishga harakat qilgan.

1917-yil 10-sentabrda Toshkentda Butunturkiston musulmonlarining II-qurultoyi ochildi. Ushbu qurultoy hokimiyatni soldat ishchi va dehqon deputatlari Sovetlariga berishga qarshi chiqdi. Sentabr voqealari jamiyatdagi siyosiy qarama-qarshiliklarni keskinlashtirib, o'lkadagi ishchilar harakati bilan milliy harakatning keyingi yo'llarini bir-biridan ajratib yubordi.

Toshketda 1917-yil 17-20-sentabrda Turkistonlik va qozoq musulmonlarining qurultoyida «Sho'roi Islomiya», «Sho'roi Ulamo», «Turon» va boshqalarni birlashtirish yo'li bilan butun Turkiston va uchun umumiy bo'lgan «Ittifoqi muslimin» degan siyosiy partiya tuzishga qaror qilingan.

«Ulamochilar» qurultoyidagi asosiy masala Turkiston o'lkasining bo'lg'usini siyosiy boshqaruvi to'g'risida bo'lib, unda demokratik Rossiya tarkibida hududiy federatsiya «Turkiston federativ Respublikasi» tuzilishi g'oyasi olg'a surildi. Fevral inqilobining ta'siri bilan Turkistonda kasaba uyushmalari ommaviy ravishda tashkil etildi, mahalliy xalqlar tillarida gazetalar chiqa boshladi.

1917-yil sentabr oyida bolsheviklashgan Toshkent Soveti soldatlarni va asli Rossiyalik ishchilarni o'z tomoniga torta olgan edi. Toshkentdagi oktabr to'ntarishi qatnashchilari 1-noyabrda Bosh komissar general Korofichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston komitetini qamoqqa olishgan va shu kuni Turkistonda Sovet hokimiyatini o'rnatilganligi e'lon qilindi. Qurollangan rusiyzabon ishchilar, asosan temiryo'lichilar, Toshkent garnizonining soldatlari bilan birgalikda bir guruh mahalliy binokor ishchilarning xayrihoxligi bilan davlat to'ntarishini o'tkazdilar.

Turkiston bolsheviklari o'lkadagi butun hokimiyatni o'z qo'llariga olish uchun shafqatsiz kurash olib bordi.

1917-yil 15-22-noyabrda Toshkent shaharda bo'lib o'tgan ishchi soldat va dehqon deputatlarining III o'lkasida hokimiyat masalasi hal qilindi. Bunda 15 kishidan iborat Turkiston Xalq Komissarlari Soveti

tuzildi. (18 soʻl esar va 7 bolshevik). Hukumatga mahalliy aholidan birorta ham vakil kiritilmadi. Sherali Lapin boshchiligidagi «Ulamochi»lar, menshevik va soʻl eserlarning Oʻlka Soveti tarkibiga musulmon vakillarini ham kiritish borasidagi takliflari inobatga olinmadi.

Rossiya Xalq Komissalari Soveti 2 noyabrda «Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi va 20-noyabrda «Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga» murojotnoma eʼlon qildi. Deklaratsiyada xalqlarning oʻz taqdirini oʻzi belgilash huquq rasmiy ravishda tan olindi; hattoki ajralib chiqish va mustaqil davlat tuzish huquqi berildi; hamma va har qanday milliy va mustaqil davlat tuzish huquqi berildi; hamma va har qanday milliy, diniy va boshqa cheklanishlar bekor qilindi.

Koʻp oʻtmay, Turkiston XKS «Shoʻroi Islomiya», «Shoʻroi Ulamo» tashkilotlarini tarqatib yuborilgan.

2. Turkiston ASSRning tashkil topishi va uning 1918-1920-yillardagi Konstitutsiyalari.

1917-yil 26-28-noyabrda Qoʻqon shahrida Turkiston oʻlkasi musulmonlarining favqulodda 4-qurultoyi boʻlib oʻtdi. Qurultoyda demokratik musulmon ziyolilar talabi bilan Turkiston aholisining yevropali vakillari ham keng huquqli boʻlib ishtirok etishgan. Turkistonning boshqarish tuzumi toʻgʻrisidagi masala uch kun davom etgan qurultoyning diqqat markazida turgan.

Qurultoyning barcha viloyatlaridan vakil boʻlib kelgan qariyb 200 ga yaqin qatnashchilari bilan muxtoriyat va mustaqillik eʼlon qilish gʻoyasini qoʻllab-quvvatladilar.

Qurultoyda qabul qilingan qarorda «Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi daʼvat etgan xalqlarning oʻz taqdirini oʻzlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Rossiya tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb eʼlon qildilar».

28-noyabrda tarkib topayotgan davlatning nomi aniqlanib «Turkiston muxtoriyati» deb ataladigan boʻlgan. Butunrossiya taʼsis majlisi chaqirilgunga qadar, hokimiyat Turkiston Muvaqqat kengashi va Turkiston xalq (millat) majlisi qoʻlida boʻlishi kerak edi. Turkiston Muvaqqat kengashi aʼzolaridan tuzilgan Muvaqqat hukumati hayʼati tarkibiga 8 kishi Muhammadjon Tanishboyev – bosh vazir, ichki ishlar vaziri, Islom Shoaxmedov bosh vazir oʻrinbosari, Mustafu Chukay- tashqi ishlar vaziri, Ubaydulla Xoʻjayev- harbiy vazir saylandi, ulardan 4 oʻrin rusiy zaban aholi vakillariga ajratilgan.

Qurultoy jarayonida Turkiston Millat majlisi 54 kishidan iborat qilib saylandi, shunday 2/3 qismi, yaʼni 36 nafari mahalliy aholidan edi.

Turkiston Muxtoriyati hukumati qisqa fursat ichida xalq o'rtasida katta e'tibor qozondi. Fitrat muxtoriyat e'lon qilingan kunni «milliy laylaturqadrimiz» deb atadi.

Turkiston Muxtoriyatini ko'pgina nomusulmon firqa va jamoat tashkilotlari ham qo'llab-quvvatladilar. Shaharlarda tantanali namoyishlar bo'ladi, milliy va rus matbuotida uni madh etuvchi, barcha millatlar manfaatiga mos ekanligi haqida o'nlab maqola va chaqiriqlar bosiladi. Shunga qaramay, u 72 kun hayot ko'rdi. Sho'ro hukumat 1918-yil fevralida Muxtoriyatni va Qo'qon shahri aholisini qonga botirdi, uch kunlik qirg'inda shaharda 10 000 kishi o'ldirildi.

Turkiston Muxtor Sovet Respublikasi Turkiston o'lkasi Sovetlarining V qurultoyida tashkil etildi. O'lka Sovetlarining qurultoyi 1918-yil 20-aprelda o'z ishini boshladi. Unda 263 ta mandatga ega bo'lgan vakillar qatnashdilar. Shulardan 86 kishi firqasiz edi. Qurultoy ishtirokchilarining atiga 20%gina mahalliy xalq vakillarini tashkil etardi.

23-26-aprel kunlari qurultoy sanoat korxonalarini milliy lashtirish, temir yo'l trasportidagi ishlarning borishi, yer-suvga doir tadbirlarni amalga oshirish, harbiy qurilish, Turkistondagi oziq-ovqat masalasining ahvoli kabi masalalarni muhokama qildi va qaror qabul qildi. 27 aprelda qabul qilingan «Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining navbatdagi vazifalari to'g'risida»gi deklaratsiyasida ochiqdan ochiq mustamlakachilik ruhidagi qaror qabul qilindi. Unda: «Turkiston Rossiya Federatsiyasining tarkibiy qismi bo'lib qoladi» deyilgan edi.

30-aprelda shaxsan V.I.Leninning ko'rsatmasiga asosan, qurultoy RSFSR tarkibiga kiruvchi Turkiston Muxtor Sovet Respublikasini tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi va shu davlat to'g'risidagi Nizom qabul qilinadi. Turkiston Muxtor Sovet Respublikasi haqidagi Nizomga ko'ra:

1) Turkiston o'lkasi Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi deb e'lon qilindi va unga Xiva va Buxorodan tashqari butun Turkiston jug'rofiy hududi kiritildi.

Turkiston ASSR 1918-yil Konstitutsiyasi Turkiston Respublikasining quyidagi mustaqil huquqlarini belgiladi:

- 1) Konstitutsiya miqyosida belgilangan qonunchiliklar;
- 2) Turkiston Respublikasining yerlari, suvlari va zahiralarini tasarruf etish va boshqarish;
- 3) Mehnatga haq to'lash me'yorlari va lavozimlarni, boshqaruvning federal hukumat sohalaridan boshqa barcha sohalariga mansabdor shaxslarni tanlash, federal hukumatlarga nisbatan o'z ixtiyoriga ko'ra nomzodini qaytib olish va nazorat qilish huquqini ta'sis etish;

4) Federal hukumat tomonidan qabul qilingan mahalliy shart-sharoit, harbiy muassasalar asoslariga nisbatan qo'llanadigan o'zgarishlar;

5) Mahalliy xo'jalik, qo'shnichilik va militsiya masalalari bo'yicha federal vakillar orqali yon mamlakatlar bilan bevosita munosabatda bo'lish;

6) Rossiya federatsiyasi miqyosida qarz va moliyaviy bitimlar;

7) Federal soliq va to'lovlardan tashqari boshqa soliqlarning o'rnatilishi;

8) Respublikaning maishiy xususiyatlarini hisobga olgan holda fuqarolik va jinoiy sud tizimi va sudlov asoslari, shuningdek, fuqarolik va jinoyat qonunlarining o'zgarishlari;

9) Turkiston Respublikasi miqyosida umumiy va qisman amnistiya;

10) Vakolatxona me'yorlariga nisbatan saylov qonunining o'zgarishlari;

11) Turkiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi viloyat va milliy uyushmalar chegara va vakolatlarini belgilash va o'zgartirish kiritish, o'zaro bahslarning yechimini topish;

12) Turkiston Respublikasi tarkibiga Rossiya federatsiyasi miqyosida yangi a'zolarining qabul qilinishi va unga ilgari a'zo bo'lganlarning chiqishini tasdiqlash;

13) Turkiston Respublikasi umumiy ma'muriy-hududiy bo'linishi;

14) Turkiston Respublikasi hududida federal hukumat tomonidan ishlab chiqilgan xo'jalikni rivojlantirish rejalariga asoslangan xalq xo'jaligi rejasining o'rnatilishi;

15) O'z budjetiga ega bo'lish;

Ko'rsatilgan huquqlarni belgilashda Turkiston Respublikasining markazdan uzoqligi, ulkan hududi, etnografik, topografik va maishiy xususiyatlari e'tiborga olindi. Mazkur xususiyatlar Turkiston Kengashining IX-syezdi tomonidan Turkiston ASSRning mustaqil huquqlarini mustahkamlagan yangi Konstitutsiyasini tasdiqlashda ham hisobga olingan. Turkiston ASSRning 1920-yilgi Konstitutsiyasi TASSRning 1918-yildagi Konstitutsiyasining Turk Respublikasining huquqlari to'g'risidagi ayrim bandlariga aniqlik kiritdi, ayrimlarini chiqarib tashladi. Shunday qilib, TASSRning 1920-yil Konstitutsiyasiga muvofiq, Turkiston Respublikasi quyidagi mustaqil huquqlarini amalga oshirdi:

1) Turkiston Respublikasi sarhadlarida joylashgan yer, yer osti boyliklari va suv zahiralari tasarruf qilish;

2) Konstitutsiyada belgilanganidek qonunchilik va boshqaruv;

3) Lavozimlar ta'sis qilish va ish haqi me'yorlarini belgilash, federal hukumatlariga tegishli bo'lmagan boshqaruvning boshqa barcha sohalari mansabdor shaxslarini tanlash va tayinlash;

4) Federal hukumat tomonidan belgilangan soliq va to'lovlardan qat'i nazar soliq va to'lovlarni belgilash;

5) Respublikaning mehnat qiluvchi aholisiga tatbiq qilinadigan sud tizimi va sudlov asoslari huquqiy me'yorlarini belgilash;

6) Turkiston ASSR tarkibiga kiruvchi viloyat va milliy uyushmalar hududlari chegaralari va vakolatlarini belgilash va o'zgartirish;

7) Turkiston ASSR ma'muriy-hududiy bo'linishini belgilash;

8) Turkiston ASSR miqyosida umumiy va qisman avf etish va amnistiya;

9) Turkiston ASSR budjetini belgilash va tasdiqlash uchun Butunittifoq markaziy ijroiya qo'mitasiga taqdim qilish;

Turkiston ASSR 1920-yilgi Konstitutsiyasi Turkiston Respublikasining quyidagi huquqlarini chiqarib tashladi:

A) Federal hukumat tomonidan qabul qilingan mahalliy shart sharoitlarga asoslangan qarbiy muassasalarni o'zgartirish huquqi;

B) Mahalliy xo'jalik, qo'shnihilik va militsiya masalalari bo'yicha federal vakillar orqali yon mamlakatlar bilan bevosita munosabatda bo'lish huquqi;

V) Rossiya federatsiyasi miqyosida qarz va moliyaviy bitimlar huquqi;

D) Turkiston Respublikasi tarkibiga Rossiya federatsiyasi miqyosida yangi a'zolarining qabul qilinishi va unga ilgari a'zo bo'lganlarning chiqishini tasdiqlash huquqi va boshqa huquqlar.

Turkiston ASSRning 1918-yilgi Konstitutsiyasida mudofaa, tashqi aloqalar, pochta, telegraf, dengiz ishi, temir yo'llar, tashqi savdo, sanoat va moliya federal boshqaruv vakolatlariga mansubligi ko'rsatilgan bo'lsa-da, shunga qaramay bu masalalar bilan bevosita turkiston markaziy ijroiya qo'mitasiga bo'ysunuvchi maxsus kommissariatlar shug'ullangan.

TASSRning 1918-yilgi konstitutsiyasiga ko'ra Turkiston Respublikasida Tashqi ishlar bo'yicha Kommisariat, Harbiy Ishlar bo'yicha Kommisariat, Pochta va Telegraflar Kommisariat, Moliya Ishlari bo'yicha Kommisariat, Aloqa yo'llari bo'yicha Kommisariat va boshqalar faoliyat ko'rsatgan. O'sha paytda federal organlar va Turkiston Respublikasi organlari o'rtasida faoliyat doiralari chegaralanishi hal bo'lmagan.

Boshqa sovet respublikalaridagi bo'lgani kabi Turkiston ASSRning xarakterli belgisi avtonomiyaning Sovet hokimiyati asosida, proletariat diktaturasi prinsiplari asosida qurilganligi edi.

Davlat va jamiyat tashkilotlarining tizimida yetakchi o'rinni Turkiston Kommunistik Partiyasi – ishchilar kommunistik partiyasining tarkibiy va bo'linmas qismi egallagan.

Nazorat uchun savollar

1. XX asrning boshlarida Turkiston o'lkasining ma'muriy tuzilishi qanday edi?
2. Fevral demokratik revolyutsiyasi Turkiston o'lkasini siyosiy sharoitiga qanday ta'sir qilgan?
3. «Shuroi Islomiy»ning maqsad va vazifalari nimadan iborat?
4. I-Butun Turkiston musulmonlar syezdining ahamiyati nimalardan iborat?
5. Ushbu davrda qabul qilingan Konstitutsiyalarni tahliliy o'rganing.

Adabiyotlar:

1. История Советского государства и права Узбекистан. Т.Издательство Академии Наук Узбекской ССР. 1960 г. 1-том.
2. O'zbekiston Sovet Mustamlakachiligi davrida. T.Sharq. 2000 y. Ikkinchi kitob.
3. S.A'zamxo'jayev. Turkiston muxtoriyati. T. Fan. 1996 y.
4. P.M.Абдуллаев. Национальные политические организации в Туркистане в 1917-1918 гг. автореферат дис. Доктор. Истр. Наук. Ташкент, 1998.
5. O'zbekiston tarixi. T. «Universitet», 1999.
6. R.Qayumov. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. T. Adolat. 1998 y.
7. M.Hamidova. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi". T. TDYL. 2004.

O‘zbekistonning 1920-1980-yillardagi davlati va huquqi

1. 1920-yillarda O‘zbekiston davlati va huquqi.

2. O‘zSSRning 1937-yil Konstitutsiyasi bo‘yicha davlat tuzulishi va huquqi.

3. O‘zSSRning 1978-yildagi Konstitutsiyasi bo‘yicha davlat tuzulishi va huquqi.

1920-yillarga kelib, O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi ulkan o‘zgarishlarga boy bo‘ldi. Bu tarixiy o‘zgarishlar bevosita O‘zbekiston hududida tashkil topgan davlatlar va ularning huquqiy tizimlari bilan bog‘liq.

Xivada 1920-yil 1-fevralda Xon hukumati ag‘darilib, “xalq inqilobi” tufayli hokimiyat besh kishidan iborat Vaqtli hukumat qo‘liga o‘tdi. Vaqtli hukumat manifest e‘lon qilib, “Xiva inqilobchilari mamlakatni Xon va uning hukumati tomonidan boshqarilishiga barham beradi va uning xonadoniga, ministrlariga tegishli mulk va mablag‘lar musodora qiladi” deyilgan. Muvaqqat hukumat 1920-yilning 26-aprelida xalq vakillarining Butun Xorazm I qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligini va 30-aprelda Respublika Konstitutsiyasi qabul qilinganligini e‘lon qildi. XXSR bilan RSFSR o‘rtasida iqtisodiy shartnoma tuzildi.

Konstitutsiyada davlat hokimiyatining Oliy organi butun-Xorazm Sovetlarining qurultoyi ekanligi ko‘rsatilgan. 1921-yilning mayida bo‘lib o‘tgan XXSR Sovetlarining II qurultoyida Konstitutsiyaga kiritilgan qo‘shimchaga binoan, Sovetlar qurultoylari davrda Sovetlarning qurultoyida saylanadigan Markaziy Ijroiya qo‘mita Oliy qonun chiqaruvchi, ijroiya va nazorat vazifalarini amalga oshiruvchi idora etib belgilangan. Konstitutsiyaga binoan Oliy ijroiya-farmoyish beruvchi idora qilib XXSR Xalq Nozirlar Kengashi belgilangan.

Konstitutsiya VI bo‘lim, XV bob va 87 moddadan iborat edi. Birinchi bo‘lim kirish qismi va III bobdan iborat edi. Ikkinchi bo‘lim XXSR Konstitutsiyasining Umumiy qoidalari deb atalib, respublikaning ijtimoiy-siyosiy tuzumi fuqarolarning huquq va burchlariga bag‘ishlangan edi.

Uchinchi qism davlat hokimiyati va boshqaruvining mahalliy va markaziy organlari, to‘rtinchi qism saylov huquqi, beshinchi budjet huquqi, oltinchi gerb va bayroq haqidagi qoidalardan iborat bo‘lgan.

Konstitutsiya – RSFSRning 1918-yilgi Konstitutsiyasi asosida qabul qilingan.

Respublikada xususiy mulk, sohibkorlik va savdo oboroti bilan shug'ullanishning to'la ozodligi saqlab qolinishi e'lon qilindi. "Shaxslarga erkin holda kommertsiya ishlari bilan shug'ullanish huquqi berildi", kommertsiya va savdo kompaniyalarini tashkil qilishga qarshilik qilinmadi (Konstitutsiyaning 16-moddasi). Ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik saqlab qolindi. Xon va uning avlodlariga, amaldorlariga tegishli yerlar musodora etilib, yersiz dehqonlarga bo'lib berildi. Vaqf yerlari saqlab qolindi. XXSR iqtisodi davlat sektori, kooperativ sektor, yakka xo'jalikchi dehqon va hunarmandlar sektori, feodal kapitalistik (xususiy) sektorlar iborat edi.

Oliy qonunchilik va hokimiyat organi – xalq vakllari Umum Xorazm qurultoyi hamda Umum Xorazm Markaziy Ijroiya qo'mitasi va uning Prezidentidan iborat bo'lib, 4 ming aholidan 1 ta deputat, 100 askarlardan bir vakil tartibida tashkil topdi.

Davlat boshqaruvining oliy organi Xalq Nozirlar Soveti edi. Dastlab yetti nozirlik – harbiy, moliya, davlat nazorati, iqtisodiy, tashqi ishlar, madaniyat va maorif, yustitsiya nozirliklaridan iborat edi. Yustitsiya nozirligida rais va 3 ta a'zo tarkibida Oliy Inqilobiy sud tuzilib, jinoyatchilarga nisbatan eng oliy jazo – otib o'ldirishga qadar jazolar tayinlash huquqi berildi. Umum-jinoiy va grajdanlik ishlarini ko'rib hal etish uchun esa, yustitsiya nozirligida Xalq sudi tuzildi. Xiva shahrini qo'riqlash maqsadida ushbu komissarlik tarkibida militsiya boshqarmasi ham tuzildi. Yangi mahalliy organlar Kengashlari tuzilgan.

Saylovlar ko'p pog'onali tuman ijroiya komitetlari ikki pog'onali, Oliy hokimiyat organlariga esa uch pog'onali amalga oshirilgan.

1923-yilning oktabrida Umum Xorazm Sovetlarining IV qurultoyi XXSSR deb e'lon qilindi. Nozirlar Kengashi vazifasini XSSR MIK xodimlari bajaradi deb belgilandi. Bu ishni amalga oshirish uchun maxsus komissiya tashkil qilingan. Nozirlar Kengashining raisi lavozimi tugatildi va uning vazifasi MIK raisiga yuklatilgan.

Qozilar o'rniga yangi sudlar, qishloqlarda esa Sho'rolar Kengashi tuzilgan. Qabul qilinayotgan dekretlarning deyarli hammasi uchun asos qilinib shariat qonunlari qabul qilingan edi. Jumladan "Sudxo'rlik ishlarini amalga oshirish to'g'risida"gi dekretga muvofiq sudxo'rlardan 20 foizdan ziyod qarz olgan barcha qarzdorlarning qarzi bekor qilindi. Berilgan kreditning 10 % dan ortiq olgan sudxo'rlar bir yildan besh yilgacha qamalish belgilanadi. Syezd qabul qilgan qonunlardan biri "Vaqf yerlari

haqidagi qonun” bo‘lib, u machit va madrasalar, diniy tashkilotlarga tegishli bracha mulklar davlat mulki deb e‘lon qilindi. hosilning 10/1 qismi davlat solig‘i sifati to‘lanishi belgilan. Mehnatkashlarning mavjud huquq va erkinliklari kengaytirildi, xususiy mulk bekor bo‘lgan, mulkdorlarni, ruhoniylarni, aksilinqilobiy kuchlarning saylov huquqlari bekor qilingan.

1920-yilning sentabrida Buxoroda to‘ntarish natijasida amir hokimiyati ag‘darib tashlangan. Shu yilning 6-oktabrida Buxoroda Umumbuxoro Xalq Vakillari birinchi qurultoyi ish boshladi va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi deb e‘lon qildi. 1921-yilning 4-martida BXSr bilan RSFSR o‘rtasida “Ittifoq shartnomasi”, “Iqtisodiy bitim” imzolandi. Bunga ko‘ra RSFSR BXSr’ga ishlab chiqarish qurollari, texnikaviy yordam, materiallar yetkazib berish majburiyatini oldi.

1920-yilning 23-sentabrida Buxoro Sovetlarining qurultoyi uning birinchi Konstitutsiyasini qabul qilgan. Konstitutsiya RSFSRning 1918-yildagi Konstitutsiyasiga asoslandi. Konstitutsiyada Umumbuxoro Xalq deputatlari syezdi Oliy hokimiyat organi hisoblanib, 2 ming kishidan bir deputat miqdorida saylangan. Uning sessiyalari doimiy organ bo‘lgan. Butun Buxoro Xalq Sovet Respublikasining hukumati Xalq Nozirlari Soveti ustidan nazorat organi hisoblanib, uning muhim qarorlarini tasdiqlagan.

1920-yilning 14-sentabrida Birinchi Xalq Nozirlar Kengashi 9 ta a‘zo (Xalq Komissarligi) tarkibida tuzilgan bo‘lib, u Umumbuxoro Ijroiya Komiteti tomonidan rais, uning ikki o‘rinbosari hamda Xalq nozirlari: Yustitsiya, ichki ishlar, harbiy ishlar, maorif, sog‘likni saqlash, mehnat va ijtimoiy ta‘minot, savdo va sanoat, soliq, qishloq xo‘jaligi hamda davlat nazorati tarkibida tuzilgan. (Konstitutsiyaning 31,38,39-m.m.) Keyinchalik qishloq xo‘jaligi, moliya va iqtisod Xalq Nozirliklarini birlashtirib Xalq Xo‘jaligi Oliy Kengashi (VSNX) tashkil qilindi. Rais, uning o‘rinbosari, uchta bo‘lim 1) Markaziy Moliya boshqarmasi; 2) Markaziy yer-suv boshqarmasi; 3) savdo va sanoat boshqarmalari tarkibida tuzildi. Ushbu tashkilot Xalq Nozirlar Kengashi, Buxoro Iqtisodiy Kengashi nomlari bilan qayta nomlangan. BXSr viloyat, tuman, kent Sovetlari va ularning ijroiya komitetlari tashkil qilinib, mahalliy boshqaruvni amalga oshirgan.

1923-yilning 23-sentabrida Buxoro MIK qoshida Turkman bo‘limi tashkil qilingan. Uni turkmanlardan bo‘lgan shaxs boshqargan. Tojiklar ko‘pchilikni tashkil qilgan, Sharqiy Buxoro alohida huquqiy rejim asosida komissiya orqali boshqarilgan. O‘z Nizomiga ko‘ra komissiya cheklanmagan harbiy va fuqarolik hokimiyatini amalga oshirgan, sud hokimiyatidan foydalangan. Bundan tashqari Nurota va O‘rta cho‘lda

qozoq va qirg'iz milliy tumanlari, Chorjo'y, qarshining bir qismini o'z ichiga olgan Turkman rayonlari tuzilgan.

Buxoroda qozi sudlari tiklanib, 1924-yilda 57 ta qozi sudlari faoliyat ko'rsatgan.

1924-yilda BXSRda sud tuzilishi bo'yicha Nizom qabul qilinib xalq sudlari – qozi sudlari; okrug sudi; Oliy sud tuzilgan. Qozi sudlari ishlarni shariat huquqi asosida faoliyat ko'rsatgan.

1922-yildan boshlab Buxoro hududida RSFSR qonunlari joriy qilingan. Davlatga qarshi jinoyatlar faqat RSFSR JK va JPK asosida ko'rilgan. 1923-yilda Respublika Prokuraturasi tuzilib, uning boshida yustitsiya Xalq Komissarlarining birinchi o'rinbosari turgan. Uning yordamchisi Respublika Oliy sudi huzuridagi Prokuror funksiyasini bajargan, viloyat prokurorlari unga bo'ysungan.

1924-yilning 19-sentabrda Umumbuxoro qurultoyi BXSRni Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi deb e'lon qilindi.

Turkiston o'lkasida Sovetlar hokimiyatini o'rnatilishi va V.I.Lenining ko'rsatmasiga binoan, o'lkani milliy respublikalarga bo'lib yuborish amalga oshirilgan. 1924-yilga kelib, Turkiston hududida O'zSSR va uning tarkibiga kiruvchi Tojikiston ASSR, Turkmaniston SSR, RSFSR tarkibiga kiruvchi Qoraqirg'iz avtonom viloyati, Qozog'iston ASSR tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog'iston avtonom viloyati tashkil etilgan.

1925 yil 19 fevralida Buxoroda O'zbekiston Sovetlarining 1-qurultoyida "O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil qilinishi to'g'risida"gi Deklaratsiya qabul qilingan. Bunda Turkiston, Buxoro viloyati Xorazm hududidagi respublikalar asosida milliy davlat chegaralanishi natijasida O'zbekiston Respublikasi tashkil bo'lganligi e'lon qilindi. Bu respublika Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo, Zarafshon, Surxondaryo va Xorazm viloyatlaridan va Tojikiston Avtonom Respublikasidan tashkil topdi.

1925-yilda O'zbekiston Respublikasini SSRni tarkibiga qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Sovetlarining 1927-yil 30-martda bo'lib o'tgan 2-qurultoyida O'zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Konstitutsiyaga, "Mehnatkash va ekspluatatsiya qilinuvchi xalqlar huquqlari" Deklaratsiyasi, "O'zbekiston SSRni tashkil qilinishi to'g'risida"gi Deklaratsiyasi, SSSR Sovetlari 3-syezding "O'zbekiston SSRni Ittifoq tarkibiga qo'shish" to'g'risidagi qarori, SSSRning 1924-yilgi Konstitutsiyasi asos qilib olindi. Konstitutsiya 8-bo'lim, 17-bob, 114-moddadan iborat.

Konstitutsiya O'zbekiston SSRning tashkil qilinganligi, O'zbekiston hududida proletariat diktaturasi o'rnatilganligini milliy davlat tuzilganligini, xususiy mulk bekor qilinganligini qonunlashtirgan.

Shuningdek, Konstitutsiyada O'zbekiston SSR ishchi va dehqonlarning sotsialistik davlati ekanligi, unda butun hokimiyat ishchi dehqon va qizil askar deputatlari Sovetiga o'tganligi, asosiy ishlab chiqarish qurollariga nisbatan davlat mulkchiligi belgilanganligini e'lon qilgan.

Konstitutsiya bo'yicha, O'zbekiston SSRning davlat hokimiyatining Oliy organi O'zbekiston Sovetlar qurultoyi, qurultoylar o'rtasidagi davrda Sovetlar Markaziy Ijroiya qo'mitasi, uning sessiyalari orasida MIK Prezidiumi, Oliy boshqaruv organi respublika Xalq Komissarlar Soveti, mahalliy davlat hokimiyati idoralari okrugi va tumanlarda Sovetlar qurultoyi, qurultoylar o'rtasida davrda Sovetlarning Ijroiya qo'mitalari, shahar va qo'rg'onlarda Sovetlar sessiyalari o'rtasidagi davrda ularning ijroiya qo'mitalari qishloqlarda qishloq Sovetlari etib belgilangan.

Doimiy ishlab turuvchi O'zbekiston MIK hukumat va boshqa vazirliklarning davlat organlari faoliyatini boshqarib turish, ularni ishlarini muvofiqlashtirish, Konstitutsiya va boshqa qonunlarning bajarilishini nazorat qilib borish bilan shug'ullanishi belgilandi.

Konstitutsiyada fuqarolarning huquqiy holati, ularning huquq va erkinliklari ham ko'rsatilgan edi va unda "mehnatkashlar" va "fuqaro" tushunchalari izohlab o'tilgan. Shu bilan birga mehnatkashlarning huquq va erkinliklariga alohida e'tibor berilgan.

Konstitutsiya mehnatkashlarga o'z fikrini erkin bildira olish, majlis qilish, birlashmalar tuzish huquqini berdi.

O'zbekiston tarkibida Tojikiston ASSR O'zbekiston tarkibiga kirganligini inobatga olib, Konstitutsiyaning tegishli boblari, gerbida, o'zbek, tojik va rus tillarida yozib qo'yildi.

1925-yilda vaqf mulkchiligi instituti huquqiy jihatdan rasmiylashtirildi. O'zSSR MIK va XKsning 1925-yil 19-dekabrda "Vaqf haqidagi qarori" ga asoslanib, qabul qilingan GKning 52-moddasidagi eslatmaga asosan vaqf mulklari davlat mulklari deb hisoblanadigan bo'ldi.

Respublika XKS qoshidagi Vaqf Bosh Boshqarmasi, joylarda esa, uning bo'limlari tashkil etilgan.

1929-yilda Xo'jand viloyati Tojikistonga berilib, Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritiladi. Tojikiston Sovetlarining uchinchi syezdida Tojikiston ASSR, Tojikiston Sovet Sotsialistik respublikasiga aylantiriladi va Ittifoq tarkibiga kiritilgan.

Tojikistonning O'zbekiston SSR tarkibidan chiqishi 1930-yil 20-iyunda O'zSSR Sovetlari MIKning qarori bilan mustahkamlanib, Konstitutsiyaga ham o'zgartirishlar kiritildi.

Shuningdek, 1930-yil 17-avgustda O'zbekiston Sovet MIKning qaroriga ko'ra poytaxt Samarqanddan Toshkentga ko'chirildi va shu munosabat bilan yana Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritilgan.

O'zbekiston Sovetlari syezdi va O'zbekiston SSR MIK davlat hokimiyatining Oliy organi bo'lib, O'zSSRga tegishli barcha masalalarni ko'rib chiqib hal qilgan. Uning majlislari orasida MIK Prezidiumi barcha ishlarga rahbarlik qilgan.

Prezidiumda komitetlar, komissiyalar, bo'limlar tashkil qilingan edi. Ulardan eng muhimi tashkiliy bo'lim, kamsonli millatlar ishi bilan shug'ullanuvchi bo'limi, mehnatkashlar va ishlovchi ayollarning ahvolini yaxshilash qo'mitalari edi. Yuqori ijro etuvchi va farmoyish beruvchi tashkilot bu O'zSSR Xalq Komissarlari Soveti edi. Tarmoqlar bo'yicha boshqaruvni amalga oshiruvchi muassasalar Xalq Komissarliklari bo'lib, ular bo'ysunishiga qarab ikkiga bo'lingan: birlashgan va birlashmagan. Birlashgan komissarliklar Ittifoq va ittifoqdosh respublikalarda, birlashmaganlari faqat SSSR da mavjud bo'lgan Xalq Komissarliklaridan iborat edi.

1927-yilgi O'zSSR Konstitutsiyasida sud tizimi va prokuratura to'g'risidagi maxsus bo'lim yo'q edi. Bu masalalar Ittifoq va Respublika qonunchiligi orqali hal etilar edi.

Quyidagi shaxslar saylash va saylanish huquqidan mahrum etildilar:

- a) birovni mehnat qilishga yollab, undan daromad oluvchi;
- b) noqonuniy yo'llar bilan daromad olib uning evaziga yashaydiganlar;
- v) ruhoniylar, dindorlar, diniy tashkilot va oqimlarga mansub kishilar;
- g) politsiyada, jandarmeriyada ishlagan kishilar;
- d) ruhiy kasal bo'lgan kishilar;

Sud yoki yuqori davlat idorasining qarori bilan saylov huquqidan mahrum etilganlar.

Qolgan fuqarolar esa, diniy e'tiqodi, millati, jinsidan qat'iy nazar 18 yoshga to'lgan har bir fuqaro saylov huquqlariga ega bo'lgan.

O'zSSRning 1927-yilgi Konstitutsiyasi asosida huquqning turli sohalari bo'yicha qator normativ huquqiy aktlar qabul qilingan. Bular O'zSSRning Grajdanlik Kodeksi (1927-y.) Grajdanlik protsessual kodeksi (1927-y.) Nikoh, oila, vasiylik va grajdanlik holatlarini qayd qilish

haqidagi kodeksi (1929-y). Yer suv kodeksi (1929-y), jinoyat protsessual kodeksi (1929-y) va boshqalar.

Oila huquqiga oid ayrim muammolarni hal qilish maqsadida YUXK 1926-yil 25-fevralda “Xotin- qizlarni huquqiy himoyalash to‘g‘risida”gi yo‘riqnomasini qabul qildi.

Bunga asosan nikoh ishlarini qozi sudlarida ko‘rish ishlari tugatildi. Bu davrda nikohni qayd etish masalalari, mahalliy sharoitni hisobga olgan holda, ayrim qo‘shimcha va o‘zgartirishlar bilan to‘ldirilgan RSFSRning 1918-yilgi oila va nikoh kodeksi asosida hal etilardi.

Oila, nikoh, vasiylik va grajdanlik holati aktlarini qayd qilish haqidagi 1927-yilda ishlab chiqilgan yangi Kodeks O‘zbekistondagi birinchi oila-nikoh kodeksi edi. Unga ko‘ra, nikohga kirishning asosiy shartlari o‘zaro rozilik va nikoh yoshiga yetganlik (xotin-qizlar uchun 18 yosh), yaqin qarindoshlar o‘rtasida nikohga kirish, ko‘p xotinlik qoralandi, shuningdek, nikohga kiruvchilarning diniy, milliy va ijtimoiy kelib chiqishi bilan bog‘liq chegaralanishlar ta‘qiqlandi. Nikoh bekor qilingach, mehnatga qobiliyatsiz tomon uch yil davomida nafaqa olib turishi belgilandi.

Bu davrda qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Sovetlarining I-syezdi tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston SSRning tashkil topganligi to‘g‘risida”gi Deklaratsiya, “Xo‘jalik qurilishi haqida”gi, “hokimiyatni yangi saylangan O‘zSSR Sovetlari MIKga berish to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, O‘zSSR Sovetlari MIK va uning Prezidiumi tomonidan qabul qilingan “quyi davlat idoralarini mustahkamlash to‘g‘risida”gi Nizomini tasdiqlash haqida”gi, O‘zSSRning 1925-1926 yilgi davlat budjeti plani va boshqa aktlarning qabul qilinishini O‘zbekistonda yangi huquqiy tizimning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga olib keldi.

TASSRning 1922-yil 23-noyabrdagi qozi sudlari haqida qabul qilingan Nizomining 14-moddasiga binoan qozi va biy sudlarida, shariat qonunlari va odat qoidalariga asoslanib ish ko‘rish jarayonlari yangi huquqning asosiy qoidalariga zid kelmasligi shart qilib qo‘yildi. Sovet davlati qishloq joylarida 1925 yilda yer-suv islohotini, shaharlarda esa, uylarni milliyLashtirish va ularning egalaridan shahar Sovetlariga olib berish amalga oshirilgan.

1922-yildagi Mehnat qonunlari Kodeksi qo‘llanilib mehnat huquqining me‘yorlari mehnat shartnomasi va jamoa shartnomalari tuzish, dam olish, ish haqi, ish vaqti me‘yorlarini tartibga solishga qaratilgan. Bu davrda kasaba uyushmalari jamoa shartnomasining faol ishtirokchisi bo‘lib

tanildi. Jamoa shartnoma, ishxona ma'muriyati bilan kasaba uyushma tashkiloti o'rtasida bir yil muddatga tuzilib u ikki xil ko'rinishda bo'ladi: bosh (generalniy) va lokal shartnomalar. Bu shartnomalar muhim huquqiy shakllardan bo'lib, fuqarolarning mehnat jamoalarida ishchi va xizmatchi sifatida faoliyat ko'rsatishlarida katta rol o'ynagan.

O'zSSR JK 1926-yil 1-iyuldan boshlab kuchga kiritildi. Unga RSFSRning 1924-yildagi "Jinoyat huquqining boshlang'ich qoidalari" asos bo'lib xizmat qilgan.

Ushbu kodeks umumiy va maxsus qismlardan iborat bo'lib, mavjud 292-moddadan 56 tasi umumiy qismga, 236 tasi esa maxsus ishiga bag'ishlanadi. Umumiy qism 4 ta bo'limdan iborat.

O'zSSR JK RSFSR Jinoyat Kodeksidan farqli ravishda boshqarish tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlarni ham juda xavfli jinoyatlar deb hisoblagan.

Jinoyat Kodeksida yangi ijtimoiy davlat tuzilishini va uning huquqiy tartiblarini, shuningdek, grajdanlarning huquq va manfaatlarini qo'riqlash maqsadida jazoning og'ir turlari ko'rsatilgan.

JPK 1926 yilda qabul qilinib, u 1924 yildagi Ittifoq va ittifoqdosh respublikalar jinoyat sud yuritish asoslariga muvofiq holda, ishlab chiqilgan bo'lib, o'zgartirish va qo'shimchalar bilan 1929 yilgacha amalda bo'ldi. Kodeks 6 bo'lim 455-moddadan iborat edi.

JPKda jinoyat sud ishlarini yuritish asoslari, dalillar haqidagi normalar, sudning ushlab turish tartiblari va muddatlari, jinoyat ishini qo'zg'atish tartiblari va dastlabki tergov asoslari kabi qator normalar joy olgan.

Shuningdek, kodeksda jinoyat ishlarini xalq sudida ko'rishning tartibi, oblast sudlari va harbiy tribunallarda hamda O'zSSR Oliy sudida sud ishlarini yuritish asoslari, tartiblari ham o'z ifodasini topgan.

Kodeksning so'nggi bo'limida hukmning ijro tartibi, muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish tartibi, shuningdek, shartli hukmlarni va muddatidan ilgari shartli ozod qilishlarni bekor qilish tartiblari ko'rsatilgan.

Bu davrda qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Sovetlarining 1-syezdi tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston SSRning tashkil topganligi to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, O'zSSR Sovetlari MIKga berish to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, O'zSSR Sovetlari MIK va uning Prezidiumi tomonidan qabul qilingan "quyi davlat idoralarini mustaqamlash to'g'risida"gi Nizomini tasdiqlash haqida"gi, O'zSSRning 1925–1926-yilgi davlat budjeti va plani

va boshqa aktlarning qabul qilinishini O'zbekistonda yangi huquqiy tizimning paydo bo'lishi va rivojlanishiga olib kelgan.

O'zbekiston SSRning 1927-yilgi Konstitutsiyasi asosida huquqning turli sohalari bo'yicha qator normativ huquqiy aktlar qabul qilingan. Bular O'zSSRning Grajdanklik kodeksi (1927-y.) Grajdanklik protsessual Kodeksi (1927-y.) Nikoh, oila, vasiylik va grajdanklik holatlarini qayd qilish haqidagi kodeksi (1929-y). Yer suv kodeksi (1929-y), jinoyat protsessual kodeksi (1929-y) va boshqalar.

O'zSSR MIK Prezidiumining 1927-yil 22-oktabr qaroriga asosan GPK respublikaning barcha hududlarida 1928-yil yanvar oyidan boshlab kuchga kiritildi. Kodeks besh qismidan tashkil topgan bo'lib, unda grajdanklik jarayonining asosiy mazmuni, sud daromadlari va xarajatlari, jarimalari, sud jarayoni ishtirokchilarini chaqirishning tartibi va protsessual muddatlar yoritilgan.

GPKning ikkinchi qismida da'vo ishlari bilan bog'liq me'yorlari, uchinchi qismda esa alohida muhim ishlarni hal qilish tartiblari, to'rtinchi qismida sud qarori ustidan shikoyat qilish tartiblari va beshinchi qismida sud qarorlari va ajrimlarining ijrosini ifodalovchi normalarni o'z ichiga olgan.

1930-yillar "qatog'on" qilish siyosati bilan tarixda qoldi. Jinoyat protsessual qonunchiligida "ixchamlashtirish" yuz berdi. O'zbekiston Yustitsiya xalq komissarligi yangi Jinoyat protsessual Kodeksini ishlab chiqdi va u 1929-yil avgust oyidan kuchga kiritildi. 1926-yildagi Kodeksdan farqli o'laroq bu Kodeks 175 (455) moddadan iborat edi.

Bunda surishtiruv va dastlabki tergov institutlari birlashtirildi. Sud organlari qoshidagi tergov organlari prokuratura organlariga olib berildi. hatto tergovchi prokurorning ayrim nazorat funksiyalari bilan ham ta'minlandi. Kodeksda jinoyat ishini kuzatish yoki rad etish asoslari alohida ko'rsatib o'tilmagan edi. Bu esa qonunchilikning buzilishiga olib keldi. SSSR MIKning 1934-yil iyuldagi "Umumittifoq Ichki Ishlar Xalq Komissariyatini tashkil qilish to'g'risida"gi qarori bilan davlat birlashgan siyosiy boshqarmasi (OGPU) huzuridagi sud kollegiyasi tugatilib, davlat jinoyatlari va boshqaruv tartibiga qaratilgan jinoyatlarni tergov qilish SSSR Ichki Ishlar Xalq Komissarligi Davlat Xavfsizligi idoralariga berildi. Shu bilan birga SSSR va ittifoqdosh respublikalar Oliy sudlari qoshida ushbu turdagi ishlarni ko'rib chiqish uchun maxsus kollegiyalar tuzildi. Vatanga xiyonat qilish, josuslik, terrorizm, qo'poruvchilik kabi jinoyat ishlari Oliy sudning harbiy Kollegiyasi va harbiy tribunallar sudlovligiga

taalluqli bo'ldi. Bundan tashqari Ichki Ishlar Xalq Komissarligi xuzurida jinoyat ishlarini ko'rib chiqish huquqi bo'lgan Maxsus Kengash tuzildi.

SSSR MIK 1934-yil dekabdagi "Ittifoqchi respublikalarning harakatdagi jinoyat protsessual kodekslariga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarorlarga asosan, O'zSSR MIK ham 1934-yilning 14-dekabrda "Jinoyat protsessual Kodeksining 11, 93, 106, 151, 167-moddalariga o'zgartirish kiritish va 99, 166-moddalar bilan to'ldirish haqida"gi qarori qabul qilindi.

Ma'lumki 1936-yil 7-dekabrda Sovet Ittifoqining yangi Konstitutsiyasi qabul qilingan. Jamiyatda ro'y bergan iqtisodiy, sinfiy, milliy sohalardagi o'zgarishlar ushbu Konstitutsiyaning qabul qilinishiga sabab bo'ldi. Bu konstitutsiya o'sha kommunistik ta'limotga binoan, ittifoqda iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, davlatchilikni yanada takomillashtirish vazifalarini bajarishi kerak edi.

Butun O'zbek Sovetlarining Favquloddagi VI kurultoyi 1937-yil 14-fevralda O'zSSRning yangi Konstitutsiyasini Sovet Ittifoqining 1936 yilgi Konstitutsiyaga to'liq mos ravishda qabul qildi. Yangi Konstitutsiya o'sha davrning maqsadiga muvofiq ravishda "Sozializm qurish" sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarini qonunlashtirdi. Bu o'zgarishlar ijtimoiy va davlat tuzulishiga fuqarolarning huquq va erkinligiga taalluqli bo'lib, ular quyidagilardan iborat edi:

1) hokimiyat ko'rsatilishicha, mehnatkashlarning qo'lida bo'lib, uni mehnatkashlar deputatlari Sovetlari orqali amalga oshirishi kerak edi;

2) Sovetlar faoliyatida "demokratik" deb nomlangan prinsiplar rivojlantirildi, ishchi, dehqon, soldat deputatlari Sovetlari o'rniga doimiy ishlaydigan mehnatkashlar deputatlari Sovetlari keldi. Sovetlarning ish faoliyati shakllari o'zgardi, ya'ni butun O'zbek Sovetlari syezdi o'rniga doimiy ishlaydigan O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti (Oliy Sovet sessiya chaqirish tartibida ishlaydigan organ) va uning Prezidiumi, davlat boshqaruvi organi sifatida Xalq Komissarlar Soveti joylarda mehnatkashlar deputatlari oblast, rayon, shahar Sovetlari ularning ijoriya organlari sifatida ijoriya qo'mitalari tashkil etildi;

3) Sovetlarga saylov o'tkazish prinsiplari o'zgartirildi (Saylovda qatnashish tenglik asosida, to'g'ridan-to'g'ri, yopiq ovozlar berish yo'li bilan o'tkaziladigan edi);

4) Sovetlar deputatlari vakolatining doimiyligi belgilandi (2,5 yil va 5 yil);

Shuningdek, fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari alohida belgilashda Oliy hokimiyat organlarining vakolatlari alohida belgilandi. Ishlab chiqarishda sotsialistik mulk iqtisodiy tuzumning asosi qilib belgilandi va uning ikki shakli davlat va jamoat mulki va boshqalar o'z aksini topdi.

Yangi Konstitutsiya O'zbekiston SSRning Oliy davlat hokimiyat organi etib, O'zbekiston SSR Oliy Sovetini belgilagan va unga respublikada qonun chiqarish vakolatini bergan. Oliy Sovet sessiyalari o'rtasidagi davrda uning qonun bilan belgilangan vakolatlarini amalga oshiruvchi Oliy Sovet Prezidiumini tashkil qilinishi, Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan.

Yangi Konstitutsiya O'zbekiston SSRning Oliy boshqaruv idorasi qilib Xalq Komissarlari Soveti (1946 yildan Ministr Soveti)ni belgilagan.

Konstitutsiyada davlat hokimiyatining mahalliy idoralari qilib, viloyat, tuman, shahar, qo'rg'on va qishloq mehnatkashlari deputatlari Sovetlari mahalliy davlat boshqaruv idoralari qilib Sovetlarning ijoriya qo'mitalari belgilangan.

Konstitutsiyada sud va Prokuratura idoralari tizimi, ularning vakolatlari, fuqarolarning huquq va burchlari va boshqa muhim davlat ahamiyatiga molik masalalar o'z aksini topgan.

Ushbu o'zgartirishlarga ko'ra, Sovet hokimiyatining vakillariga qarshi qaratilgan, shuningdek, terroristik aktlar bilan bog'liq ishlar yuzasidan sud prokuratura organlariga quyidagi huquqlar berildi: a) tergovni 10 kundan oshiq bo'lmagan muddatda tamomlash; b) ayblov fikrini ishni sudga ko'rib chiqishdan bir sutka oldingina topshirish; v) jinoyat ishini ayblovchi va himoyachining ishtirokisiz ko'rib chiqish. Ayblanuvchining sudga kelishini majburiy emas deb hisoblash. g) hukmni kassatsiya tartibida shikoyat qilish, avf etishni so'rab ariza berishga yo'l qo'yilmasligi. d) oliy jazo tayinlash haqidagi hukm chiqarilgandan so'ng darhol uni ijro etish.

Boshqacha qilib aytganda, ayblanuvchi o'z aybini bilish huquqi, dalillar taqdim qilish, tergov va sud organlarining harakatlari ustidan shikoyatlar berish, himoyachiga ega bo'lish kabi protsessual huquqlardan mahrum edi. Bulardan tashqari Partiya Markaziy Komitetlarining ko'rsatmalari asosida yuzlab yo'riq xatlar (instruksiyalar) to'ldirilib, qonunchilik va uni amalda qo'llash o'zgartirilib turildi.

Bu davrda jamiyatning ilg'or fikrli o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan farzandlariga «Xalq dushmanlari» tamg'asi bosilib, «jahonda eng insonparvar» deb ta'riflangan sovet odil sudlovi qoidalari qo'pol

buzilibgina qolmay, balki o'rtas asr inkvizitsiya sudi usullari bilan tergov va sud jarayonlari o'tkazildi. O'lim mashinasining «tinimsiz ishlashini ta'minlash maqsadida» sovetlarning jazo organlari qayta tashkil qilindi, ularning huzurida g'ayri konstitutsiyaviy organlar tashkil qilindi. 1931-yilda birinchi marta SSSR Ishchi Dehqon Militsiyasi haqida Nizom ishlab chiqilib tasdiqlandi. 1932-yilda esa Davlat Birlashgan siyosiy boshqarmasi huzurida (OGPU) Ishchi dehqon militsiyasi bosh boshqarmasi tuzildi. 1932-yilning 25-iyulida «Revolyutsion qonunchilik haqida» SSSR Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Sovetining qarori chiqib, Sovet jazo organlariga qonunchilik buzilgan hollarda qat'iy choralar ko'rish topshirildi. 1933 yili SSSR Prokuraturasi tashkil qilindi. 1934-yilda Ichki Ishlar Xalq Komissarligi tuzilib, Militsiya Bosh boshqarmasi unga bo'ysundirildi. 1934-yilda OGPU huzuridagi Sud kollegiyasi tuzildi. Uning sudlovidagi ishlari viloyat va Oliy sudlarga o'tdi. OGPU esa, endi IIXKga Bosh Boshqarma sifatida bo'ysundirilib, qayta tashkil qilindi. IIXK (NKVD) huzurida qaytadan Maxsus Kengash tuzildi. Unga esa, endi davlatga qarshi jinoyatlarni suddan tashqari ko'rib chiqish huququni (sudsiz repressiya) berildi. 1943-yilda esa, yigirma yilga ozodlikdan mahrum qilish, qatorga ishlariga yuborish, osib o'ldirish, 1945-yilda barchaga o'n yil ozodlikdan mahrum qilish, qo'shimcha jazo sifatida besh yilga huquqlardan mahrum qilish jazosi qo'llash belgilangan.

Shunday qilib, Davlat Siyosiy Boshqarmasi (GPU)ning maxsus kengashidagi uchlik komissiyasi sirdan sud qilish huquqiga ega bo'lib, dastlab o'n yil, keyin 25 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish, keyinchalik osib o'ldirish kabi jazolarni berishga ham huquqli bo'lgan. Bu komissiyalar ikkilik, uchliklar tarzida tuzilgan. Maxsus kengashda Partiya MIKdan bir vakil, IIXKdan bir kishi, prokuraturadan bir kishi doimiy vakil bo'lib qatnashgan. Uning majlislari yopiq o'tkazilgan. Ular: a) unvon va mukofotlardan mahrum etish; b) barcha mol-mulkni musodara qilish; v) yopiq turma qamog'i; g) yozishmalardan mahrum etish kabi jazolarni qo'shimcha jazolar tarzida berishlari mumkin bo'lgan. qamalanganlar o'z taqdirini bilmasdan katorga ishlarida yillab yurganlar.

1937-yillarda azoblab so'roq qilish uchun (pitka) maxsus ijozat olingan bo'lsa, 1938-yil bahoridan boshlab tergovda azoblash usulini qo'llashga ruxsat etilgan. 1939-yilda yana tergovda azoblash usuli alohida rasmiylashtirilgan. Urushdan keyin esa ruxsat olish yo'li bilan, ko'pgina jinoyatlar uchun azoblashni qo'llash mumkin bo'lgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston Respublikasi oldida sanoatni front talablariga moslab qayta kurish, mamlakatning harbiy

hududlaridan ko'chirilgan muassasalarni darhol joylashtirish va ishga tushirish kabi birlamchi vazifalar qo'yildi.

Sovet davlatining favqulodda davlat organi bo'lgan - Davlat Mudofaa Komiteti (DMK) O'zbekistonda bu kabi tadbirlarni bajarilishiga katta e'tibor berdi. Jumladan, 1941-yilning avgustida DMK 1942-yilda mamlakat mudofaasini ta'minlovchi harbiy xo'jalik rejasini ishlab chikdi, Unda front chizig'idagi zavod-fabrikalarni, mamlakatning sharqiy rayonlariga ko'chirish, yangi zavodlar qurish, shaxta, konlar qurib ishga tushirish, ishchi kadrlarni tayyorlash ko'zda tutilgan edi. Uning asosida O'zbekiston hukumati o'zining 1942-yilga mo'ljallangan harbiy rejasini ishlab chiqdi. Ko'chirib kelinayotgan zavod-fabrikalarni joylashtirish uchun 1941-yilning 25-avgustida komissiya tuzildi. O'zbekistonda to'qimachilik mashinasozligi, ikkita qishloq xo'jalik, mashinasozligi zavodi, nasos-kompressor qurilmalar zavodi, burg'ulash uskunalari zavodi, elektrokabel, vagonlarni ta'mirlash, ko'tarma mexanizmlar zavodi, ximiya kombinatlari qurilmalari zavodi, to'rtta qand zavodi, konserva zavodlari, paxta, qog'oz fabrikalari va boshqalar ko'chirib kelindi, qurilib, o'z vaqtida ishga tushirildi.

SSSR Oliy Soveti Prezidiuminchng 1942-yilning 1-fevralida «Urush davrida shaharning mehnatga layoqatli aholisini qurilish va ishlab chiqarishga jalb etish to'g'risidagi farmon»iga binoan, 16-55 yoshdagi erkaklar, 16-45 yoshdagi ayollarni ishga jalb etilgan, deb hisoblandi. 1943-yilning 23-sentabrida O'zSSR FA tashkil qilib front uchun katta ishlarni bajardi.

Davlat qurilishi borasida SSSR Oliy Kengashi va Xalq Komissarlar Sovetining 1941 yilning 30 iyundagi qarori bilan DMK va ittifoqdosh respublikalarda uning vakilligi tashkil qilindi.

Urush yillarida ikki marta O'zSSR Oliy Sovetining sessiyalari 1943-yil martida va 1944-yilning sentabrida o'tkazildi. U Sessiyada «harbiy xizmagchilarning oilalariga yordam ko'rsatish borasidagi tadbirlarni yaxshilash» masalasi tinglandi. Shu maqsadlarda urushning 18 oyi ichida 23 mln. so'm sarflangan.

1943-yilning 27-sentabrida ochilgan VI sessiyasidg ittifoq respublika Xalq Komissarliklari, O'zSSR Mudofaa Komissarligi va Tashqi Ishlar Xalq Komissarliklari tashkil qilingan.

O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 1941-yil 31-iyulidagi farmoniga binoai Ichki Ishlar Xalq Komissarligi va Davlat Xavfsizligi Xalq Komissarligi birlashtirildi. Ammo bu turmushda o'zini oqlamadi. 1943-yilning 19-mayida qaytadan ikkita Xalq Komissarligi tuzilgan.

Urush yillarida O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti barcha Xalq Komissarliklari ishini uyushtirib, respublika oldidagi vazifalarni aniqlab, ularning bajarilishiga rahbarlik qilib turdi. 1942-yilda O'zbekiston SSR XKS Raisini qurol-yarog', o'q-dori, energetika va yonilg'i bo'yicha o'rinbosari lavozimi tasis qilingan.

Arxitektura ishlari Davlat komiteti, kinemotografiya ishlari Davlat komiteti, harbiylarning oilalarini ishga joylashtirish va ularga davlat ta'minotini yo'lga qo'yish boshqarmasi, poligrafiya va nashriyot boshqarmasi, diniy ishlar boshqarmasi kabi yangi davlat organlar tuzilgan.

Yangi Konstitutsiya asosida O'zbekiston SSRning Jinoyat Kodeksi (1959-y) Jinoyat protsessual kodeksi (1959-y), Grajdanlik kodeksi (1963-y) Grajdanlik protsessual kodeksi (1963-y.), Nikoh va oila Kodeksi (1969-y), Yer kodeksi (1970-y), Mehnat qonunlari kodeksi (1971-y), Suv kodeksi (1972-y) va boshqa qator normativ huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

60-70- yillarda O'zbekiston huquqining ikkinchi kodifikatsiyasi o'tkazilib, huquqning barcha tarmoqlari bo'yicha jami 16 kodeks qabul qilingan.

Grajdanlik huquqi. 1962-yilning may oyida Sobiq Ittifoqda Grajdanlik qonunlari Asoslari ishlab chiqilib, kuchga kiritildi. Ushbu asoslarga binoan, O'zSSRning Grajdanlik kodeksi (GK) 1963-yilning 23-martida ishlab chiqilib, 1964-yilning 1-martidan kuchga kiritildi. Ushbu Kodeks O'zSSRda grajdanlik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qildi. O'zSSR GK 46 bob, 631-moddadan iborat bo'lib, uning birinchi bobi umumiy qoidalar, ikkinchi bobi shaxslar haqida edi. Muomalaga layoqatli shaxslar haqida, 15 va 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarning muomala layoqatlari ko'rsatilgan. O'zSSR GKning 1-moddasiga binoan O'zSSR grajdanlik qonunlari uch xil munosabatlarni tartibga soladi. 1. Mulkiy munosabatlar. 2. Mulkiy bo'lmagan, shaxsiy munosabatlar. 3. Mulkiy bo'lmagan, lekin mulk bilan bog'langan shaxsiy munosabatlar. GKning 106-moddasiga ko'ra O'zSSRda a) davlat mulki; b) kolxoz va boshqa kooperativ tashkilotlar mulki; v) kasaba uyushma tashkilotlari va shaxsiy mulklar mavjud edi.

Ya'ni, bu kodeks yangi mulk shakli - kasaba soyuz tashkilotlarining mulkchilik shakllarini ham o'rnatdi. Ushbu kodeksda faqat grajdanlarning shaxsiy mulklari to'g'risidagina so'z yuritiladi. Chunki, xususiy mulk bu vaqtda tamomila tugatildi. Shaxsiy mulk ana shu mulklardan hosila hisoblangan.

Asoslarda, tartibga solinishi Ittifoqchi Respublikalar vakolati doirasiga kiritilgan masalalar: mulk (ashyo) xuquqi subyektlari,

muddatlarni hisoblash, talablarga yon bosish, qarzni o'tkazish (o'zaro hisob) majburiyatlarining tugashi, majburiyatlarning turlari, almashuv, hadya, umrbod saqlab turish, qarz, mulkdan tekin foydalanish holatlari, ekspeditsiya shartnomasi, topshiriq, komissiya saqlab turish, o'rtoqlik kabi turlari yo'q edi. Kodeksda esa bu masalalar maxsus boblarda berildi. Kodeksning majburiyatlarining kelib chiqishi bo'limida yangi asoslar: planlashtirish aktlari, ma'muriy aktlar kabilarni ham belgiladi. Shunday qilib, O'zSSRning yangi Kodeksida bir qancha yangi boblar va qoidalar mavjud edi. Keyin xam bir qancha to'ldirish va ko'shimchalar kiritilgan.

Oila va nikoh huquqi. 1968-yilning 27-iyunida Nikoh va oila kodeksi qonunchiligi Asoslari qabul qilingan. Shundan keyin, O'zSSR Oliy Kengashi 1969 yilning 6 iyulida yangi Oila va Nikoh kodeksini ishlab chiqib, 1-oktabrdan kuchga kiritgan. Bulardan tashqari, O'zSSR Ministrlar Soveti tomonidan 1970-yilning 4-martida tasdiqlangan "Grajdanlik holati aktlarini ro'yxatga olish tartibi to'g'risida hamda vasiylik va homiylik haqida"gi Nizomlarni tasdiqlab, kuchga kiritdi. O'zSSRning bu kodeksi boshka respublikalarnikidan farq qilib, 6 bobdan iborat, ya'ni vasiylik va homiylik alohida bobda ko'rsatilgan. Uning birinchi bobida O'zSSR Nikoh va Oila kodeksining vazifalari haqida gap boradi. Ya'ni oilani mustahkamlash, ozod, erkin xohish-irodaga asoslangan nikoh ittifoqi asosida oila munosabatlarini qurish, bolalar tarbiyasi va boshqalar. Unga ko'ra nikoh oilaning asosini tashkil qiladi. qonun amaldagi (ro'yxatdan o'tmagan holda birga yashash) nikohni tan olmaydi. Faqat grajdanlik holati aktlari idoralarida ro'yxatdan o'ttan nikohgina qonuniy hisoblanadi. Nikoh yoshi 18 yosh qilib belgilangan. Uni pasaytirish hollari ham bo'lishi mumkin. Nikohdan oldin va undan keyin ham sovg'a sifatida olingan mulklar er va xotinning o'z mulklari hisoblanadi. Faqat nikoh davomida birgalikda topilgan mulk ularning umumiy mulkidir.

Nikoh bekor qilinganda, mexnatga layoqatsiz bo'lib qolgan taraf bir yilgacha nafaqa olishga huquqli.

Mehnat huquqi. 1970-yilning 15-iyulidagi Mehnat qonunlari asoslariga ko'ra, O'zbekistonda 1971-yil 17-dekabrda yangi Mehnat qonunlari kodeksi qabul qilinib, 1972-yilning 1-maydan kuchga kiritildi. Kodeks 18 bob, 300-moddadan iborat muhim masalalar, alohida boblarga ajratilgan. O'zSSRning bu kodeksida, aqliy mehnat talab qiluvchi, hamda malaka talab qiluvchi ishlarga 3 oy, ba'zan 6 oygacha sinov muddati belgilandi. Ma'muriyat tashabbusi bilan xodimni ishdan bo'shatayotgan vaqtda FZMK 7 kun ichida ma'muriyat fikri bilan tanishib, o'z fikrini bildirishi lozim. Shundan keyin faqat bir oy ichidagina ma'muriyat

xodimni ishdan bo'shatishi mumkin. Ushbu kodeksda ayollar va o'smirlar mehnatining garantiyalari kengaytirildi Mehnat nizolarini ko'rib chiqish mehnat nizolari komissiyasida besh kungacha bo'lgan muddatda, Kasaba uyushmalarining fabrika, zavod mahalliy komitetlari (FZMK)da 7 kungacha, xalq sudlarida 10 kungacha qilib belgilangan.

Yer huquqi. 1968-yilning 13-dekabrda Yer qonunlari Asoslari qabul qilindi. Ana shu asosida 1970-yilning 25-sentabrda O'zSSRning Yer Kodeksi ishlab chiqilib, qabul qilindi. Yangi Kodeks kirish qismi, XI bob, 202-moddadan iborat edi. Uning birinchi bobi umumiy qoidalarga bag'ishlangan. Ikkinchi bobida qishloq xo'jaligi ahamiyatidagi yerlardan foydalanish bo'yicha huquqiy masalalar yoritilgan. Uchinchi bobi aholi punktlarining yerlari, to'rtinchisi -sanoat, transport va boshqa korxonalarining yerdan foydalanish tartiblari, beshinchi bob - davlat, o'rmon fondining huquqiy holatiga bag'ishlangan.

Suv huquqi. O'zbekisgonda suvdan foydalanishga katta ahamiyat berib kelindi. 1941-yilning 24-martida «O'zSSR qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish to'g'risida»gi olti bobdan iborat qonun qabul qilindi, 1972-yilning 9-iyunidan O'zbekiston SSRning Suv kodeksi qabul qilinib, 1972-yilning 1-oktabrida kuchga kiritildi. U kirish qism, besh bo'lim, 29 bob, 136-moddadan iborat edi. Suv qonunchiligining vazifasi – O'zbekistonda suvdan foydalanishni tartibga solish, suv muhofazasi, irrigatsiya inshootlarini yaxshi holatda tutishdir. Kodeksga ko'ra, Suv -davlat mulki, faqat foydalanishga berilishi mumkin. Yagona davlat suv fondining turlari (klassifikatsiyasi) belgilandi (5-modda). Respublikaning barcha suvlari: yer osti va yer usti suvlariga, bundan tashqari ichki va hududiy suvlarga bo'linadi. Bularning huquqiy holati bir-biridan farqlanadi. IV bo'limda suvni rejalashtirish, hisobga olish va qo'riqlash masalalari yoritilgan.

Jinoyat huquqi – 1958-yilning 25-dekabrda jinoyat qonunlari Asoslari qabul qilingan. Albatta, uning ishlab chiqilishi jinoyat huquqining rivojlanishida yangi bir davrini tashkil qiladi. 1959-62-yillarda ishlab chiqilib, qabul qilingan Ittifoqchi respublikalarning kodekslari ana shu asoslarga to'la muvofiq keladi. O'zbekiston SSR birinchi bo'lib o'zining Jinoyat kodeksini 1959-yilning 21-mayida ishlab chiqdi va 1960-yilning 1-yanvardan kuchga kiritdi.

Asoslarda ko'zda tutilgan juda ko'p normalar Jinoyat kodeksida aniqlashtirilgan. Masalan: O'zSSR Jinoyat kodeksining 10-moddasida 14-16 yoshgacha qaysi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilash aniq ko'rsatib berilgan. Unga ko'ra, jinoyat sodir etgan vaqtda 16 yoshga to'lgan shaxslar

jinoiy javobgarlikka tortiladi. Faqat odam o'ldirish, qasddan tan jarohati yetkazish, nomusga tegish, o'g'rilik, talonchilik uchun 14-16 yoshdan jinoiy javobgarlik belgilandi, 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan qanday jinoiy jazolarning qo'llanilishi mumkinligi jazolarning oz va ko'p muddatlari aniqlashtirilgan.

O'zbekiston SSR Jinoyat Kodeksining tizimiga asos qilib, jinoyatning obyektini olingan va ana shu jinoiy tajovuz obyektiga qarab tegishli boblarga ajratilgan. Jinoyat kodeksi umumiy qism va maxsus qismlardan iboratdir.

Jumladan, uning maxsus qismi quyidagi boblardan iborat:

Birinchi bob - davlatga qarshi qaratilgan jinoyatlar bo'lib, bu davlatga qarshi qaratilgan alohida xavfli jinoyatlar ikkinchisi davlatga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlar.

Ikkinchi bob - shaxsning hayoti, sog'ligi, ozodligi va qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlar.

Uchinchi bob - mulkka qarshi jinoyatlar.

To'rtinchi bob - grajdanlarning shaxsiy mulkiga qarshi jinoyatlar.

Beshinchi bob - grajdanlarning siyosiy va mehnat huquqlariga qarshi jinoyatlar.

Oltinchi bob - Mansabdorlik jinoyatlari

Yettinchi bob - odil sudlovga qarshi qaratilgan jinoyatlar.

Sakkizinchi bob - xo'jalik jinoyatlari.

To'qqizinchi bob - idora qilish tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlar.

O'ninchi bob - jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar.

O'n birinchi bob - harbiy jinoyatlar.

Idora qilish tartibiga qarshi va boshqa sohadagi bir qancha jinoyat turlari o'z ahamiyatini yo'qotganligi sababli Jinoyat Kodeksiga 36 ta yangi modda va u kuchga kirgandan so'ng qo'shimcha 22 modda kiritildi.

Shuni aytish lozimki, O'zSSR Jinoyat kodeksi ozodlikdan mahrum qilish jazosini minimal 3 oydan maksimal 10 yilgacha, alohida og'ir jinoyatlar uchun 15 yilgacha belgiladi. Bunda 18 yoshga to'lmagan shaxslarga 10 yildan oshiq belgilash mumkin emas edi. Jinoyat kodeksining ishlab chiqarilishi bilan jinoyat huquqi normalarini takomillashtirish ishlari oxiriga yetmadi, balki rivojlantirildi.

O'zbekiston davlati va huquqi rivojlanishi tarixida 1978-yilda qabul qilingan Konstitutsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiya Oliy Sovet sessiyasida 1978-yil, 18-aprelda qabul qilindi. Unda O'zbekistonning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tizimi, fuqarolarning huquq

va erkinliklari, davlat organlarining tuzulishi prinsiplari ularning tizimi va vakolatlari davr talabiga moslashtirib mustahkamlangan.

O‘zSSRning Konstitutsiyasi kirish (muqaddima), XI bo‘lim, 21 bob 188 moddadan iborat edi. Bu Konstitutsiya 1937-yilgi Konstitutsiyadan o‘zining muqaddimasi bilan ajralib turadi unda respublika bosib o‘tilgan yo‘l, Konstitutsiyaga asos bo‘lgan manbalar ko‘rsatilgan.

O‘zbekistonning bu Konstitutsiyasi quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Birinchidan, O‘zSSRning siyosiy, tizimi, uning jamiyatning boshqarishdagi vazifalari, siyosiy tizim rivojlanishining asosiy yo‘llari, O‘zSSRning sotsial rivojlanishi yo‘llari O‘zbekistonning tashqi siyosati asoslari, mehnatkashlar deputatlari Sovetlari o‘rniga xalq deputatlari Sovetlari bo‘lganligi;

Ikkinchidan, oshkoralik, qonuniylik, demokratik sentralizm prinsiplarining davlat va jamoat tashkilotlarining faoliyati uning asosiy prinsiplar qilib belgilanganligi;

Uchinchidan, fuqarolarning huquq va erkinliklari kengaytirilgan (mehnat va uy joy bilan ta‘minlash huquqi);

To‘rtinchidan, har bir davlat organi va mansabdor shaxsning topshirilgan vazifa yuzasidan javobgarligining oshirilganligi fuqarolarni davlat va jamoat ishiga jalb qilishni kengaytirilganligi, ularning bir-birlari oldidagi xalq va davlat oldidagi ma‘suliyatining oshirilganligi va Konstitutsiya mazmunidan kelib chiqib, "O‘zbekiston SSR Oliy Sovetiga saylovlar haqida" (1978-y), "O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti haqida" (1978-y) O‘zbekiston SSR Xalq deputatlari mahulliy Sovetlarga Saylovlar haqida (1959-y), O‘zbekiston SSR Xalq deputatlari oblast Soveti haqida (1980-y), hayvonot dunyosini muhofaza qilish va foydalanish haqida qonunlar va boshqa normativ huquqiy aktlar qabul qilingan.

Huquqiy islohotni amalga oshirish Sovet jamiyatining siyosiy tizimini tubdan qayta qurishning bir yo‘nalishi, uning ajralmas qismi edi. Jumladan, bu boradagi qonunlardan biri **“Davlat korxonasi (Birlashmasi) to‘g‘risida”**gi qonundir. Mazkur qonun XI chaqiriq Oliy Sovetning VII sessiyasida 1987-yilning 30-iyunida qabul qilinib, 1988-yil 1-yanvardan kuchga kiritilib, ko‘p masalalarni yangi tartibda hal qildi. Masalan, mehnat jamoalarining barcha masalalarda vakolatlari kengaytirildi. Korxonada xo‘jalik hisobini mustahkamladi. U 3 bo‘lim, 25 moddadan iborat bo‘lib, uning birinchi bo‘limi xalq xo‘jaligining asosiy bo‘g‘ini sifatida korxonada (birlashma)ning huquq va burchlari, ikkinchi bo‘limi korxonada (birlashma)ni boshqarish va mehnat kollektivlari to‘g‘risidagi qoidalardan

iborat edi. **“Kooperatsiya to‘g‘risida”**gi qonun SSSR Oliy Sovetining 1986-yilning 26-may qarori bilan tasdiqlanib, 1-iyuldan boshlab kuchga kiritilgan.

Qonun besh bo‘lim, 58-moddani o‘z ichiga olib, undan kooperatsiya va uning mamlakat iqtisodida tutgan o‘rni, kooperativni mamlakat kooperatsiya tizimida xo‘jalik mexanizmining iqtisodiy asoslari, davlat va kooperatsiyaning o‘zaro munosabatlari, ularning ayrim turlari va xususiyatlari kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. qonunga ko‘ra, kooperatsiya foydali faoliyatning mutassil rivojlanib boradigan ilg‘or shakli ekanligi ko‘rsatilgan. U fuqarolarga o‘z kuchlari va bilimlarini, iste’dodlari va istaklarini hamda har birining qobiliyatiga muvofiq unumli mehnatga sarflash va ularniig mehnatiga qarab haq olishida imkoniyatlar ochib berishi to‘g‘risida gapirilgan.

Yangi qonunchilik Sovet davlati va huquqi tarixida birinchi marta konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitasini tuzishni mustahkamladi, ya‘ni konstitutsiyaviy nazoratni vujudga keltirdi. Bu organning tashkil qilinishi va faoliyati maxsus akt - Konstitutsiyaviy nazorat to‘g‘risidagi 1989-yil 23-dekabr qonuni bilan tartibga solindi. Ana shunday qonunlardan yana biri, O‘zSSRning ijara to‘g‘risidagi Nizomidir. Mazkur Nizom O‘zbekiston SSR Oliy Sovet Prezidiumining 1989-yilning 29-dekabr dagi Farmoni bilan tasdiqlangan va 1990-yil 1-yanvarda kuchga kiritildi. Nizom ikki bo‘limga bo‘lingan 33 moddadan iborat bo‘lib, unda ijara bilan bog‘liq umumiy masalalar, ichki ijara, pudrat masalalari va boshqalar huquqiy tartibga solingan. Jumladan, qonunga ko‘ra ijara-shartnoma asosida yer, boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, birlashmalar va boshqa mulklarni, shuningdek, xo‘jalik faoliyati va o‘zga faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshirish uchun ijarachiga muddatli egalik qilish va undan foydalanish maqsadida topshirishdir.

Sud islohotiga ko‘ra, bir necha qonunlar qabul qilindi. Bularga «SSSR Ittifoqi va Ittifokdosh respublikalarning sud tuzilishi asoslari» to‘g‘risidagi 1989-yil 13-noyabr qonuni, “Sudyalarning maqomi to‘g‘risida»gi 1989-yilning 4-avgustdagi qonuni, “Sudga hurmatsizlik haqida»gi 1989-yilning 2-noyabrdagi qonunlarini ko‘rsatish mumkin. Asoslarga binoan, sud tuzilishiga quyidagi yangiliklar kiritilgan:

1 Rayon (shahar) xalq sudlari (xalq sudyalari), ana shu sudlar huzuridagi ma‘muriy suddarni tuzish va ular zimmasiga ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishning yuklatilishi.

2. Qonunda o'lim jazosi berilishi yoki 10 yildan oshiq muddatga ozodlikdan mahrum qilishi nazarda tutilgan ishlarni kechgaytirilgan maslahatchilar kollegiyasi sudi tomonidan hal etilishi.

3. Gumon qilingan ayblanuvchi va sudlanuvchi shaxs himoya qilinish huquqiga ega ekanligi, ularning bu huquqi ushlangan yoki qamoqqa olingan yoki aybnoma topshirilgan paytdan boshlab vujudga kelishi.

4. Sudyalarni 10 yil muddatga yuqori, xalq deputatlari sovetlari tomonidan saylanishlari.

5. Aybsizlik prezumpsiyalarining mustahkamlab qo'yilishi.

80-yillar o'rtalarida O'zbekistonning xo'jalik tashkilotlarida ochilib, tergov va sud qilingan markaziy matbuot esa, «o'zbeklar ishi», «asr jinoyati» deb cho'qintirgan «Paxta ishlari» va uning aarofidagi tuhmat hamda ig'vogarliklar sobiq SSSR bilan birga tarix mulkiga aylanib qoldi. O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat mustaqilligiga erishishi arafasidayoq» sobiq sho'rolar sud, tergov organlari faoliyatidagi bu boradagi barcha nuqsonlar fosh etildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi, hukumatimiz rahbarlarining tashabbusi bilan ushbu ishlarni o'rganib chiqib, 1990-yilning 20-iyulida «Respublika sudlari tomonidan paxta va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan talon-taroj qilish, qo'shib yozish va boshqa suiiste'molliklar haqidagi ishlarni ko'rish amaliyotida vujudga kelgan ba'zi masalalar to'g'risida» nomli №4 sonli qaror qabul qilib, unga binoan bu kabi jinoyatlarning oxirgi zarurat sifatida sodir etilganligini, shuning uchun bu harakatlarda jinoyat tarkibining yo'qligini isbotlab berdi. 1991 yilning mart oyigacha protsessual qonunlar qo'pol tarzda buzilib, javobgarlikka tortilgan 1207 rahbar ozod qilindi. Nohaq sudlanganlar oqlandi, qonunsiz ishdan bo'shatilganlar ishga tiklandi, sabr-toqatli, sodda, mehnatkash, ishonuvchan o'zbek xalqining nomi ham T.Gdlyan va Ivanovlarning tergov guruhi mudhish aybnomalaridan ozod bo'ldi.

Shu yillarda SSSRda yashayotgan yashirin iqtisodiyot (pora olish, berish, xo'jalik jinoyatlari va boshqalar) ko'rsatilganidek. 140 million so'm emas, 100 milliard so'mdan oshiq ekanligi, SSSR Bosh Prokurori nutqida tan olingan edi.

Bu narsa Markaziy hukumatga mamlakatning siyosiy va iqtisodiy tizimidagi kamchiliklarni bo'yab ko'rsatish, bunga ittifoqchi respublikalar aybdor, «Mana biz jinoyatchilikka qarshi kurashayapmiz, tartibga olayapmiz», degan fikrni tug'dirib, jamoatchilik fikrini chalg'itish, Gdlyan

kabilar uchun esa, o'zining kasbiy mahorati atrofida shov-shuv ko'tarish va xizmat pog'onasining yuqori bosqichiga qadam tashlash uchun kerak edi.

Shuning uchun ham, V.Ilyuxinning kitobida ko'rsatilganidek, Gdlyan va Ivanov kabi shaxslarni tergov protsessida yo'l qo'yan qonunbuzarliklari oddiy xatolar emas, protsessual banditizm», bosqinchilikdan iboratdir. Ammo o'tkazilgan islohotlar, ko'rilgan tadbirlar, qabul qilingan katta-kichik qonunlar ham, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozni boshdan kechirayotgan sobiq sovetlar davlatini saqlab qola olmadi. Ushbu o'zgarishlar boshqa ittifoqchi respublikalar qatori, O'zbekistonga ham joriy etilgan bo'lsa-da ular samara bermadi. Chunki, nurab borayotgan davlatni bu choralalar bilan olib qolish mumkin bo'lmay qoldi. Voqealarning hal qilish nuqtasi bo'lib 1991-yilning 17-24-avgustdagi voqealari bo'ldi.

Nazorat uchun savollar

1. Xorazm respublikasining jamiyat siyosiy-tuzilishi qanday edi?
2. XXSR Konstitutsiyasining qabul qilinishi va Konstitutsiyada siyosiy-ijtimoiy tuzum haqida nimalarni bilasiz?
3. Buxoro respublikasidagi murakkab siyosiy vaziyat nimalarda namoyon bo'lgan?
4. BXR Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning mazmun mohiyatini tushuntiring.
5. XXSR va BXR Konstitutsiyalaridagi farqlar.
6. XXSR va BXRning oliy va ijro etuvchi hokimiyat idoralarini qiyosiy tahlil eting.
7. 1927-yildagi O'zSSRning Konstitutsiyasining asosiy tamoyillari (prinsiplari) nimalardan iborat?
8. 1937-yilgi Konstitutsiya qabul qilingandan keyingi O'zbekiston qonunchiligida qanday o'zgarishlar ro'y berdi?

Adabiyotlar:

1. Конституция (основной закон) Узбекской Советской Социалистической Республики. Самарканд издание юридического издательства. SNK O'zSSR. 1927.
2. История государства и права Узбекистана в 3-х томах. Том. 1. Т.Фан. 1960-у.
3. История государства и права Узбекистана в 3-х томах. Том. 2-3. Т.Фан. 1963 г., 1968 г.

4. A'zamxo'jayev A.A. O'zSSRning tashkil topishi va rivojlanishi. T.O'zbekiston. 1960-y.
5. Конституционное развитие Узбекской ССР. Т., 1986 г.
6. Saidov A.X, J.Toshqulov O'zbekiston davlati va huquqi tarixi, T., IIV Akademik 1995-y.
7. R.Qayumov. O'zbekiston Konstitutsiyaviy huquqi T., Adolat., 1999-y.
8. O'zbekistonning yangi tarixi T., Sharx. 2000 y. 2-tom.
9. Z.Muqimov O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. Samarqand SamDU nashriyoti. 2004-y.
10. M.Hamidova. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi".O'quv qo'llanma. T. TDYUI. 2004.

MUNDARIJA

Muqqadima	3
O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi - tarixiy-huquqiy fan sifatida.....	5
Qadimgi Turon davlati va huquqining paydo bo‘lishi va rivojlanishi	11
Kushon davlati	15
«Avesto» -buyuk tarixiy huquqiy manba.....	23
O‘rta asrlarda Movarounnahr davlati va huquqi (XIII asrgacha).....	31
Somoniylar davlati va huquqi (874-999)	38
G‘aznaviylar davlati va huquqi	47
Saljuqiylar davlati va huquqi. (1040-1160)	49
Qoraxoniylar davlati va huquqi	53
Xorazmshohlar davlati va huquqi. (XI-XIII asrlar)	56
Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida Movarounnahr davlati va huquqi	63
Musulmon huquqi	67
Burhoniddin Marg‘inoniyning “Al-hidoya” asarida sud dalillari va sudlov haqida	84
Oila-nikoh munosabatlari.....	88
Temur va temuriylar saltanati davlati va huquqi	91
Temuriylar davlatining boshqaruv tizimi.....	94
“Temur Tuzuklari” – tarixiy huquqiy manba.....	101
Movarounnahr va Xuroson hududida shayboniylar dinastiyasi hukmronligi davrida davlat va huquq	109
Xonliklarning tashkil topishi.....	117
Yangi davrda O‘zbekiston hududida davlat va huquq	136
Chor Rossiyasi hukmronligi davrida Turkiston davlati va huquqi	136
Turkiston o‘lkasida bolsheviklar hokimiyatining o‘rnatilishi.....	150
O‘zbekistonning 1920–1980-yillardagi davlati va huquqi.....	159

Mahbuba XAMIDOVA

O‘ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI TARIXI

O‘quv qo‘llanma

Muharrirlar: **B.Suyunov, M.Bolliyeva.**

Texnik muharrir: **A.Boymamatov.**

Kompyuterda sahifalovchi: **A. Hudaybergenova.**

Bosishga ruxsat etildi: 15.09.2005.

hajmi: 11,3 b.t Adadi: 1000. Buyurtma: № 554

TDYUI kichik bosmaxonasida bosildi.

Toshkent shahar, Sayilgoh-35.

